- A) murtak bilan endosperma
- B) murtak bilan tuguncha
- C) tuguncha bilan urug'kurtak
- D) endosperma bilan meva

556. Qaysi o'simliklarning urug'ida moy ko'p bo'ladi?

- A) kungaboqar, loviya
- B) o'rik, shaftoli
- C) mosh, no'xat
- D) makkajo'xori, arpa

557. Urug'lar nafas olganda ...

- A) kislorod yutadi
- B) CO<sub>2</sub> yutadi
- C) O<sub>2</sub> va CO<sub>2</sub> yutadi
- D) O<sub>2</sub> ajratadi

558. Tog' yonbag'rida keng tarqalgan butani toping.

- A) sadaqayrag'och
- B) sarsazan
- C) teresken
- D) irg'ay

559. Yem-xashak o'simliklaridan silos bostirishda qaysi organizmlardan foydalaniladi?

- A) chirituvchi bakteriyalardan
- B) sirka kislotali bakteriyalardan
- C) sut kislotali bakteriyalardan
- D) mog'or va achitqi zamburug'laridan

560. Guli ko'rimsiz, lekin quyuq soya beruvchi salobatli daxtlarni belgilang.

- A) shamshod, yapon noki
- B) buldenej, gibiskus
- C) chinor, lipa, ko'kterak
- D) archa, budleya, sarv

561. «Duragay gibiskus»ning hayotiy shaklini toping.

- A) ko'p yillik o't
- B) buta
- C) chala buta
- D) bir yillik o't

562. Ildizpoyasi orqali ko'paytiriladigan manzarali o'simlikni belgilang.

- A) nargis
- B) gladiolus
- C) yalpiz
- D) xrizantema

**563.** Gul va barglarining jozi-badorligi bilan ajralib turuvchi manzarali daraxtlarni aniqlang.

- A) eman, chinor, kashtan
- B) ko'kterak, lipa, oqqayin
- C) magnoliya, lola daraxti, kashtan
- D) albitsiya, qarag'ay, chinor

**564.** To'g'ri gulli o'simlikni toping.

- A) parpi
- B) angishvona
- C) burchoq
- D) suvyig'ar

**565.** Rezavor mevali o'simliklarni ko'rsating.

- A) olma, nok
- B) qulupnay, ituzum
- C) olcha, gilos
- D) o'rik, nok

**566.** Bir uyli o'simliklarni ko'rsating.

- A) terak, tol
- B) sulii, terak
- C) makkajo'xori, archa
- D) makkajo'xori, itqovun

**567.** Gulning qaysi qismi uch qismdan iborat?

- A) changchi
- B) gulqo'rg'on
- C) urug'chi
- D) gulo'rin

**568.** To'pgulli o'simliklarni ko'rsating.

1) olma; 2) makkajo'xori; 3) yong'oq; 4) ko'knor; 5) g'o'za;

6) binafsha; 7) qoqio't; 8) zub-turum.

- A) 4, 5, 6
- B) 1, 2, 3, 7, 8
- C) 4, 6, 8
- D) 1, 5, 7

**569.** Qaysi o'simliklarda oziq moddalar endospermda to'p-lanadi?

- A) bug'doy, sulii, makkajo'xori
- B) loviya, yong'oq, bug'doy
- C) g'o'za, loviya, makkajo'xori
- D) bug'doy, makkajo'xori, yong'oq

**570.** Qaysi o'simliklar soxta meva hosil qiladi?

- A) zarang
- B) olcha
- C) o'rik
- D) olxo'ri

**571.** Qaysi o'simliklarning guli oddiy gulqo'rg'onli?

- A) chuchmoma, gulsapsar
- B) lola, yong'oq
- C) lola, olma
- D) gulsapsar, na'matak

**572.** Gulii bir jinsli va ikki uyli o'simlikni belgilang.

- A) o'rik
- B) gazanda
- C) behi
- D) gladiolus

**573.** Kuchala to'pgulii qaysi to'pgulga o'xshaydi?

- A) savatcha
- B) shingil
- C) qalqon
- D) boshog

**574.**  $Gk_0 Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_{(2)}$  gul formulasi qaysi o'simlikka xos?

- A) qora ituzum
- B) sachratqi
- C) olxo'ri
- D) kovrak

**575.** Qaysi to'pgul atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan?

- A) savatcha
- B) murakkab shingil
- C) kuchala
- D) soyabon

**576.** Bir jinsli (1) va ikki jinsli (2) gulga ega bo'lgan o'simliklarni belgilang.

a) tut; b) tol; c) Turkiston ismalog'i; d) na'matak; e) gladiolus; f) shirach.

- A) 1 – b, c, d; 2 – a, e, f
- B) 1 – d, e, f; 2 – a, b, c
- C) 1 – a, d, f; 2 – b, c, e
- D) 1 – a, b, c; 2 – d, e, f

**577.** Murakkab boshqoq (1) va murakkab shingil (2) to'pgullar qaysi o'simliklarga xos?

a) otquloq; b) ravoch; c) sholi; d) bug'doy; e) javdar; f) bug'doyiq; j) zubturum.

- A) 1 – a, b, c; 2 – d, e, f
- B) 1 – a, b, j; 2 – c, d, e
- C) 1 – d, e, f; 2 – a, b, c
- D) 1 – d, e, j; 2 – a, b, c

**578.** Yantoq o'simligi qanday usul bilan changlanadi?

- A) shamol yordamida
- B) o'z-o'zidan
- C) hasharotlar yordamida
- D) qushlar yordamida

**579.** Qaysi o'simlikning guli boshqa o'simlikning po'stlog'i orasiga kirib uning shirasi hisobiga yashaydi?

- A) raffleziya arnoldi
- B) volfiya
- C) drosera
- D) suv qaroqchisi

**580.** Qaysi manzarali daraxtlarning mevasi qanotchali?

- A) zarang, terak
- B) qayrag'och, burchoq
- C) shumtol, qayrag'och
- D) qayrag'och, zarang, terak

**581.** Qaysi o'simliklarning urug'i tarkibida zaharli modda va moy bo'ladi?

- A) shivit, o'rik
- B) achchiq bodom, shaftoli
- C) yeryong'oq, zira
- D) kungaboqar, shamshod

**582.** Qaysi o'simliklarning mevalari «qanotcha»lari yordamida tarqaladi?

1) ravoch; 2) jud; 3) baliqko'z; 4) qo'g'a; 5) tol; 6) terak.

- A) 3, 5, 6
- B) 1, 2, 4
- C) 1, 2, 3
- D) 4, 5, 6

**583.** Ro'vak to'pguli o'simliklarni belgilang.

- A) andiz, qashqarbeda
- B) sabzi, ukrop
- C) ravoch, kelinsupurgi
- D) sholi, bug'doy

**584.** To'pguli murakkab soyabon bo'lgan o'simliklarni belgilang.

- A) andiz, bo'tako'z
- B) kashnich, ukrop
- C) arpa, supurgi
- D) sholi, qo'ng'irbosh

**585.** Bir necha meva barglarning birikib o'sishidan hosil bo'lgan ko'p urug'li quruq mevali o'simlikni belgilang.

- A) suli, arpa
- B) astragal, oq jo'xori



- C) g'o'za, chuchmoma  
D) astragal, bug'doy
- 586.** Qaysi o'simliklarning gul-qo'rg'on bo'laklari qo'shilgan (1) yoki qo'shilmagan (2)?  
a) marmarak; b) angishvona-gul; c) boychechak; d) o'sma.  
A) 1 – a, d; 2 – b, c  
B) 1 – a, c; 2 – b, d  
C) 1 – a, b; 2 – c, d  
D) 1 – c, d; 2 – a, b
- 587.**  $Gk_5Gt_5Ch_5U_1$  gul formulasi xos o'simlikni belgilang.  
A) lola                      B) sachratqi  
C) achambiti              D) o'rik
- 588.** Makkajo'xorining so'tasida ... to'plangan.  
A) changchi gullari  
B) urug'chi gullari  
C) urug'chi va changchi gullari  
D) jinssiz gullar
- 589.** Kuchala to'pguli boshqodan nimasi bilan farqlanadi?  
A) asosiy gulpoyasining osilib turishi bilan  
B) ikki jinsli gullardan iboratligi bilan  
C) urug'chi gullaridan iboratligi bilan  
D) gullarning to'pgul o'qida uzun band bilan joylashganligi bilan
- 590.** Qo'sh urug'lanishdan keyin tuxum hujayradan (1), markaziy hujayradan (2), urug'kurtakchadan (3), urug'kurtakchanning po'stidan (4) nima rivojlanadi?  
a) murtak; b) endosperm; c) urug'; d) urug'ni o'rab turadi-

gan po'st; e) mevani o'rab turadigan po'st; f) meva.

- A) 1 – a, 2 – b, 3 – c, 4 – c  
B) 1 – a, 2 – b, 3 – c, 4 – d  
C) 1 – a, 2 – c, 3 – b, 4 – c  
D) 1 – b, 2 – f, 3 – a, 4 – e
- 591.** Qaysi o'simliklarning mevasi rezavor emas?  
A) qoraqat, ituzum  
B) ituzum, uzum  
C) zirako't, gilos  
D) ituzum, maymunjon
- 592.** Avtoxo'r qatoriga mansub bo'lmagan o'simliklarni belgilang.  
A) burchoq, o'qotar bodring  
B) xina, loviya  
C) yorongul, sebarga  
D) ituzum, arpa
- 593.** Loviya urug'ida oziq moddalar qanday holatda (shaklda) saqlanadi?  
A) erigan  
B) loviyada erigan, sulida qattiq donachalar holida  
C) qattiq donachalar holida  
D) oqsillari erigan, kraxmallari donachalar holida
- 594.** Qanday o'simliklar ikki uyli o'simliklar deb ataladi?  
A) bitta o'simlikda ham changchi, ham urug'chi gullari joylashgan bo'lsa  
B) bitta o'simlikda ikki jinsli gullari bo'lsa  
C) changchi guli boshqa o'simlikda, urug'chi guli boshqa o'simlikda bo'lsa  
D) shamol yordamida changlanadigan o'simliklar

**595.** Bug'doy o'simligi qanday to'pgul hosil qiladi?

- A) ro'vak to'pgul
- B) boshqoli to'pgul
- C) so'tali to'pgul
- D) shingil to'pgul

**596.** Urug'i oqsilga boy o'simlik vakillari qaysi oilaga mansub?

- A) karamdoshlar
- B) ra'nodoshlar
- C) loladoshlar
- D) burchoqdoshlar

**597.** Berilgan o'simliklarning vegetativ ko'payish usulini va unga mos keluvchi o'simlik turlarini juftlab belgilang.

1) totim; 2) qoraqat; 3) gladiolus; 4) g'umay.

a) piyoz; b) ildizpoya; c) ildizbachki; d) tugunak.

- A) 1 - b; 2 - a; 3 - d; 4 - c
- B) 1 - b, c; 2 - c; 3 - a; 4 - b
- C) 1 - b; 2 - d; 3 - c; 4 - a
- D) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d

**598.** Gullamaydigan yuksak o'simliklarni belgilang.

- A) qirqquloq, qirqbo'g'im
- B) mamont daraxti, plaun
- C) shuvoq, yo'sinlar
- D) funariya yo'sini, lavlagi

**599.** Qaysi qatordagi o'simliklar ra'nodoshlar oilasiga mansub?

- A) olcha, g'o'za, karam, na'matak, olma
- B) tobulg'i, kamxastak, olvoli
- C) o'rik, loviya, na'matak, do'lana

D) behi, yong'oq, na'matak, gilos

**600.** Qaysi belgilar ikki urug'-pallali o'simliklar uchun xos?

A) murtak 2 ta urug'pallali, popuk ildizli bo'lishi

B) murtak 1 ta urug'pallali, o'q ildizli bo'lishi

C) murtak 2 ta urug'pallali, o'q ildizli bo'lishi

D) murtak 2 ta urug'pallali, popuk va qo'shimcha ildizli bo'lishi

**601.** Qanday belgilar bug'doydoshlar oilasiga xos?

A) bir urug'pallali, popuk ildizli

B) bir urug'pallali, o'q ildizli

C) bir urug'pallali, asosiy ildizli

D) ikki urug'pallali, popuk ildizli, poyasi juda uzun

**602.** Burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklar guruhini belgilang.

A) burchoq, no'xat, turp, behi

B) burchoq, shaftoli, loviya, akatsiya

C) burchoq, no'xat, anor, qovun

D) burchoq, quyonsuyak, oq-quray

**603.** Bug'doydoshlar oilasiga mansub bo'lgan o'simliklar guruhini belgilang.

A) bug'doy, ajriq, sholi, oq-quray

B) javdar, tariq, chayir, qo'ng'irbosh

C) makkajo'xori, bug'doy, lif-tok, qizilmiya

D) kurmak, arpa, chitir, kam-xastak

**604.** Gultojbarglari yelkancha, eshkakcha, qayiqcha deb ataladigan o'simliklar guruhini belgilang.

- A) shirinmiya, soya, oqquray
- B) no'xat, yantoq, maymunjon
- C) yantoq, g'ozpanja, quyonsuyak
- D) bo'ritaroq, no'xat, mosh, loviya

**605.** Yo'talga qarshi qaysi o'simlikdan tayyorlangan dorilar ishlatiladi?

- A) dorivor gulxayri
- B) cherkez
- C) sachratqi
- D) qoqio't

**606.** Ajriq o'simligi qaysi oilaga kiradi?

- A) ra'nodoshlar
- B) karamdoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) boshoqdoshlar

**607.** Botanika fanining «oltin xazina»si nima?

- A) tabiiy o'simliklar
- B) yangi o'simlik navlari
- C) dorivor o'simliklar
- D) gerbariy

**608.** Ituzumdoshlar oilasiga mansub o'simliklarni belgilang.

1) chilim tamakisi; 2) shay-tonkosa; 3) oq akatsiya; 4) loviya; 5) pomidor; 6) donasho'r; 7) kanop; 8) bangidevona.

- A) 1, 3, 4, 6
- B) 1, 2, 5, 8
- C) 1, 2, 6, 8
- D) 2, 5, 7, 8

**609.** Takasoqolning mevasi mevaning qaysi turiga mansub?

- A) qo'zoq
- B) dukkak
- C) rezavor
- D) uchma

**610.** Kakra, karrak kabi o'simliklar qaysi oilaga mansub?

- A) karamguldoshlar
- B) dukkakdoshlar
- C) qoqidoshlar
- D) g'alladoshlar

**611.** Qaysi oila vakillari guli-ning formulasi  $Gk_0 Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_{(2)}$  bo'ladi?

- A) ituzumdoshlar
- B) tomatdoshlar
- C) karamdoshlar
- D) murakkabguldoshlar

**612.** Tikanli gledichiya qaysi oilaga mansub?

- A) karamdoshlar
- B) dukkakdoshlar
- C) qovoqdoshlar
- D) gulxayridoshlar

**613.** Olmurut qaysi oilaga mansub o'simlik?

- A) karamdoshlar
- B) ra'nodoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) dukkakdoshlar

**614.** Tamaki turkumi qaysi oilaga mansub?

- A) karamdoshlar
- B) ra'nodoshlar
- C) ituzumdoshlar
- D) burchoqdoshlar

**615.** Kanop o'simligi qaysi oilaga mansub?

- A) karamdoshlar
- B) ra'nodoshlar

C) gulxayridoshlar  
D) ituzumdoshlar  
**616.** Terakbargli liftok qaysi oilaga mansub?

- A) ziradoshlar  
B) ra'nodoshlar  
C) gulxayridoshlar  
D) tokdoshlar

**617.** O'zbekistonda o'simliklar sistemasi uchun qanday sistematik birliklar qabul qilingan, ularning ketma-ketligini belgilang.

A) tur, avlod, oila, turkum, bo'lim

B) tur, turkum, avlod, bo'lim, oila

C) tur, turkum, oila, sinf, bo'lim

D) tur, oila, avlod, turkum, bo'lim

**618.** Ko'p yillik o't o'simliklarni belgilang.

1) qorabargo't; 2) ajriq; 3) lavlagi; 4) machin; 5) kiyiko't; 6) arpa; 7) iloq; 8) sabzi.

A) 3, 4, 8      B) 2, 5, 7

C) 1, 5, 6      D) 1, 7, 8

**619.** Qaysi o'simlikning tikanlaridan gul va mevalar hosil bo'ladi?

A) saksovul      B) kaktus

C) yantoq      D) gledichiya

**620.** Quyidagilardan qaysi o'simlikning tikani poyaning po'stlog'idan hosil bo'lgan?

A) atirgul      B) kaktus

C) do'lana      D) gledichiya

**621.** To'pguli savatcha bo'lgan o'simlikni belgilang.

A) gulxayri

B) astragal

C) qo'qongul

D) qo'ng'irbosh

**622.** Guli asal-shiraga boy bo'lgan o'simliklar guruhini belgilang.

1) sebarga; 2) na'matak; 3) qurtana; 4) yantoq; 5) archa.

A) 1, 2      B) 2, 5

C) 1, 4      D) 3, 5

**623.** Qaysi o'simlikda limon va olma kislotalari bor?

A) pomidor      B) jag-jag'

C) ituzum      D) na'matak

**624.** To'pgulida naysimon yoki soxtatilsimon gulli o'simlikni ko'rsating.

A) kungaboqar      B) takasoqol

C) sachratqi      D) bug'doyiq

**625.** Kamxastakning mevasi qanday nomlanadi?

A) rezavor      B) danakli

C) ko'sak      D) qanotchali

**626.** Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklar guruhini ko'rsating.

A) teresken, oqquray, soya

B) donasho'r, burchoq, tarvuz

C) quyonjun, donasho'r, cho'g'on

D) izen, sebarga, teresken

**627.** Shaftolining mevasi gulning qaysi qismidan hosil bo'ladi?

A) to'pguldan

B) gulning hamma qismlaridan

C) gultoj va gulkosabarglardan

D) gulning faqat tugunchasidan

628. Gulining formulasi  $Gk_5 Gt_5 Ch_5 U_5$  bo'lgan o'simliklarni belgilang.

1) sachratqi; 2) nok; 3) olxo'ri; 4) na'matak.

A) 1, 2                      B) 2, 3

C) 3, 4                      D) 4

629. Gullari gulqo'rg'onsiz tuzilishga ega bo'lgan oilani belgilang.

A) tokdoshlar

B) bug'doydoshlar

C) qovoqdoshlar

D) loladoshlar

630. Gulida 10 ta changchisi bo'lgan o'simlikni belgilang.

A) sholi

B) oddiy lavlagi

C) sabzi    D) yantoq

631. Sho'radoshlar oilasiga mansub besh qanotli mevasi bo'lgan o'simlikni belgilang.

A) sabzi                      B) lavlagi

C) ismaloq                      D) saksovol

632. Qaysi oilaning ko'pchilik vakillari ildizida azot to'plovchi bakteriyalar bo'ladi?

A) karamdoshlar

B) burchoqdoshlar

C) ituzumdoshlar

D) sho'radoshlar

633. Ko'p yillik o't o'simliklar guruhi berilgan qatorni belgilang.

1) uchqat; 2) beda; 3) key-reuk; 4) kiyiko't; 5) teresken; 6) qamish.

A) 1, 3, 5                      B) 2, 4, 6

C) 2, 3, 5                      D) 2, 3, 6

634. O'simliklar sistematikasining ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan qatorni belgilang.

1) tur; 2) oila; 3) sinf; 4) turkum; 5) bo'lim; 6) o'simliklar olami.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6

B) 1, 4, 2, 3, 5, 6

C) 1, 3, 2, 6, 5, 4

D) 1, 5, 3, 2, 4, 6

635. Qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklar urug'chi gulining formulasini belgilang.

A)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(2)+(2)+1} U_0$

B)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_0$

C)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(0)} U_{(3)}$

D)  $Gk_{(5)} Gt_{2+2+1} Ch_{(0)} U_1$

636. Ochiq urug'li o'simliklar qancha yil ilgari va qaysi o'simliklardan kelib chiqqan?

A) 140 mln yil ilgari, ochiq urug'lilardan

B) 140 mln yil ilgari, sporali o'simliklardan

C) 140 mln yil ilgari, urug'li qirqquloqlardan

D) 200 mln yil ilgari, urug'li qirqquloqlardan

637. Gul formulasi  $Gk_{(5)} Gt_5 Ch_5 U_{(1-5)}$  bo'lgan o'simliklar qaysi oilaga mansubligini belgilang.

A) sho'radoshlar

B) ra'nodoshlar

C) loladoshlar

D) murakkabguldoshlar

**638.** Qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklar changchi gulining umumiy formulasi-ni belgilang.

A)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(2)+(2)+1} U_0$

B)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(2)+(2)+1} U_{(3)}$

C)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(0)} U_{(3)}$

D)  $Gk_{(0)} Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_{(2)}$

**639.** Yaylovlarda o'sadigan past bo'yi butalarni belgilang.

A) toron, sutlama, betaga

B) chetan, uchqat, irg'ay

C) kamxastak, qatrong'i, andiz

D) buyurg'un, shirinmiya, kav-rak

**640.** O'zbekiston «Qizil kitob»ining 1998-yildagi yangi nashriga nechta tur o'simlik kiritilgan?

A) 66 B) 163

C) 138 D) 301

**641.** Qaysi o'simlikning bargi va mevasidan olinadigan dori qon bosimini pasaytirish uchun ishlatiladi?

A) itsigak B) cherkez

C) donasho'r D) izen

**642.** Flora nima?

A) ma'lum hududda tarqalgan o'simliklar majmuasi

B) ma'lum hududdagi o'simlik va hayvonlar majmuasi

C) bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan o'simliklar

D) bir-biriga yaqin turkumlardan tashkil topgan o'simliklar

**643.** Oddiy lavlagi o'simligi-ning gul formulasini belgilang.

A)  $Og_{(5)} Ch_5 U_2$

B)  $Og_{(5)} Ch_5 U_5$

C)  $Og_{(5)} Ch_4 U_{(4)}$

D)  $Og_{(5)} Ch_5 U_{(3)}$

**644.** Qovoq mevali o'simliklar guruhi qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

A) qovoq, qoraqat, lavlagi

B) bodring, tarvuz, qovun

C) qovun, bodom, xurmo

D) tarvuz, malina, olma

**645.** Bug'doydoshlar oilasiga mansub o'simliklar guruhini belgilang.

A) andiz, xrizantema

B) saksovol, sholi

C) tariq, xarduma

D) bug'doy, bo'tako'z

**646.** Qaysi o'simlikning changchi iplari o'zaro qo'shilib urug'chini o'rab turadi va bittasi erkin joylashadi?

A) qoqio't

B) oshqovoq

C) yong'oq

D) yeryong'oq

**647.** Tak-tak o'simligi qaysi oilaga mansub?

A) karamdoshlar

B) ituzumdoshlar

C) boshhoqdoshlar

D) qoqidoshlar

**648.** Bargi va mevasidan dori tayyorlanadigan o'simlikni belgilang.

A) cherkez B) gulxayri

C) izen D) donasho'r

**649.** Quyida berilgan o'simliklardan qaysi birida bo'yoq borligi aniqlangan va u qaysi oilaga mansub?

- A) o'sma, karamdoshlar
- B) tugmachagul, gulxayri-doshlar
- C) sebarga, burchoqdoshlar
- D) yantoq, ituzumdoshlar

**650.** Qaysi o'simlikning ildizidan tayyorlangan damlama yo'talga qarshi ishlatiladi?

- A) andiz
- B) shuvoq
- C) jag'-jag'
- D) gulxayri

**651.** Ra'nodoshlar oilasiga mansub o'simliklarni belgilang.

1) na'matak; 2) tirnoqgul; 3) kamxastak; 4) lola; 5) olga sorbariya; 6) do'lana; 7) tok.

- A) 1, 4, 5
- B) 2, 3, 5
- C) 3, 5, 6
- D) 2, 5, 7

**652.** Quyida berilgan qaysi o'simlikning 26 turi mamlakatimizda uchraydi?

- A) shuvoq
- B) qoqi
- C) lola
- D) tugmachagul

**653.** Ildizsiz, butun tanasi bilan suvga botgan holda o'sishiga qaramay, to'pguli suvdan tashqariga chiqib turuvchi o'simlik qaysi?

- A) suv qaroqchisi
- B) nilufar
- C) zuhrosoch
- D) suv yong'og'i

**654.** Qaysi qatorda ra'nodoshlar oilasiga mansub o'simliklar berilgan?

- A) tobulg'i, olvoli
- B) qo'qongul, qarg'ako'z
- C) qo'ytikan, murut
- D) boshog'riqo't, tuxumak

**655.** Ko'p yillik o'tlar qaysi qatorda berilgan?

- A) iloq, lola
- B) qoqio't, karam
- C) momaqaymoq, qo'ytikan
- D) suvsunbul, sarsazan

**656.** Ildizi dori-darmon tayyorlashda foydalaniladigan o'simlik guruhlarini belgilang.

- A) marmarak, qoraqat
- B) beda, tariq
- C) gulxayri, sachratqi
- D) burchoq, qayrag'och

**657.** Yaylovlarda o'sadigan buta o'simliklar guruhi qaysi qatorda keltirilgan?

- A) betaga, qarag'ay
- B) uchqat, irg'ay
- C) toron, uchqat
- D) ermon, itqo'noq

**658.** Yozning jazirama kunlarida qaysi o'simlikda «yozgi tinim» davri boshlanadi?

- A) juzg'un
- B) shuvoq
- C) yantoq
- D) selin

**659.** Gilos o'simligi qaysi turkum va oilaga mansub?

- A) gilos, ra'nodoshlar
- B) nok, ra'nodoshlar
- C) na'matak, ra'nodoshlar
- D) olxo'ri, ra'nodoshlar

**660.** Qaysi o'simlik to'yimli oziqbop, guli asal-shiraga boy?

- A) yantoq
- B) shuvoq
- C) izen
- D) tol

661. Dastorgul qaysi oilaga mansub?

- A) qovoqdoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) sho'radoshlar
- D) qoqidoshlar

662. Nokning mevasini belgilang.

- A) chin
- B) soxta
- C) rezavor
- D) danakli

663. Qoqidoshlar oilasiga mansub turkumlar berilgan qatorni belgilang.

1) paxtatikan; 2) qo'ytikan; 3) xrizantema; 4) kakra; 5) oq jusan; 6) oq shuvoq.

- A) 1, 3, 6
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 5, 6

664. Barglari yondosh (parallel) tomirlangan o'simlikni belgilang.

- A) bug'doy
- B) ermon
- C) kamxastak
- D) sebarga

665. Cho'chqaquloq piyozidagi «piyoz» so'zi quyidagi qaysi sistematik birlikka tegishli?

- A) tur
- B) turkum
- C) avlod
- D) oila

666. O'tloq sebargasi bo'yi to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- A) 10 – 30 sm
- B) 10 – 40 sm
- C) 50 – 150 sm
- D) 25 – 50 sm

667. Urug'chisi bitta, tugunchasi 3 yoki ko'p uyali, mevasi yig'ma. Bu belgi qaysi oila uchun xos?

- A) ra'nodoshlar
- B) qoqidoshlar
- C) qovoqdoshlar
- D) gulxayridoshlar

668. Qaysi o'simlikning bir tupida ikki xil to'pgul bo'ladi?

- A) sholi
- B) kelinsupurgi
- C) makkajo'xori
- D) o'rik

669. Dunyoda qoqidoshlar oilasining necha turi tarqalgan?

- A) 12000
- B) 3000
- C) 10000
- D) 19000

670. Qaysi oila vakillari orasida ko'sak mevali o'simliklar uchraydi?

- A) karamdoshlar, ituzumdoshlar
- B) sho'radoshlar, qoqidoshlar
- C) gulxayridoshlar, ituzumdoshlar
- D) ziradoshlar, qoqidoshlar

671. Tamaki turkumi qaysi oilaga mansub?

- A) boshqoqdoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) burchoqdoshlar
- D) loladoshlar

672. Qo'zoq va dukkak mevalar qaysi oilalarga xos?

1) burchoqdoshlar; 2) loladoshlar; 3) qoqidoshlar; 4) karamdoshlar; 5) ituzumdoshlar.

- A) 1, 2
- B) 2, 3
- C) 3, 4
- D) 1, 4

673. Ra'nodoshlar oilasiga mansub qaysi o'simliklarda urug'chilar ko'p bo'ladi?



1) olma; 2) olxo'ri; 3) shaftoli;  
4) na'matak; 5) malina; 6) atir-  
gul.

- A) 1, 2, 3      B) 2, 3, 4  
C) 1, 3, 6      D) 4, 5, 6

**674.** Kanop o'simligi qaysi oilaga mansub?

- A) gulxayridoshlar  
B) ra'nodoshlar  
C) karamdoshlar  
D) sho'radoshlar

**675.** O'simliklar sistematika-sidagi eng kichik birlikni belgilang.

- A) tur              B) oila  
C) turkum        D) avlod

**676.** Oddiy jag'-jag' qachon gullaydi?

A) erta bahordan boshlab kech kuzgacha

B) erta bahordan boshlab yozning oxirigacha

C) fevraldan martning oxirigacha

D) martdan boshlab mayning oxirigacha

**677.** Gul formulasi  $Gk_4 Gt_4 Ch_{4+2} U_1$  bo'lgan o'simliklarni belgilang.

1) jag'-jag'; 2) ismaloq; 3) sholg'om; 4) turp; 5) karam; 6) sarsazan; 7) o'sma; 8) donisho'r; 9) tobulg'i.

- A) 1, 3, 4, 5, 7  
B) 1, 2, 4, 6, 8  
C) 1, 5, 6, 7, 9  
D) 1, 5, 6, 8, 9

**678.** Bo'ritaroq turkumi qaysi oilaga mansub?

- A) ituzumdoshlar  
B) gulxayridoshlar  
C) murakkabguldoshlar  
D) karamdoshlar

**679.** Bo'ritaroq turkumiga mansub o'simlik berilgan javobni belgilang.

- A) tugmachagul    B) kovrak  
C) karrak            D) kanop

**680.** Qaysi o'simlik tog'ning o'rta qismlarida iyundan, yuqori qismlarida esa iyuldan gullay boshlaydi?

- A) tobulg'i        B) kamxastak  
C) na'matak      D) nok

**681.** Qaysi oila vakillarining gul tojbarglari umumiy soni 5 ta, uch xil shakldagi tojbargdan hosil bo'lgan?

- A) tokdoshlar  
B) qovoqdoshlar  
C) gulxayridoshlar  
D) burchoqdoshlar

**682.** Quyidagi gul formulalari qaysi oilalarga xos?

1)  $Gk_{(5)} Gt_{1+2+(2)} Ch_{(9+1)} U_1$ ; 2)  $Gk_{(5)} Gt_5 Ch_{(1-5)} U_{(1-5)}$ ; 3)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_5 U_1$ ; 4)  $Gk_{4-5} T_{5+(5)} Ch_5 U_{(2-6)}$ .

a) uzumdoshlar; b) burchoqdoshlar; c) ra'nodoshlar; d) ituzumdoshlar.

- A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d  
B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c  
C) 1-b; 2-c; 3-d; 4-a  
D) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b

**683.** Qaysi o'simlikning guli toknikiga o'xshaydi, lekin kosa-chasi aniq ko'rinmaydi?

A) beshyaproqli partenotsis-  
sus

B) terakbargli liftok

C) qora mingdevona

D) oq shuvoq

**684.** Gullari ayrim jinsli o'sim-  
liklarni belgilang.

1) bodring; 2) qovun; 3) tar-  
vuz; 4) makkajo'xori; 5) sach-  
ratqi; 6) yasmiq; 7) achambiti;  
8) kamxastak; 9) sholi; 10) yas-  
miq.

A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5

C) 3, 4, 5, 6 D) 5, 6, 7, 10

**685.** Qaysi o'simliklarning  
bargi va poyasi yo'q, lekin guli  
bor?

A) raffleziya arnoldi

B) volfiya

C) rotang palmasi

D) sekvoyadendron

**686.** Qaysi madaniy o'sim-  
likning toj bargi uchi bilan bir-  
biriga qo'shilgan, changchi va  
urug'chilari qalpoqqa o'xshab  
qoplab turadi va guli ochilishi  
bilan to'kilib ketadi?

A) tobulg'i

B) achchiqmiya

C) liftok D) tok

**687.** Qoqidoshlar oilasiga  
mansub qaysi turkumning ya-  
gona turi O'zbekistonda o'sadi?

A) qo'ytikan B) sebarga

C) achambiti D) sachratqi

**688.** Dorivor o'simlik sifatida  
keng tarqalgan xona o'simlik-  
larini belgilang.

A) yorongul, kaktus

B) kolonxoe, aloe

C) begoniya, kaktus

D) oleandr, fikus

**689.** Magnoliyasimonlar sinfi-  
ning eng sodda vakilini belgi-  
lang.

A) gulsapsar B) cherkez

C) magnoliya D) ebalak

**690.** Gledichiya va yasmiq  
o'simliklarining oilasini belgi-  
lang.

A) burchoqdoshlar

B) ituzumdoshlar

C) sho'radoshlar

D) qoqidoshlar

**691.** Karamdoshlar oilasiga  
mansub o'simlikni belgilang.

A) sachratqi B) lavlagi

C) shuvoq D) o'sma

**692.** Yaxshi o'sgan jag'-jag'-  
ning har bir tupida qanchaga-  
cha urug' yetiladi?

A) 50 ta B) 70000 ta

C) 7000 ta D) 150 ta

**693.** Burchoqdoshlar oilasiga  
mansub manzarali o'simliklarni  
aniqlang.

A) tuxumak, gledichiya, oq  
akatsiya

B) yapon soforasi, baliqko'z,  
sallagul

C) tobulg'i, irg'ay, oq akatsiya

D) shoyi akatsiya, gledichiya,  
oq qayin

**694.** Piyozdoshlar oilasining  
gul formulasini belgilang.

A)  $Og_{3+3}Ch_{3+3}U_{(3)}$

B)  $Og_{(2)+2}Ch_{3'6}U_1$

C)  $Og_{(5)}Ch_{2.5}U_{2.5}$

D)  $Og_{3+3}Ch_{3+3}U_1$

**695.** Qovoqdoshlar oilasiga mansub begona o'simlikni toping.

- A) itqovun
- B) cho'gari
- C) qozonyuvg'ich
- D) aravakash

**696.** Afsonak qaysi oilaga kiradi?

- A) burchoqdoshlar
- B) sho'radoshlar
- C) qoqidoshlar
- D) gulxayridoshlar

**697.** Faqat manzarali butalarni belgilang.

1) yapon noki; 2) tobulg'i; 3) budleya; 4) gortenziya; 5) sallagul butasi; 6) atirgul; 7) nastarin; 8) shamshod; 9) qoraqat.

- A) 2, 6, 7, 9
- B) 2, 5, 6, 7, 8
- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
- D) 1, 2, 5, 6, 7, 9

**698.** Gledichiya o'simligi qaysi oilaga mansubligini belgilang.

- A) murakkabguldoshlar
- B) gulxayridoshlar
- C) burchoqdoshlar
- D) ra'nodoshlar

**699.** Bir urug' pallali o'simliklar qaysi o'simliklardan kelib chiqqan?

- A) yuksak sporalni o'simliklardan
- B) ochiq urug'li o'simliklardan
- C) ikki urug'pallalilardan
- D) qirqquloqsimonlardan

**700.** Quyidagi o'simliklar orasida manzarali butalar berilgan qatorni belgilang.

A) shamshod, gortenziya  
B) tekoma, kaprifoliya, tuya, shamshod

C) budleya, tekoma, gortenziya  
D) tuya, shamshod, lipa

**701.** Tekoma o'simligining hayotiy shaklini belgilang.

- A) buta
- B) bir yillik o't
- C) ikki yillik o't
- D) yarim buta

**702.** Mevasi dukkak bo'lgan o'simlikni ko'rsating.

- A) matur
- B) bo'ritaroq
- C) yeryongo'q
- D) qarq'atirnoq

**703.** Xarduma qaysi oilaga mansubligini belgilang.

- A) bug'doydoshlar
- B) loladoshlar
- C) piyozdoshlar
- D) suttikandoshlar

**704.** Guli ko'rimsiz, lekin quyuc soya beruvchi daraxtlarni belgilang.

A) zarang, lipa, chinor, eman  
B) magnoliya, zarang, kash-tan, eman

C) magnoliya, kashtan, shoyi akatsiya, yapon noki

D) magnoliya, zarang, kash-tan, farzitsiya

**705.** Gul va barglarining jozi-badorligi bilan ajralib turuvchi o'simliklarni belgilang.

A) yapon noki, gortenziya, magnoliya, lola daraxti

B) magnoliya, lola daraxti, kashtan, shoyi akatsiya

C) magnoliya, kashtan, lipa, shoyi akatsiya

D) Suriya gibiskusi, kashtan, kaprifolga, tekoma

706. Manzarali lianani belgilang.

A) giatsint      B) farzitsiya

C) kaprifol      D) lipa

707. Faqat yopiq urug'lilarga xos belgini toping.

A) hayoti davomida ildiz, poya va mevaga ega bo'ladi

B) hayoti davomida qubba hosil qilib, meva tugadi

C) hayoti davomida gullab meva tugadi

D) gametofit sporofit ustidan ustunlik qiladi

708. Ra'nodoshlar oilasining qaysi vakillari O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan?

A) astragal, oksitrops, Oloy hiyoli

B) Oloy hiyoli, kamxastak

C) O'rta Osiyo noki, olga sorbariyasi

D) tobulg'i, olga sorbariyasi

709. Nima sababdan yovvoyi olma, nok, olcha o'simliklaridan yangi navlar yaratishda keng foydalaniladi?

A) qurg'oqchilik, sovuq va zararkunandalarga chidamliligi tufayli

B) shamol orqali changlanganligi tufayli

C) hasharotlar yordamida changlanganligi tufayli

D) issiqlik va namlikka chidamliligi tufayli

710. Qaysi oilalarga «yong'oqcha» meva xos?

A) ziradoshlar, sho'radoshlar  
B) ituzumdoshlar, sho'radoshlar

C) ra'nodoshlar, sho'radoshlar  
D) sho'radoshlar, gulxayridoshlar

711. Qaysi o'simlikning bargi va mevasidan tayyorlangan dori qon bosimini pasaytirish uchun ishlatiladi?

A) cherkez      B) tamaki

C) tugmachagul

D) jag'-jag'

712. Dorivor —gulxayrining qaysi qismidan tayyorlangan damlama yo'talga qarshi ishlatiladi?

A) ildizidan

B) bargidan

C) gul va mevasidan

D) gullayotgan poyasidan

713. Cherkez o'simligining qaysi qismlaridan tayyorlangan dori qon bosimini pasaytirish uchun ishlatiladi?

A) ildiz va poyasi

B) bargi va mevasi

C) ildiz, poya va guli

D) gullayotgan poyasidan

714. Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik, ikki uyli begona o'tni belgilang.

A) izen      B) teresken

C) lavlagi

D) Turkiston ismalog'i

**715.** Bo'ritaroq turkumi qaysi oila va sinfga mansub?

A) gulxayridoshlar oilasi, magnoliyasimonlar sinfi

B) burchoqdoshlar oilasi, magnoliyasimonlar sinfi

C) gulxayridoshlar oilasi, lolasimonlar sinfi

D) ituzumdoshlar oilasi, magnoliyasimonlar sinfi

**716.** Qaysi daraxtlar havo-ga fitonsidlar ajratib kasallik tug'diruvchi bakteriyalarni kuchsizlantirishi belgilangan?

A) gledichiya, terak

B) archa, singirtak

C) yong'och, irg'ay

D) irg'ay, singirtak

**717.** Insoniyat noto'g'ri foydalanishi tufayli qaysi to'qay o'simliklarining maydoni qisqarib bormoqda?

A) terak, tol

B) yulg'un, iloch

C) jiyda, yantoq

D) shirinmiya, qamish

**718.** Qaysi o'simliklar uchma meva hosil qiladi?

1) ravoch; 2) jud; 3) baliqko'z; 4) qo'g'a; 5) tol; 6) terak.

A) 3, 5, 6      B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 3      D) 4, 5, 6

**719.** Murakkabguldoshlarga mansub dorivor o'simliklarni belgilang.

A) dastorgul, bo'znoch

B) sachratqi, ermon shuvog'i

C) qora jusan, tirnoqgul

D) sachratqi, qo'qongul

**720.** Piyozli o'simliklarni belgilang.

A) floks, sallagul, budleya

B) xrizantema, nizomgul, chinnigul

C) budleya, buldenej, nargis

D) gladiolus, giatsint, nargis

**721.** Chala butalar keltirilgan qatorni ko'rsating.

A) sarsazan, izen, teresken

B) arpa, kungaboqar, zig'ir

C) qoqi, andiz, shashir

D) sabzi, piyoz, lavlagi

**722.** Ko'p yillik o'tlar keltirilgan qatorni ko'rsating.

A) shuvoq, izen, teresken

B) arpa, kungaboqar, zig'ir

C) qoqio't, andiz, shashir

D) sabzi, piyoz, karam

**723.** Berilgan turkumlarning qaysi biri sho'radoshlar oilasiga mansub emas?

A) teresken, ebalak

B) soya, boqila

C) donasho'r, quyonjun

D) izen, cho'g'on

**724.** Qaysi oila vakillarining ko'pchilik turlarida barglari il-diz bo'g'zida to'pbarg hosil qilib, poyasida barglari o'troq bo'ladi?

A) sho'radoshlar

B) karamdoshlar

C) bug'doydoshlar

D) ituzumdoshlar

**725.** Yig'ma mevali o'simlikni toping.

A) mingdevona

B) tugmachagul

C) kanop      D) qoqio't

**726.** Daryo va ko'llar sohilidagi to'qaylarda o'sadigan o'simlikni belgilang.

- A) dorivor qoqio't
- B) na'matak
- C) dorivor shuvoq
- D) dorivor gulxayri

**727.** Poyasi sershox, yer bag'irlab o'sadigan, barglari deyarli yumaloq, gullari barg qo'l-tig'ida o'rmashgan dorivor o'simlikni ko'rsating.

- A) dorivor gulxayri
- B) sachratqi
- C) tugmachagul
- D) cherkez

**728.** Qaysi turkumga oid o'simliklar kuzda tuya va qorako'l qo'ylar uchun ozuqa bo'ladi?

- A) ebalak, baliqko'z, sho'rak
- B) teresken, sag'an, cherkez
- C) quyonjun, donasho'r, sachratqi

D) shuvoq, olabuta, gulxayri

**729.** Vatani Shimoliy Amerika bo'lgan o'simlikni aniqlang.

- A) beshyaproqli partenotsissus
- B) baobab daraxti
- C) rotang palmasi
- D) ajdar daraxti

**730.** Chorvachilikda katta ahamiyatga ega bo'lgan yemxashak o'simligini belgilang.

- A) tuya
- B) qarg'ako'z
- C) qo'ng'irbosh
- D) xolmon

**731.** Tokdoshlar oilasi vakillarida jingalaklar qaysi organning o'zgarishi hisoblanadi?

- A) barg
- B) ildiz
- C) gul
- D) novda

**732.**  $Gk_{4-5} Gt_{5(5)} Ch_5 U_{(2-6)}$  gul formulasi qaysi o'simlik oilasiga mansub?

- A) tokdoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) sho'radoshlar

**733.**  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_5 U_1$  gul formulasi qaysi o'simlik oilasiga mansub?

- A) tokdoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) sho'radoshlar

**734.**  $Gk_{(3)+(3)} Gt_5 Ch_5 U_{(∞)}$  gul formulasi qaysi o'simlik oilasiga mansub?

- A) tokdoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) sho'radoshlar

**735.**  $Og_{0.5} Ch_{2.5} U_{(2-5)}$  gul formulasi qaysi o'simlik oilasiga mansub?

- A) tokdoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) sho'radoshlar

**736.** Tobulg'i, kamxastak turkumlari qaysi oilaga kiradi?

- A) ra'nodoshlar
- B) burchoqdoshlar
- C) ituzumdoshlar
- D) sho'radoshlar

**737.** Quyonjun, ebalak turkumlari qaysi oilaga mansub?

- A) ra'nodoshlar
- B) sho'radoshlar
- C) burchoqdoshlar
- D) ituzumdoshlar

**738.** Qaysi oilaga mansub o'simliklarda gullarining hammasi qiyshiq simmetriyali hisoblanadi?

- A) karamdoshlar
- B) burchoqdoshlar
- C) ituzumdoshlar
- D) soyabondoshlar

**739.** Qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning urug'chi gulining formulasini belgilang.

- A)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(0)} U_{(3)}$
- B)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(2)+(2)+1} U_{(0)}$
- C)  $Gk_5 Gt_5 Ch_5 U_1$
- D)  $Gk_{(3)+(5)} Gt_5 Ch_{(∞)} U_{(∞)}$

**740.** Qaysi o'simliklarning changchilari 5 ta bo'lib, ular-  
dan 4 tasi 2 tadan juft bo'lib  
qo'shilgan, 1 tasi erkin joyla-  
shadi?

- A) bodring, burchoq
- B) searga, loviya
- C) qovun, itqovun
- D) zira, jag'-jag'

**741.** Qaysi oila vakillari, aso-  
san, bir va ko'p yillik o'tlar bo'-  
lib, ularning buta, liana va da-  
raxtlari faqat tropik mintaqa-  
larda o'sadi?

- A) murakkabguldoshlar
- B) karamdoshlar
- C) qovoqdoshlar
- D) sho'radoshlar

**742.** Sachratqining savatcha  
to'pgulida qanday gullar joyla-  
shadi?

- A) ikki jinsli, tilsimon
- B) bir jinsli, tilsimon
- C) jinssiz, naysimon
- D) ikki jinsli, naysimon

**743.** Suttikandoshlar oilacha-  
siga mansub o'simliklarni belgi-  
lang.

- A) takasoqol, kakra, karrak
- B) karrak, maxsar, shuvoq
- C) yovshan shuvog'i, qora ju-  
san, bo'znoch
- D) shuvoq, qora jusan, kovrak

**744.** Moychechakdoshlar oila-  
chasiga mansub o'simliklarni  
belgilang.

- A) takasoqol, kakra, karrak
- B) karrak, maxsar, shuvoq
- C) yovshan shuvog'i, qora ju-  
san, bo'znoch
- D) shuvoq, qora jusan, kakra

**745.** Iste'mol qilinadigan, tabii-  
iy holda o'sadigan piyoz turlari-  
ni belgilang.

- a) Pskom piyozi; b) Oshanin;
- c) qum piyozi; d) Suvorov; e)
- norpiyoz; f) qo'shbarq piyoz.
- A) d, e, f      B) a, b, c
- C) a, d, f      D) b, c, e

**746.** Piyozning xushmanzara  
turlarini belgilang.

- a) Pskom piyozi; b) Oshanin;
- c) qum piyozi; d) Suvorov; e)
- norpiyoz; f) qo'shbarq piyoz.
- A) d, e, f      B) a, b, c
- C) a, d, f      D) b, c, e

747. Jo'xori turkumiga oid o'simlikni belgilang.

- A) xarduma B) ajriq  
C) qo'ng'irbosh D) g'umay

748. O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»i nechanchi yili ta'sis etilgan?

- A) 1983 B) 1998  
C) 1979 D) 1984

749. O'zbekiston Respublikasi markaziy gerbariysida nechta o'simliklar turi saqlanadi?

- A) 1 mln B) 4111  
C) 4230 D) 10 ming

750. Itsigak qaysi o'simliklar oilasiga mansub?

- A) sho'radoshlar  
B) burchoqdoshlar  
C) ituzumdoshlar

D) gulxayridoshlar

751. Gulxayridoshlar oilasiga mansub bo'lgan o'simliklar guruhini belgilang.

A) gulxayri, kanop, bodom  
B) gulxayri, g'o'za, makkajo'xori

- C) o'rik, kungaboqar, kanop  
D) bo'ritaroq, kanop, g'o'za

752. Qaysi o'simlik «yozgi tinim» davriga kiradi?

- A) sebarga B) shuvoq  
C) qoqio't D) sachratqi

753. Qaysi oila vakillarida changchilar soni 5 ta bo'ladi?

- A) karamdoshlar  
B) gulxayridoshlar  
C) qovoqdoshlar  
D) boshoqdoshlar

754. Qoqidoshlar oilasiga mansub o'simliklar guruhini belgilang.

- A) kungaboqar, makkajo'xori  
B) yernok, yeryong'oq  
C) bo'tako'z, kakra  
D) xrizantema, gledichiya

755. Qovoqdoshlar oilasiga kiradigan o'simliklar gulida changchilar soni nechta bo'ladi?

- A) 2 ta B) 3 ta  
C) 4 ta D) 5 ta

756. Yasmiqning gul formula-si qanday tuzilishga ega?

- A)  $Gk_4 Gt_4 Ch_{4+2} U_1$   
B)  $Gk_{(5)} Gt_{1+2+(2)} Ch_{(9)+1} U_{(1)}$   
C)  $Gk_{(5)} Gk_{(5)} Ch_{(5)} U_{(2-6)}$   
D)  $Gk_6 Gt_5 Ch_{\infty} U_{\infty}$

757. Ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklar guruhini belgilang.

A) kartoshka, tamaki, bangidevona

- B) ituzum, kartoshka, g'umay  
C) pomidor, sabzi, yantoq  
D) ituzum, pomidor, piyoz

758. Quyida berilgan o'simliklardan qaysi birining mevasi rezavor hisoblanadi?

1) olma; 2) uzum; 3) pomidor; 4) kartoshka; 5) karam; 6) surepka; 7) g'ozpanja; 8) qoraqat.

- A) 1, 2, 6, 7 B) 2, 3, 6, 8  
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 8

759. Oddiy jag'-jag' o'simligining to'pguli qanday ataladi?

- A) ro'vak



B) oddiy soyabon

C) qalqonsimon

D) oddiy shingil

**760.** Quyidagi o'simliklarning qaysi biri sho'radoshlar oilasiga mansub?

A) na'matak B) g'o'za

C) oq akatsiya D) ebalak

**761.** Qon bosimiga qarshi qaysi o'simlikdan foydalaniladi?

A) shuvoq B) cherkez

C) shirach D) donasho'r

**762.** Lolaning gul formulasini belgilang.

A)  $Og_{3+3} Ch_{3+3} U_{(3)}$

B)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(10)} U_{(3)}$

C)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_0$

D)  $Gk_0 Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_1$

**763.** Quyida berilgan o'simliklardan qaysi birining bir tupi 1 m<sup>2</sup> gacha chim hosil qiladi?

A) iloq

B) qo'ng'irbosh

C) piyoz D) selin

**764.** Gul formulasi  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_5 U_1$  bo'lgan o'simliklarni belgilang.

1) ituzum; 2) liftok; 3) kartoshka; 4) g'ozpanja; 5) qoraqobiq; 6) baqlajon; 7) na'matak.

A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 5

C) 1, 3, 6 D) 1, 6, 7

**765.** Gul formulasi  $Gk_{(5)} Gt_{1+2+(2)} Ch_{(9)+1} U_1$  bo'lgan o'simliklarni belgilang.

1) qashqarbeda; 2) kartoshka; 3) shirinmiya; 4) boqila; 5) yeryong'oq; 6) olma; 7) irg'ay.

A) 1, 2, 7

B) 2, 3, 4

C) 2, 7, 6

D) 1, 3, 4

**766.** Burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning gullariga xos belgilarni aniqlang.

A) guli bitta simmetriya o'qi bo'yicha teng ikkiga bo'linadi

B) gul yuzasidan bitta ham simmetrik chizig'i o'tkazib bo'lmaydi

C) gul yuzasidan bir nechta simmetrik chizig'i o'tkazish mumkin

D) gullari tilsimon yoki naysimon

**767.** Hujayrasida zaharli moddalar hosil bo'ladigan o'simliklar guruhi qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

A) isiriq, yantoq

B) uchma, mastak

C) mingdevona, yantoq

D) shirinmiya, sachratqi

**768.** Qoqidoshlar gulining umumiy formulasini belgilang.

A)  $Gk_5 Gt_5 Ch_5 U_1$

B)  $Gk_5 Gt_5 Ch_5 U_1$

C)  $Gk_{0,(5)} Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_1$

D)  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(5)} U_{(0)}$

**769.** Tokdoshlar oilasi gulining umumiy formulasini belgilang.

A)  $Gk_{(5)} Gt_{1+2+2} Ch_{(9)+1} U_1$

B)  $Gk_{4-5} Gt_{5+(5)} Ch_5 U_{(2-6)}$

C)  $Gk_5 Gt_5 Ch_{(\infty)} U_1$

D)  $Gk_{(5) \cdot (2-9)} Gt_5 Ch_{(\infty)} U_{(\infty)}$

**770.** Yaylovlarda yostiq hosil qilib o'sadigan o'simliklarni belgilang.

A) qiziltikan, saksovul

B) betaga, sanchiqo't

C) oqquray, isfarak

D) qiziltikan, zirako't

**771.** Qaysi o'simlikdan tayyorlangan dori qon ketishini to'xtatishda foydalaniladi?

A) jag'-jag'

B) cherkez

C) burchoq

D) gulibaxmal

**772.** O'zbekistonning «Qizil kitob»iga kiritilgan o'simlikni belgilang.

A) sallagul B) na'matak

C) yeryongo'q D) sachratqi

**773.** Yopiq urug'li o'simliklarning yer yuzida boshqa o'simlik guruhlariga nisbatan hukmron bo'lishi sabablari qaysilar?

1) urug' bilan ko'payishi; 2)ildizlarining yaxshi rivojlanganligi; 3)shamol yordamida changlanishi; 4)urug'larining odamlar yordamida tarqatilishi; 5)turli yo'llar bilan changlanishi; 6)qo'sh urug'lanish; 7)urug'ning meva ichida yopiq joyda bo'lishi.

A) 1, 2, 3 B) 3, 4, 5

C) 5, 6, 7 D) 2, 3, 4

**774.** Tabiatda kamayib ketgan dorivor o'simlikni belgilang.

A) lola

B) anzur piyoz

C) sanchiqo't

D) parpi

**775.** Jaydari g'o'za uchun xos bo'lgan belgilarni ko'rsating.

A) ko'saklari mayda, deyarli ochilmaydi

B) ko'saklari yirik, tolasi mayin

C) ko'saklari yirik, tolasi uzun

D) ko'saklari mayda, yaxshi ochiladi

**776.** O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan o'simliklar guruhini belgilang.

1) lola; 2) burchoq; 3) shirach; 4) gulxayri; 5) sallagul; 6) iloq.

A) 2, 4, 6 B) 2, 3, 5

C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 4

**777.** To'qaylarda o'sadigan o'simliklar guruhini belgilang.

A) sarsazan, shuvoq, oqboyalich

B) oqboyalich, qoraboyalich, ajriq

C) yulg'un, tol, jiyda, qamish

D) oqquray, ermon, bo'yimodaron

**778.** Turkiston ismalog'iga xos belgini ko'rsating.

A) ko'p yillik, bir uyli, manzarali

B) bir yillik, ikki uyli, begona o't

C) bir yillik, bir uyli, ayrim jinsli

D) ko'p yillik, chala butasimon o'simlik

**779.** Botanika institutida shoradoshlar oilasiga mansub qaysi o'simliklarni madaniy va yem-xashak o'simliklari qatoriga kiritish ustida ilmiy tekshirish ishlari olib borilmoqda?

1) teresken; 2) itsigak; 3) izen; 4) cho'g'on; 5) baliqko'z; 6)

donasho'r; 7) keyreuk; 8) saksovol.

- A) 1, 2, 3      B) 2, 3, 5  
C) 3, 4, 7      D) 4, 5, 8

**780.** Loladoshlarga mansub o'simliklarning belgilarini ko'rsating.

A) gulqo'rg'oni oddiy, ko'rimsiz

B) gullari xushbo'y, chiroyli

C) gullari alohida-alohida, gulkosachasimon

D) gulqo'rg'oni oddiy, tojbarsimon

**781.** Gullari yirik, tojbargi limon rangli, ko'saklari 3 – 4 chanoqli, yaxshi ochiladi. Tolasi uzun, ipakka o'xshash. Bu belgilar O'zbekistonda ekiladigan qaysi g'o'za turiga xos?

A) jaydari g'o'za

B) Meksika g'o'zasi

C) Barbados g'o'zasi

D) oddiy g'o'za

**782.** Bir yillik ikki uyli o't o'simlikni belgilang.

A) rezavor ismaloq

B) Turkiston ismaloqi

C) ebalak

D) baliqko'z

**783.** Tolali kanopning gul formulasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A)  $Og_{0,5} Ch_5 U_{(2-5)}$

B)  $Gk_5 Gt_5 Ch_0 U_{(5)}$

C)  $Gk_{(3)+(5)} Gt_5 Ch_{(5)} U_{(=)}$

D)  $Gk_{(5)} Gt_{1+(2)+(2)} Ch_{(9)+1} U_1$

**784.** O'zbekistonda jo'xori turkumiga oid nechta tur o'simlik o'sadi?

- A) 1      B) 5  
C) 4      D) 7

**785.** Tubida piyozchasi bo'lgan o'simliklarni belgilang.

1) gladiolus; 2) lola; 3) nargis; 4) betaga; 5) qorabargo't; 6) giatsint; 7) ko'knor; 8) amarillis.

A) 2, 4, 5, 7      B) 2, 3, 5, 7

C) 2, 3, 4, 8      D) 1, 3, 6, 8

**786.** Ko'p yillik o't o'simliklar berilgan qatorni belgilang.

A) bodom, uchqat

B) izen, keyreuk

C) sallagul, andiz

D) piyoz, sabzi

**787.** Qaysi oila o'simliklarining poyasi ko'pincha silindrsimon mayin tuklar bilan qoplangan bo'ladi?

A) sho'radoshlar

B) gulxayridoshlar

C) loladoshlar

D) qovoqdoshlar

**788.** Rezavor mevali, yotib o'suvchi butani belgilang.

A) madaniy tok

B) oshqovoq

C) terakbarqli liftok

D) beshyaproqli partenotsissus

**789.** Yovvoyi dorivor o'simliklarini belgilang.

A) yantoq, sebarga, shuvoq

B) yalpiz, ravoch, isiriq, izen

C) sebarga, kiyiko't, sug'uro't

D) qoraqobiq, chakanda, zubturum

**790.** Butalar qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

- A) izen, qoraqat, siren  
 B) bodomcha, zirk, uchqat  
 C) teresken, bodom, bodomcha

D) shuvoq, teresken, keyreuk

**791.** To'pgulidagi hamma gullar zangori rangli, ikki jinsli, tilsimon bo'lgan o'simlik...

- A) kamxastak  
 B) Turkiston ismalog'i  
 C) sag'an  
 D) sachratqi

**792.** Gullari mayda, to'g'ri, ikki jinsli yoki bir jinsli, murakkab changchilari 5 ta, urug'chisi 2 ta, meva bargchani qo'shishidan hosil bo'lgan tuguncha 2 uyali. Bu belgilar qaysi oilaga tegishli?

- A) ituzumdoshlar  
 B) tokdoshlar  
 C) qovoqdoshlar  
 D) qoqidoshlar

**793.** Changchi gulining formulasi  $Gk_{(5)} Gt_{(5)} Ch_{(2)+(2)+1} U_0$  bo'lgan o'simlikni belgilang.

- A) rezavor ismaloq  
 B) oshqovoq  
 C) Turkiston ismalog'i  
 D) lavlagi

**794.** Respublikamiz xalqi qadimda va urush vaqtlarida qaysi o'simlik shakaridan foydalanagan?

- A) oqquray  
 B) o'tloq se bargasi  
 C) shirinmiya D) yantoq

**795.** Quyida berilgan o'simliklar qaysi oilaga mansub?

1) cho'g'on; 2) bo'tako'z; 3) kamxastak; 4) quyonsuyak; 5) tolali kanop.

a) gulxayridoshlar; b) burchoqdoshlar; c) qoqidoshlar; d) ra'nodoshlar; e) sho'radoshlar.

- A) 1-e, 2-d, 3-a, 4-b, 5-c  
 B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c, 5-e  
 C) 1-a, 2-d, 3-c, 4-e, 5-b  
 D) 1-e, 2-c, 3-d, 4-b, 5-a

**796.** O'zbekiston yaylovlarida o'sadigan o'simlikni belgilang.

- A) sug'uro't B) tok  
 C) marmarak D) na'matak

**797.** Quyida berilganlardan qaysi biri ko'p yillik o't o'simlik?

- A) izen B) uchqat  
 C) shashir D) oq gulxayri

**798.** Qaysi o'simlik iyulgacha yaxshi o'sadi, so'ng o'sishdan deyarli to'xtaydi?

A) terakbargli liftok  
 B) besh yaproqli partenotsissus

- C) lolaqizg'aldoq  
 D) saksovul

**799.** Quyida berilgan qaysi o'simliklarning urug'ida zaharli moddalar bo'ladi?

- A) zira, shivit  
 B) kanop, kampirchopon  
 C) shaftoli, achchiq bodom  
 D) kashnich, kartoshka

**800.** Qaysi o'simlikning quritilgan bargi, guli va urug'i xalq tabobatida ishlatiladi?

- A) tugmachagul  
 B) qoqio't  
 C) sachratqi

D) jag'-jag'

**801.** Quyida berilgan o'simliklardan qaysi birining tikani epidermisning o'zgarishidan hosil bo'lgan?

- A) kaktus
- B) maymunjon
- C) yantoq
- D) zirk

**802.** Gul formulasi  $Gk_{(5)}Gt_{1+2+(2)}Ch_{(9)+1}U_1$  bo'lgan o'simliklarni belgilang.

1) quyonsuyak; 2) qovoq; 3) olmurut; 4) achchiqmiya; 5) kamxastak; 6) tuxumak.

- A) 1, 3, 5
- B) 1, 5, 6
- C) 1, 2, 4
- D) 1, 4, 6

**803.** Ko'chma qumlarni mustahkamlashda keng qo'llaniladigan daraxtni belgilang.

- A) cherkez
- B) saksovul
- C) juzg'un
- D) itsigak

**804.** Oddiy jag'-jag' o'simligiga xos xususiyatlar berilgan qatorni ko'rsating.

1) bir yillik; 2) ko'p yillik; 3) poyasi dag'al tuklar bilan qoplangan; 4) barglari murakkab va oddiy panjasimon bo'lingan; 5) barglari oddiy patsimon bo'lingan; 6) tarkibida S, K vitaminlar, olma, limon kislotalari bor; 7) tarkibida A vitamini bor; 8) to'pbarglari ovqatga ishlatiladi; 9) mevasi qo'zoq.

- A) 2, 3, 4, 7, 9
- B) 1, 3, 5, 6, 8
- C) 1, 3, 4, 7, 8
- D) 2, 5, 7, 8, 9

**805.** Tugmachagul o'simligining o'ziga xos belgilarini ko'rsating.

1) tik o'sadi; 2) yer bag'irlab o'sadi; 3) bir yillik begona o't; 4) gullari barg qo'ltig'ida o'rnashgan; 5) gullari poyaning uchida joylashgan; 6) mevasi to'pmeva; 7) mevasi ko'sakcha.

- A) 1, 3, 4, 7
- B) 2, 5, 6, 8
- C) 2, 3, 4, 6
- D) 1, 4, 6, 8

**806.** Quyidagi o'simliklardan qaysi biri hasharotlar bilan oziqlanadi?

- A) volfiya
- B) quvacha
- C) rafleziya
- D) qimizak

**807.** Quyida berilgan o'simliklar qaysi oilaga mansub va gulidagi changchilarning soni nechta ekanligini toping.

I) xolmon; II) oq jusan; III) tuxumak; IV) do'lana.

1) qoqidoshlar; 2) loladoshlar; 3) ra'nodoshlar; 4) burchoqdoshlar.

- a) 5; b) 6; c) 10; d) cheksiz.
- A) I-3-c, III-3-a, II-a-d, IV-2-b
- B) I-2-b, II-1-a, III-4-c, IV-3-d
- C) I-2-d, IV-2-a, III-4-b, IV-2-c
- D) I-2-a, II-1-c, III-3-d, IV-4-b

**808.** O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti qoshidagi gerbariyda qancha gerbariy saqlanadi?

- A) 1 mln dan ortiq
- B) 100 mingta
- C) 500 mingta
- D) 10 mingta

**809.** Quyidagi o'simliklardan qaysi birining gulida 9 ta iplari qo'shilgan va 1 ta alohida joylashgan changchini ko'rish mumkin?

- A) sebarga      B) ituzum  
C) qoqio't      D) qovoq

**810.** O't o'simliklarga xos belgilarni aniqlang.

1) poyasi qo'ng'ir; 2) poyasi yashil; 3) poyasining yerusti qismi yog'ochlangan; 4) poyasining yerusti qismi yog'ochlanmagan; 5) gullab meva tukandan keyin yerusti qismi quriydi.

- A) 1, 3, 5      B) 2, 3, 5  
C) 1, 4, 5      D) 2, 4, 5

**811.** Qovoqdoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarning gullari qanday bo'ladi?

1) to'g'ri gul; 2) qiyshiq; 3) bir jinsli; 4) ikki jinsli; 5) gulqo'rg'oni oddiy; 6) gulqo'rg'oni murakkab; 7) kosacha, toj barglari 5 tadan, qo'shilib o'sgan; 8) kosacha, toj barglari 5 tadan, qo'shilib o'smagan; 9) changchilari 5 tadan, 4 tasi 2 tadan juft bo'lib qo'shilgan, 1 tasi erkin, urug'chisi 3 ta, qo'shilib o'sgan.

- A) 1, 3, 6, 7, 9  
B) 2, 4, 5, 8, 9  
C) 1, 4, 5, 7, 9  
D) 1, 3, 6, 7, 9

**812.** O'zbekistonning birinchi «Qizil kitob»i qachon chop etilgan, u yo'qolib ketayotgan qan-

cha tur o'simlikni o'z ichiga olgan va qayta ishlangan yangi nashriga qancha o'simlik turi kiritilgan?

- A) 1994-yil, 163, 301 tur  
B) 1991-yil, 180, 200 tur  
C) 1983-yil, 186, 205 tur  
D) 1984-yil, 163, 301 tur

**813.** Qaysi javobda hayvonlar sistematik guruhleri tartibi to'g'ri berilgan?

1) turkum; 2) oila; 3) urug'; 4) kenja tur; 5) tur; 6) tip; 7) sinf; 8) populyatsiya.

- A) 3, 5, 6, 7, 1, 2, 4  
B) 5, 3, 2, 1, 7, 6  
C) 3, 5, 6, 4, 7, 8, 2  
D) 3, 5, 6, 4, 1, 7, 2

**814.** Gullari ayrim jinsli o'simliklar guruhini ko'rsating.

- A) lola, xolmon  
B) shuvoq, ismaloq  
C) ebalak, jag'-jag'  
D) qovoq, Turkiston ismaloq'i

**815.** Burchoqdoshlar oilasiga mansub madaniy o'simliklar guruhini belgilang.

- A) maxsar, kakra  
B) kungaboqar, soya  
C) yeryong'oq, kanakunjut  
D) yasmiq, tuxumak

**816.** Shamol yordamida changlanadigan o'simliklar berilgan qatorni toping.

- A) nok, sebarga  
B) yantoq, g'o'za  
C) oqquray, kartoshka  
D) terak, suli

**817.** Tog'larda o'sadigan daraxtlar berilgan javobni belgilang.

A) qatrong'i, buyurg'un, irg'ay  
B) qatrong'i, qoraboyalich, tobulg'i

C) qatrong'i, turang'il, zirk  
D) qatrong'i, kamxastak, tog'olcha

**818.** Botanika fanining «oltin xazina»si nima?

A) qazilma holda topilgan o'simliklar

B) yo'qolib ketish arafasidagi turlar

C) «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklar

D) gerbariy

**819.** Gullari yonbargchali, shingil, kallakcha yoki boshcha to'pgulga joylashgan. Bu belgi qaysi oila uchun xos?

A) qoqidoshlar

B) sho'radoshlar

C) burchoqdoshlar

D) ituzumdoshlar

**820.** Shuvoq savatchalari qanday to'pgulga o'rnashgan?

A) oddiy shingil

B) oddiy boshqoq

C) kuchala D) ro'vak

**821.** To'qaylarda o'sadigan namsevar o'tlarni belgilang.

A) buyurg'un, baliqko'z, oqboyalich

B) turang'il, yulg'un, tol

C) qamish, yantoq, shirinmiya

D) ermon, andiz, itqo'noq

**822.** O'zbekistonda qaysi turkumga xos o'simlikning 3 ta turi o'sadi, hammasi bir yillik, madaniy o'simlik sifatida o'stiriladi?

A) kanop B) oshqovoq

C) tok D) g'o'za

**823.** Quyida berilgan o'simliklar qayerlarda o'sadi?

1) buyurg'un; 2) ro'vak; 3) kakra; 4) olvoli; 5) sug'uro't.

a) yaylovda; b) tog'da; c) cho'lda; d) to'qayda; e) adirda.

A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c, 5-e

B) 1-a, 2-c, 3-e, 4-b, 5-d

C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-e, 5-b

D) 1-c, 2-d, 3-e, 4-b, 5-a

**824.** Havo harorati iliq kelgan kuz oylarida ham gullashda davom etadigan madaniy gullarni belgilang.

A) zubtutum, qoqio't, sachratqi

B) atirgul, zubtutum, qo'ypechak

C) atirgul, xrizantema, kartoshkagul

D) zubtutum, sachratqi, qo'y-pechak

**825.** Qaysi oila vakillarining bargi ildiz bo'g'zida joylashgan, barg yaprog'i va bandi 50 – 60 sm va undan uzun bo'ladi?

A) qoqidoshlar, ziradoshlar

B) tokdoshlar, qovoqdoshlar

C) sho'radoshlar, ziradoshlar

D) qoqidoshlar, ituzumdoshlar

**826.** Qaysi o'simlik gulining kataligi ignaning uchidek keladi?

- A) vulfiya
- B) raffleziya arnoldi
- C) drosera
- D) sekvoyadendron

**220.** Oq planariya nima bilan oziqlanadi?

1) o'simlik qoldiqlari; 2) mayda chuvalchanglar; 3) hayvon qoldiqlari; 4) suvo'tlar; 5) mayda qisqichbaqasimonlar; 6) hasharotlarning lichinkalari; 7) o'simlik ildizlari; 8) voyaga yetgan suv qo'ng'izlari.

- A) 1, 3, 5                  B) 2, 4, 7  
C) 2, 5, 6                  D) 3, 7, 8

**221.** Yassi chuvalchanglar orasida eng qadimgisi ... hisoblanadi.

A) ichakli kipriksiz chuvalchanglar

B) tana bo'shlig'i bo'lmagan kiprikli chuvalchanglar

- C) qadimgi so'rg'ichlilar  
D) ichaksiz kiprikli chuvalchanglar

**222.** Kiprikli chuvalchanglarning parazit holda yashashga moslanishi tufayli ... kelib chiqqan.

A) to'garak chuvalchanglar, so'rg'ichlilar

B) so'rg'ichlilar, meduzalar

C) so'rg'ichlilar, tasmasimon chuvalchanglar

D) askarida, bo'tma nematoda, gijja

**223.** Yomg'ir chuvalchangining pillasi uning qaysi qismidan ajralgan shilimshiq modadan hosil bo'ladi?

A) hamma bo'g'imlaridan

B) jinsiy sistemasidan

C) ayirish naychalaridan

D) belbog'chasidan

**224.** Tana bo'shlig'i rivojlangan hayvonlar berilgan javobni belgilang.

A) oq planariya, exinokokk

B) bolalar gijjasi, askarida

C) bolalar gijjasi, jigar qurti

D) meduza, nereida

**225.** Qizil chuvalchang ayirish sistemasining tana bo'shlig'iga ochilgan uchi nima bilan ta'minlangan?

A) juda ko'p voronka

B) juda ko'p nerv tolalari

C) juda ko'p kiprikchalar

D) juda ko'p qon tomirlari

**226.** Yassi chuvalchanglarning nechta turi ma'lum?

A) 1000 B) 9000

C) 6000 D) 12000

**227.** Askaridaning ayirish va nerv sistemasi qaysi hayvonnikiga o'xshash tuzilgan?

A) korall polioplarnikiga

B) gidrasimonlarnikiga

C) daryo qisqichbaqasinikiga

D) oq planariyanikiga

**228.** Yomg'ir chuvalchangi pillasidagi tuxumlardan qancha vaqtdan keyin yosh chuvalchanglar chiqadi?

A) 15 kundan keyin

B) 2 kundan keyin

C) 1 kundan keyin

D) 1 oydan keyin

**229.** Qaysi kovakichli hayvonlar baliq chavoqlarini yeb baliqchilikka birmuncha ziyon yetkazadi?

A) gidralar

B) aktiniyalar

C) korall polioplarnikiga

D) meduzalar

**230.** Zeb-ziynat buyumlari tayyorlanadigan dengiz bo'shliqichlisini belgilang.

A) qizil korall polip

B) dengiz likopchasi

C) aktiniya

D) ildizog'iz meduza

**231.** Qaysi dengiz bo'shliqichlisi «dengiz likopchasi» deb ham ataladi?

A) aktiniya

B) aureliya meduzasi

C) ildizog'iz meduza

D) qutb meduzasi

**232.** Askarida ichak devorida qanday holatda bo'ladi?

A) 2 juft so'rg'ichi bilan yopishib oladi

B) og'zi bilan yopishib oladi

C) 1 juft so'rg'ichi bilan yopishib oladi

D) tanasi bilan tiralib oladi

**233.** Qon aylanish sistemasi dastlab qaysi hayvonlarda paydo bo'lgan?

A) yassi chuvalchanglarda

B) yumaloq chuvalchanglarda

C) halqali chuvalchanglarda

D) mollyuskalarda

**234.** Meduza qaysi tomoni bilan olg'a suzib ketadi?

A) botiq

B) qavariq

C) qorin

D) yonbosh

**235.** Qaysi tip vakillarining nerv hujayralari tanada tarqoq joylashgan?

A) sudralib yuruvchilar

B) sodda hayvonlar

C) yassi chuvalchanglar

D) ikki pallali mollyuskalar

**236.** Ikki pallali mollyuskalarning qaysi biri suv o'tkazadigan quvurlarni ishdan chiqaradi?

A) midiyalar

B) rapana

C) ustritsa

D) dreysena

**237.** Baqachanoq tuxumi qayerda rivojlanadi?

A) terisi yuzasida

B) jabrasining ustida

C) jabra atrofiga

D) tinch oqadigan suv tubida

**238.** Tasmaimon chuvalchanglarning kuchli taraqqiy et-

gan organlar sistemasini belgilang.

A) nerv

B) ayirish

C) hazm qilish

D) jinsiy

**239.** Gidraning regeneratsiya xususiyati qaysi hujayralar bilan bog'liq?

A) nerv

B) otuvchi

C) tuxum va urug'

D) oraliq

**240.** Qaysi hayvonlarning ayirish sistemasi tasmasimon buyrakdan iborat?

A) qisqichbaqasimonlar

B) hasharotlar

C) halqali chuvalchanglar

D) mollyuskalar

**241.** Ayrim jinsli, lekin erkak va urg'ochisini farqlab bo'lmaydigan organizmni belgilang.

A) rapana

B) askarida

C) yomg'ir chuvalchangi

D) dreysena

**242.** To'garak chuvalchanglar ... kelib chiqqan.

A) yassi chuvalchanglardan

B) bir hujayrali (sodda) hayvonlardan

C) halqali chuvalchanglardan

D) mollyuskalardan

**243.** Qaysi hayvonlarda ichki a'zolar oraliq g'ovak to'qima bilan to'lgan?

A) askarida, jigar qurti

B) oq planariya, jigar qurti

C) gijja, baqachanoq

D) askarida, gijja

**244.** Exinokokk parazit chuvalchangining oraliq xo'jayinini belgilang.

A) odam, o'txo'r hayvonlar

B) odam, yirtqich hayvonlar

C) baliq, odam

D) it, yirtqich hayvonlar

**245.** Yassi chuvalchanglar tipi, so'rg'ichlilar sinfiga mansub parazit chuvalchangni belgilang.

A) odam askaridasi

B) oq planariya

C) exinokokk

D) jigar qurti

**246.** Bo'rtma nematodasi qaysi o'simliklarga katta ziyon yetkazadi?

A) olma, nok, kanop

B) bug'doy, bodring, qovun

C) baqlajon, piyoz, kartoshka

D) bodring, pomidor, kanop

**247.** Qaysi hayvonlarning tana bo'shlig'iga mos ravishda nerv tugunlari joylashgan?

A) yomg'ir chuvalchangi, kapalak, asalari

B) yomg'ir chuvalchangi, meduza, gidra

C) meduza, nereida, suv shillig'i

D) qo'ng'iz, suv shillig'i, meduza

**248.** Qaysi hayvonlarning terimuskul xaltasi halqasimon va bo'ylama muskullardan iborat?

A) yassi chuvalchanglar

B) to'garak chuvalchanglar

C) halqali chuvalchanglar

D) mollyuskalar

**249.** Cho'chqa tasmasimon chuvalchangi odamga qanday holatda yuqadi?

A) sista B) finna

C) tuxum D) voyaga yetgan

**250.** So'rg'ichli chuvalchanglarning tasmasimon chuvalchanglardan asosiy farqini ko'rsating.

A) nerv sistemasining bo'lishi

B) hazm qilish sistemasining bo'lishi

C) qon aylanish sistemasining bo'lishi

D) oraliq xo'jayinning bo'lishi

**251.** Baqachanoqning mantiya bo'shlig'iga suv qayerdan o'tadi?

A) chig'anoq pallalari ochilganda

B) ikkita sifon ochilganda

C) pastki sifon orqali

D) yuqori sifon orqali

**252.** To'qimaga ega bo'lmagan hayvonlarni ko'rsating.

1) foraminefera; 2) gidra; 3) dreysena; 4) nozema; 5) oq planariya; 6) dafniya.

A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5

C) 3, 5, 6 D) 1, 3, 5

**253.** Gelmintologiya fani ... o'rganadi.

A) parazit sodda hayvonlarni

B) parazit hasharotlarni

C) parazit chuvalchanglarni

D) parazit organizmlarni  
254. Qaysi parazitning yopishuv organlari bo'lmaydi?

- A) jigar qurti
- B) exinokokk
- C) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi
- D) askarida

255. Pomidor, bodring ildizida shish hosil bo'lishi, hosilining kamayishi va tez orada halok bo'lishi qaysi parazitga bog'liq?

- A) triponasomaga
- B) bo'rtma nematodaga
- C) yalang'och shilliqqa
- D) agrobakteriumga

256. Qaysi hayvonlarda oyoqning oldingi-qismi o'zgarib paypaslagichlarni hosil qiladi?

- A) boshoyoqlilar
- B) qorinoyoqlilar
- C) ikkipallalilar
- D) nematodalar

257. Qaysi hayvonlarda siyoh xaltachasi bo'ladi?

- A) boshoyoqlilarda
- B) o'rgimchaksimonlarda
- C) qisqichbaqasimonlarda
- D) qorinoyoqlilarda

258. Qaysi hayvonlar xavf tug'ilganda siyoh chiqarib dushmandan qutulib qoladi?

- A) boshoyoqlilar
- B) o'rgimchaksimonlar
- C) qisqichbaqalar
- D) qorinoyoqlilar

259. Go'shti uchun ovlanadigan boshoyoqli hayvonlarni toping.

1) ustritsa; 2) kalmar; 3) taroqcha; 4) midiya; 5) dreysena; 6) karakatitsa.

- A) 2, 6
- B) 1, 2
- C) 3, 4
- D) 2, 5

260. Bosh miyasi kuchli rivojlangan, xilma-xil va murakkab reflekslar hosil qiladigan molluskalarni toping.

1) ustritsa; 2) kalmar; 3) taroqcha; 4) midiya; 5) dreysena; 6) karakatitsa.

- A) 2, 6
- B) 1, 2
- C) 3, 4
- D) 2, 5

261. Tanasi qalin muskulli mantiya bilan qoplangan hayvonlarni toping.

1) ustritsa; 2) kalmar; 3) taroqcha; 4) midiya; 5) dreysena; 6) karakatitsa.

- A) 2, 6
- B) 1, 2
- C) 3, 4
- D) 2, 5

262. Har bir bo'g'imida bir juft tuxumdon, bitta bachadon va ko'p urug'donga ega bo'lgan hayvonlarni ko'rsating.

A) qoramol tasmasimoni, cho'chqa tasmasimoni  
B) askarida, yomg'ir chuvalchangi

C) nereida, ostritsa  
D) yomg'ir chuvalchangi, exinokokk

263. Qaysi hayvon halqali chuvalchaglardan kelib chiqqan?

- A) qisqichbaqasimonlar
- B) trilobitsimonlar
- C) yassi chuvalchaglar
- D) hasharotlar



**264.** Maxsus sezgi organlari bo'lmaydigan hayvonlarni belgilang.

A) oq planariya, yalang'och shilliq

B) oq planariya, ustritsa

C) baqachanoq, yomg'ir chuvalchangi

D) tok shillig'i, bitiniya

**265.** Yomg'ir chuvalchangi uchun tayanch vazifasini bajaruvchi tuklar tananing qaysi qismida joylashgan?

A) har bir bo'g'imning orqa tomonida

B) har bir bo'g'imning qorin tomonida

C) har bir bo'g'imning yon tomonlarida

D) faqat ko'krak bo'g'imlarning yon va orqa tomonlarida

**266.** Halqali chuvalchanglarning teri-muskul xaltasi qanday qismlardan iborat?

A) tashqi va ichki epiteliy, halqasimon va bo'ylama muskullardan

B) tashqi epiteliy, bo'ylama va qiyshiq muskullardan

C) tashqi va ichki epiteliy, halqasimon, bo'ylama va qiyshiq muskullardan

D) xitin qavatidan, tasma shaklda joylashgan bo'ylama muskullardan

**267.** Har bir bo'g'imda juda ko'p urug'donlar bo'ladigan hayvonni belgilang.

A) oq planariya

B) askarida

C) exinokokk

D) yomg'ir chuvalchangi

**268.** Yassi chuvalchanglarning eng qadimgi vakilini belgilang.

A) so'rg'ichlilar

B) ichaksiz kiprikli chuvalchang

C) exinokokk

D) tasmasimonlar

**269.** Halqali chuvalchanglarning tana bo'shlig'i devorining ichki yuzasi nimadan iborat?

A) bir qavat epiteliydan

B) ikki qavat epiteliydan

C) uch qavat epiteliydan

D) kutikuladan

**270.** Gelmintlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda qatnashgan olimni belgilang.

A) P.Borovskiy

B) K.Skryabin

C) O.Bogdanov

D) J.Tomson

**271.** Exinokokka xos bo'lmagan belgi ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A) tuxumga to'lgan pufakchalar (finnalar) odamning axlati bilan tashqariga chiqadi

B) tanasi 5 – 6 bo'g'imdan iborat

C) boshida 4 ta so'rg'ichlari mavjud

D) tuxumga to'lgan oxirgi bo'g'imi axlat bilan tashqariga chiqadi

**272.** Bolalar gijjasi tuxumlarini qayerga qo'yadi?

- A) ingichka ichakka
- B) yo'g'on ichakka
- C) to'g'ri ichakka
- D) teriga

**273.** Bo'rtma nematoda (1), exinokokk (2), nereida (3) va qizil chuvalchang (4)lar qaysi tiplarga mansub?

a) yassi chuvalchanglar; b) to'garak chuvalchanglar; c) mollyuskalar; d) halqali chuvalchanglar.

- A) 1 – b, 2 – a, 3 – c, 4 – d
- B) 1 – a, 2 – b, 3 – d, 4 – c
- C) 1 – b, 2 – a, 3 – d, 4 – d
- D) 1 – b, 2 – a, 3 – d, 4 – c

**274.** Qaysi parazitning tuxumlari iflos qo'l orqali yana ichakka tushib qolsa qaytadan rivojlana boshlaydi?

- A) jigar qurti
- B) exinokokk
- C) gijja
- D) bo'rtma nematoda

**275.** Jigar qurtining qoramol tasmaimon chuvalchangidan farqi nimada?

- A) hazm organlari rivojlangan
- B) hazm organlari rivojlanmagan
- C) yassi chuvalchanglar tipining vakili
- D) parazit hayot kechiradi

**276.** Nerv stvollari qaysi hayvonga xos?

- A) meduza
- B) oq planariya

C) nereida

D) yomg'ir chuvalchangi

**277.** Quyidagi organizmlarning qaysi birida ayirish sistemasi uchi yopiq naychalardan tuzilgan?

1) nereida; 2) kam tukli chuvalchang; 3) askarida; 4) oq planariya; 5) yomg'ir chuvalchangi.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2, 4
- C) 3, 4
- D) 3, 5

**278.** Cho'chqa tasmaimon chuvalchangi oxirgi bo'g'imlari o'rta bo'g'implardan nimasi bilan farq qiladi?

1) ikkita tuxumdonga ega; 2) ko'p urug'donlar bo'ladi; 3) faqat tuxumga to'lgan bachadonga ega; 4) ko'p marta shoxlangan ichagi mavjud.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 3
- D) 3, 4

**279.** Olti ilmoqli lichinka qaysi organizmda rivojlanadi?

A) suv shillig'ida  
B) qoramolda  
C) odam ichagida  
D) yirtqich hayvonlarning jigirida

**280.** Uchta lichinka bosqichi qaysi parazit chuvalchangga xos?

- A) askarida
- B) bolalar gijjasi
- C) exinokokk
- D) jigar qurti

**281.** Oraliq xo'jayinsiz rivojlantiruvchi parazit chuvalchang(lar)ni ko'rsating.

1) exinokokk; 2) jigar qurti; 3) bolalar gijjasi; 4) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi; 5) askarida.

- A) 1, 2, 4      B) 3  
C) 5            D) 3, 5

**282.** Faqat odam organizmi-da rivojlanuvchi parazit chuvalchang(lar)ni ko'rsating.

1) exinokokk; 2) jigar qurti; 3) bolalar gijjasi; 4) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi; 5) askarida.

- A) 1, 2, 4      B) 3  
C) 5            D) 3, 5

**283.** Qaysi chuvalchanglar tashqi tomondan qalin po'st kutikula bilan qoplangan?

1) oq planariya; 2) jigar qurti; 3) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi; 4) askarida; 5) gijja.

- A) 1, 2, 3, 4    B) 4, 5  
C) 2, 3, 4, 5   D) 1, 4, 5

**284.** Ayrim jinsli (a) va germafrodit (b) organizmlarni ko'rsating.

1) oq planariya; 2) bolalar gijjasi; 3) dreysena; 4) bitiniya; 5) rāpana; 6) ustritsa; 7) askarida; 8) exinokokk.

- A) a – 2, 3, 4, 7; b – 1, 5, 6, 8  
B) a – 2, 3, 6, 7; b – 1, 4, 5, 8  
C) a – 2, 3, 6, 8; b – 1, 4, 5, 7  
D) a – 2, 4, 5, 7; b – 1, 3, 6, 8

**285.** To'qima dastlab qaysi organizmlarda kuzatildi?

- A) kiprikli chuvalchanglar  
B) so'rg'ichli chuvalchanglar  
C) tasmasimon chuvalchanglar

D) to'garak chuvalchanglar

**286.** O'simliklarda (a), faqat odamlarda (b), odam va hayvonlarda (c) parazitlik qiluvchi chuvalchaglarni juftlab ko'rsating.

1) gijja; 2) askarida; 3) bo'rtma nematoda; 4) exinokokk; 5) jigar qurti.

- A) a – 3; b – 1; c – 2, 4, 5  
B) a – 3; b – 2; c – 1, 4, 5  
C) a – 3; b – 1, 2; c – 4, 5  
D) a – 3; b – 4, 2; c – 1, 5

**287.** Dengizda (a) va chu-chuk suvda (b) yashovchi halqali chuvalchaglarni juftlab ko'rsating.

1) nereida; 2) o'troq chuvalchang; 3) qizil chuvalchang.

- A) a – 1; b – 2, 3  
B) a – 1, 2; b – 3  
C) a – 1, 3; b – 2  
D) a – 2, 3; b – 1

**288.** Askarida ayirish sistemasining oq planariyanikidan farqini ko'rsating.

A) ayirish naychalari voronkasimon naychalardan iborat

B) zararli mahsulotlar uchi berk naychalarga sizib o'tadi

C) ikki yon tomonida joylashgan yirik naylar tananing orqa qismida teshiklar bilan ochiladi

D) ikkita ayirish naylari birlashib yagona teshik bilan tashqariga ochiladi

**289.** Qaysi hayvon o'pka bilan nafas oladi?

- A) yomg'ir chuvalchangi

B) midiya

C) rapana

D) Kolorado qo'ng'izi

**290.** Tana diametri 0,5 m bo'lgan hayvonni belgilang.

A) urg'ochi askarida

B) aktiniya

C) korall polipi

D) jigar qurti

**291.** Urug'lanishi tashqi bo'ldigan umurtqali hayvonni belgilang.

A) ilon

B) kaltakesak

C) baqa

D) kaptar

**292.** Chuchuk suv gidrasining tashqi qavatini qaysi hujayralar tashkil etadi?

A) teri-muskul, nerv

B) muskul, otuluvchi

C) otuluvchi, nerv

D) nerv, otuluvchi, teri-muskul va oraliq

**293.** Oq planariya tanasida qanday to'qimalar bor?

A) qoplag'ich to'qima, muskul, nerv

B) qoplag'ich, biriktiruvchi

C) qoplag'ich, biriktiruvchi, muskul

D) qoplag'ich, biriktiruvchi, muskul, nerv

**294.** Qaysi hayvonning ektoderma qavatida uzun o'simtali yulduzsimon nerv hujayralari bo'ladi?

A) sporalilar

B) gijja

C) gidra

D) askarida

**295.** Gidraning ichki qavatidagi hujayralari qanday vazifani bajaradi?

A) ayirish, himoya

B) himoya, nafas olish

C) nafas olish, hazm suyuqligini ishlash

D) hazm suyuqligini ishlab chiqarish va hazm qilish

**296.** Chuchuk suv gidrasi tanasidagi qaysi hujayralar sodda hayvonlarga o'xshaydi?

1) teri-muskul; 2) ovqat hazm qilish; 3) otuluvchi; 4) oraliq; 5) nerv; 6) tuxum; 7) urug'.

A) 1, 2, 7

B) 2, 5, 4

C) 4, 6, 1

D) 2, 6, 7

**297.** Qon aylanish sistema-si ochiq bo'lgan hayvonlar guruhini belgilang.

1) nereida; 2) bitiniya; 3) yomg'ir chuvalchangi; 4) o'rgimchakkana; 5) qizil chuvalchang; 6) baqachanoq; 7) asalari; 8) kana.

A) 2, 7, 8

B) 1, 3, 5

C) 1, 4, 7

D) 5, 7, 8

**298.** Baqachanoqqa xos belgilarni aniqlang.

A) germafrodit, tuxumi suvda yetilib, lichinkasi tanasida voyaga yetadi

B) germafrodit, tuxumi mantiya bo'shlig'ida yetilib, lichinkasi pastki sifonida rivojlanib voyaga yetadi

C) ayrim jinsli, tuxumi jabralarda yetiladi, lichinkasi yuqorigi sifon orqali chiqib, baliq tanasida yetilgan mollyuskaga aylanadi

D) ayrim jinsli, tuxumi jabralarda yetiladi, tuxumdan chiqqan

lichinka pastki sifon orqali chiqib suv shilliqqurti ichida voyaga yetadi

**299.** Quyida berilganlarning qaysi biri exinokokk oraliq xo'jayini hisoblanadi?

- A) bo'ri
- B) qoramol
- C) chuchuk suv shillig'i
- D) odam

**300.** Paypaslagichlari og'iz teshigi atrofida bir necha qator bo'lib joylashgan hayvonni belgilang.

- A) gidra
- B) aureliya
- C) meduza
- D) aktiniya

**301.** Askarida tanasining tarang bo'lib turishi nimaga bog'liq?

A) teri muskul qavatining o'zaro birikkanligiga

B) muskullarning doimo qisqargan holatda bo'lishiga

C) tana bo'shlig'ida suyuqlik bo'lishiga

D) tana bo'shlig'idagi suyuqlikning bosim ostida bo'lishiga

**302.** Tanasi ikki qavat hujayradan iborat hayvonni belgilang.

- A) aureliya
- B) infuzoriya
- C) nozema
- D) nereida

**303.** Planariyaning ayirish sistemasi nimadan iborat?

A) chiqarish teshigidan

B) qisqaruvchi vakuoladan

C) tana sathidagi maxsus teshikchalardan

D) juda ko'p uchi berk naychalar, 2 ta yirikroq naychadan

**304.** Planariyaning ovqat hazm qilish organlarini belgilang.

A) og'iz, halqum, oshqozon, ichak

B) og'iz, halqum, ichak

C) og'iz, ichak, oshqozon, anal

D) og'iz, til, halqum, ichak

**305.** Quyida keltirilgan xarakterli belgilarning qaysilari karaktitsa va kalmarlarga xos?

A) sakkiz oyoqli va oddiy hamda qamrovchi paypaslagichlari bor

B) o'n oyoqli, oddiy va qamrovchi paypaslagichlari bor

C) oyoqsiz, faqat qamrovchi paypaslagichlari bor

D) oyoqsiz qamrovchi va oddiy paypaslagichi bor

**306.** Oq planariya halqumining vazifasini belgilang.

1) oziq tutadi; 2) oziqni ichakka o'tkazadi;

3) oziqni qizilo'ngachga o'tkazadi; 4) oziqni saqlab turadi;

5) oziqni maydalaydi; 6) oziqni oshqozonga o'tkazadi.

A) 1, 3

B) 1, 2

C) 5, 6

D) 4, 6

**307.** Aktiniyalarda urug'langan tuxum hujayradan nima hosil bo'ladi?

A) zigota

B) spora

C) lichinka

D) sista

**308.** Oq planariyaning ovqat hazm qilish sistemasi nimalardan iborat bo'ladi?

1) og'iz; 2) qizilo'ngach; 3)

halqum; 4) oshqozon; 5) ichak;

6) anal teshigi.

A) 1, 2, 6      B) 1, 3, 5

C) 1, 3, 2      D) 1, 4, 6

**309.** Yuragi ikki kamerali, qon aylanish sistemasi ochiq umurtqasiz hayvonni belgilang.

A) yomg'ir chuvalchangi

B) baqachanoq

C) nereida

D) daryo qisqichbaqasi.

**310.** Ikki tomonlama simmetriyaga ega hayvonlarni belgilang.

1) oq planariya; 2) gidra; 3) askarida; 4) meduza; 5) yomg'ir chuvalchangi; 6) aktiniya.

A) 1, 2, 4      B) 2, 4, 6

C) 2, 3, 6      D) 1, 3, 5

**311.** Qaysi hayvonning nerv sistemasi ikkita nerv tuguni va ikkita yirik nerv tolalaridan iborat?

A) yomg'ir chuvalchangining

B) hasharotlarning

C) daryo qisqichbaqasining

D) oq planariyaning

**312.** Mantiya va mantiya bo'shlig'iga ega hayvonlarni belgilang.

A) gidra, meduza

B) nozema, planariya

C) askarida, rapana

D) rapana, tridakna

**313.** Lansetnikning nafas olish a'zosi to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

A) jabra      B) o'pka

C) traxeya

D) teri burmalari

**314.** Quyidagi belgilar qaysi hayvonlar tipiga xos?

Tanasi ikki tomonlama simmetriyali, tana bo'shlig'i yo'q, hazm kanali berk, germafrodit.

A) yassi chuvalchaglarga

B) to'garak chuvalchaglarga

C) halqali chuvalchaglarga

D) mollyuskalarga

**315.** Tanasi teri-muskul xaltadan iborat bo'lgan organizmni belgilang.

A) hasharotlar

B) halqali chuvalchanglar

C) qorinoyoqli mollyuskalar

D) bo'shliqichlilar

**316.** Qaysi sistema dastlab halqali chuvalchaglarda paydo bo'lgan?

A) hazm-qilish

B) jinsiy

C) ayirish

D) qon aylanish

**317.** Voyaga yetgan exinokokk ... parazitlik qiladi.

A) bo'rining ichagida

B) itning o'pka va jigarida

C) odamning ichagida

D) qoramolning jigarida

**318.** ... harakatlanayotganda orqa tomonida ariqchaga o'xshash iz qoladi.

A) zaxkash      B) rapana

C) baqachanoq      D) bitiniya

**319.** Infuzoriya tanasining qaysi qismi bilan oldinga qarab harakatlanadi?

A) to'mtoq qismi bilan

B) ingichka uchi bilan

C) aylanasimon tarzda

D) yon tomoni bilan

**320.** Nozema sodda hayvonlarning qaysi sinfiga mansub va u qayerda parazitlik qiladi?

- A) xivchinlilar, tut ipak qurtida
- B) infuzoriya, asalarida
- C) sporalilar, odam qonida
- D) sporalilar, asalarida

**321.** Oq planariyaning tanasi qanday epiteliy hujayralari bilan qoplangan?

- A) bir qavatli kiprikchali
- B) ko'p qavatli kiprikchali
- C) kubsimon kiprikchali
- D) bir qavatli, silindrsimon

**322.** Quyidagi parazit chuvalchanglar qaysi organizmlarda parazitlik qiladi?

1) bo'rtma nematoda; 2) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi; 3) exinokokk; 4) mushuk ikki so'rg'ichlisi; 5) jigar qurti.

a) odam ichagida; b) it va yirtqich hayvonlarning ichagida; c) odam jigarida; d) o'simlikning yerusti qismida; e) o'simlikning yerosti qismida.

A) 1 - d, 2 - c, 3 - b, 4 - c, 5 - a

B) 1 - b, 2 - a, 3 - b, 4 - c, 5 - e

C) 1 - e, 2 - a, 3 - b, 4 - c, 5 - c

D) 1 - e, 2 - b, 3 - a, 4 - a, 5 - c

**323.** Qum chuvalchang qaysi hayvonlar tipiga va sinfiga mansub?

A) halqasimon chuvalchanglar tipi, ko'p tuklilar

B) yassi chuvalchanglar tipi, kiprikli

C) halqasimon chuvalchanglar tipi, kam tuklilar

D) yassi chuvalchanglar tipi, so'rg'ichlilar

**324.** Bo'rtma nematodalar qayerda parazitlik qiladi?

A) o'simliklarning gulida

B) poyada

C) o'simliklarning barcha yerusti qismida

D) o'simliklarning yerosti qismida

**325.** O'simlik gelmintlarini o'rgangan olimni belgilang.

A) M.A.Sultonov

B) J.A.Azimov

C) A.T.To'laganov

D) E.X.Ergashev

**326.** Oq planariyaning tanasi qanday epiteliy hujayralari bilan qoplangan?

A) bir qavatli kiprikchali

B) ko'p qavatli kiprikchali

C) kubsimon kiprikchali

D) bir qavatli, silindrsimon

**327.** Yashil tillaqo'ng'iz kattaligi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

A) 0,5 - 1 sm B) 2 - 3 sm

C) 1 - 2 sm

D) 0,5 - 1,5 sm

**328.** O'simlik (1) va hayvonlarning (2) parazit gelmintlarini o'rgangan olimlarni belgilang.

a) A.T.To'laganov; b) M.A.Sultonov; c) E.X.Ergashev; d) J.A.Azimov.

- A) 1 – a; 2 – b, c, d
- B) 1 – a, b; 2 – c, d
- C) 1 – b, c; 2 – a, d
- D) 1 – a, c; 2 – b, d

**329.** To'garak chuvalchanglarning yassi chuvalchanglardan asosiy farqlarini belgilang.

1) ayrim jinsli; 2) so'rg'ichlari mavjud; 3) ichagi berk; 4) yopishuv organlari rivojlanmagan; 5) anal teshigi mavjud; 6) germafrodit.

- A) 1, 2, 5
- B) 1, 4, 5
- C) 2, 3, 6
- D) 1, 4, 6

**330.** Jigar qurti (1), qoramol tasmasimon chuvalchangi (2), exinokokk (3) va askarida (4) qaysi holatda odamga yuqadi?

a) sista; b) finna; c) tuxum; d) olti-ilmuqli lichinka; e) dumli lichinka; f) kiprikli lichinka.

- A) 1 – f, 2 – c, 3 – b, 4 – c
- B) 1 – e, 2 – d, 3 – b, 4 – c
- C) 1 – a, 2 – b, 3 – c, 4 – c
- D) 1 – a, 2 – d, 3 – b, 4 – c

**331.** Askaridaning lichinkasi qon orqali o'pkaga borishdan oldin qaysi organlardan o'tadi?

- A) jigar, taloq
- B) jigar, yurak
- C) taloq, buyrak
- D) yurak, miya

**332.** Ko'katlarni yaxshi yuvmasdan iste'mol qilinsa, qaysi parazitni yuqtirish mumkin?

- A) bolalar gijjasi
- B) qoramol tasmasimon chuvalchangi
- C) exinokokk

D) jigar qurti

**333.** Yassi chuvalchanglar tipi, kiprikli larva sinfiga mansub hayvonni belgilang.

- A) oq planariya
- B) jigar qurti
- C) askarida
- D) exinokokk

**334.** Yassi chuvalchanglar tipi, so'rg'ichlilar sinfiga mansub hayvonni belgilang.

- A) oq planariya
- B) jigar qurti
- C) askarida
- D) exinokokk

**335.** Parazit chuvalchanglarning hayoti, ko'payishi va tarqalishini qaysi fan o'rganadi?

- A) mikrobiologiya
- B) gelmintologiya
- C) gigiyena
- D) parazitologiya

**336.** Qaysi qatorda qattiqqanotlilar – turkumining vakillari berilgan?

- A) kapalak
- B) uy pashshasi, chigirtka
- C) bo'ka
- D) mita

**337.** Yirtqichlik bilan hayot kechiradigan hasharot qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) xonqizi
- B) so'na
- C) iskabtopar
- D) chigirtka

**338.** Qisqichbaqasimonlardan plankton organizmlar deb



ataladigan hayvonlar qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) zaxkash, dafniya
- B) dafniya, siklop
- C) siklop, krab
- D) krevetka, krab

**339.** Bolalari 1 – 1,5 yilda voyaga yetadigan bo'g'imoyoqli hayvon qanday nomlanadi?

- A) oq kapalak
- B) suv qo'ng'izi
- C) chayon
- D) tarantul

**340.** Tut ipak qurti qaysi turkumga mansub?

- A) qattiqqanotlilar
- B) qo'shqanotlilar
- C) pardaqanotlilar
- D) tangachaqanotlilar

**341.** O'zbekistonning zax, salqin va nam joylarida ... keng tarqalgan.

- A) zaxkashlar
- B) krablar
- C) dafniyalar
- D) chayonlar

**342.** Qisqichbaqaning urug'langan tuxumi qayerda rivojlanishini belgilang.

- A) suvda
- B) suvdagi o'simliklarda
- C) baliqlar tanasida
- D) qorinoyoqlarida

**343.** O'rgimchak so'gallari necha juft bo'ladi?

- A) 1
- B) 2
- C) 4
- D) 3

**344.** Yashil tillaqo'ng'izning qanotlari tanasining qaysi qismida joylashganini belgilang.

- A) qorinning ikkinchi va uchinchi
- B) ko'krakning orqa, qorinning birinchi
- C) qorinning birinchi, ikkinchi
- D) ko'krakning ikkinchi va uchinchi

**345.** Ishchi asalarining nechta ko'zi bo'ladi?

- A) 5 oddiy ko'z
- B) 5 murakkab ko'z
- C) 4 murakkab va 1 oddiy ko'z
- D) 2 murakkab va 3 oddiy ko'z

**346.** Tillaqo'ng'izning hid bilish organini belgilang.

- A) pastki jag'i
- B) pastki labi
- C) mo'ylovlar
- D) traxeya

**347.** Qisqichbaqa mo'ylovlariga nerv sistemasining qaysi qismidan nervlar boradi?

- A) halqumosti nerv tugunidan
- B) halqumusti nerv tugunidan
- C) qorin nerv zanjiridan
- D) qorin nerv zanjirining ko'krak qismidan

**348.** Qisqichbaqaning eshish va muvozanat organlari qayerda joylashgan?

- A) kalta mo'ylovlarining uchida
- B) kalta mo'ylovlarining asosida
- C) ko'zlarining yonida

D) uzun mo'ylovlarining asosida

**349.** Qaysi hasharot mustaqil oziqlana olmaydi?

- A) suv qo'ng'izi
- B) karam kapalagi
- C) ishchi asalari
- D) ona asalari

**350.** Ishchi asalari tuxumdan chiqqan qurtlarni nima bilan boqadi?

- A) asal va nektar
- B) changdon va mum
- C) gul nektari va mum
- D) gul changi va nektar

**351.** Qo'shqanotlilarning qaysi vakili voyaga yetganda oziqlanmaydi?

- A) uy-pashshasi
- B) tut ipak qurti kapalagi
- C) chivin
- D) bo'ka

**352.** Qisqichbaqalar tuxumlarining rivojlanishi qayerda sodir bo'ladi?

- A) suvda
- B) qorinoqqlarida
- C) ko'krakoyoqlarida
- D) tuxum yo'lida

**353.** Qaysi hasharotlar voyaga yetganda mustaqil oziqlana olmaydi?

- A) karam kapalagi
- B) zorka
- C) no'xat oq kapalagi
- D) podalariy

**354.** Ninachilarning qurtlari qayerda rivojlanadi?

A) organik moddalarga boy tuproqlarda

- B) daraxt po'stloqlari ostida
- C) axlatxonalarda
- D) suvda

**355.** Qaysi hasharotlar voyaga yetgach oziqlanmaydi?

- A) so'na, tut ipak qurti
- B) bo'ka, tut ipak qurti kapalagi
- C) ninachi, chivin
- D) kapalak, tillaqo'ng'iz

**356.** To'la o'zgarishli rivojlanishda hasharotlar qanday bosqichlardan o'tishini va ularning izchilligini belgilang.

1) g'umbak; 2) voyaga yetgan hasharot; 3) tuxum; 4) qurt.

- A) 3, 2, 3, 4
- B) 2, 1, 4, 3
- C) 1, 4, 3, 2
- D) 3, 4, 1, 2

**357.** Yashil tillaqo'ng'izning ovqat hazm qilish sistemasini tartib bilan joylashtiring.

1) og'iz; 2) halqum; 3) jig'il-don; 4) oshqozon; 5) ichak; 6) kloaka; 7) anal teshigi; 8) qizilo'ngach.

- A) 1, 2, 3, 5, 7, 8
- B) 1, 3, 4, 5, 6, 7
- C) 1, 2, 8, 4, 5, 7
- D) 1, 2, 4, 5, 7, 6

**358.** Biy qaysi organlari yordamida nafas oladi?

- A) teri, traxeya
- B) teri, o'pka
- C) o'pka, traxeya
- D) faqat o'pka

**359.** Qaysi hayvonda bosh, ko'krak va qorin qismlari birga qo'shib ketgan?

A) qisqichbaqa B) kana  
C) chayon D) falanga  
**360.** Eng yirik o'rgimchak turi-  
ni belgilang.

- A) qoraqurt
- B) butli o'rgimchak
- C) biy
- D) chayon

**361.** Qisqichbaqaning kalta mo'ylovlari asosida qaysi organlar joylashgan?

- A) tuyg'u, hid bilish
- B) ko'rish, eshitish
- C) muvozanat, eshitish
- D) ko'rish, hid bilish

**362.** Kattaligi 6 – 7 sm keladigan o'rgimchaksimolni belgilang.

- A) falanga B) chayon
- C) biy D) qoraqurt

**363.** Zorka qurtining g'umbagi nima bilan oziqlanadi?

- A) chirindilar
- B) o'simlik bargi
- C) yosh nihollarning ildizi
- D) oziqlanmaydi

**364.** Butli o'rgimchakning qaysi a'zolar sistemasi langustnikiga o'xshash bo'ladi?

- A) sezgi a'zolari, nerv
- B) nerv, qon aylanish, sezgi a'zolari
- C) nerv, ayirish, qon aylanish
- D) ayirish, nafas olish, oziqlanish

**365.** Qaysi hasharotning qanotlari qo'nganida ham taxlanmasdan tanasining ikki tomonida yoyilib turaveradi?

- A) xonqizi
- B) tillaqo'ng'iz
- C) ninachi
- D) Kolorado qo'ng'izi

**366.** Qaysi hayvonning lichinkasi dastlab sariq, keyin ko'k-yashil rangga kiradi?

- A) bo'ka
- B) tut ipak qurti
- C) tillaqo'ng'iz
- D) karam kapalagi

**367.** Tanasi yassi oval shaklda bo'lib, bo'g'imlarga bo'linmagan hayvonni belgilang.

- A) qo'ng'iz B) kana
- C) o'rgimchak D) falanga

**368.** O'rgimchakning ikkinchi juft og'iz a'zolari qanday organ va u qaysi organ vazifasini bajaradi?

- A) tuyg'u, pastki jag'lar
- B) ta'm bilish, zaharli bezlar
- C) hid bilish, yuqori jag'
- D) eshitish, yuqori jag'

**369.** Biologik kurash olib borish maqsadida qaysi hayvondan foydalaniladi?

- A) tillako'z
- B) beshiktervatar
- C) asalari
- D) faziya

**370.** Ovoz chiqarish va eshitish a'zolari bor hasharotlar to'g'ri joylashtirilgan qatorni belgilang.

- A) temirchak, jizildoq, chirildoq
- B) temirchak, suvarak, chirildoq

C) temirchak, buzoqboshi, xonqizi

D) temirchak, beshiktervatar, mita

**371.** Qaysi hasharotning pastki lablari uchi qalinlashib, yostiqtchasimon yalovchi xartumcha hosil qiladi?

A) uy pashshasi

B) chivin

C) asalari

D) trixogramma

**372.** Qaysi qatorda olti oyoqli bo'g'imoyoqlilar berilgan?

A) o'rgimchak, kana

B) Kolorado qo'ng'izi, chumoli

C) kana, chigirtka

D) kapalak, falanga

**373.** Qanday sharoitda yashaydigan hasharotlarning xitin qoplag'ichi qalin bo'ladi?

A) cho'l hududida

B) nam yetarli joyda

C) suv muhitida

D) tuproqda

**374.** Pashshalarning ikkinchi juft qanotlari qo'shimcha qanday vazifani bajaradi?

A) uchishga yordam beradi

B) birinchi juft qanotlarning harakatini ta'minlaydi

C) uchganda tezlikni o'zgartirishga yordam beradi

D) havoda tebranib ovoz chiqaradi

**375.** Uy pashshasining qurtlari qayerda g'umbakka aylanadi?

A) oziq-ovqat mahsulotlarida

B) azotga boy suvlarda

C) quruq tuproqda

D) daraxt po'stloqlarida

**376.** Mita qaysi hasharotlar turkumiga mansub?

A) qo'shqanotlilar

B) qattiqqanotlilar

C) to'g'riqanotlilar

D) tangachaqanotlilar

**377.** Zararkunanda hasharotlarga qarshi foydali hasharotlar yordamida biologik kurash olib borish usullarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan olim kim?

A) D.N.Kashkarov

B) R.O.Olimjonov

C) A.M.Muhammadiyev

D) A.T.To'laganov

**378.** Suvaraklar rivojlanishi davomida qanday davrlarini o'taydi?

1) lichinkalik; 2) g'umbaklik; 3) tuxum; 4) yetuklik.

A) 3, 1, 2      B) 3, 1, 4

C) 1, 2, 4      D) 2, 3, 4

**379.** Qaysi hasharotlarning og'iz apparati kemiruvchi tipda bo'ladi?

1) beshiktervatarlar; 2) kapalaklar; 3) chumolilar; 4) uy pashshasi; 5) chivinlar; 6) yaydoqchilar; 7) qo'ng'izlar; 8) bo'kalar.

A) 1, 2, 5      B) 1, 7, 6

C) 1, 8, 3      D) 1, 3, 7

**380.** Qaysi arilarning yangi oilasi may – iyun oylarida paydo bo'ladi?

- A) asalari
- B) paxmoq ari
- C) yovvoyi arilar
- D) sariq arilar

**381.** Qanday sharoitlarda yashaydigan hasharotlarning oyoqlari bir xilda tuzilgan?

- A) o'tlar orasida
- B) tuproq yuzasida
- C) tuproq ichida
- D) suvda

**382.** Tut ipak qurtining kapalagi urug'lanib tuxum qo'ygandan keyin qancha vaqt yashaydi?

- A) 3 – 4 oy
- B) 5 – 6 oy
- C) 1 – 2 oy
- D) 5 – 10 kun

**383.** Kungaboqarning asosiy changlantiruvchisi bo'lgan hasharotni belgilang.

- A) paxmoq ari
- B) sariq ari
- C) asalari
- D) yovvoyi ari

**384.** Asalarilar qaysi ranglarni yaxshi farqlaydi?

- A) qizil va sariq
- B) oq va qizil
- C) ko'k va qizil
- D) sariq va ko'k

**385.** Erkak arilarning ... a'zolari kuchli rivojlangan.

- A) ko'rish, ta'm bilish
- B) eshitish, hid bilish
- C) ta'm bilish, tuyg'u
- D) hid bilish, ko'rish

**386.** Jabra bilan nafas oluvchi bo'g'imoyoqlilarni belgilang.

1) dafniya; 2) siklop; 3) krab; 4) qandala; 5) chirildoq; 6) falanga.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 3, 4, 5
- D) 1, 5, 6

**387.** Oziqlanishi tufayli tuproqni yumshatib chirindiga boyitadigan qisqichbaqasimmonni belgilang.

- A) krab
- B) zaxkash
- C) krevetka
- D) midiya

**388.** Poliksina, zorka hasharotlar sinfining qaysi turkumiga mansub?

- A) to'g'riqanotlilar
- B) pardaqanotlilar
- C) tangachaqanotlilar
- D) tengqanotlilar

**389.** Hasharotlardagi chala o'zgarishda qaysi bosqich tushib qoladi?

- A) tuxum
- B) lichinka
- C) g'umbak
- D) voyaga yetgan hasharot

**390.** Qaysi hayvonlarning yuragi muskulli naychadan iborat?

1) tillaqo'ng'iz; 2) omar; 3) bitiniya; 4) tridakna; 5) kana; 6) chayon; 7) xonqizi; 8) burga; 9) bit; 10) chumoli.

- A) 1, 3, 4, 6
- B) 1, 5, 6, 3
- C) 1, 2, 8, 10
- D) 1, 7, 8, 9, 10

**391.** Tunda inidan chiqib ov qiladigan o'rgimchakni toping.

- A) biy

- B) qoraqurt
- C) butli o'rgimchak
- D) falanga

**392.** Qaysi qo'ng'izning qattiq qanotlari uchishda ishtirok etmaydi?

- A) tillaqo'ng'iz
- B) xonqizi
- C) mita qo'ng'izi
- D) Kolorado qo'ng'izi

**393.** Tunda ovga chiqadigan o'rgimchaksimonlar sinfining vakillari berilgan qatorni toping.

- A) tarantul, falanga, chayon
- B) qoraqurt, falanga, kana
- C) bit, butli o'rgimchak, kana
- D) tarantul, urg'ochi qoraqurt

**394.** Hasharotlarning tanasi va mo'ylovlaridagi har xil tukchalar va qilehalar ... hisoblanadi.

- A) hid bilish a'zolari
- B) ta'm bilish a'zolari
- C) tuyg'u a'zolari
- D) teri sezgi a'zolari

**395.** Asalari oilasidagi ishchi arilar - ...

- A) voyaga yetmagan urg'ochi arilar
- B) voyaga yetmagan erkak arilar
- C) urug'lanmagan tuxumdan rivojlangan
- D) voyaga yetgan, lekin ko'payish xususiyatini yo'qotgan

**396.** Daryo qisqichbaqasining tuxumlaridan qaysi paytda qisqichbaqachalar yetishib chiqadi?

- A) bahorda
- B) yoz boshlanishi bilan
- C) yoz o'rtasida
- D) erta bahorda

**397.** G'umbak nima hisobiga yashaydi?

- A) qurtlik davrida to'plagan oziq
- B) voyaga yetgan hasharot davrida to'plagan oziq
- C) tuxum tarkibidagi oziq
- D) saprofit usulda oziqlanishi

**398.** O'rgimchakning 4 juft oddiy ko'zchasi boshko'krakning qaysi qismida joylashgan?

- A) ostki
- B) ustki
- C) yon
- D) oldingi

**399.** Kapalaklarning qurtlari qaysi oyoqlari yordamida harakat qiladi?

- A) qorinoyoqlari, ko'krak oyoqlari
- B) ko'krak oyoqlari
- C) qorin bo'limidagi 3 juft haqiqiy oyoqlari
- D) qorin bo'limidagi 5 juft soxta oyoqlar

**400.** Ishchi arilarning yuqori jag'lari qanday vazifani bajardi?

- 1) mumdan kataklar yasaydi;
- 2) changdonlardan gul changini oladi;
- 3) gul nektarini yalaydi;
- 4) himoya quroli.

- A) 1, 3
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 2

**401.** Daryo qisqichbaqasining tanasi qanday qismlardan iborat?

- A) boshko'krak, dum  
 B) bosh, ko'krak, qorin  
 C) bosh, ko'krak, dum  
 D) boshko'krak, qorin
- 402.** Qisqichbaqa qonida erigan zararli mahsulotlar qaysi a'zo orqali tashqariga chiqarib yuboriladi?  
 A) anal teshigi  
 B) uzun naylar  
 C) tasmasimon buyraklar  
 D) yashil bezlar
- 403.** Go'shti uchun ovlanadigan qisqichbaqasimonlarni belgilang.  
 A) dafniya, krevetka  
 B) krab, omar  
 C) siklop, zaxkash  
 D) krab, dafniya
- 404.** O'rgimchakning nechta ko'zchasi bo'ladi?  
 A) 4 juft oddiy  
 B) 4 juft murakkab  
 C) 2 juft oddiy  
 D) 2 juft murakkab
- 405.** O'rgimchakning yuruvchi oyoqlari uning qaysi qismida joylashgan?  
 A) ko'krak va qorin qismlarida  
 B) ko'krakda  
 C) qorin qismida  
 D) boshko'krakda
- 406.** Qo'ng'iz va boshqa hasharotlarning oyoqlari ... bo'g'imli bo'lib, oxirgi bo'g'imi ... bilan ta'minlangan.  
 A) ko'p, paypaslagichlar  
 B) 6, qisqichlar  
 C) 5, o'tkir tirnoqlar

- D) 3, tukchalar
- 407.** Kolorado qo'ng'izi qanday nafas oladi?  
 A) malpigi naychasi orqali  
 B) o'pka bilan  
 C) o'pka, traxeya bilan  
 D) traxeyalar orqali
- 408.** Kapalak xartumi qaysi a'zolarning qo'shilishidan hosil bo'lgan?  
 A) yon jag'lar bilan yon lablarning  
 B) pastki jag'lar bilan ustki lablarning  
 C) yuqori jag'lar bilan yuqori lablarning  
 D) pastki jag'lar bilan pastki lablarning
- 409.** Karam kapalagining yosh qurtchalari dastlab qanday rangda bo'ladi?  
 A) oq  
 B) sariq  
 C) yashil  
 D) ko'k
- 410.** Tut ipak qurtining g'umbaklik davri necha hafta davom etadi?  
 A) 1 – 2  
 B) 2 – 3  
 C) 1  
 D) 5
- 411.** Voyaga yetgan vakillari hamda lichinkasi yirtqichlik bilan hayot kechiradigan hasharotni belgilang.  
 A) so'na  
 B) chigirtka  
 C) temirchak  
 D) ninachi
- 412.** Hasharotlarning qanotlari qaysi ko'krak bo'g'imi qoplag'ichidan hosil bo'lgan?  
 A) 1, 2, 3  
 B) 1 va 2  
 C) 3 va 4  
 D) 2 va 3

**413.** U eng yirik (3 – 4 sm) o'rgimchak, tuproqda chuqurligi 60 sm gacha bo'lgan tik inda yashaydi. Ushbu ta'rif qaysi jonzotga tegishli ekanligini belgilang.

- A) qoraqurt      B) o'rgimchak  
C) tarantul      D) falanga

**414.** Butli o'rgimchakning o'p-kasi tanasining qaysi qismida joylashgan?

- A) ko'krakning ostki tomonida  
B) ko'krakning yuqori qismida  
C) qorinning oldingi tomonida  
D) qorinning orqa tomonida

**415.** Qaysi hasharotlarda ovoz chiqarish va eshitish a'zolari mavjud?

- A) chirildoq, temirchak  
B) chigirtka, pashsha  
C) bo'ka, so'na, burga  
D) beshiktervatar, ari

**416.** Yashil tillaqo'ng'iz, chigirtka, ninachiga og'iz apparatining qaysi turi xos?

- A) kemiruvchi  
B) so'ruvchi  
C) kemiruvchi-yalovchi  
D) yalovchi-so'ruvchi

**417.** Nerv sistemasi halqum-usti, halqumosti nerv tugunlaridan va qorin nerv zanjiridan tashkil topgan hayvonlar guruhini belgilang.

- A) suv shillig'i, baqachanoq  
B) suv shillig'i, qisqichbaqa  
C) qisqichbaqa, o'rgimchak  
D) o'rgimchak, ilon

**418.** Qisqichbaqasimonlarga mansub hayvonlar qaysi qator-da berilgan?

1) siklop; 2) zaxkash; 3) kalmar; 4) krab; 5) baqachanoq; 6) midiya; 7) krevetka; 8) drey-sena.

- A) 1, 2, 5, 6, 7  
B) 3, 4, 5, 7, 8  
C) 3, 5, 6, 7  
D) 1, 2, 4, 7

**419.** Qaysi hasharotlarning og'iz organlari kemiruvchi tipda tuzilgan?

A) kapalak, ari, pashsha, chigirtka

B) ninachi, suvarak, qo'ng'iz, chigirtka

C) tut ipak qurti, karam kapalagi, olma qurti

D) qandala, chivin, shira bittlari

**420.** Langustning qaysi a'zo tuzilishi yomg'ir chuvalchanginikiga o'xshash bo'ladi?

A) ovqat hazm qilish sistemasi

B) nafas olish sistemasi

C) ayirish sistemasi

D) qon aylanish sistemasi

**421.** To'g'riqanotlilar nima bilan oziqlanadi?

A) o'simliklar

B) o'laksa ozuqalar

C) mayda hasharotlar

D) o'laksalar

**422.** O'rgimchaklarning tuyg'u a'zosi nima hisoblanadi?

A) kalta mo'ylovi

B) oyoq paypaslagichlari



C) uzun mo'ylovlari

D) yurish oyoqlari

**423.** Quyidagi hayvonlarning nafas olish organini ko'rsating.

1) daryo qisqichbaqasi; 2) butli o'rgimchak; 3) yashil til-laqo'ng'iz.

a) jabra; b) o'pka xaltachasi; c) traxeya.

A) 1 – c; 2 – b; 3 – a

B) 1 – a; 2 – c, b; 3 – c

C) 1 – b; 2 – c; 3 – b

D) 1 – a; 2 – c; 3 – b

**424.** Chumolining og'iz appa-ratini belgilang.

A) yalovchi

B) kemiruvchi

C) kemiruvchi-yalovchi

D) chaquvchi

**425.** Ninachilarning lichinkasi qayerda rivojlanadi?

A) chirindilarda

B) tuproqda

C) suvda

D) tuxumdonda

**426.** Oqmaydigan suv havza-lari yaqinida ninachining qaysi turi uchraydi?

A) suluv ninachi

B) moviy ninachi

C) halqali ninachi

D) suluv va moviy ninachi

**427.** Donli ekinlar doni va bar-gini so'rib oziqlanuvchi hasha-rotini belgilang.

A) to'shak qandalasi

B) kanalar

C) ninachilar

D) zararli hasva

**428.** Iskabtoparlar qaysi ha-sharotlar turkumiga xos?

A) pardaqanotlilar

B) qattiqqanotlilar

C) ikkiquanotlilar

D) tengqanotlilar

**429.** Chigirtka, temirchak, chirildoqlarning og'iz apparati qanday tipda tuzilgan?

A) so'ruvchi

B) sanchib-so'ruvchi

C) kemiruvchi

D) yalovchi

**430.** Qandalalar qanotlari-ning oldingi qismi qalinlashgan, keyingi qismi qanday tuzilishga ega?

A) yupqa va shaffof

B) qalin va ensiz

C) kalta o'simta shaklida

D) yelpig'ichsimon

**431.** Chirildoq, temirchak qay-si turkumga kiradi?

A) qattiqqanotlilar

B) to'g'riqanotlilar

C) tangachaqanotlilar

D) tengqanotlilar

**432.** Quyidagi hayvonlarning nafas olish organini ko'rsating.

1) daryo qisqichbaqasi; 2) butli o'rgimchak; 3) yashil tilla-qo'ng'iz.

a) jabra; b) o'pka xaltachasi; c) traxeya.

A) 1 – c; 2 – b; 3 – a

B) 1 – a; 2 – c, b; 3 – c

C) 1 – b; 2 – c; 3 – b

D) 1 – a; 2 – c; 3 – b

433. Quyidagi o'rgimchaksimonlar bilan ko'zlarining soni juftlab ko'rsatilgan to'g'ri javobni toping. 1) butli o'rgimchak; 2) falanga; 3) chayon;

a) 8; b) 12; c) 2.

A) 1 - a, 2 - b, 3 - c

B) 1 - a, 2 - c, 3 - b

C) 1 - b, 2 - a, 3 - c

D) 1 - b, 2 - c, 3 - a

434. Ham oddiy, ham murakkab ko'zga ega bo'lgan hasharotni belgilang.

A) tut ipak qurti

B) temirchak

C) asalari

D) qandala

435. Ishchi asalarining murakkab (I) va oddiy (II) ko'zchalarining soni to'g'ri berilgan javobni toping.

A) I - 1 ta; II - 2 ta

B) I - 2 ta; II - 2 ta

C) I - 2 ta; II - 3 ta

D) I - 2 ta; II - 4 ta

436. So'na hasharotlarning qaysi turkumiga mansub?

A) ikkiqanotlilar

B) pardaqanotlilar

C) tengqanotlilar

D) tangachaqanotlilar

437. Hasharotlarning eng qadimgi vakilini belgilang.

A) qandala B) chigirtka

C) ninachi

D) iskabtopar

438. O'pkasi (a), traxeyasi (b), o'pka va traxeyasi (c) yor-

damida nafas oluvchi hasharotlarni belgilang.

1) chayon; 2) iskabtopar; 3) butli o'rgimchak; 4) qandala; 5) biy; 6) suv shillig'i.

A) a - 1, 6; b - 2, 4; c - 3, 5

B) a - 1, 2; b - 3, 4; c - 5, 6

C) a - 1, 2; b - 4, 6; c - 3, 5

D) a - 6; b - 2, 4; c - 1, 3, 5

439. Tanasi a) boshko'krak va qorin, b) bosh, ko'krak va qorindan iborat hayvonlarni farqlang.

1) omar; 2) biy; 3) falanga; 4) bo'ka; 5) chayon; 6) qandala.

A) a - 1, 2, 3; b - 4, 5, 6

B) a - 1, 2, 5; b - 3, 4, 6

C) a - 1, 3, 5; b - 2, 4, 6

D) a - 2, 3, 5; b - 1, 4, 6

440. Yuragida 3 juft teshigi bo'lgan hayvonlarni belgilang.

A) biy, krab, qoraqurt

B) biy, iskabtopar, qandala

C) o'rgimchak, qisqichbaqa, xonqizi

D) chayon, qandala, qoraqurt

441. Faqat o'pka bilan nafas oluvchi o'rgimchaksimonlar sinfining vakilini belgilang.

A) butli o'rgimchak

B) qoraqurt

C) chayon D) biy

442. Qaysi hayvon tizimcha shaklidagi shilimshiq ip ichiga juda ko'p tuxum qo'yadi?

A) baqachanoq

B) baqa

C) yomg'ir chuvalchangi

D) suv shillig'i

**443.** Go'shti uchun ko'plab ovlanadigan mollyuskalarni belgilang.

- A) dreysena, midiya, ustritsa
- B) midiya, taroqchalar, baqachanoq
- C) taroqchalar, ustritsa, midiya
- D) bitiniya, sadafdorlar, dreysena

**444.** Osmnogning og'iz teshigi atrofida nechta oyoqchalari bo'ladi?

- A) 8
- B) 10
- C) 8 juft
- D) 12

**445.** Eng yirik o'rgimchaksi-monni belgilang.

- A) dafniya
- B) qoraqurt
- C) falanga
- D) kana

**446.** Bo'g'imoyoqlilar tipining qaysi vakilida boshining ustida bir juft yirikroq, ikki yonida besh juft mayda ko'zlari bo'ladi?

- A) asalari
- B) o'rgimchak
- C) qisqichbaqa
- D) chayon

**447.** Qanotsiz hasharotlarni ko'rsating.

- A) qandala, suvarak, burga
- B) bit, burga, to'shak qandalasi
- C) kapalak, burga, pashsha
- D) bit, burga, tillako'z

**448.** Bir juft so'lak bezlari halqumida ochiladigan hayvonni ko'rsating.

- A) yomg'ir chuvalchangi
- B) nereida
- C) tok shillig'i
- D) daryo qisqichbaqasi

**449.** Hasharotlar tinim davrida nima hisobiga yashaydi?

- A) qurtlik davrida to'plagan oziq
- B) g'amlab qo'ygan nektar
- C) tana suyuqligi va xitini
- D) ularda tinim davri bo'lmaydi

**450.** Kapalaklar keltirilgan qatorni belgilang.

a) poliksina; b) zorka; c) tovusko'z; d) podalariy; e) omar; f) nozema.

- A) a, b, e, f
- B) b, c, d, e
- C) a, b, c, d
- D) a, c, d, f

**451.** To'liq o'zgarish bilan rivojlanmaydigan hasharotlarni belgilang.

- A) suluv ninachi, tovusko'z
- B) karam kapalagi, burga
- C) chumoli, pashsha
- D) temirchak, hasva qandalasi

**452.** Chala o'zgarish bilan rivojlanmaydigan hasharotlarni belgilang.

- A) burga, xonqizi
- B) temirchak, suvarak
- C) chigirtka, podalariy
- D) chumoli, chirildoq

**453.** Qo'shqanotlilar turkumiga mansub hasharotlarni belgilang.

- A) iskabtopar, so'na
- B) iskabtopar, mita
- C) termit, chumoli
- D) uy pashshasi, xonqizi

**454.** Pardaqaqanotlilar turkumiga mansub hasharotlarni belgilang.

- A) iskabtopar, so'na, bo'ka
- B) iskabtopar, chivin, asalari

C) yaydoqchi, chumoli, qovog'ari

D) uy pashshasi, xonqizi, buzoqboosh

**455.** Erkak chivinlar nima bilan oziqlanadi?

A) odamning qoni bilan

B) o'simliklarning changi bilan

C) o'simlik shirasi bilan

D) kemiruvchilar qoni bilan

**456.** Hasharotlarning jinsiy organlari qayerda joylashgan?

A) ko'krak qismida

B) ko'krak va qorin bo'shlig'ida

C) qorin bo'shlig'ida

D) bosh-ko'krak qismida

**457.** Kapalaklarning xartumi nimalarning qo'shilishidan hosil bo'ladi?

a) pastki jag'; b) pastki lab; c) yuqori jag'; d) yuqori lab.

A) a, c

B) a, b

C) b, d

D) c, d

**458.** Qaysi hayvonning qoni nafas olishda qatnashmaydi?

A) krevetka

B) bitiniya

C) o'rgimchak

D) zorka

**459.** Birlamchi suvda yashovchi bo'g'imoyoqlilarni belgilang.

A) qisqichbaqasimonlar

B) o'rgimchaksimonlar

C) hasharotlar

D) mollyuskalar

**460.** Qisqichbaqaning og'iz teshigi nechta jag' bilan o'ralgan?

A) uchta

B) ikkita

C) to'rtta

D) olfita

**461.** Daryo qisqichbaqasining hid bilish va tuyg'u organlarini belgilang.

A) faqat uzun mo'ylovlari

B) faqat oyoqlaridagi tukchalar

C) mo'ylovlari va oyoqlari sirtida joylashgan tukchalar

D) kalta mo'ylovlari va xitin plastinkasi

**462.** Qisqichbaqaning qaysi oyoqlari ikki shoxli bo'ladi?

A) yurish oyoqlari

B) jag' oyoqlari

C) qorin oyoqlari

D) oyoq paypaslagichlari

**463.** O'rgimchaklarning ikkinchi juft og'iz organlari qanday ataladi?

A) ustki jag'

B) oyoq paypaslagichlari

C) ustki lab

D) pastki lab

**464.** O'rgimchaklarda paypaslagichlarning asosiy bo'g'imlari qanday vazifani bajaradi?

A) ustki jag'lar vazifasini

B) pastki lablar vazifasini

C) pastki jag'lar vazifasini

D) yuruvchi oyoqlar vazifasini

**465.** Yosh o'rgimchaklar tuxumdan qachon chiqadi?

A) yozda

B) kuzda

C) bahorda

D) qishda

**466.** Kananing xartumchasi nimadan hosil bo'lgan?

A) pastki labdan

B) yuqori jag' va pastki lablarning qo'shilishidan

C) yuqori jag' va oyoq pay-paslagichlari qo'shilishidan

D) xartumcha faqat hasharotlarda bo'ladi

**467.** Ustki jag'lari o'zaro o'xshash tuzilgan o'rgimchaksimonlarni ko'rsating.

1) butli o'rgimchak; 2) falanga; 3) chayon; 4) kana.

A) 1, 2                      B) 1, 3

C) 1, 4                      D) 2, 3

**468.** Chigirtkalar tuxumlarini qayerga qo'yadilar?

A) chiriyotgan daraxtlar tanasiga

B) organik moddalarga boy suv havzalariga

C) o'simlik barglari ostiga

D) tuproqdagi maxsus ko'zachalarga

**469.** Daryo qisqichbaqasida ovqat hazm qilish jarayoni qayerda tugallanadi?

A) ichakda

B) kichik oshqozonda

C) jigar naylarida

D) anal teshigida

**470.** Chuchuk suv (a) va dengizlarda (b) yashovchi qisqichbaqasimonlarni juftlab ko'rsating.

1) krevetka; 2) dafniya; 3) siklop; 4) langust; 5) omar.

A) a – 1, 2, 3; b – 4, 5

B) a – 1, 2, 4; b – 3, 5

C) a – 2, 3; b – 1, 4, 5

D) a – 2, 3, 5; b – 1, 4

**471.** Iskabtopar qaysi sinfga tegishli parazitlarning tashuvchisi hisoblanadi?

A) so'rg'ichlilar

B) tasmaimon chuvalchanglar

C) sporalilar

D) xivchinlilar

**472.** Chigirtkalarining qanotlari qanday taxlanadi?

A) qanotlari tanasining ikki yoniga yoyilib turadi

B) orqa qanotlari oldingi qanotlari ostida taxlanib turadi

C) qanotlari tanasi ustida tik bo'lib taxlanadi

D) oldingi qanotlari ostki qanotlari ostida taxlanib turadi

**473.** Poliksena hasharotlarining qaysi turkumiga mansub?

A) yarim qattiqqanotlilar

B) tangachaqanotlilar

C) to'g'riqanotlilar

D) ikkiqanotlilar

**474.** Yirtqich hasharotlarni ko'rsating.

1) ninachi; 2) ninachi lichinkasi; 3) xonqizi; 4) tillako'z; 5) podalariy; 6) tukli ari.

A) 1, 2, 6                      B) 1, 2, 5

C) 1, 2, 5, 6                      D) 1, 2, 3, 4

**475.** Bitta yopiq qon aylanish doirasiga ega bo'lgan organizmlarni ko'rsating.

1) lansetnik; 2) bo'rtma nematoda; 3) iskabtopar; 4) kulrang satir; 5) podalariy; 6) o'troq dengiz ko'p tukli chuvalchangi.

A) 1, 2, 5                      B) 1, 3, 6

C) 1, 6                              D) 3, 4, 5

**476.** Qaysi organizmlarda qon kislorod tashishda ishtirok etmaydi?

1) lansetnik; 2) bo'rtma nematoda; 3) iskabtopar; 4) tovuško'z; 5) katta sadafdor; 6) rapana.

A) 1, 2, 5      B) 1, 3, 6

C) 1, 6      D) 3, 4, 5

**477.** Baqachanoq bezovta qilinganda yopuvchi muskullar qisqarib, chig'anoq pallalari yopiladi. Muskullar bo'shashganda esa ... yordamida chig'anoq ochiladi.

A) ikki yon tomondagi muskullar

B) orqa tomondagi muskullar

C) yuqori va pastki paylar

D) orqa tomondagi elastik paylar

**478.** Quyidagi hayvonlarning qaysilari ochiq qon aylanish sistemasiga ega?

A) ustritsa, nereida

B) midiya, yomg'ir chuvalchangi

C) ipak qurti, bitiniya

D) qizil chuvalchang, kulrang satir

**479.** Termitlar oyoqlarining soni va joylashgan o'rnini belgilang.

A) 4 ta, ko'krak qismida

B) 6 ta, qorin qismida

C) 4 ta, qorin qismida

D) 6 ta, ko'krak qismida

**480.** Murakkab ko'rish qaysi hayvonlar uchun xos?

A) qo'ng'iz, pashsha, asalari, rapana

B) chivin, asalari, forel, suvarak

C) qo'ng'iz, asalari, pashsha, kapalaklar

D) kapalaklar, xonqizi, chumoli, bitiniya

**481.** Ikki xil yo'l bilan nafas oluvchi bo'g'imoyoqli hayvonning nomini belgilang.

A) suv shillig'i

B) siklop

C) termit

D) biy

**482.** Chigirtkada nechta yurish oyoqlari bo'lishini belgilang.

A) 2    B) 4    C) 8    D) 6

**483.** Yostiqsimon yalovchi xartumchaga ega hasharotni belgilang.

A) bo'ka

B) so'na

C) suluv qo'ng'iz

D) uy pashshasi

**484.** Vatani Himolay bo'lgan hasharotni belgilang.

A) qandala    B) chumoli

C) asalari    D) tut ipak qurti

**485.** Lichinkasi har bir tulashtan keyin xo'jayinini almashtirib turadigan hayvonni belgilang.

A) baqachanoq    B) jigar qurti

C) chayon      D) kana

**486.** Falanganing zahar bezi qaysi qismida joylashgan?

A) jag'lari asosida

B) nayzalarida

- C) zahar bezi bo'lmaydi  
D) boshko'krakda

**487.** Oyoqlari belkurakka o'xshash bo'lgan hasharotni toping.

- A) buzoqboshi  
B) qandala  
C) Kolorado qo'ng'izi  
D) chumoli

**488.** Uy pashshasining xartumchasi qaysi organdan tashkil topgan?

- A) yuqori labdan  
B) pastki labdan  
C) yuqori jag'dan  
D) pastki jag'dan

**489.** Yashil tillaqo'ng'izning og'iz apparati qanday tipda bo'ladi?

- A) kemiruvchi  
B) yalovchi  
C) so'ruvchi  
D) sanchib-so'ruvchi

**490.** Trilobitlardan quyidagi qaysi hayvonlar kelib chiqqan?

- A) ko'p tukli halqali chuvalchanglar  
B) qorinoyoqli mollyuskalar  
C) boshoyoqli mollyuskalar  
D) qisqichbaqasimonlar

**491.** Qaysi hasharotning lichinkasi dastlab sariq rangga, keyin rivojlanib ko'k-yashil rangga kiradi?

- A) Kolorado qo'ng'izi  
B) tut ipak qurti  
C) oq kapalak  
D) asalari

**492.** Qaysi hasharot lichinkasi chirib uvalanib ketgan yo-

g'och qoldiqlari bilan oziqlanadi?

- A) tillaqo'ng'iz B) mita  
C) bo'kalar D) kana

**493.** Asalarining qon aylanish sistemasi qanday vazifani bajaradi?

- A) organizmni qon va kislorod bilan ta'minlaydi  
B) organizmni faqat kislorod bilan ta'minlaydi  
C) karbonat angidridni tanadan tashqariga chiqaradi  
D) butun tanani oziq moddalar bilan ta'minlaydi

**494.** Quyida berilgan hasharotlar qaysi turkumga mansub ekanligini belgilang.

- 1) chirildoq; 2) bo'ka; 3) yovvoyi ari; 4) qandala.  
a) chalaqanotlilar; b) to'g'riqanotlilar; c) qo'shqanotlilar; d) pardaqaqanotlilar.

- A) 1 - a, 2 - b, 3 - c, 4 - d  
B) 1 - b, 2 - c, 3 - d, 4 - a  
C) 1 - c, 2 - d, 3 - a, 4 - b  
D) 1 - d, 2 - c, 3 - b, 4 - a

**495.** Butli o'rgimchakning oyoq paypaslagichlari va uning asosiy bo'g'imlari qaysi organ vazifasini bajaradi?

1) hid bilish; 2) tuyg'u; 3) pastki jag'; 4) yuqori jag'; 5) o'ljaning tanasini teshish.

- A) 1, 4 B) 3 C) 1, 3 D) 3, 5

**496.** Falanganing jag'lari va oyoq paypaslagichlari nimaga o'xshaydi?

A) o'tkir tirnoq, yurish oyoqlariga

B) qisqich, qorin oyoqlariga  
C) o'tkir nayzaga, ko'krak oyoqlariga

D) xartumga, og'iz apparatiga

**497.** Butli o'rgimchakning qaysi organi tuyg'u vazifasini bajaradi?

A) pastki lablari

B) yuqori jag'lari

C) oyoq paypaslagichlari

D) pastki jag'lari

**498.** Chayonlarning ko'zi nechta va boshining qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

A) boshining ustki qismida, 4 juft

B) boshining yon tomonida, 5 juft

C) boshining ustki tomonida, 4 juft

D) boshining ustida 1 juft ko'z, yon tomonida 5 juft

**499.** Xonqizining paypaslagichi qanday a'zo hisoblanadi?

A) tuyg'u, ta'm bilish

B) eshitish, hid bilish

C) hid va ta'm bilish

D) eshitish va tuyg'u

**500.** Og'iz apparati kemiruvchi tipda bo'lgan hasharotlar guruhini belgilang.

1) chumoli; 2) karam kapalagigi; 3) bo'ka; 4) tillaqo'ng'iz; 5) asalari; 6) beshiktervatar.

A) 1, 3, 6      B) 2, 4, 5

C) 1, 2, 3      D) 1, 4, 6

**501.** Qaysi hayvonning ayirish sistemasi malpigi naychasidan iborat?

A) daryo qisqichbaqasi

B) nereida

C) temirchak    D) qoraqurt

**502.** To'la o'zgarishga ega bo'lgan hasharotlarni belgilang.

1) suvarak; 2) buzoqboshi; 3) mita; 4) chumoli; 5) beshiktervatar; 6) yashil tillaqo'ng'iz; 7) uy chivini; 8) bezgak chivini.

A) 3, 4, 6, 7, 8

B) 3, 2, 8, 1, 6

C) 1, 2, 3, 4, 5

D) 1, 2, 6, 5, 7

**503.** Anjirning asosiy changlatuvchi hasharotlarini toping.

A) yovvoyi arilar

B) asalarilar

C) paxmoq arilar

D) kapalaklar

**504.** Qaysi hayvonlarning urg'ochilarida yirik tuxumdon, erkaklarida bir juft uzun urug'don bo'ladi?

A) oq planariya

B) kovakichlilar

C) tasmasimon chuvalchanglar

D) baliqlar

**505.** Qaysi hasharotlarning lichinkalari to'rt marta tullaydi va beshinchi yoshni o'tib, voyaga yetgan hasharotlarga aylanadi?

1) qandala; 2) tillaqo'ng'iz; 3) asalari; 4) ninachi; 5) yaydoqchi; 6) tut ipak qurti; 7) chigirtka; 8) yovvoyi ari; 9) hasva; 10) sariq ari.

A) 1, 5, 8, 10    B) 1, 3, 6, 9



C) 1, 3, 6, 7 D) 1, 4, 7, 9

**506.** Quyida berilgan hasharotlarning lichinkalari qayerlarda rivojlanadi?

1) chivin; 2) bo'ka; 3) yashil tillaqo'ng'iz; 4) ninachi.

a) hayvonlar tanasida; b) chirigan yog'ochlarda; c) tuproq ostida; d) suvda.

A) 1 - d, 2 - b, 3 - a, 4 - c

B) 1 - c, 2 - a, 3 - d, 4 - b

C) 1 - g, 2 - a, 3 - b, 4 - d

D) 1 - a, 2 - b, 3 - c, 4 - d

**507.** O'rgimchaksimonlar sinfi qaysi turkumlarni o'z ichiga oladi?

1) o'rgimchaklar; 2) tarantullar; 3) qoraqurtlar; 4) falangalar; 5) chayonlar; 6) kanalar.

A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5

C) 1, 2, 3, 6 D) 1, 4, 5, 6

**508.** Nerv tugunlari boshqa hasharotlarga nisbatan kuchli rivojlangan hasharotlarni belgilang.

A) chumoli, asalari

B) qo'ng'izlar, asalari

C) tillaqo'ng'iz, yaydoqchi

D) tillaqo'ng'iz, chumoli

**509.** Qaysi kapalaklar ko'rim-siz va oqish rangda bo'ladi?

A) karam kapalagi, maxaon

B) tunlam, tut ipak qurti kapalagi

C) do'lana kapalagi, podalariy

D) karam kapalagi, zorka

**510.** Xartumi 5 ta uzun qilchadan iborat bo'lgan hayvonni belgilang.

A) asalari B) so'na

C) uy pashshasi

D) chivin

**511.** Uy pashshasining yuragi kengayganda qon qayerdan qaysi tomonga harakat qiladi?

A) tana bo'shlig'idan yurakning ikki yonidagi teshikka

B) tana bo'shlig'idan yurak bo'lmasiga

C) tana bo'shlig'idan yurak qorinchasiga

D) yurakdan orqa tomonga

**512.** Bo'g'imli oyoqlari uch juft, tanasi uch bo'limli, bir juft mo'ylovlari bor, traxeyasi bilan nafas oladi. Bu xarakterli belgilar qaysi hayvonlarga tegishli?

A) o'rgimchaksimonlar

B) qisqichbaqasimonlar

C) hasharotlar

D) kanalar

**513.** Bo'ka, so'na qaysi turkumga mansub?

A) pardaqanotlilar

B) to'g'riqanotlilar

C) qo'shqanotlilar

D) tengqanotlilar

**514.** Hasharotlarning qoni ... tashishda ishtirok etmaydi.

A) kislorod, karbonat angidrid

B) oziq, zaharli moddalar

C) oziq, kislorod

D) karbonat angidrid, suv, oziq

**515.** To'la o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlar guruhini belgilang.

1) burga; 2) pashsha; 3) qandala; 4) suvarak; 5) ari; 6) qo'ng'iz; 7) chigirtka; 8) kapalak.

A) 1, 6, 8      B) 2, 3, 5

C) 1, 4, 5      D) 3, 7, 8

**516.** Qo'shqanotlilar turkumiga kiruvchi hasharotlarni belgilang.

A) uy pashshasi, so'na

B) chivin, yaydoqchilar

C) so'na, qandala

D) kuya, bitlar

**517.** Urg'ochi pashshalar har ... kunda ... tadan tuxum qo'yadi.

A) 2 - 4; 100 - 150

B) 3 - 4; 200 - 250

C) 4 - 5; 250 - 300

D) 6 - 9; 300 - 350

**518.** Parazitlik qilib yashashi tufayli qanotlari yo'qolib ketgan hasharotlarni belgilang.

1) it kana; 2) bit; 3) burga; 4) o'rgimchakkana; 5) falanga; 6) chayon; 7) to'shak qandalasi; 8) kuya.

A) 1, 5, 6      B) 1, 4, 8

C) 2, 3, 5      D) 2, 3, 7

**519.** Qisqichbaqaning urg'ochisi erkagidan ... bilan farq qiladi.

1) ancha yirikligi; 2) qorin qismining yo'g'onligi; 3) ancha kichik bo'lishi; 4) qorin qismining ingichkaligi; 5) qisqichlarining tuzilishi; 6) birinchi va ikkinchi juft qorin oyoqlarining tuzilishi.

A) 1, 2, 3      B) 1, 3, 4

C) 1, 5, 4      D) 1, 2, 6

**520.** Quyida berilgan hasharotlarning og'iz organlari qanday tuzilganligi to'g'ri berilgan javobni toping.

1) uy pashshasi; 2) zorka; 3) asalari; 4) chumoli.

a) kemiruvchi; b) kemiruvchi-so'ruvchi; c) yalovchi; d) so'ruvchi.

A) 1 - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d

B) 1 - b; 2 - a; 3 - d; 4 - c

C) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d

D) 1 - c; 2 - d; 3 - b; 4 - a

**521.** Quyida berilgan hasharotlarning oyoqlari qanday tuzilgan?

1) suvarak; 2) chirildoq; 3) buzoqbosh.

a) oldingi oyoqlari belkurakka o'xshash; b) hamma oyoqlari bir xil; c) orqa oyoqlari kuchli rivojlangan.

A) 1 - a; 2 - b; 3 - c

B) 1 - b; 2 - c; 3 - a

C) 1 - c; 2 - b; 3 - a

D) 1 - a; 2 - c; 3 - b

**522.** Erkak hasharotlar urg'ochilariga nisbatan...

1) kichikroq va xipcha; 2) yirikroq va enliroq; 3) mo'ylovlari kuchsiz; 4) mo'ylovlari kuchli rivojlangan; 5) hidni yaxshi sezmaydi; 6) hidni juda yaxshi sezadi; 7) qorin qismi kattaroq.

A) 2, 5, 7      B) 2, 3, 5

C) 1, 4, 6      D) 1, 3, 7

**523.** Qaysi hasharotlarning qoni tarkibidagi zaharli modda

ularni dushmanlardan himoya qiladi?

- A) xonqizi, Kolorado qo'ng'izi
- B) asalari, sariq ari
- C) odimchi kapalak, tillaqo'ng'iz

D) ninachi, arisimon pashsha  
**524.** Ayirish sistemasi malpigi naychalardan iborat bo'lgan hayvonlarni belgilang.

1) podalariy; 2) oq chirildoq; 3) zaxkash; 4) oq kapalak; 5) yaydoqchi; 6) bo'ka; 7) martishka; 8) biy; 9) suv shillig'i; 10) tri-dakna.

- A) 1, 3, 4, 6, 10
- B) 1, 2, 4, 5, 6
- C) 2, 3, 7, 8, 9
- D) 2, 4, 5, 7, 10

**525.** Ustki jag'lari o'rgimchaknikiga o'xshaydi, lekin oyoq paypaslagichlari kuchli rivojlangan bo'lib, qisqichga aylangan. Ushbu tasnif qaysi o'rgimchaksimonga xos?

- A) tarantul
- B) falanga
- C) qoraqurt
- D) chayon

**526.** Hasharotlarning qoni qaysi jarayonda ishtirok etmaydi?

- A) nafas olishda
- B) yurak qisqarishida
- C) yurak kengayishida
- D) tana bo'shlig'ini to'ldirib turishda

**527.** Qaysi hasharotlarning bosh miyasi va nerv tugunlari juda kuchli rivojlangan?

- A) yashil tillaqo'ng'iz, xonqizi
- B) chumoli, ari

C) kapalak, chigirtka

D) qandala, chumoli

**528.** Erkak hasharotlar urg'ochilaridan qanday farq qiladi?

A) kichikroq va xipcharoq, mo'ylovlari kuchli

B) kichikroq va xipcharoq, mo'ylovlari kalta

C) katta va yo'g'on, mo'ylovlari kuchli

D) kichikroq va xipcharoq, mo'ylovlari kuchsiz

**529.** Yashil tillaqo'ng'iz g'umbakdan qachon chiqadi?

- A) bahorda
- B) yozda
- C) kuzda
- D) qishda

**530.** To'la o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlarni belgilang.

- A) burga, qo'ng'iz, chumoli
- B) to'shak qandalasi, pashsha
- C) asalari, suvarak, qovog'ari
- D) qandala, buzoqboshi, ninachi

**531.** Tut ipak qurtining so'lak bezlari joylashuvi tog'ri berilgan javobni toping.

- A) bosh qismida joylashgan
- B) tana bo'shlig'ini to'ldirib turadi
- C) jag'larida joylashgan
- D) tanasining orqa qismida joylashgan

**532.** Tut ipak qurtining erkak kapalaklaridan urg'ochilarga qaraganda ... foiz ko'p pilla olinadi. Nuqtalar o'rniga tegishli javobni belgilang.

- A) 20 - 30
- B) 15 - 20

C) 30 – 40      D) 40 – 50

**533.** Ipak qurti bezlari ishlab chiqargan suyuqlikdan necha metr ip hosil bo'ladi?

- A) 700 – 800
- B) 50 – 150
- C) 1000 – 1200
- D) 1000 – 1500

**534.** Bo'g'imoyoqlilarning qadimgi ajdodi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) qisqichbaqasimonlar
- B) yassi chuvalchanglar
- C) trilobitlar
- D) yumaloq chuvalchanglar

**535.** Urg'ochi qisqichbaqalar qaysi belgilari bilan erkagidan farq qiladi?

- A) mo'ylovlari kuchli rivojlangan
- B) qorinoyoqlari kuchli rivojlangan
- C) og'iz organlari kuchli rivojlangan
- D) qorin qismi kengroq

**536.** Qaysi hayvonlarning tanasida boshi bo'lmaydi?

1) baqachanoq; 2) chivin; 3) suv shillig'i; 4) uy pashshasining qurti; 5) yashil tillaqo'ng'izning qurti; 6) itbaliq.

- A) 1, 4                      B) 2, 3, 5, 6
- C) 2, 5, 6                D) 1, 3, 4

**537.** Quyidagi ninachilarni ular yashaydigan muhit bilan juftlab ko'rsating.

1) moviy ninachi; 2) halqali ninachi; 3) suluv ninachi.

a) vohalar; b) tog'li hududlar; c) oqmaydigan suv havzasi yaqini.

- A) 1 – a, 2 – b, 3 – c
- B) 1 – c, 2 – a, 3 – b
- C) 1 – a, 2 – a, 3 – a
- D) 1 – a, 2 – c, 3 – b

**538.** To'shak qandalasiga xos belgilarni belgilang.

A) odam va hayvonlar qoni va teri hujayralari bilan oziqlanadi

B) qanoti bo'lmaydi, tanasi mayda sezgir tuklar bilan qoplangan, hidni yaxshi sezadi

C) xonadonlarda yashaydi, qanotlari mayda, hidni yaxshi sezmaydi, it va mushuklar qoni bilan oziqlanadi

D) qanotsiz, tanasi sezgir tuklar bilan qoplangan, hidni juda yaxshi sezadi, odam va hayvonlar qoni bilan oziqlanadi

**539.** To'la (1) va chala (2) o'zgarishli rivojlanadigan turkumlarni ajratib ko'rsating.

a) ninachilar; b) tangachaqanotlilar; c) pardaqanotlilar; d) to'g'riqanotlilar; e) ikkiqanotlilar; f) qandalalar.

- A) 1 – a, d, f; 2 – b, c, e
- B) 1 – b, c, e; 2 – a, d, f
- C) 1 – a, b, c; 2 – d, e, f
- D) 1 – b, c, d; 2 – a, e, f

**540.** Hasharotlar qoni qanday vazifalarni bajaradi?

1) oziq moddalarni tashish; 2) moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlarini tashish; 3) karbonat angidridni tashish;

4) kislorod tashish; 5) gumoral boshqarilish.

A) 1, 2                      B) 1, 2, 3

C) 1, 3, 5                  D) 1, 2, 4

**541.** «Bosh miyasi» bo'lgan umurtqasiz hayvonlarni toping.

1) asalari; 2) baliq; 3) karakatitsa; 4) baqa; 5) chumoli; 6) kalmar; 7) krab; 8) osminog.

A) 2, 4, 7, 8

B) 1, 3, 5, 6, 8

C) 1, 2, 3, 4              D) 1, 3, 4, 6

**542.** Bo'g'imoyoqlilarning ajdodi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A) tuban tuzilgan yassi chuvalchanglar

B) tuban tuzilgan to'garak chuvalchanglar

C) tuban tuzilgan halqali chuvalchanglar

D) tuban tuzilgan boshoyoqli mollyuskalar

**543.** Halqali chuvalchanglar bilan bo'g'imoyoqlilar o'rtasidagi oraliq turni belgilang.

A) ninachi

B) qadimgi ichaksiz kiprikli chuvalchanglar

C) nozema

D) trilobit

**544.** Kemiruvchi (1), kemiruvchi-so'ruvchi (2) va sanchib-so'ruvchi (3) og'iz apparati qaysi bo'g'imoyoqlilarga xos?

a) beshiktervatar; b) chigirtka; c) ishchi asalari; d) uy pashshasi; e) kana.

A) 1 – a, b; 2 – c; 3 – e

B) 1 – a, b; 2 – d; 3 – e

C) 1 – e; 2 – a, b; 3 – c

D) 1 – a, b; 2 – d; 3 – e, c.

**545.** Tukli arilar (1) va yovvoyi arilar (2) qaysi o'simliklarni changlatadi?

a) beda; b) grechixa; c) sebarga; d) kungaboqar.

A) 1 – b, d; 2 – a, c

B) 1 – a, c; 2 – b, d

C) 1 – a, d; 2 – b, c

D) 1 – b, c; 2 – a, d

**546.** Hasharotlarning yuragi qisqarganda (1) va kengayganda (2) qon qayerda harakatlanadi?

a) bosh tomon va u yerdan tana bo'shlig'iga; b) tana bo'shlig'idan yurak ichiga; c) yurakdan bosh tomonga va u yerdan buyrakka; d) tana bo'shlig'idan bosh miyaga, o'pkaga.

A) 1 – b; 2 – a

B) 1 – c; 2 – d

C) 1 – d; 2 – c

D) 1 – a; 2 – b

**547.** O'rgimchak oyoq paypaslagichlarining yurish oyoqlariga o'xshash(1)ligi va farqi(2)ni belgilang.

a) bo'g'imli; b) bo'g'imlarga bo'linmagan; c) kalta; d) uzun.

A) 1 – a; 2 – c

B) 1 – b; 2 – c

C) 1 – a; 2 – d

D) 1 – b; 2 – d

**548.** O'rgimchaksimonlar va-killarini ularga xos xususiyatlar bilan juftlab bering.

a) falanga; b) chayon; c) kana.

1) tanasi bosh, ko'krak, qorin qismlariga bo'lingan; 2) oyoq paypaslagichlari yurish oyoqlariga o'xshaydi; 3) tanasi bosh-ko'krak va qorin qismlariga bo'lingan; 4) o'pka orqali nafas oladi; 5) o'pka va traxeya orqali nafas oladi; 6) gavda bo'limlari qo'shilib ketgan; 7) hidni yaxshi sezadi; 8) oyoq paypaslagichlari yo'qolgan.

A) a - 3, 5; b - 1, 4; c - 7, 8

B) a - 1, 2, 5; b - 3, 4; c - 6, 7, 5

C) a - 1, 2; b - 3, 5; c - 6, 7

D) a - 1, 8; b - 3, 4; c - 6, 7, 8

**549.** Qaysi hasharotlarning g'umbagi qayerda rivojlanishini juftlab ko'rsating.

a) tillaqo'ng'iz; b) oq kapatak; c) uy pashshasi; d) Kolorado qo'ng'izi.

1) tuproqda; 2) daraxtda; 3) yog'och-qoldiqlari-orasida.

A) a - 1; b - 2; c, d - 3

B) a - 2; b - 1; c, d - 3

C) a - 3; b - 2; c, d - 1

D) a, c - 3; b - 2; d - 1

**550.** Maxsus sezgi a'zolari bo'lmaydigan hayvonlarni belgilang.

A) yomg'ir chuvalchangi, drey-sena

B) suv shillig'i, qizil chuvalchang

C) exinokokk, zaxkash

D) siklop, qoraqurt

**551.** O'rgimchaklarda nima tuyg'u organi hisoblanadi?

A) barmoqlari

B) yurish oyoqlari

C) kalta mo'ylovlari

D) oyoq paypaslagichlari

**552.** Hasharotlarning tuxum hujayrasi qayerda urug'lanadi?

A) anal teshigida

B) urg'ochi organizmning urug' yo'lida

C) tashqi muhitda

D) urg'ochi organizmning tuxum yo'lida

**553.** Tuxumdan chiqqan kana lichinkalarining necha juft oyoqlari bo'ladi?

A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

**554.** O'rgimchakning nafas olish-organlari-qanday tuzilishga ega?

A) juft o'pka xaltachalari shaklida

B) traxeya shaklida

C) nafas teshikchalari shaklida

D) nafas teshigi, traxeya, juft o'pka

**555.** Nafas olish organlari oyoqlari tubidan o'sib chiqqan jabralar bo'lgan hayvonlar sinfini belgilang.

A) qisqichbaqalar

B) ko'p tukli halqali chuvalchanglar

C) tog'ayli baliqlar

D) suyakli baliqlar

**556.** O'zbekistonning cho'l hududlarida uchraydigan qisqichbaqasimo'nni belgilang.

A) chayon B) langust

C) zaxkash D) tarantul

**557.** Qisqichbaqaning qaysi a'zosi tuyg'u va hid bilish vazifasini bajaradi?

A) mo'ylovlari

B) paypaslagichi

C) terisi, paypaslagichi, ko'zi

D) tukchalari

**558.** Falangalarga xos xususiyatlarni toping.

1) jag'lari o'tkir tirnoqqa o'xshaydi; 2) oyoq paypaslagichlari yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 3) zahar bezlari bor; 4) zahar bezlari yo'q; 5) oyoq paypaslagichlari yurish oyoqlariga o'xshaydi; 6) jag'lari o'tmas.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 5

C) 1, 5, 6 D) 1, 4, 5

**559.** Katta sadafdor nimasi orqali nafas oladi?

A) teri va o'pka orqali

B) jabra bilan

C) o'pkasi orqali

D) traxeyalari orqali

**560.** O'rgimchaksimonlardan qaysi biri hasharotlar, mayda sudralib yuruvchilar va kemiruvchilar bilan oziqlanadi?

A) tarantul B) falanga

C) chayon D) biy

**561.** Hasharotlarni o'rganish, zararkunanda hasharotlarga qarshi foydali hasharotlar yordamida biologik kurash olib borish usullarini ishlab chiqqan olimlarni belgilang.

1) V.V.Yaxontov; 2) J.A.Azimov; 3) A.M.Muhammadiyev; 4) O.P.Bogdanov; 5) R.O.Olimjonov; 6) T.Z.Zohidov; 7) S.N.Alimuhamedov.

A) 1, 5, 7 B) 2, 4, 6

C) 3, 5, 7 D) 2, 5, 7

**562.** O'q skeleti xorda bo'lib, butun hayoti davomida saqlanib qoladigan baliqni belgilang.

A) qilquyruq

B) forel

C) zog'ora baliq

D) gulmoy

**563.** Suyak-tog'ayli baliqlar sinfi vakillarini belgilang.

A) akula, forel

B) orol baqra balig'i, skat

C) karp, forel

D) qilquyruq, baqra baliq

**564.** Lansetnik; asosan, qaysi belgilariga ko'ra umurtqasiz hayvonlarga o'xshashligini belgilang.

A) ayirish sistemasi, nerv sistemasi

B) muskullari, qon aylanish sistemasi

C) ovqat hazm qilish, nerv sistemasi

D) ovqatlanish, qon aylanish, ayirish sistemasi

**565.** Panjaqanotli baliqlar turkumiga kiradigan baliqni belgilang.

A) treska B) manta

C) sterliyad

D) latimeriya

**566.** Lansetnik, asosan, qaysi belgilariga kó'ra umurtqali hayvonlar guruhiga kiritilgan?

A) jabra yoriqlari, tana bo'shlig'i

B) qon aylanish sistemasi, nerv sistemasi

C) xorda, nerv sistemasi

D) ayirish sistemasi, ovqat hazm qilish sistemasi

**567.** Tikanli akula qaysi tipga mansub?

A) xordalilar

B) tog'ayli baliqlar

C) baliqlar

D) bo'g'imoyoqlilar

**568.** Tog'ayli baliqlarning jabra yoriqlari necha juft bo'ladi?

A) 3 – 5                      B) 10 – 20

C) 4 – 5                      D) 5 – 7

**569.** O'pka va havo xaltachalari bilan nafas oluvchi umurtqali hayvon qaysi?

A) butli o'rgimchak

B) kit

C) baqa                      D) vyurok

**570.** Yo'ldoshli sutemizuvchilarga qaysi hayvonlar kiradi?

A) o'rdakburun, yexidna

B) kenguru, koala

C) delfin, kasatka

D) krot, koala

**571.** Yevropa daryolaridan Sargass dengiziga borib tuxum qo'yadigan baliqni belgilang.

A) keta                      B) gorbusha

C) ugor                      D) tilyapiya

**572.** Sudralib yuruvchi hayvonlarning dastlabki ajdodini belgilang.

A) tog'ayli baliqlar

B) suyakli baliqlar

C) suvda ham quruqlikda yashovchilar

D) panja qanotli baliqlar

**573.** Sudralib yuruvchilarning asosiy turkumlari qaysi javobda berilgan?

A) dumlilar, dumsizlar, tangachalilar

B) oyoqsizlar, toshbaqalar, tritonlar

C) toshbaqalar, timsohlar, dumlilar

D) tangachalilar, toshbaqalar, timsohlar

**574.** Qaysi hayvonda faqat quymich bezi yaxshi rivojlangan?

A) triton

B) qorsak

C) agama

D) suqsun

**575.** Yuragi to'rt kamerali xordalilar tipining vakilini belgilang.

A) ko'k kit                      B) lansetnik

C) triton                      D) salamandra

**576.** Tog' daryolarida tarqalgan qora baliq qaysi turkumga kiradi?

A) cho'rtanlar

B) suyak tog'ayli baliqlar

C) baqra baliqlar

D) karpsimonlar

**577.** Losossimonlar turkumiga kiruvchi baliqlar guruhini toping.



1) losos; 2) oq amur; 3) keta; 4) gorbusha; 5) osyotr; 6) ilonbosh; 7) forel; 8) laqqa.

- A) 1, 2, 6, 7    B) 1, 3, 4, 7  
C) 1, 4, 5, 7    D) 1, 3, 4, 6

**578.** Qushlardagi o'mrov muskullarining qisqarishi tufayli qanday jarayon yuz beradi?

- A) qanotlar tushadi  
B) qanotlar ko'tariladi  
C) ko'krak qafasi kengayadi  
D) ko'krak qafasi torayadi

**579.** Tuyaqushning qon aylanish sistemasi qanday va nechta qon aylanish doirasidan iborat?

- A) yopiq, 1 ta  
B) yopiq, 3 ta  
C) ochiq, 1 ta  
D) yopiq, 2 ta

**580.** Kaltakesakning ovqat hazm qilish sistemasi qanday tartibda joylashgan?

1) oshqozon; 2) ichak; 3) og'iz bo'shlig'i; 4) halqum; 5) qizilo'ngach; 6) kloaka.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
B) 4, 5, 1, 2, 6, 3  
C) 3, 4, 5, 1, 2, 6  
D) 3, 4, 5, 6, 2, 1

**581.** Gigant salamandra tanasining qaysi qismida arteriya qoni bilan vena qoni aralashadi?

- A) o'pka  
B) buyrak  
C) yurak qorinchasi  
D) yurak bo'lmachasi

**582.** Kaltakesakning tanasi nima bilan qoplangan?

A) muguz tangachalar va shilimshiq

- B) muguz tangachalar  
C) shilimshiq parda  
D) suyak tangachalar

**583.** Ikki xil yo'l bilan nafas oluvchi hayvonni belgilang.

- A) kit                    B) mita  
C) delfin                D) baqa

**584.** Qilquyuqning o'q skeleti nima hisoblanadi?

- A) xitin qoplam  
B) xorda  
C) umurtqa    D) kutikula

**585.** Qaysi qush jufti faqat bir mavsum davomida saqlanadi?

- A) musicha    B) qarqara  
C) qur                D) laylak

**586.** Yashil qurbaqaning yuragi qanday tuzilishga ega?

- A) naychasiimon  
B) to'rt kamerali

- C) ikki kamerali  
D) uch kamerali

**587.** Lososimonlar turkumiga mansub baliqni belgilang.

- A) sudak  
B) oq amur  
C) laqqa baliq  
D) gulmoy

**588.** Baqanikiga nisbatan kaltakesakning o'pkasi va yuragi ancha murakkab tuzilishiga qaramay, uning organizmida moddalar almashinuvi ancha sekin boradi. Bunga sabab nima?

- A) hayot kechirish tarzi  
B) namlikning yetishmasligi

- C) tez harakat qilishi  
D) tashqi muhit harorati

**589.** Lansetnikning haqiqiy xordali hayvon ekanligini aniq-lagan olimni belgilang.

- A) K.I.Skryabin  
B) V.V.Yaxontov  
C) J.A.Azimov  
D) A.O.Kovalevskiy

**590.** Tana harorati tashqi muhit haroratiga bog'liq bo'lgan hayvonni belgilang.

- A) triton                      B) nandu  
C) turna                      D) tulki

**591.** Qaysi qushning erkagi va urg'ochisi qo'ygan tuxumni galma-gal bosib yotadi?

- A) tuvaloq                      B) tuyaqush  
C) turna                      D) qorabag'ir

**592.** Ko'chmanchi qushlar guruhini belgilang.

1) bulbul; 2) qorayaloq; 3) zarg'aldoq; 4) mayna; 5) zag'cha; 6) bedana; 7) qaldirg'och; 8) olaqarg'a.

- A) 1, 7, 8                      B) 3, 5, 7  
C) 4, 5, 6                      D) 2, 5, 8

**593.** Qaysi qushlarning doimiy qishlov joyi bo'lmaydi?

- A) o'troq  
B) uchib o'tuvchi  
C) ko'chmanchi  
D) uchib ketuvchi

**594.** O'troq qushlarni belgilang.

- A) kabutar, mayna  
B) qur, zag'cha  
C) turna, tuyaqush  
D) tuvaloq, oqqush

**595.** Gigant salamdraning uzunligi qancha?

- A) 1,7 m                      B) 5 m  
C) 1,2 m                      D) 0,7 m

**596.** Suvda ham quruqda yashovchi hayvonlarning eng yirigini belgilang.

- A) Kavkaz tritoni  
B) Janubiy Osiyo salamdrasi  
C) O'rta Osiyo salamdrasi  
D) Janubi-Sharqiy Osiyo salamdrasi

**597.** Suvda va quruqda yashovchi qaysi hayvon 9 oy davomida 3000 tagacha hasharotni yo'qotadi?

- A) yashil baqa  
B) qurbaqa  
C) kvaksha  
D) triton

**598.** Yiliga bir necha mar-ta bolalaydigan sutemizuvchi hayvonlar guruhini belgilang.

1) sichqon; 2) tovushqon; 3) kit; 4) quyon; 5) qo'y; 6) delfin; 7) sher.

- A) 1, 2, 6                      B) 3, 4, 6  
C) 2, 5, 7                      D) 1, 2, 4

**599.** Norka sutemizuvchi hayvonlarning qaysi turkumiga kirishini belgilang.

- A) yirtqichlar  
B) kemiruvchilar  
C) suvsarlar  
D) kurakoyoqlilar

**600.** Sutemizuvchilar sinfi-ning qaysi turkum vakillarida qoziq tishlar baquvvat, kurak tishlari mayda bo'ladi?

- A) qo'lqanotlilar
- B) yirtqichlar
- C) primatlar
- D) kemiruvchilar

**601.** Juft tuyoqlilar ovqat hazm qilish sistemasining qaysi bo'limida bakteriyalar va infuzoriyalar yashaydi?

- A) oshqozon
- B) o'n ikki barmoqli ichak
- C) yo'g'on ichak
- D) to'g'ri ichak

**602.** O'ljasini hididan bilib uning orqasidan ta'qib qilib tutib oladigan hayvonlar qaysilar?

- A) tulki, qorsak
- B) qoplon, bo'rsiq
- C) silovsin, bo'ri
- D) yo'lbars, sher

**603.** Juft tuyoqlilar turkumiga mansub hayvonlar guruhi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A) ot, tuya, jirafa
- B) qulon, fil, tuya
- C) begemot, to'ng'iz, tuya
- D) tog' zebresi, zubr, hind karkidoni

**604.** Tuxumini yalang'och qoyaga qo'yib bosib yotadigan qushni belgilang.

- A) kakku
- B) kayra
- C) qirg'iy
- D) burgut

**605.** O'txo'r hayvonlarda sezgi oganlaridan qaysi biri kuchli rivojlangan?

- A) hid bilish
- B) eshitish
- C) ko'rish
- D) ta'm bilish

**606.** Qaysi hayvonlardan chorva mollarini boqish uchun oziq uni olinadi?

- A) baqa
- B) triton
- C) qush
- D) baliq

**607.** Qushlarning oyoq skeletini qaysi suyaklar hosil qiladi?

1) son; 2) boldir; 3) bilak; 4) tirsak; 5) ilik; 6) barmoq; 7) chanoq; 8) yelka; 9) tovon.

- A) 1, 2, 5, 6
- B) 1, 2, 3, 6
- C) 1, 3, 4, 9
- D) 1, 5, 6, 7

**608.** Qushlar bosh miyasining qaysi qismlari yaxshi rivojlangan?

1) katta yarimsharlar; 2) o'rta miya; 3) uzunchoq miya; 4) miyacha; 5) oraliq miya.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3
- C) 1, 4
- D) 1, 5

**609.** Uyasini yerga quradigan qushlar guruhini belgilang.

- A) qarg'a, go'ngqarg'a
- B) kaptar, tuyaqush
- C) oqqush, musicha
- D) tuyaqush, turna

**610.** Itning tanasi nima hisobiga soviydi?

- A) ter bezlari ko'p bo'lishi
- B) ter tana yuzasidan bug'lanib turishi
- C) tez-tez nafas olishi
- D) tanasi qiziganda harakatini susaytirish orqali

**611.** Dastlab qaysi hayvonlarda ikkita qon aylanish doirasi hosil bo'lgan?

- A) baliqlar

B) suvda ham quruqda yashovchilar

C) sudralib yuruvchilar

D) qushlar

612. Suvsarsimonlar oilasiga mansub hayvon qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) ilvirs

B) gepard

C) ondatra

D) qashqaldoq

613. Qaysi hayvonning urg'ochisi oq momiq junli bitta bola tug'adi?

A) oq sichqon

B) morj

C) dengiz mushugi

D) tyulen

614. Qaysi baliqda orqa suzgich qanoti ortida yana bitta suzgich qanoti bo'ladi?

A) akula

B) forel

C) skat

D) karp

615. Kemiruvchilar turkumiga mansub hayvonni belgilang.

A) nutriya

B) qorsak

C) norka

D) yovvoyi quyon, ondatra, suvsar

616. Orqa oyog'i faqat suzish uchun xizmat qiluvchi sut-emizuvchini belgilang.

A) dengiz mushugi

B) suvsar

C) tyulen

D) ilvirs

617. Yirtqichlar turkumiga kiradigan hayvonlar guruhi qaysi qatorda keltirilgan?

A) tyulen, morj, kit

B) dengiz mushugi, delfin, tyulen

C) kashalot, suv ayig'i

D) gepard, qashqaldoq, norka

618. Baliqlarning qaysi birida suzgich pufagi bo'lmaydi?

A) keta

B) oq amur

C) manta

D) olabug'a

619. Ilonlarning qaysi sezgi organi rivojlanmagan?

A) ko'rish

B) eshitish

C) issiqlikni sezish

D) hid bilish

620. O'zbekistonda noyob tur sifatida muhofaza qilinadigan baliq turini belgilang.

A) forel

B) gulmoy

C) katta soxta kurakburun

D) qilquyruq

621. Qush uchganda eng ko'p og'irlik qaysi suyakka tushadi?

A) yelka

B) ilik

C) bilak

D) panja

622. Ko'chmanchi qushlar guruhi berilgan qatorni belgilang.

1) zag'cha; 2) ko'k kaptar; 3) olaqarg'a; 4) mayna; 5) qoraya-loq; 6) kaklik; 7) g'oz; 8) o'rdak; 9) bulbul.

A) 1, 3, 5

B) 2, 4, 6

C) 7, 8, 9

D) 1, 6, 9

623. Qushlar ovqat hazm qilish sistemasining qaysi qismida ozuqasi yumshaydi?

A) jig'ildonda

B) bezli oshqozonda

C) muskulli oshqozonda

D) qizilo'ngachda

**624.** Maymunlarning asosiy tuyg'u organi qaysi qismi hisoblanadi?

A) ko'zi, qulog'i

B) mo'ylovlari, tuklari

C) yungsiz kafti, tovoni

D) qo'l va oyoqlari

**625.** Don bilan oziqlanadigan qushlar tumshug'ining tuzilishida qanday xususiyat yuzaga kelgan?

A) tumshug'i kalta, lekin kuchsiz

B) tumshug'i kalta, og'zi keng ochiladi

C) tumshug'i kalta, lekin baquvvat

D) tumshug'i uzun, uchi qayrilgan

**626.** Zog'ora baliq og'irligi to'g'ri keltirilgan javobni toping.

A) 10 – 16 kg

B) 1 kg

C) 5 – 7 kg

D) 8 – 16 kg

**627.** Quyida berilgan ilonlardan qaysi biri eski binolar va xonadonlarda tez-tez uchrab turadi?

A) kobra

B) chipor ilon

C) qum bo'g'ma iloni

D) charx ilon

**628.** Qaysi qushlarda shartli reflekslar tez hosil bo'lishi mumkin?

1) chittak; 2) qarq'a; 3) chug'urchuq; 4) mayna; 5) kaptar; 6) tovus; 7) qorayaloq.

A) 1, 3, 7 B) 2, 6, 7

C) 2, 4, 7 D) 3, 5, 7

**629.** Sutemizuvchilar bel umurtqasining soni nechtagacha bo'ladi?

A) 1 – 6 B) 3 – 5

C) 2 – 9 D) 3 – 11

**630.** Go'sht-yog' yo'nalishidagi qo'y zoti qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A) merinos B) qorako'l

C) hisor D) Romanov

**631.** Lansetnikning og'iz teshigi necha juft paypaslagichlar bilan o'ralgan bo'ladi?

A) 10 – 20 B) 5 – 10

C) 2 D) 4 – 5

**632.** Go'shtdor qoramol zotlari-tog'ri-berilgan javobni belgilang.

1) shvits; 2) bugiyev; 3) gereford; 4) simmental; 5) qora-ola; 6) Qozog'iston oqbooshi; 7) qizil dasht.

A) 1, 6, 7 B) 1, 3, 6

C) 2, 4, 5 D) 2, 5, 7

**633.** Lansetnikdagi ovqat hazm qilish sistemasining qaysi qismida oziq shilimshiq modda bilan kichik luqmalar hosil qiladi?

A) qizilo'ngach

B) halqum

C) oshqozon

D) ingichka ichak

**634.** Baliqlarning ko'krak suzgich qanotlari qaysi suyak yordamida umurtqa pog'onasiga birikadi?

- A) yelka kamari B) o'mrov  
C) kurak D) tirsak

**635.** Qaysi hayvonda yorug'lik sezuvchi hujayralar ko'rish vazifasini bajaradi?

- A) falanga B) manta  
C) lansetnik D) biy

**636.** Baqaning teri va o'pkasiga qanday qon boradi?

- A) aralash  
B) venoz, aralash  
C) karbonat angidridga to'yingan  
D) kislorodga to'yingan

**637.** Qaysi qushning oyog'i yerda yurish, tumshug'i cho'qishga moslashmagan?

- A) qaldirg'och  
B) chug'urchiq  
C) so'fitorg'ay  
D) chittak

**638.** Hayvonot olami tiplarining ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni toping.

1) sodda hayvonlar; 2) yassi chuvalchanglar; 3) bo'g'imoyoqlilar; 4) halqali chuvalchanglar; 5) mollyuskalar; 6) to'garak chuvalchanglar; 7) kovakichlilar; 8) xordalilar.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8  
B) 1, 3, 5, 2, 4, 6, 8, 7  
C) 1, 2, 4, 6, 5, 7, 3, 8  
D) 1, 7, 2, 6, 4, 5, 3, 8

**639.** Lansetnikda qaysi organning hamma qismi bir xilda tuzilgan?

- A) qon tomirlari  
B) ayirish naychalari  
C) nerv nayi  
D) hazm sistemasi

**640.** Oq amurda qon aylanish a'zolari ishini bosh miyaning qaysi qismi boshqaradi?

- A) oldingi B) o'rta  
C) oraliq D) uzunchoq

**641.** Suyak-tog'ayli baliqlar turkumiga mansub baliq turini belgilang.

- A) bakra B) gulmoy  
C) cho'rtan D) laqqa

**642.** Ilonlarda sezgi organlaridan qaysi biri yaxshi rivojlanmagan?

- A) hid bilish  
B) tuyg'u va ta'm bilish  
C) ko'rish  
D) eshitish

**643.** Nima uchun qushlarning skeleti sudralib yuruvchilarnikiga nisbatan mustahkam bo'ladi?

- A) suyaklari qo'shilib o'sganligi uchun  
B) suyaklari yassi bo'lgani uchun  
C) suyaklari havo bilan to'lgani uchun  
D) suyaklari yengil va yassi bo'lgani uchun

**644.** Yosh baqalar necha yildan keyin voyaga yetadi?

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 5

**645.** Quruqlikda vertikal holatda yuradigan qushlar ...

- A) oqqushlar
- B) tuyaqushlar
- C) yapaloqqushlar
- D) pingvinlar

**646.** Qaysi baliqlar tirik tug'adi?

- A) akula, manta
- B) cho'rtan, oq amur
- C) laqqa, xumbosh
- D) zog'ora, tikanbaliq

**647.** Baqaning o'pkasidagi havo qaysi muskullarning qisqarishi tufayli tashqariga chiqadi?

- A) qovurg'alararo
- B) diafragma
- C) ko'krak
- D) tana

**648.** Qushlarning ko'zi odamnikiga nisbatan necha marta sezgirroq bo'ladi?

- A) 10
- B) 30
- C) 50
- D) 100

**649.** Suqsun qaysi turkumga mansub?

- A) chumchuqsimonlar
- B) yirtqichlar
- C) g'ozsimonlar
- D) tuvaloqlar

**650.** Qaysi hayvon tanasining uzunligi 180 sm gacha, vazni 200 – 240 kg keladi?

- A) morxo'r
- B) sayg'oq
- C) Prjevalskiy oti
- D) to'ng'iz

**651.** O'q skeleti va bosh miya qutisi qisman suyakka aylangan baliqni belgilang.

- A) skat
- B) baqra
- C) gulmoy
- D) qilquyruq

**652.** Qaysi yirtqich hayvon yozda inida yashab, 4 – 5 ta ko'zi yumuq bola tug'adi, kuzda oilasi tarqalib ketadi?

- A) bo'ri
- B) yo'lbars
- C) suvsar
- D) tulki

**653.** Suyak-tog'ayli baliqlar turkumiga xos xususiyatlarni belgilang.

1) boshining oldingi tomoni uzun tumshuqni hosil qiladi; 2) o'q skeleti va bosh qutisi qisman suyakka aylangan; 3) boshi tanasiga nisbatan katta; 4) og'iz teshigi boshining ostki tomonida; 5) suzgich qanotlari tikanli; 6) skeleti, asosan, tog'aydan iborat; 7) o'q skeleti xordadan iborat; 8) jabra qopqoqlari va suzgich pufagi yo'q; 9) bosh qutisi suyak bilan qoplangan; 10) tirik tug'adi.

- A) 1, 4, 6, 7, 9
- B) 2, 3, 5, 8, 9
- C) 2, 5, 7, 8, 9
- D) 1, 2, 4, 8, 10

**654.** Baqra baliqlar qaysi turkumga mansub?

- A) karpsimonlar
- B) cho'rtanlar
- C) suyak-tog'aylilar
- D) losossimonlar

**655.** Karpsimonlar turkumiga xos belgilarni toping.

1) oziqni tishlari bilan maydalaydi; 2) oziqni halqum bo'shlig'idagi o'simtalar bilan

maydalaydi; 3) oziqni jag'lari bilan maydalaydi; 4) tana skeleti suyaklardan iborat; 5) tana skeleti tog'aydan iborat; 6) barcha suv havzalarida uchraydi; 7) faqat Orol dengizida uchraydi.

A) 2, 4, 6      B) 1, 5, 6

C) 3, 5, 7      D) 3, 4, 7

**656.** Quyidagi qaysi baliqlar guruhida o'q skeleti xordadan iborat bo'lib, butun hayoti davomida saqlanib qoladi?

A) olabug'a, sudak

B) moybaliq, oqcha

C) qilquyruq, beluga

D) cho'rtan, oq amur

**657.** Qaysi hayvonlar guruhida ichki urug'lanish sodir bo'ladi?

A) qora ilon, o'rdakburun

B) baqa, o'rdakburun

C) akula, okun

D) triton, salamandra

**658.** Forel, keta baliqlari qaysi turkumga mansub?

A) losossimonlar

B) cho'rtanlar

C) karpsimonlar

D) skatlar

**659.** Zog'ora baliqning qaysi organi tuyg'u a'zosi hisoblanadi?

A) yon chiziqdari

B) mo'ylovleri

C) tanasi

D) og'zi

**660.** Quyida berilganlar qaysi sutemizuvchi hayvonlarga xos?

Bosh miyasi sodda tuzilgan, tana harorati pastroq, 26 – 36° gacha bo'ladi.

A) tuxum qo'yuvchilar

B) xaltalilar

C) yo'ldoshlilar

D) kemiruvchilar

**661.** Keng burunli maymunlar vakili berilgan qatorni belgilang.

A) pavian

B) orangutan

C) shimpanze

D) koata

**662.** To'rt kamerali yurakka ega bo'lgan hayvonni ko'rsating.

A) baqa

B) kaltakesak

C) suqsun

D) gekkon

**663.** Kloakaga ega bo'lmagan hayvonni belgilang.

A) baqa

B) kaltakesak

C) qarq'a

D) qorsak

**664.** Kaltakesak miyasining qaysi bo'limi suvda ham quruqlikda yashovchilarga nisbatan yaxshi rivojlangan?

A) oldingi miyasi

B) miyachasi

C) oraliq miyasi

D) qorsak

**665.** Jabrasi orqali nafas oluvchi hayvonlarni belgilang.

1) skat; 2) triton; 3) lansetnik; 4) kit; 5) delfin; 6) akula.



A) 1, 4, 6      B) 4, 5, 6

C) 1, 3, 6      D) 1, 2, 4

**666.** Sutemizuvchilar qaysi hayvonlardan kelib chiqqan?

A) qushlardan

B) tiropsidlardan

C) baliqlardan

D) suvda ham quruqlikda yashovchilardan

**667.** Musicha yil davomida necha marta jo'ja ochadi?

A) 3              B) 4

C) 5              D) 2

**668.** Qaysi baliqning orqa suzgich qanoti ortida yana bita yon suzgich qanoti bo'ladi?

A) forel

B) oqcha baliq

C) manta

D) skat

**669.** Qaysi ilon odamga duch kelganda harakatsiz yotadi?

A) qum ilon

B) charx ilon

C) qora ilon

D) ko'lvor ilon

**670.** Sirdaryo, Amudaryoda uchraydigan losossimon baliqning nomini toping.

A) moybaliq      B) ilonbosh

C) forel              D) xumbosh

**671.** Qayrilgan va o'tkir tirnoqlari maxsus xaltachaga kirib turadigan hayvonlarni belgilang.

1) mushuk; 2) norka; 3) latcha; 4) oq sichqon; 5) sher; 6) qoplon; 7) oq ayiq; 8) Osiyo yo'lbarisi; 9) qunduz.

A) 1, 3, 4, 7      B) 1, 5, 7

C) 2, 6, 7, 8      D) 1, 5, 6, 8

**672.** Voha qushlari turkumlarini belgilang.

1) chumchuqsimonlar; 2) kap-tarsimonlar; 3) g'ozsimonlar; 4) tuvaloqlar.

A) 1, 2              B) 1, 2, 4

C) 1, 3              D) 1, 3, 4

**673.** Sutemizuvchilar qaysi turkumining 30 ga yaqin turi bor?

A) kemiruvchilar

B) yirtqichlar

C) kurakoyoqlilar

D) juft tuyoqlilar

**674.** Suvda yashaydigan eng yirik hayvon qaysi turkumga mansub?

A) kitsimonlar

B) panjaqanotlilar

C) juft tuyoqlilar

D) kurakoyoqlilar

**675.** Tanasida 5 qator romb shaklidagi suyak plastinkalar joylashgan baliqlarni belgilang.

1) karp; 2) baqra; 3) treska; 4) qilquyruq; 5) baqra; 6) beluga; 7) seld.

A) 1, 4, 6              B) 2, 4, 5

C) 2, 5, 7              D) 3, 4, 6

**676.** Kuzda qaysi sutemizuvchi hayvonning oilasi tarqalib ketadi?

A) yo'lbars              B) ayiq

C) tulki              D) bo'ri

**677.** Zog'ora baliqning urug'langan tuxumidan chiqqan baliqchalar necha kun davomida

o'sib voyaga yetgan baliqqa o'xshash bo'lib qoladi?

- A) 20 – 30    B) 12 – 13  
C) 14 – 16    D) 20 – 25

**678.** Itbaliqning ichki jabralari tananing qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

- A) yuqori va pastki jag'larda  
B) qizilo'ngach atrofida  
C) nog'ora parda ostida  
D) halqum devorida

**679.** Toshbaqaning kosasi qaysi suyaklar bilan bog'langan bo'ladi?

- A) qovurg'alar, umurtqalar, o'mrov suyaklari  
B) qovurg'alar, umurtqalar, kurak suyaklari  
C) qovurg'alar, o'mrov va kurak suyaklari  
D) umurtqa, o'mrov, yelka suyaklari

**680.** Dasht va cho'l qushlarining turkumlari berilgan javobni toping.

- A) chumchuqsimonlar, kaptarsimonlar  
B) kaptarsimonlar, o'rdaksimonlar  
C) tuvaloqlar, tuyaqushlar  
D) g'ozsimonlar, kaptarsimonlar

**681.** Suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqichlar guruhini belgilang.

- A) tulki, mushuk  
B) bo'ri, qoplon  
C) olaqo'zan, qashqaldoq  
D) qorsak, tulki

**682.** Qaysi hayvonlar qovurg'alariga tayangan holda harakatlanadi?

- A) ilon  
B) gekkon  
C) triton  
D) toshbaqa

**683.** O'rta Osiyo hududida uchramaydigan hayvonni belgilang.

- A) gulmoy  
B) salamandra  
C) dasht agamasi  
D) qum bo'g'ma iloni

**684.** Baqaning orqa oyoqlar kamari nechta va qanday suyakdan iborat?

- A) 2 ta, chanoq  
B) 2 ta, dumg'aza  
C) 3 ta, dumg'aza  
D) 3 ta, chanoq

**685.** Sutmizuvchilar suyaklarining tuzilishi ularning nima-siga mos tuzilgan?

- A) yashash sharoitiga  
B) oziqlanishiga  
C) ko'payishiga  
D) qon aylanish sistemasiga

**686.** Jigari bo'lmaydigan hayvonlarni belgilang.

1) odam askaridasi; 2) oq amur; 3) o'rgimchak; 4) yomg'ir chuvalchangi; 5) chuchuk suv shillig'i; 6) exinokokk; 7) aktiniya.

- A) 2, 3, 5, 7    B) 2, 4, 6, 7  
C) 1, 2, 4, 6    D) 1, 4, 6, 7

**687.** Narsalarga birdaniga ikki ko'zi bilan qaraydigan va unga-

cha bo'lgan masofani juda yaxshi aniqlaydigan hayvonlar guruhini ko'rsating.

- A) koata, gorilla, martishka
- B) shimpanze, kenguru, ukki
- C) tovushqon, pavian, odam
- D) gorilla, miqqiy, baqa

**688.** Sudralib yuruvchilarning yaxshi eshitmaydigan vakillari ni belgilang.

- A) agama, echkemar
- B) sariq ilon, gekkon
- C) charx ilon, kobra
- D) kobra, echkemar

**689.** Qaysi qushlar doimiy juft hosil qilmaydi?

- A) musicha
- B) qarg'a
- C) qur
- D) tasqara

**690.** Qaysi hayvonning jabralari teri burmalari bilan qoplangan?

- A) midiya
- B) lansetnik
- C) manta
- D) oq amur

**691.** Qaysi hayvonlar yaqin masofadan ko'radi, narsalarning shakli va rangini farqlay oladi?

- A) baliqlar
- B) hasharotlar
- C) lansetniklar
- D) baqalar

**692.** Qaysi sutemizuvchilarning og'iz bo'shlig'ida juda ko'p bir xil tishlar bo'ladi?

- A) morj, tyulen
- B) ilvirs, gepard
- C) yo'lbars dasht mushugi
- D) kashalot, delfin

**693.** Qaysi turkum vakillari ning kurak tishlari old tomo-

ni qalin emal bilan qoplangan, orqa tomonida esa emal bo'lmaydi?

- A) kemiruvchilar
- B) suvsarsimonlar
- C) yirtqichlar
- D) kurakoyoqlilar

**694.** Qaysi turkumga oid hayvonlarning tishi umri davomida doimiy o'sib turadi?

- A) xaltalilar
- B) ko'rshapalaklar
- C) kemiruvchilar
- D) suvsarsimonlar

**695.** Qaysi hayvonning tanasi qalin va mayin, suv o'tkazmaydigan jun bilan qoplangan?

- A) tyulen
- B) kasatka
- C) morj
- D) dengiz mushugi

**696.** Qaysi qushlar koloniya bo'lib in quradi?

- A) tuvaloqlar
- B) tuyaqushlar
- C) g'ozsimonlar
- D) pingvinlar

**697.** Qaysi hayvonning ustki tomoni qizg'ish so'gallar bilan qoplangan?

- A) yashil qurbaqa
- B) kvaksha
- C) ko'lbaqa
- D) salamandra

**698.** Akula bilan odamning qaysi a'zosi o'xshash tuzilgan?

- A) buyrak
- B) yurak
- C) jigar
- D) tish

699. Burun teshigida maxsus klapanlari bo'lgan hayvonni belgilang.

- A) qurbaqa      B) baliq  
C) suvilon      D) skat

700. Lansetnikning ayirish organi qaysi hayvonlarnikiga o'xshash va qayerga ochiladi?

- A) hasharotlar, ichak bo'shlig'iga  
B) halqali chuvalchanglar, nayga  
C) mollyuskalar, yurakoldi bo'lmachasiga  
D) halqali chuvalchanglar, jabra oldiga

701. Qushlar ilik suyagining pastki uchiga qaysi suyaklar kelib tutashgan?

- A) tovon      B) barmoq  
C) son      D) boldir

702. Qaysi qushning uyasiga to'shaydigan momiq pati yengil sanoatda foydalanish uchun yig'ib olinadi?

- A) gaaga      B) g'oz  
C) oqqush      D) oq tovuq

703. Qushlarning axlati qanday moddalarga boy bo'lgani tufayli qimmatli o'g'it hisoblanadi?

- A) kaliyli va azotli  
B) azotli va fosforli  
C) azotli va natriyli  
D) natriyli va kaliyli

704. Qaysi organlar sutemizuvchi hayvonlarda har xil bo'lib, ularning hayot kechirish tarzi va yashash muhitiga bog'liq?

- A) qon aylanish

- B) nafas olish  
C) sezgi organlari  
D) ayirish organlari

705. Qadimgi yirtqich tishli kaltakesaklar bundan qancha yil ilgari yashagan?

- A) 200 – 300 ming  
B) 450 – 500 ming  
C) 2 – 3 mln  
D) 200 – 300 ming

706. Koloniya bo'lib yashaydigan kemiruvchi hayvonlarni belgilang.

- A) yumronqoziq  
B) ko'k sug'ur  
C) jayra      D) tyin

707. Ustyurt dashtida mu-shuksimonlar oilasiga mansub qaysi hayvonlar yashaydi?

- A) silovsin  
B) to'qay-mushugi  
C) gepard  
D) ilvirs

708. Kuzda qaysi hayvon oilasi tarqalib-ketadi?

- A) bo'ri  
B) maymun  
C) yenotsimon it  
D) tulki

709. Qaysi baliqlar dumining asosida zaharli shilimshiq modda bilan qoplangan tikani bo'ladi?

- A) tikanli akula  
B) dengiz tulkisi  
C) forel  
D) oq amur

710. Hozirgacha ma'lum bo'lgan umurtqalilar turlarining de-yarli yarmini ... tashkil etadi.

- A) qushlar
- B) sutemizuvchilar
- C) bosh skeletsizlar
- D) baliqlar

**711.** Quruqlikda yashashga moslashuv tufayli ... paydo bo'lishi muskullarning murakablashuviga olib keldi.

- A) harakatchan qovoqlarning
- B) yurish oyoqlarining
- C) qovurg'alarining
- D) yelka kamarining

**712.** Qaysi yirtqich qushni uchib borayotgan ayri dumiga qarab oson ajratish mumkin?

- A) miqqiy
- B) jo'rchi
- C) qarchig'ay
- D) kalxat

**713.** Baqalarning orqa oyoqlar kamari umurtqa pog'onasi bilan ... birikib ketgan.

- A) harakatsiz
- B) harakatchan
- C) yarim harakatchan
- D) dum umurtqasi yordamida

**714.** Uchinchi qovoq dastlab qaysi hayvonlarda paydo bo'lgan?

- A) suvda ham quruqlikda yashovchilarda
- B) sudralib yuruvchilarda
- C) qushlarda
- D) sutemizuvchilarda

**715.** Qaysi qushlar kech kuzda uchib keta boshlaydi?

- A) qaldirg'och, bulbul, zarg'aldoq
- B) laylak, zarg'aldoq, qarg'a
- C) laylak, zarg'aldoq, oqqush, o'rdak, g'oz

D) oqqush, o'rdak, g'oz

**716.** Qaysi hayvon hayotining ko'p qismini dengiz tubidagi qumga ko'milgan holda o'tkazadi?

- A) o'troq dengiz chuvalchangi
- B) nereida
- C) baqachanoq
- D) lansetnik

**717.** Baliqlarning yoshini qanday aniqlash mumkin?

- A) tangachasidagi halqalar soniga qarab
- B) tangachalar sirtidagi teri bezlari soniga ko'ra
- C) tanasidagi muskul tolalari-ga qarab
- D) tanasidagi yillik halqalar soniga ko'ra

**718.** Quyida berilgan hayvonlarning nechaga yaqin turi ma'lum?

1) tog'ayli baliqlar; 2) akulalar turkumi; 3) skatlar turkumi.

a) 350; b) 250; c) 630.

- A) 1 – v; 2 – b; 3 – c
- B) 1 – a; 2 – b; 3 – c
- C) 1 – b; 2 – a; 3 – c
- D) 1 – c; 2 – b; 3 – a

**719.** Quyida berilgan qaysi hayvonlarning qon aylanish doirasi bitta?

1) lansetnik; 2) oq amur; 3) beluga; 4) sazan; 5) triton; 6) salamandra; 7) sterlyad; 8) timsoh; 9) suvilon; 10) chipor ilon.

- A) 1, 2, 3, 4, 7
- B) 1, 5, 6, 7, 8

C) 7, 8, 9, 10

D) 1, 3, 4, 9, 10

**720.** Dumlilar turkumiga kiruvchi hayvonlarni belgilang.

1) kaltakesak; 2) timsoh; 3) triton; 4) ilon; 5) salamandra; 6) echkamar.

A) 3, 5                      B) 1, 6

C) 2, 4                      D) 1, 3, 5

**721.** Yapaloqqushlarning eng yirigini belgilang.

A) yapaloqqush

B) boyo'g'li

C) boyqush

D) ukki

**722.** Qaysi tungi yirtqich qushning boshi ustida quloqqa o'xshash ikki to'p pati dikkayib turadi?

A) boyqush

B) boyo'g'li

C) yapaloqqush

D) ukki

**723.** Suyak-tog'ayli baliqlar guruhini belgilang.

A) akula, manta

B) forel, keta

C) beluga, ilonbosh

D) baqra, sterlyad

**724.** Kaptarlarning yuragi tinch holatda necha marta qisqaradi?

A) 550                      B) 165

C) 330                      D) 400

**725.** Kaptar tinch holatda bir daqiqada necha marta nafas oladi?

A) 100                      B) 40

C) 26                        D) 120

**726.** Uchib ketuvchi qushlar guruhini belgilang.

A) chittak, olaqarg'a

B) qarq'a, zog'cha

C) qorayaloq, ko'k kaptar

D) oqqush, bulbul

**727.** Barcha qushlar turining deyarli yarmini o'z ichiga oladigan qushlar turkumini belgilang.

A) yirtqich qushlar

B) kaptarsimonlar

C) g'ozsimonlar

D) chumchuqsimonlar

**728.** Kunduzgi yirtqich qushni belgilang.

A) boyo'g'li                B) vyurok

C) jo'rchi

D) kapachi qush

**729.** Qaysi dengiz hayvonining qoziq tishlari fil suyagi singari juda qadrlanadi?

A) dengiz mushugi

B) ko'k kitlar

C) morjlar

D) kashalotlar

**730.** Zaharli ilonlarni belgilang.

1) qora ilon; 2) chipor ilon; 3) charx ilon; 4) qum bo'g'ma iloni; 5) qalqontumshiq; 6) kapcha ilon; 7) suvilon.

A) 1, 2, 4, 6

B) 2, 4, 6, 7

C) 1, 3, 5, 4

D) 1, 3, 5, 6

**731.** Dumida zaharli shilimshiq bilan qoplangan tikani bo'lgan baliqni belgilang.

A) moybaliq

- B) qora baliq
- C) tilyapiya
- D) dengiz tulkisi

**732.** Baqaning terisiga qanday qon boradi?

- A) kislorod bilan to'yingan qon
- B) karbonat angidrid bilan to'yingan qon
- C) aralash qon
- D) terisiga qon oqib kelmaydi

**733.** Toshbaqaning kosalari uning qaysi suyaklari bilan bog'langan?

- A) qovurg'alar, kurak
- B) umurtqalar, to'sh
- C) o'mrov, yelka, kurak
- D) qovurg'a, o'mrov, umurtqa

**734.** Perlovitsa qaysi sinfga mansub?

- A) ikki pallali mollyuskalar
- B) qorinoyoqli mollyuskalar
- C) tangachaganotlilar
- D) hasharotlar

**735.** Latcha qaysi turkumga mansub?

- A) suvsarsimonlar
- B) ayiqsimonlar
- C) mushuksimonlar
- D) yirtqichlar

**736.** Qush tanasini yer yuzasidan dast ko'tarib olishiga va qo'nayotganda qushning tanasiga beriladigan zarbani kamaytirishga imkon tug'diradigan suyakni belgilang.

- A) to'sh suyagi
- B) qanot suyagi
- C) chanoq suyagi
- D) ilik suyagi

**737.** Yo'ldoshli sutemizuvchilar guruhi berilgan javobni belgilang.

- A) o'rdakburun, yexidna, koala
- B) koala, tipratikan, ko'rsichqon
- C) koata, yexidna, kenguru
- D) kitsimonlar

**738.** Kunduzgi yirtqich qushlar keltirilgan qatorni belgilang.

- A) kalxat, tasqara
- B) yapaloqqush, burgut
- C) tasqara, ukki
- D) yapaloqqush, miqqiy

**739.** Qaysi hayvonning ko'krak qafasi bo'lmaydi?

- A) timsoh
- B) ilon
- C) kaltakesak
- D) baqa

**740.** Qaysi hayvonning o'mrov suyagi bo'lmaydi?

- A) baqa
- B) it
- C) kaltakesak
- D) qush

**741.** Baliq jabralarining qaysi qismida gaz almashinuvi sodir bo'ladi?

- A) yoylarida
- B) yoriqlari devorida
- C) yaproqlarida
- D) qilchalarida

**742.** Baqaning orqa oyoqlari bo'limlarini ko'rsating.

- A) son, bilak, yelka
- B) son, boldir, besh barmoqli panja
- C) son, boldir, to'rt barmoqli panja
- D) son, bilak, panja

**743.** Qaysi qush o'simliklarni changlatadi?

- A) bulbul
- B) mayna
- C) tasqara
- D) kolibri

**744.** Tabiiy sanitarlik qiluvchi qushni belgilang.

- A) daryo qisqichbaqasi
- B) qarg'a
- C) hakka
- D) tasqara

**745.** Baqaning tana a'zolari qanday qon bilan ta'minlanadi?

- A) arteriya qoni
- B) vena qoni
- C) aralash qon
- D) aralash va vena qoni

**746.** Qaysi qushning ko'rish qobiliyati kuchli hisoblanadi?

- A) pingvin
- B) g'oz
- C) burgut
- D) tuyaqush

**747.** Suv oqimi va suv ostidagi narsalarni sezishga baliqlarning qaysi a'zosi yordam beradi?

- A) ko'rish
- B) eshitish
- C) tuyg'u va hid bilish
- D) yon chizig'i

**748.** Qorsak qaysi sinfga mansub hayvon?

- A) sudralib yuruvchilar
- B) sutemizuvchilar
- C) suvda ham quruqlikda yashovchilar
- D) baliqlar

**749.** Tuban xordalilar nimalardan kelib chiqqan?

- A) yassi chuvalchanglar
- B) to'garak chuvalchanglar
- C) halqali chuvalchanglar

D) bo'g'imoyoqlilar

**750.** Xordalilar tipiga mansub barcha hayvonlar embrion rivojlanishining dastlabki davrida baliqlarga xos qanday belgilar namoyon bo'ladi?

- A) qizilo'ngach devorida jabra yoriqlari
- B) oyoqlari suzgich ko'rinishda shakllanishi
- C) halqum devorida jabra yoriqlari
- D) nerv sistemasining zanjir ko'rinishda shakllanishi

**751.** Otlar qonidan nima tayyorlanadi?

- A) yelim va sovun
- B) turli xil preparatlar va sovun
- C) zardob va yelim
- D) shifobaxsh preparat va zardob

**752.** Kalimantan va Sumatra orollarida uchraydigan maymunni belgilang.

- A) kaputsin
- B) shimpanze
- C) orangutan
- D) gorilla

**753.** Kavsh qaytaruvchilar oshqozonida sellulyozaning hazm bo'lishiga yordam beruvchi organizmlarni belgilang.

- A) bakteriya va infuzoriya
- B) sporalilar va soxtaoyoqlilar
- C) infuzoriya va nozema
- D) bakteriya va xivchinlilar

**754.** Kavsh qaytaruvchilar qatoriga kiruvchi hayvonlarni belgilang.



- A) ohu, suv ayg'iri
- B) jayron, tapir
- C) zubr, zebra
- D) xongul, ohu

**755.** O'zbekiston cho'llarida yakka holda, juft-juft yoki o'ttiztagacha hayvondan iborat poda bo'lib yashagan, rangi qo'ng'ir tusda bo'lgan, faqat qo'riqxonalarda saqlanib qolgan hayvonni belgilang.

- A) sayg'oq      B) zebra
- C) jayron      D) zubr

**756.** Kurakoyoqlilar nima sabbdan quruqlikka chiqadi?

- A) oziqlanish va dushmanidan himoyalalanish uchun
- B) o'ljasini ovlash uchun
- C) faqat ko'payish uchun
- D) dam olish va ko'payish uchun

**757.** Qaysi kurakoyoqlilarning quloq suprasi bo'lmaydi?

- A) morj
- B) dengiz mushugi
- C) kasatka
- D) tyulen

**758.** Morjning qaysi tishi qadrlanadi?

- A) kurak      B) oziq
- C) qoziq      D) barchasi

**759.** Suvda yashashga o'tgan, suvda bolalaydigan sut-emizuvchini belgilang.

- A) dengiz mushugi
- B) morj
- C) delfin
- D) tyulen

**760.** Ko'k kitga xos popukli muguz plastinkalar qayerda joylashgan?

- A) pastki jag'ida
- B) halqumda
- C) yuqori jag'ida
- D) hiqildoqda

**761.** Delfinlarga xos xususiyatni belgilang.

- A) yuqori jag'idan mo'ylovlari osilib turadi
- B) tishlari bo'lmaydi
- C) o'ljani topish uchun ultratovdan foydalanadi
- D) uzunligi 30 m, vazni 150 t

**762.** Hidni yaxshi sezuvchi, o'ljasini ta'qib qilib tutib oluvchi hayvonni belgilang.

- A) qorsak      B) gepard
- C) bo'rsiq      D) silovsin

**763.** Ondatra va nutriyaning vatanini belgilang.

- A) Amerika      B) Afrika
- C) Janubi-G'arbiy Osiyo
- D) O'rta yer dengizi

**764.** Qaysi hayvonning boshi 8 ta bo'yin umurtqalari orqali tanasiga harakatchan birikkan?

- A) baqa      B) qurbaqa
- C) dingo iti
- D) ildam kaltakesak

**765.** Nima sabbdan sudralib yuruvchilarda o'pkaning gaz almashinadigan yuzasi kengaygan?

- A) o'pkada alveolalar paydo bo'lgan
- B) o'pkada bronxiolalar va alveolalar shoxlanib ketgan

C) o'pka devori katakchalarga bo'lingan

D) tez-tez nafas olganligi sababli

**766.** Sovuq (1) va issiq (2) qonli hayvonlarni farqlang.

a) forel; b) qashqaldoq; c) mayna; d) timsoh; e) salamandra.

A) 1 – b, c; 2 – a, d, e

B) 1 – a, d, c; 2 – b, e

C) 1 – a, d; 2 – b, c, e

D) 1 – a, d, e; 2 – b, c

**767.** Dumsiz suvda va quruqlikda yashovchilar nimalardan kelib chiqqan?

A) o'pkali panja qanotlilardan

B) qadimgi dumlilardan

C) tog'ayli baliqlardan

D) bosh skeletsizlardan

**768.** Toshbaqaning kosa-si qaysi suyaklar bilan tutashgan?

a) qovurg'alar; b) umurtqalar;

c) o'mrov; d) yelka; e) bosh.

A) a, b, c      B) a, d, e

C) b, c, e      D) a, b, c d, e

**769.** Tili yo'g'on, go'shtdor, tishlari yo'q, jag'lari shoxsimon plastinkalar bilan qoplangan. Ko'rish va hid bilish organlari yaxshi rivojlangan. Qaysi hayvonga xos belgilar keltirilgan?

A) timsoh

B) ayiq

C) gekkon

D) toshbaqa

**770.** Kontur patlar vazifasiga binoan qanday turlarga ajraladi?

A) qoplag'ich, qoqish

B) qoqish, boshqarish

C) boshqarish, qoplag'ich

D) qoplag'ich, qoqish, boshqarish

**771.** Qushlarning qanotlarida qanday patlar joylashadi?

A) qoplag'ich va momiq

B) qoqish

C) boshqarish

D) dag'al

**772.** Qushlarning dumida qanday patlar joylashadi?

A) qoplag'ich va momiq

B) qoqish

C) boshqarish

D) dag'al

**773.** Qushlarning qaysi suyaklari o'zaro birikib yagona dumg'aza suyagini hosil qiladi?

A) bel, dumg'aza, o'mrov

B) dumg'aza, dum, toj

C) ko'krak, bel, dumg'aza

D) bel, dumg'aza, dum

**774.** Qushlarning qaysi muskul(lar)i barcha muskullar og'irligiga teng?

A) o'mrov

B) ko'krak

C) son

D) yelka va son

**775.** Qushlar ko'krak muskullarining bir uchi (1) ... suyagiga, ikkinchi uchi (2) ... suyagiga birikadi.

A) 1 yelka; 2 o'mrov

B) 1 yelka; 2 ko'krak-toj

C) 1 qovurg'alar; 2 bilak

D) 1 o'mrov; 2 kurak

776. Qaysi muskullar qisqarishi natijasida qushlarning qanoti ko'tariladi (1), tushiriladi (2)?

- A) 1 o'mrov; 2 ko'krak
- B) 1 ko'krak; 2 o'mrov
- C) 1 o'mrov; 2 yelka
- D) 1 kurak; 2 o'mrov

777. Qushlarning bahorda o'z vataniga uchib kelishi nima bilan bog'liq?

- A) bosimning o'zgarishi
- B) kunlarning qisqarishi
- C) ko'payish instinkti
- D) ovqatning ko'payishi

778. Qushlarning qishlov joyiga uchib ketishi uchun nima turtki bo'ladi?

- A) kunlarning uzayishi
- B) keskin sovib ketish
- C) namlikning ortishi
- D) kunlarning qisqarishi

779. Pingvinlar nima bilan oziqlanadi?

A) suvo'tlar, baliqlar, mollyuskalar

B) faqat boshoyoqli mollyuskalar

C) zooplanktonlar

D) baliqlar va yirik qisqich-baqasimonlar

780. Qaysi umurtqalilarda birinchi bo'lib o'rta quloq yuzaga kelgan?

A) suvda ham quruqlikda yashovchilarda

B) baliqlarda

C) sudralib yuruvchilarda

D) chirildoqda

781. Faqat yaqindan ko'radigan, narsalarning shakli va rangini farq qila oladigan hayvonni belgilang.

- A) burgut
- B) tuyaqush
- C) dengiz otchasi
- D) qora ilon

782. Baliqlarning urug'donida to'plangan «sut» suyuqligining tarkibida nima bo'ladi?

- A) tuxum hujayra
- B) urug' hujayra
- C) jinsiy gormonlar
- D) sariq modda

783. Qaysi baliqning ko'krak suzgichlari tanasi bilan tutashib ketgan?

- A) baqra
- B) manta
- C) laqqa
- D) akula

784. Quyidagilardan lansetnikka xos bo'lmagan belgilarni tanlang.

a) bosh miya va bosh qutisi bo'lmaydi; b) bosh miya va bosh qutisi bo'ladi; c) xorda faqat lichinka davrida bo'ladi; d) xorda umr bo'yi saqlanadi; e) yuragi bo'ladi; f) nerv nayi xorda ustida joylashadi; j) yuragi bo'lmaydi.

- A) a, d, f, j
- B) a, c, f, j
- C) b, c, e
- D) b, d, f

785. Qaysi turkum vakillari uvildiriq tashlash uchun Amur daryosining irmoqlariga o'tadi?

- A) suyak-tog'ayli baliqlar
- B) karpsimonlar
- C) sudaklar

D) losossimonlar

**786.** Losossimonlarning qaysi vakillari chuchuk suv (a) va dengizlarda (b) tarqalgan? 1) losos; 2) forel; 3) keta; 4) gorbusha.

A) a – 1, 2; b – 3, 4

B) a – 1; b – 2, 3, 4

C) a – 2; b – 1, 3, 4

D) a – 3, 4; b – 1, 2

**787.** Uzoq Sharq daryolaridan qaysi turkumga tegishli baliqlar O'rta Osiyo suv havzalarida iqlimlashtirilgan?

A) baqra baliqlar

B) losossimonlar

C) karpsimonlar

D) skatsimonlar

**788.** Baqaning tishchalari qanday shaklda va ular qayerda joylashgan?

1) pastki jag'ida; 2) yuqori jag'ida; 3) tanglayida; 4) halqumida.

a) konussimon; b) yassi; c) kuraksimon.

A) a – 1, 2      B) a – 2, 3

C) b – 3, 4      D) c – 2, 3

**789.** To'rt kamerali yurakka ega bo'lgan hayvonlarni ko'rsating.

1) itbaliq; 2) triton; 3) alligator; 4) gaval; 5) qorsak; 6) kasatka; 7) gekkon.

A) 1, 2, 6, 7      B) 1, 4, 5, 7

C) 2, 7            D) 3, 4, 5, 6

**790.** Quyidagi hayvonlarni is-siqqonli (a) va sovuq qonli (b) larga ajrating.

1) beluga; 2) alligator; 3) kaputsin; 4) kojan.

A) a – 1, 2; b – 3, 4

B) a – 1, 3; b – 2, 4

C) a – 2, 3; b – 1, 4

D) a – 3, 4; b – 1, 2

**791.** Baliqlarning qaysi turkum vakillarida ichki urug'lanish kuzatiladi?

1) baqra; 2) akulalar; 3) skatlar; 4) karpsimonlar; 5) losossimonlar.

A) 1, 2, 3      B) 2, 3

C) 3, 4, 5      D) 2, 4, 5

**792.** Tuxum-go'sht yo'nalishidagi tovuq zotlarini ko'rsating.

1) lekgorn; 2) pervomaysk; 3) zagorsk; 4) kornuel.

A) 1, 2            B) 2, 3

C) 3, 4            D) 2, 4

**793.** Tuxumini qornidagi xaltachasida olib yuruvchi hayvonni ko'rsating.

A) kenguru

B) yexidna

C) koala

D) o'rdakburun

**794.** Sudralib yuruvchilar qaysi hayvonlardan kelib chiqqan?

A) panjaqanotli baliqlardan

B) ichak bilan nafas oluvchilardan

C) stegosefallardan

D) qalqondorlardan

**795.** Baqaning skeletiga xos xususiyatlarni belgilang.

1) ko'krak qafasi bo'lmaydi; 2) bo'yin umurtqalari bo'lmaydi; 3) bo'yin umurtqalari bosh su-

yagiga harakatchan birikkan; 4) qovurg'alar, ko'krak umurtqalari, to'sh suyagi ko'krak qafasini hosil qiladi; 5) orqa oyoqlari kamari harakatsiz birikkan uchta chanoq suyaklaridan iborat.

- A) 1, 2                      B) 1, 3, 5  
C) 2, 4                      D) 3, 4, 5

**796.** Gigant salamandra yuragining bo'limlari sonini belgilang.

- A) 1 ta yurak qorinchasi va 1 ta yurak  
B) 2 ta yurak qorinchasi, 2 ta yurak  
C) 2 ta yurak qorinchasi, 1 ta yurak  
D) 1 ta yurak qorinchasi, 2 ta yurak

**797.** Ilondan kaltakesaklarning farq qiluvchi asosiy belgisini aniqlang.

- A) oyoqlarining rivojlanganligi  
B) tanasining tuzilishi  
C) harakatchan qovog'ining mavjudligi  
D) tilining ayri bo'lishi

**798.** Sichqonda bo'yin umurtqalari soni nechta bo'ladi?

- A) 5 ta                      B) 8 ta  
C) 7 ta                      D) 9 ta

**799.** Qaysi qatordagi hayvonlar sutemizuvchilarning kemiruvchilar turkumiga mansub?

- A) kalamush, sichqon  
B) sichqon, norka  
C) ko'k sug'ur, nutriya  
D) kalamush, bo'rsiq

**800.** Kunduzgi yirtqich qushlar turkumiga kiruvchi qushlar guruhini belgilang.

- A) ukki, oqqush, hakka, burgut  
B) yapaloqqush, qizilishton  
C) kalxat, qarchig'ay, miqqiy  
D) hakka, o'rdak, oqqush

**801.** Baqaning tuxumidan itbaliq chiqishi va baqaga aylangunicha necha oy o'tishini belgilang.

- A) 0,5 – 1                      B) 1,5  
C) 2 – 3                      D) 4 – 5

**802.** Kavsh qaytaradigan juft tuyoqlilarni belgilang.

1) alqor; 2) suv ayg'iri; 3) morxo'r; 4) ot; 5) cho'chqa; 6) karkidon.

- A) 1, 6                      B) 1, 3  
C) 3, 5                      D) 4, 6

**803.** Qushlar tumshug'ining o'lchami va tuzilishi, asosan, nimalarga bog'liq?

- A) oziq yumshoq-qattiqligiga  
B) yashash muhitiga  
C) oziqning hazm bo'lishiga  
D) oziq xiliga, oziqlanish usuliga

**804.** Forelning yuragi necha kamerali va nechta qon aylanish doirasi bor?

- A) 3 kamerali, 2 ta  
B) 2 kamerali, 1 ta  
C) 1 kamerali, 1 ta  
D) 2 kamerali, 2 ta

**805.** Salamandalarda bosh miyaning qaysi qismi nafas olish funksiyalarini boshqaradi?

A) oldingi miya

B) oraliq miya

C) o'rta miya

D) uzunchoq miya

**806.** Qaysi qushlar jo'ja ocha-  
di?

1) laylak; 2) bedana; 3) qarq'a;  
4) kaklik; 5) pingvin; 6) qirg'o-  
vul; 7) lochin; 8) ukki; 9) qur.

A) 1, 2, 7, 8    B) 2, 4, 5, 6

C) 1, 3, 5, 9    D) 6, 7, 8, 9

**807.** Qaysi sutemizuvchi hay-  
vonlar bachadoni kuchsiz rivoj-  
langan yoki rivojlanmagan?

A) kenguru, krot

B) koala, xaltali bo'ri

C) quyon, kenguru

D) maymun, bo'ri

**808.** Skatning tanasi nima  
orqali kislerod bilan ta'minla-  
nadi?

A) teri                    B) jabra

C) o'pka                  D) teri, jabra

**809.** Qaysi javobda zaharsiz  
ilonlar to'g'ri keltirilgan?

1) kobra; 2) charx ilon; 3) chi-  
por ilon; 4) ko'lvor ilon; 5) suv-  
ilon; 6) bo'g'ma ilon; 7) sariq  
ilon; 8) qora ilon; 9) urchuqsi-  
mon ilon.

A) 1, 2, 5                B) 3, 5, 6

C) 2, 5, 7                D) 4, 7, 9

**810.** Baliqlarda qon nima hi-  
sobiga harakatlanadi?

A) ikki kamerali yurak

B) besh burchakli yurak

C) bir nechta qon tomirlari de-  
vori

D) uch kamerali yurak

**811.** Qanday ilon chaqqanda  
odamning badani shishib ke-  
tadi?

A) kobra                B) charx ilon

C) qalqontumshuq ilon

D) chipor ilon

**812.** Tog'ayli baliqlarning su-  
yakli baliqlardan asosiy farq  
qiladigan jihatini toping.

A) skeleti tog'aydan iborat,  
jabra qopqog'i va suzgich pu-  
fagi bor, asosan, tuxum qo'yib  
ko'payadi

B) skeleti suyakdan iborat  
bo'lib, jabra qopqog'i, suzgich  
pufagi bo'lmaydi

C) tanasi suyak va emal tan-  
gachalari bilan qoplangan, tirik  
tug'ib ko'payadi

D) skeleti tog'aydan iborat,  
jabra qopqog'i, suzgich pufagi  
bo'lmaydi, tirik tug'ib ko'payadi

**813.** Lansetnikda qaysi or-  
ganlar bo'lmaydi?

1) jabra; 2) yurak; 3) ichak; 4)  
ko'z; 5) bosh miya; 6) halqum;  
7) ayirish sistemasi; 8) eshitish;  
9) nerv sistemasi.

A) 1, 2, 6, 9              B) 2, 4, 6, 9

C) 2, 4, 5, 8              D) 1, 7, 8, 9

**814.** Halqumida uch qator  
tishlari bo'ladigan baliqni belgi-  
lang.

A) akula                B) skat

C) manta                D) qora baliq

**815.** Tuxumini va bolasini  
maxsus xaltasida olib yuradi-  
gan hayvonlar guruhini belgi-  
lang.

1) o'rdakburun; 2) tilyapiya; 3) dengiz otchasi; 4) yerqazar; 5) koala; 6) koata; 7) tyulen; 8) kenguru.

A) 1, 2, 8      B) 2, 3, 4

C) 2, 6, 7      D) 3, 5, 8

**816.** Qush skeletining qaysi qismlari uch juft suyakdan tashkil topgan?

1) dumg'aza; 2) orqa oyoq suyaklari; 3) oldingi oyoq kamari; 4) bosh skeleti; 5) ko'krak tirgak suyagi; 6) orqa oyoq kamari.

A) 1, 2      B) 4, 5

C) 1, 4      D) 3, 6

**817.** Qushlardagi qaysi qobiliyat boshqa hayvonlarga nisbatan yaxshi rivojlangan?

A) eshitish      B) hid bilish

C) ta'm bilish

D) rangni ajratish

**818.** Ko'p kamerali murakkab oshqozonga ega bo'lgan sutemizuvchi hayvonlar guruhi ni belgilang.

1) zebra; 2) los; 3) qulon; 4) echki; 5) karkidon; 6) kiyik; 7) begemot; 8) to'ng'iz.

A) 1, 5, 8      B) 2, 4, 6

C) 3, 5, 7      D) 1, 3, 7

**819.** Nemis ovcharkasida bel umurtqalari soni to'g'ri berilgan javobni toping.

A) 7 ta      B) 8 ta

C) 5 ta      D) 6 ta

**820.** Qurbaqaning qaysi xususiyati suv havzalaridan uzoqda yashay olishini ta'minlaydi?

A) o'pkasining yaxshi rivojlanganligi va terisining quruq bo'lishi

B) o'pka xaltalarining bo'lishi, teri orqali nafas olish kuchli rivojlanganligi

C) o'pkasining yaxshi rivojlanganligi, terisining nam bo'lishi

D) teri orqali nafas olishning jadallashuvi

**821.** Quyida berilgan hayvonlarning yuragi necha kamerali ekanligini belgilang.

1) baliq; 2) kvaksha; 3) ilon; 4) ko'rshapalak.

a) 4; b) 3; c) 2; d) 1.

A) 1 - c, 2 - d, 3 - a, 4 - d

B) 1 - d, 2 - c, 3 - b, 4 - a

C) 1 - b, 2 - d, 3 - a, 4 - c

D) 1 - c, 2 - b, 3 - b, 4 - a

**822.** Qaysi hayvonda dastlab tashqi jabra hosil bo'lib, keyin ichki jabraga aylanadi?

A) daryo qisqichbaqasi

B) seld

C) itbaliq

D) skat

**823.** Itning oldingi oyoq kamari suyaklarini ko'rsating.

A) 2 ta kurak, ko'krak tirgak, 2 ta o'mrov

B) 2 ta kurak, ularga birikkan ko'krak tirgak

C) to'sh, kurak, ko'krak, o'mrov

D) to'sh, 1 juftdan ko'krak tirgak, kurak

**824.** Koata sutemizuvchi hayvonlarning qaysi turkumiga mansub?

- A) kitsimonlar
- B) primatlar
- C) yirtqichlar
- D) kemiruvchilar

**825.** Egarsimon umurtqalar qushlar tanasining qaysi qismida bo'ladi?

- A) dum
- B) ko'krak
- C) bel
- D) bo'yin

**826.** Ta'm bilish hujayralari baliqning qaysi qismida joylashgan?

1) og'izda; 2) suzgich qanotlarida; 3) halqumda; 4) tana yuzasida; 5) qizilo'ngachda.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 3, 5
- D) 1, 3, 4

**827.** Kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilarning belgilarini toping.

1) qoziq tishlari rivojlangan; 2) oziq tishlari rivojlangan; 3) oshqozoni to'rt kamerali; 4) oshqozoni bir kamerali; 5) bo'yin, dum, oyoqlari kalta; 6) bo'yin, oyoqlari uzun.

- A) 1, 3, 5
- B) 2, 4, 6
- C) 2, 3, 6
- D) 1, 4, 5

**828.** Qaysi sudralib yuruvchilarda issiqlikni sezadigan a'zo bo'ladi?

A) dasht agamasi, ildam kal-takesak

- B) bo'z echkamar, sariq ilon
- C) bo'g'ma ilon, shaqildoq ilon
- D) cho'l toshbaqasi, timsoh

**829.** Oddiy baqachanoq bir soatda qancha masofani bosib o'tadi?

- A) 30 – 40 sm
- B) 10 – 15 km
- C) 20 – 30 km
- D) 20 – 30 sm

**830.** O'rta Osiyo suv havzalariga keltirib iqlimlashtirilgan baliqlar guruhi berilgan qatorni belgilang.

1) gulmoy; 2) oq amur; 3) oqcha; 4) moybaliq; 5) ilonbosh; 6) xumbosh; 7) bakra.

- A) 1, 4, 7
- B) 2, 5, 6
- C) 1, 3, 7
- D) 3, 4, 5

**831.** Havoda hasharot tutuvchi qushlarda qanday moslama mavjud?

A) tumshuqlari uzun, tez uchadi

B) tumshuqlari kalta, og'zi tez ochiladi

C) tumshug'i kalta, og'zi keng ochiladi

D) qanotlari uzun, oyoqlari kalta

**832.** Baliqlarning qon aylanish sistemasi qanday qismlardan iborat bo'ladi?

1) jabra; 2) yurak; 3) aorta; 4) muskul; 5) arteriya; 6) vena; 7) kapillyar.

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 2, 3, 5, 6, 7
- C) 1, 2, 3, 5, 7
- D) 2, 3, 4, 5

**833.** Amerika qit'asidan O'zbekistonga qaysi hayvonlar keltirib iqlimlashtirilgan?



1) oq amur; 2) ondatra; 3) nutriya; 4) ilonbosh baliq; 5) sirtlon; 6) norka.

- A) 1, 3, 4      B) 2, 3, 6  
C) 3, 4, 5      D) 2, 4, 5

**834.** Qush tuxumining tuzilishi to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

1) po'chog'i; 2) po'choqosti pardasi; 3) havo kamerasi; 4) oqsil; 5) lipid qavat; 6) oqsil. ipcha; 7) sariqlik pardasi; 8) embrion; 9) sariqlik; 10) embrion diski.

- A) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8  
B) 1, 2, 3, 7, 8, 9, 10  
C) 1, 2, 3, 4, 5, 7, 10  
D) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 9, 10

**835.** Tuyaqushlarning ucha olmaslik sababi nimadan iborat?

1) gavadasi og'ir; 2) qanotlari yelpig'ich hosil qilgan; 3) qanotlari kuchli rivojlangan; 4) patlari zich yelpig'ich hosil qilmaydi; 5) to'sh suyagi cho'qmorni hosil qilmaydi; 6) ko'krak muskullari yaxshi rivojlangan.

- A) 1, 2, 3      B) 2, 4, 6  
C) 3, 5, 6      D) 1, 4, 5

**836.** Baqalarda qaysi suyak bo'lmaydi?

- A) bo'yin      B) o'mrov  
C) dum      D) qovurg'a

**837.** Oyoqsiz kaltakesaklarni belgilang.

- A) kulrang gekkon, suvilon  
B) sariq ilon, urchuqsimon  
C) ko'lvor ilon, dasht agamasi

D) ko'lvor ilon, kulrang gekkon  
**838.** Baqaning qaysi organi kislorodga boy toza qoni bilan ta'minlanadi?

- A) yurak  
B) bosh miya  
C) o'pka  
D) jigar

**839.** Xordasi butun hayoti davomida saqlanib qoladigan hayvonlar guruhini belgilang.

- A) lansetnik, zog'ora baliq  
B) qilquyruq, baqra  
C) skat, xumbosh  
D) moybaliq, cho'rtan

**840.** Yirtqich qushlar uchun xos belgilar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

1) tirnoqlari uchi ilmoqqa o'xshash qayrilgan; 2) tumshug'i uzun; 3) tumshug'ining uchi pastga qayrilgan; 4) tirnoqlari kalta, to'mtoq; 5) tirnoqlari uzun, o'tkir; 6) tumshug'i qisqa, baquvvat; 7) barmoqlari soni 2 ta.

- A) 1, 2, 6, 7      B) 1, 3, 5, 6  
C) 2, 3, 4, 7      D) 2, 4, 6, 7

**841.** Tuxum-go'sht yo'nalishidagi tovuq zotlarini belgilang.

- A) rus oq tovug'i, lekgorn  
B) kornuel, plimutrok  
C) pervomaysk, lekgorn  
D) zagorsk, nyugempshir

**842.** Koloniya bo'lib yashovchi kemiruvchi hayvonlarni ko'rsating.

- A) ko'k sug'ur  
B) yumronqoziq

C) qo'shoyoq

D) sichqon

**843.** Moy baliq baliqlarning qaysi turkumiga mansub?

A) losossimonlar

B) suyak-tog'ayli

C) karpsimonlar

D) olabug'alar

**844.** Tunda faol hayot kechiradigan hayvonlar guruhini belgilang.

1) qisqichbaqa; 2) ko'rshapalak; 3) yashil qurbaqa; 4) bo'ri; 5) yo'lbars; 6) silovsin; 7) tulki; 8) gepard.

A) 1, 2, 3, 4    B) 1, 3, 4, 5

C) 1, 5, 6, 7    D) 1, 6, 7, 8

**845.** Qaysi hayvon Tropik Afrika va Janubiy Osiyoda tarqalgan?

A) karkidon    B) suv ayg'iri

C) tarpan    D) gorilla

**846.** Ko'richak o'simtasi juda uzun bo'lgan hayvonlarni belgilang.

A) jayron, sayg'oq

B) zebra, qulon

C) zebra, sayg'oq

D) qulon, jirafa

**847.** Nasli haqida g'amxo'rlik qiladigan baliqni belgilang.

A) tilyapiya

B) zog'ora baliq

C) baqra

D) qora baliq

**848.** O'zbekiston dashtlarida qaysi yirtqich hayvon yashaydi?

A) to'qay mushugi

B) gepard

C) barxan mushugi

D) silovsin

**849.** O'zbekiston qoyali tog'larida qaysi hayvon yashaydi?

A) morxo'r    B) sayg'oq

C) jayron    D) alqor

**850.** Yuragi 4 kamerali bo'lgan hayvonlar guruhini belgilang.

1) skat; 2) baqa; 3) qurbaqa; 4) kuyka; 5) chumchuq; 6) akula; 7) kit; 8) manta; 9) triton.

A) 4, 5, 7    B) 2, 3, 9

C) 1, 6, 8    D) 1, 2, 4

**851.** Go'sht - yo'nalishidagi qoramol zoti berilgan qatorni toping.

A) qora-ola    B) bushev

C) simmental    D) shvits

**852.** Yo'rg'a tuvaloqqa xos xususiyatlarni belgilang.

1) tuxumlarini urg'ochi va erkagi navbati bilan bosib yotadi; 2) tuxumlarini faqat urg'ochisi bosadi; 3) jo'jalari hamma narsani yeyaveradi; 4) jo'jalari, asosan, hasharotlar bilan oziqlanadi; 5) xavf tug'ilganda urg'ochi tuvaloq o'zini yaralanganga soladi; 6) ovlash man qilingan; 7) ovlash man qilinmagan.

A) 1, 2, 5, 7    B) 2, 3, 5, 7

C) 1, 3, 5, 6    D) 2, 4, 5, 6

**853.** Nima hisobiga qushlarning patlari yog'lanib turadi?

A) teridagi bezlar hisobiga

B) teridagi yog' bezlari hisobiga

C) patning o'zidagi yog' hisobiga

D) quymich bezi hisobiga

**854.** Quyidagi belgilarning qaysi biri tasqaraga tegishli?

1) baqalar bilan oziqlanadi; 2) hayvonlarning murdasi bilan oziqlanadi; 3) tirnoqlari kuchli rivojlangan; 4) tirik hayvonlarga hujum qila olmaydi; 5) yirik hayvonlarga hujum qiladi; 6) tirnoqlari kuchsiz rivojlangan; 7) boshining ustida quloqqa o'xshagan ikki to'p pati bor; 8) yerda beso'naqay qadam tashlaydi.

A) 1, 3, 7, 8    B) 2, 4, 6, 8

C) 3, 4, 7, 8    D) 2, 3, 4, 7

**855.** Toq tuyoqlilar turkumiga xos belgilarni belgilang.

1) oyog'ida 1 yoki 3 ta barmog'i bo'ladi; 2) oyog'ida 3 ta yoki 5 ta barmog'i bo'ladi; 3) faqat 1-barmog'i yaxshi rivojlangan; 4) faqat 3-barmog'i kuchli rivojlangan; 5) oshqozoni 4 kamerali; 6) oshqozoni kameralarga bo'linmagan; 7) ko'richak o'simtasi uzun bo'ladi.

A) 1, 3, 5, 7    B) 2, 4, 5, 7

C) 2, 3, 5, 7    D) 1, 4, 6, 7

**856.** Ko'lvor ilonga xos xususiyatlarni aniqlang.

1) cho'llarda uchraydi; 2) tog' etaklarida yashaydi; 3) kunduzi ovga chiqadi; 4) kechasi ovga chiqadi; 5) mayda qushlar, kemiruvchilar, kaltakesaklar bilan oziqlanadi; 6) qurbaqa, baqa, kaltakesaklar bilan oziqlanadi.

A) 1, 3, 5    B) 2, 3, 5

C) 2, 4, 5    D) 1, 4, 6

**857.** Yirtqich sutemizuvchilar turkumiga mansub hayvonlarni belgilang.

1) bo'ri; 2) lochin; 3) qoplon; 4) qirg'iy; 5) tulki; 6) ondatra; 7) burgut; 8) yo'lbars; 9) silovsin; 10) ukki; 11) suvsar; 12) norka.

A) 1, 3, 5, 8, 9, 11, 12

B) 1, 2, 3, 7, 9, 10

C) 2, 4, 7, 10

D) 1, 3, 5, 6, 8, 11, 12

**858.** Oq amurning jabrasidan qon qaysi a'zoga boradi?

A) qorin aortasiga

B) orqa aortaga

C) yelka aortasiga

D) bosh arteriyasiga

**859.** Bo'risimonlar oilasiga xos xususiyatlarni toping.

1) tirnoqlari maxsus xaltachaga kirib turadi; 2) hidni yaxshi sezadi; 3) hidni yaxshi sezmaydi; 4) yaxshi eshitadi; 5) yaxshi eshitmaydi; 6) o'ljasini ta'qib qiladi; 7) o'ljasini hididan biladi.

A) 1, 2, 3    B) 1, 5, 7

C) 3, 4, 5    D) 2, 4, 6

**860.** Qaysi hayvonning ustki va ostki qovoqlari shaffof bo'lib, ko'zini qoplab turadi?

A) baliqlar

B) ilonlar

C) kaltakesaklar

D) qushlar

**861.** Faqat ichki quloqdan iborat eshitish a'zolari rivojlangan turkumni belgilang.

- A) dumsizlar B) dumlilar  
C) tangachalilar  
D) losossimonlar

**862.** Quyidagi hayvonlarning eshitish a'zolari qanday qismlardan iborat bo'ladi?

- 1) baliq; 2) baqa; 3) it.

a) ichki va o'rta quloq; b) ichki quloq; c) tashqi, o'rta va ichki quloq.

- A) 1 – a, 2 – c, 3 – b  
B) 1 – c, 2 – b, 3 – a  
C) 1 – b, 2 – a, 3 – c  
D) 1 – b, 2 – c, 3 – b

**863.** Berilganlardan tovuq zotlari yo'nalishlarini ajrating va ularga xos tovuq zotlarini toping.

1) tuxum; 2) go'sht; 3) go'sht-tuxum; 4) manzarali.

a) pervomaysk; b) lekgorn; c) plimutrok; d) kornuel.

- A) 1 – a, 2 – c, 4 – d  
B) 1 – d, 3 – a, 2 – b  
C) 1 – b, 2 – c, 3 – a  
D) 1 – c, 3 – a, 4 – b

**864.** Quyidagi baliqlar qaysi turkumga kirishini aniqlang.

1) forel; 2) sterlyad; 3) qilquyruq; 4) ilonbosh.

a) karpsimonlar; b) suyak tog'aylilar; c) losossimonlar; d) baqra baliqlar.

- A) 1 – a; 2 – b; 3 – c; 4 – d  
B) 1 – b; 2 – a; 3 – c; 4 – d  
C) 1 – a; 2 – c; 3 – b; 4 – d  
D) 1 – c; 2 – d; 3 – a; 4 – b

**865.** Qushlar bir daqiqada necha marta nafas oladi va yuragi uradi?

1) tinch turganida; 2) ucha-yotganda.

a) 165; b) 26; c) 400; d) 550.

- A) 1 – a, b; 2 – c, d  
B) 1 – c, d; 2 – a, b  
C) 1 – b, a; 2 – c, d  
D) 1 – b, d; 2 – c, a

**866.** Qushlarning qaysi xususiyati uchib ketish va uchib kelishida katta ahamiyatga ega?

- A) havoda chamalay olishi  
B) havoda uzoq ucha olishi  
C) muskullarining kuchli rivojlanganligi

D) ko'rish qobiliyati yaxshi rivojlanganligi

**867.** O'rta Osiyoda uchraydigan zaharli ilonlar berilgan qatorni belgilang.

A) kapcha ilon, ko'lvor ilon, suvilon

B) kapcha ilon, qalqontumshuq ilon, sariq ilon

C) kapcha ilon, charx ilon, qalqontumshuq ilon

D) kapcha ilon, ko'lvor ilon, sariq ilon

**868.** Sarg'ayma kasalligini tarqatuvchi organizmni toping.

- A) uy pashshasi  
B) virus  
C) burga  
D) bakteriya

**869.** Siydik yo'llari kloakaga ochiladigan hayvonlarni belgilang.

1) ondatra; 2) triton; 3) agama; 4) bo'rsiq; 5) toshbaqa; 6) alqor.

- A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 5

C) 4, 5, 6      D) 2, 3, 4

**870.** Faqat qushlarga xos belgilarni aniqlang.

1) terisida bezlar rivojlanmagan; 2) faqat quymich bezi bo'ladi; 3) ko'krak bo'shlig'i qorin bo'shlig'idan to'siq bilan ajralgan; 4) ilik suyagi bo'ladi; 5) tirik bola tug'adi; 6) tana harorati doimiy.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 4

C) 1, 3, 4, 6      D) 1, 4, 5, 6

**871.** Buyragi uzun tasmasi-mon bo'lgan hayvonlarni toping.

1) baqa; 2) koala; 3) oq amur; 4) qurbaqa; 5) koata; 6) qorsak.

A) 1, 2, 3      B) 1, 3, 4

C) 3, 4, 5      D) 3, 4, 6

**872.** O'rta Osiyo toshbaqasi qaysi oylarda urchiy boshlaydi va urg'ochisi nechtagacha tuxum qo'yadi?

A) mart – aprel, 1 – 6

B) may – iyul, 10 – 12

C) iyun – iyul, 2 – 8

D) aprel – may, 8 – 16

**873.** Miyacha qaysi hayvonlarda yaxshi rivojlangan?

1) kvaksha; 2) baliq; 3) triton; 4) qush.

A) 1, 2      B) 2, 3

C) 3, 4      D) 2, 4

**874.** Qaysi xordalilarda ontogenez jarayonida xorda saqlanib qoladi?

1) bakra baliq; 2) lansetnik; 3) baqa; 4) forel.

A) 1, 2      B) 2, 3

C) 3, 4      D) 1, 4

**875.** Xordalilar tipining qaysi sinfiga mansub vakillarida ichki urug'lanish bo'ladi?

1) akula; 2) timsoh; 3) ilon; 4) baqa; 5) kaptar; 6) triton.

A) 1, 2, 4      B) 2, 3, 5

C) 3, 4, 6      D) 4, 5, 6

**876.** Cho'lda yashaydigan qushlarga xos belgilarni toping.

1) oyoqlari baquvvat; 2) bo'yni uzun; 3) oyoqlari kalta; 4) oyoqlari uzun; 5) oyoqlari nozik; 6) bo'yni kalta.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 4

C) 2, 3, 5      D) 1, 3, 5

**877.** Timsohlarning yuragi to'rt kamerali bo'lib, arteriya va vena qoni qayerda aralashadi?

A) qorinchada

B) bo'lmachalarda

C) yurakdan chiqqanda

D) o'ng qorinchada

**878.** Ko'pchilik mushuksimonlar ...

A) hidni yaxshi sezadi, yaxshi eshitadi

B) hidni yaxshi sezmaydi, yaxshi eshitadi

C) kuzda oilasi tarqalib ketadi

D) o'ljasini ta'qib qiladi

**879.** Karkidon, zebra qaysi turkumga mansub?

A) juft tuyoqlilar

B) toq tuyoqlilar

C) kemiruvchilar

D) tuyoqli sutemizuvchilar

**880.** Qaysi qushlarning jo'jasi jish holda tuxumdan chiqadi?

A) yirtqich qushlar

- B) suv qushlari
- C) pingvin va tuyaqushlar
- D) kaptarsimonlar

**881.** Baliqlarda ko'payish instinkti qachon paydo bo'ladi?

- A) jinsiy hujayralar yetila boshlashi bilan
- B) bahorda, suvlar iliy boshlashi bilan
- C) lichinkalik davri tugagach
- D) odatda, 4 – 6 oydan so'ng

**882.** Qushlar bosh miyasi-ning qaysi qismida burmalar ko'p bo'ladi?

- A) uzunchoq
- B) o'rta
- C) oldingi miya
- D) miyacha

**883.** Olaqo'zan, larcha qaysi oila va turkumga mansub?

- A) suvsarsimonlar, yirtqichlar
- B) yirtqichlar, mushuksimonlar
- C) yirtqichlar, bo'risimonlar
- D) kemiruvchilar, tovushqonlar

**884.** Quyidagi qaysi hayvon hidni yaxshi ajrata olmaydi?

- A) bo'ri
- B) mushuk
- C) ot
- D) qarg'a

**885.** Ko'r bo'lib qolgan baliqning ov qilishida qaysi a'zosi asosiy rol o'ynaydi?

- A) yon chiziqlar
- B) orqa miya
- C) miyacha
- D) ichki quloq

**886.** Juft tuyoqli sutemizuvchi hayvonlar guruhini belgilang.

1) jirafa; 2) echki; 3) yovvoyi ot; 4) karkidon; 5) zubr; 6) bug'u; 7) zebra.

- A) 1, 2, 5
- B) 3, 6, 7
- C) 1, 2, 4
- D) 5, 6, 7

**887.** Qaysi turkum vakillari ko'payish davrida dengizlardan chuchuk suvlarga o'tadi?

- A) karpsimonlar
- B) losossimonlar
- C) baqra baliqlar
- D) treskasimonlar

**888.** Qaysi baliqlarning suzgichlari tikanli bo'ladi?

- A) olabug'a
- B) qora baliq
- C) gulmoy
- D) baqra

**889.** Suzgich pufagi bo'lmaydigan baliqlarni belgilang.

1) gigant akula; 2) kit akulasi; 3) manta; 4) dengiz tulki-si; 5) elektr skat; 6) osyotr; 7) keta; 8) gorbusha; 9) ilonbosh; 10) qorabaliq.

- A) 1, 2, 3, 4, 6
- B) 1, 3, 6, 8, 10
- C) 6, 7, 8, 9, 10
- D) 1, 2, 3, 4, 5

**890.** Qaysi hayvonning urug'langan tuxumi tiniq, yopishqoq, shilimshiq modda hosil qiladi?

- A) baqra
- B) ugor
- C) lansetnik
- D) baqa

**891.** Havoda tarqalgan tovushni eshitmaydigan hayvonlarni belgilang.

1) urchuqsimon ilon; 2) qora ilon; 3) chipor ilon; 4) sariq ilon; 5) ch'arx ilon; 6) bo'z echkamar.

- A) 1, 3, 6
- B) 2, 4, 6

C) 1, 4, 5      D) 2, 3, 5

**892.** Chumchuqning erkaklari qaysi belgilari bilan urg'ochilaridan farq qiladi?

1) yirikligi; 2) maydaligi; 3) rangsizligi; 4) rangdorligi; 5) ovozi; 6) boshida tojga o'xshash patlari bo'lishi.

A) 1, 2, 3, 4

B) 2, 3, 4, 5

C) 2, 3, 5, 6

D) 1, 4, 5, 6

**893.** Qaysi hayvonlar bir marta olingan havodan ikki marta nafas oladi?

A) suvda ham quruqlikda yashovchilar

B) baliqlar

C) sudralib yuruvchilar

D) qushlar

**894.** Tovuq zotlari to'g'ri berilgan javobni toping.

1) kornuel; 2) moskva; 3) pekin; 4) ukraina; 5) plimutrok; 6) zagorsk; 7) nyugempshir; 8) pervomaysk; 9) yakobin; 10) gereford.

A) 4, 5, 6, 9

B) 3, 5, 7, 8

C) 1, 2, 9, 10

D) 1, 5, 6, 7

**895.** Qaysi hayvonlar O'zbekiston hududida tarqalgan bo'lib, boshqa joylarda deyarli uchramaydi?

A) ingichka barmoqli qo'sh-oyoq, ko'k sug'ur

B) krot, dasht tovushqoni

C) tyin, kulrang kalamush

D) sariq yumronqoziq, jayra

**896.** Nima uchun qushlar skeleti sudralib yuruvchilarga nisbatan ancha pishiq va mustahkam bo'ladi?

A) suyaklar ichida havo bo'lganligi uchun

B) umurtqa pog'onasida egarsimon

C) barcha suyaklar bir-biriga harakatchan

D) bir necha suyaklari qo'shilib o'sganligi

**897.** O'rdaklar qayerlarda qishlaydi?

1) Osiyoning janubida; 2) Shimoliy Afrikada; 3) Janubiy Amerikada; 4) Markaziy Amerikada; 5) Yevropada; 6) Hindistonda; 7) Xitoyda; 8) O'zbekistonning janubidagi suv havzalarida.

A) 1, 2, 4, 8      B) 2, 3, 5, 7

C) 2, 4, 6, 7      D) 1, 2, 3, 6

**898.** Baqaning tishlari qaysi qismida bo'ladi?

A) pastki va yuqori jag'da

B) pastki jag'i va tanglayida

C) yuqori jag'i va tanglayida

D) pastki jag'i va muguz tilida

**899.** Nima sababdan ildam kaltakesak regeneratsiyasida qon oqmaydi?

A) regeneratsiya bo'ladigan joyda kapillyarlar kam bo'lganligi uchun

B) qoni tez ivish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun

C) jarohatlangan joy atrofidagi muskullar qisqarganligi uchun

D) dum umurtqalarida yirik qon tomirlari kamligi uchun

**900.** Nima uchun qushlarning panja suyagi mustahkam bo'ladi?

A) barmoqlar sonining kamayishi va mayda suyaklar qo'shilib o'sganligi uchun

B) barmoq suyaklarining o'zaro harakatchan birikkanligi uchun

C) yelka va barmoq suyaklarining o'zaro qo'shilib o'sganligi uchun

D) o'mrov suyagi ayrini hosil qilganligi uchun

**901.** Quyidagi hayvonlarning qaysi turkum va sinfga mansubligi to'g'ri berilgan javobni toping.

1) oq amur; 2) nandu; 3) koala; 4) koata.

a) karpsimonlar; b) tuya-qushlar; c) xaltalilar; d) primatlar.

I) suyakli baliqlar; II) sutemizuvchilar; III) suvda ham quruqlikda yashovchilar; IV) qushlar.

A) 1 - a - I; 2 - b - IV; 3 - c - II; 4 - d - III

B) 1 - a - II; 2 - b - III; 3 - c - IV; 4 - d - I

C) 1 - c - III; 2 - d - IV; 3 - b - II; 4 - a - I

D) 1 - b - IV; 2 - a - II; 3 - c - I; 4 - d - III

**902.** Zog'ora baliqning qaysi a'zosi qo'ng'ir-qizg'ish rangli bo'ladi?

A) tuxumdoni

B) urug'doni

C) buyragi

D) ichagi

**903.** Baliqlarning suzgich pu-fagi qanday vazifalarni bajarishini belgilang.

1) suzuvchanlik; 2) tovushni kuchaytirish; 3) suv yuzasiga ko'tarilish; 4) nafas chiqarish; 5) nafas olish; 6) suv tubiga tushish.

A) 1, 3, 4      B) 2, 3, 5, 6

C) 2, 3, 6      D) 2, 3, 4, 5, 6

**904.** Qaysi guruhga kiruvchi qushlar guruhining doimiy qishlov joyi bo'lmaydi?

1) ko'chmanchi; 2) uchib o'tuvchi; 3) uchib ketuvchi; 4) o'troq.

A) 2, 3      B) 1, 3

C) 1      D) 2, 4

**905.** O'lkamizda in qurmaydigan qushlar guruhini belgilang.

1) o'troq; 2) ko'chmanchi; 3) uchib o'tuvchi; 4) uchib ketuvchi.

A) 2, 4      B) 3

C) 1, 2      D) 4, 2

**906.** Yovvoyi o'rdaklarning qishlash joyini belgilang.

1) Osiyoning shimoli; 2) Markaziy Amerika; 3) Markaziy Afrika; 4) Osiyoning janubi; 5) Shimoliy Afrika; 6) O'zbekiston



janubi; 7) Janubi-Sharqiy Osiyo; 8) Shimoliy Amerika.

A) 1, 3, 5, 7 B) 4, 6, 7, 8

C) 2, 4, 5, 6 D) 3, 5, 7, 8

**907.** Qaysi yirtqich qushni «quzg'un» deb ham yuritishadi?

A) qora kalxatni

B) burgutni

C) tasqarani

D) jo'rchini

**908.** Qaysi hududlarda merinos zotli qo'ylar boqiladi?

1) Shimoliy Kavkaz; 2) Volgabo'yi; 3) O'zbekiston; 4) Qozog'iston janubi; 5) Qirg'iziston; 6) Turkmaniston.

A) 1, 2, 4 B) 2, 5, 6

C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 6

**909.** Baliqlarning juft suzgich qanotlari qanday vazifalarni bajarishini belgilang.

1) tanani muvozanatda saqlash; 2) orqaga tez suzish; 3) oldinga tomon tez suzish; 4) to'xtash; 5) burilish; 6) oldinga tomon sekin suzish; 7) o'lja ortidan quvish; 8) yuqoriga ko'tarilish.

A) 1, 4, 5, 6 B) 1, 3, 6, 7

C) 2, 4, 6, 8 D) 1, 5, 7, 8

**910.** O'zbekistonga Uzoq Sharqdan keltirib iqlimlashtirilgan baliqlarni belgilang.

A) soxta kurakburun, moybaliq, qorabaliq

B) cho'rtan, laqqa, kambala

C) ugor, bakra, beluga

D) ilonbosh, oq amur, xumbosh

**911.** Go'shti kaloriyali, ikra-si qadrlanadigan baliqlarni belgilang.

A) bakra, moybaliq

B) laqqa, moybaliq

C) zog'ora baliq, karp

D) losos, seld

**912.** Ko'krak qafasi bo'lmaydigan hayvonni belgilang.

A) timsoh B) kaklik

C) kaltakesak D) kvaksha

**913.** Tuxumdan chiqqan itbaliq suvo'tlarga qanday yopishib oladi?

A) jag'lari bilan

B) yopishish a'zosi bilan

C) og'zi bilan

D) maxsus so'rg'ichlari bilan

**914.** Qaysi qushlar jufti uzoq yillar davomida saqlanadi?

A) laylak, miqqiy

B) chumchuq, musicha

C) qur, karqur

D) musicha, qur

**915.** Uya qurmaydigan qushlarni belgilang.

A) kayra, kakku

B) yirtqich qushlar

C) g'oz, o'rdak

D) chittak, o'rdak

**916.** Faqat o'simliklar bilan oziqlanadigan suv havzasi qushini belgilang.

A) yovvoyi o'rdak

B) o'rdak

C) g'oz

D) oq laylak

**917.** Uchib borayotgan yirtqich qaysi qushni ayri dumiga qarab ajratish mumkin?

- A) kalxat      B) burgut  
C) tasqara    D) miqqiy

**918.** O'lkamizda uchraydigan eng yirik qushni belgilang.

- A) tuyaqush    B) burgut  
C) qora kalxat  
D) tasqara

**919.** Sutemizuvchilarning jun qoplami necha qavat bo'ladi?

- A) bir            B) ikki  
C) uch            D) bir necha

**920.** «Qizil kitob»ga kiritilgan kemiruvchi hayvonni belgilang.

- A) ko'k sug'ur  
B) ondatra  
C) nutriya  
D) qunduz

**921.** Yumronqoziqlarga xos xususiyatlarni belgilang.

1) tog'larda yashaydi; 2) dasht va che'lllarda yashaydi; 3) koloniya hosil qilib inlarda yashaydi; 4) orqa oyoqlari uzun; 5) orqa oyoqlarida sakrab harakat qiladi.

- A) 2, 3            B) 1, 2  
C) 3, 4            D) 1, 4, 5

**922.** Otlar zotlariga ko'ra guruhlarini belgilang.

1) shifobaxsh preparatlar va zardob tayyorlash uchun boqiladigan; 2) og'ir yuk tortadigan; 3) salt miniladigan; 4) yo'rg'a; 5) sport; 6) go'sht va qimiz uchun ko'paytiriladigan.

- A) 2, 3, 4, 6      B) 1, 2, 5, 6  
C) 2, 4, 5, 6      D) 1, 3, 5, 6

**923.** Ta'm bilish hujayralari baliqlarning qaysi organlarida joylashgan?

A) og'iz bo'shlig'ida, oshqozonda

B) og'iz bo'shlig'ida, halqumda, butun tanada

C) halqumda, ichaklarida

D) og'iz bo'shlig'ida va terisida

**924.** Kaltakesakning qaysi organi suvda ham quruqlikda yashovchi hayvonlarga nisbatan kuchli rivojlangan bo'ladi?

- A) hazm qilish sistemasi  
B) miyachasi  
C) qon aylanish sistemasi  
D) ayirish organlari

**925.** Mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchilarni belgilang.

1) ilvirs; 2) suvsar; 3) bo'rsiq; 4) gepard; 5) qoplon; 6) qorsak; 7) qunduz; 8) arslon.

- A) 1, 3, 5, 8      B) 2, 4, 7, 8  
C) 1, 4, 5, 8  
D) 1, 3, 4, 6

**926.** Hasharotlarning qurtlari bilan oziqlanadigan baliqni belgilang.

- A) qilquyruq  
B) gulmoy  
C) bükri bāliq  
D) cho'rtan baliq

**927.** O'rta Osiyo laylaklari qayerda qishlaydi?

- A) Shimoliy Hindistonda  
B) Tropik Afrikada  
C) Malayziyada  
D) Efiopiyada

**928.** Losossimonlar turkumiga oid baliqlar keltirilgan qatorni belgilang.

A) keta, gorbusha

B) losos, beluga

C) keta, baqra

D) xumbosh, qulquyruq

929. Qushlarning (1) va baliqlarning (2) orqa ichagi qayerga ochiladi?

A) 1, 2 – kloakaga

B) 1 – tashqi muhitga, 2 – kloakaga

C) 1 – anal teshigiga, 2 – kloakaga

D) 1, 2 – anal teshigiga

930. Umurtqali hayvonlar guruhini belgilang.

A) suv shillig'i, lansetnik, zog'ora baliq

B) olabug'a, chayon, qurbaqa

C) qisqichbaqa, baqachanoq, baqa

D) baqa, kaltakesak, kaplar

931. Qaysi qushlar o'troq qushlar guruhiga kiradi?

A) chittak, chumchuq

B) chittak, go'ngqarg'a

C) zog'cha, olaqarg'a

D) turna, laylak

932. Quymich bezi qaysi hayvonlar guruhiga xos?

A) suvda ham quruqlikda yashovchilar

B) toshbaqa

C) qushlar

D) lansetnik

933. Qaysi hayvonlarda eshish a'zosi faqat ichki quloqdan tashkil topgan?

A) zog'ora baliq, kaltakesakda

B) barcha umurtqalilarda

C) zog'ora baliq, akulada

D) faqat qushlarda

934. Qushlarning qon aylanish sistemasiga xos xususiyatlarni belgilang.

1) yuragi 4 kamerali; 2) yuragi 3 kamerali; 3) yurakdan o'ng aorta ravog'i chiqadi; 4) yurakning o'ng bo'lmachasidan o'pka arteriya chiqadi; 5) yurakning o'ng qorinchasidan o'pka arteriya chiqadi; 6) yurakdan chap aorta chiqadi.

A) 1, 4, 5

B) 1, 3, 5

C) 1, 4, 6

D) 3, 4, 5

935. Xonaki otlarning ajdodi nima?

A) tur

B) muflon

C) tarpan

D) tulki

936. Uy sichqonining qaysi tishlari umri davomida o'sadi?

A) kichik oziq

B) qoziq

C) kurak

D) katta oziq

937. Qaysi hayvonlar o'ljasi ni topish uchun ultratovushdan foydalanadi?

A) kashalot

B) ko'k kit

C) tungi qushlar

D) delfin

938. Bo'rsiqlar qaysi oila va turkumga mansub?

A) suvsarsimonlar, kemiruvchilar

B) mushuksimonlar, yirtqichlar

C) suvsarsimonlar, yirtqichlar

D) suvsarsimonlar, kemiruvchilar

**939.** Oyoqlari uzun, tez yuguradigan hayvonlarni belgilang.

- A) voha hayvonlari
- B) tog' hayvonlari
- C) o'rmon hayvonlari
- D) cho'l hayvonlari

**940.** Dastlabki sutemizuvchilarning kattaligi qanday bo'lgan?

- A) kalamushdek
- B) tulkidek
- C) sichqondek
- D) itdek

**941.** Qaysi organizmlarda eshitish organi faqat ichki quloqdan iborat?

- A) baqra, kaltakesak, it
- B) hamma umurtqalilarda
- C) baqra, zog'ora baliq, akula
- D) faqat qushlarda

**942.** Baliqlar qon aylanish sistemasining tarkibiy qismlarini ko'rsating.

1) 2 kamerali yurak; 2) 3 kamerali yurak; 3) 2 ta qon aylanish doirasi; 4) 1 ta qon aylanish doirasi; 5) kapillyarlar; 6) venalar; 7) arteriyalar.

- A) 2, 3, 5, 6, 7
- B) 1, 3, 4, 5
- C) 1, 4, 5, 6, 7
- D) 2, 4, 6, 7

**943.** Qaysi hayvonda muskul sistemasi eng sodda tuzilgan?

- A) lansetnik
- B) baliqlar
- C) qushlar
- D) sudralib yuruvchilar

**944.** Embriinning tuxumda uzoqroq rivojlanishiga sabab nima?

A) sariqlikning ko'p bo'lishi

B) qalin qobiq

C) nafas yo'llarining mavjudligi

D) po'choqning mavjudligi

**945.** Baliqning ayirish sistemasi qanday tuzilgan?

A) loviyasimon buyraklar, siydik pufagi

B) 2 ta tasmasimon buyrak, siydik pufagi

C) jabraoldi bo'shlig'idagi naychalar

D) 4 ta tasmasimon buyrak, siydik pufagi

**946.** Qaysi umurtqali hayvonlarda ichki urug'lanish kuzatiladi?

1) akula; 2) timsoh; 3) ilon; 4) baqa; 5) kaptar; 6) triton.

A) 1, 2, 4

B) 2, 3, 5

C) 3, 4, 6

D) 4, 5, 6

**947.** Qaysi hayvon yuragida faqat venoz qon bo'ladi?

A) baliqlar

B) suvda ham quruqlikda yashovchilar

C) timsohlar

D) lansetnik

**948.** Suv burguti suv ustida pastlab uchib nima tutadi?

A) baliq

B) baqa

C) ilon

D) nekton

**949.** Qaysi maymunning filnikiga o'xshash tishlari bo'ladi?

A) shimpanze

B) gorilla

C) monax maymuni

D) o'rgimchak maymun

**950.** Tog' qo'ylari shoxining og'irligi necha kilogramm bo'ladi?

- A) 30                      B) 3  
C) 10 – 30                D) 13

**951.** Yirtqich qushlarni ularga mos keladigan xususiyatlar bilan juftlab ajrating.

I) ukki; II) tasqara; III) boy-o'g'li; IV) kalxat.

1) yapaloqqushlar ichida eng yirigi; 2) yapaloqqushlar ichida nisbatan kichigi; 3) soatlab qanot qoqmay ucha oladi; 4) havoda baland uchib o'lja axtaradi.

- A) I – 1; II – 3; III – 2; IV – 4  
B) I – 2; II – 3; III – 1; IV – 4  
C) I – 1; II – 2; III – 3; IV – 4  
D) I – 4; II – 3; III – 2; IV – 1

**952.** Qaysi baliqlarda yog'du taratadigan a'zolari (1) va dum suzgichi (2) kuchli rivojlangan?

a) dengiz-tubida-yashaydigan baliqlar; b) ikki tomonli yasasi baliqlar; c) suv yuzasida va ochiq dengizda yashaydigan baliqlar.

- A) 1 – a, 2 – b  
B) 1 – c, 2 – b  
C) 1 – a, 2 – c  
D) 1 – b, 2 – c

**953.** Qushlarning qaysi sezgi organlari kuchsiz rivojlangan?

- A) hid bilish    B) ta'm bilish  
C) eshitish    D) ko'rish

**954.** Qaysi turkum vakillari xilma-xilligi bilan barcha qushlar turining yarmini o'z ichiga oladi?

- A) chumchuqsimonlar turkumi

- B) o'rdaksimonlar turkumi  
C) kaptarsimonlar turkumi  
D) cho'l va dasht qushlari turkumi

**955.** Qaldirg'ochning narlari qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

1) yirikligi; 2) maydaligi; 3) rangdorligi; 4) boshida toj patlarining bo'lishi; 5) bo'ynining uzunligi; 6) ovozining o'tkirligi.

- A) 1, 3, 4, 6  
B) 2, 3, 4, 6  
C) 1, 3, 4, 5  
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

**956.** Kalxat qayerda qishlaydi?

- A) Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda  
B) Shimoliy Amerikada  
C) Hindistonda  
D) Hindiston va Janubiy Osiyoda

**957.** Qaysi qushni uchganida uzun qanotlaridagi oqish patlarni panjasimon yozganligiga qarab bilish mumkin?

- A) tasqara    B) kalxat  
C) burgut    D) miqqiy

**958.** Qaysi qushning yuzi yuraksimon tuzilishga ega?

- A) tasqara  
B) yapaloqqush  
C) jo'rchi  
D) chil

**959.** Qilquyruq balig'i qaysi turkumga kiradi?

- A) suyak-tog'ayli baliqlar turkumiga  
B) losossimonlar turkumiga

C) skatlar turkumiga

D) karpsimonlar turkumiga

**960.** Gorbusha qaysi turkumga mansub?

A) suyak-tog'ayli baliqlar turkumiga

B) losossimonlar turkumiga

C) skatlar turkumiga

D) olabug'asimonlar turkumiga

**961.** Dengiz tulkisi qaysi sinfga mansub?

A) tog'ayli baliqlar sinfi

B) suyakli baliqlar sinfi

C) sutemizuvchilar sinfi

D) suyak-tog'ayli baliqlar sinfi

**962.** Laylak qayerga uya quradi?

A) daraxtlarning shoxlariga

B) binolar peshtoqiga

C) yer yuzasiga

D) daraxt kovagiga

**963.** Qaysi qushlar daraxt kovagiga (a), yerga (b) uya quradi?

1) chittak; 2) o'rdak; 3) turna;

4) go'ngqarg'a; 5) kaptar.

A) a - 1, 2; b - 3

B) a - 3, 4; b - 1

C) a - 1; b - 2, 3

D) a - 2, 5; b - 1

**964.** Qaysi tovuq zoti tullash davrida tuxum qilmaydi?

A) kornuel

B) nyugempshir

C) ukraina

D) leggorn

**965.** Qaysi tovuq zoti 5 - 6 oyda tuxumga kiradi?

A) leggorn      B) moskva

C) pekin        D) ukraina

**966.** Quyidagi hayvonlarni turkumlari bilan juftlab ko'rsating.

1) kojan; 2) korsak; 3) kaput-sin.

a) qo'lqanotlilar; b) primatlar; c) yirtqichlar.

A) 1 - a; 2 - b; 3 - c

B) 1 - a; 2 - c; 3 - b

C) 1 - b; 2 - c; 3 - a

D) 1 - c; 2 - a; 3 - b

**967.** Itlar nechtdan bola tug'ishi mumkin?

A) 1 - 4            B) 3 - 5

C) 3 - 8            D) 5 - 6

**968.** Quyidagi mo'ynali hayvonlarni kemiruvchilar (I) va yirtqichlar (II) turkumiga ajrating.

1) norka; 2) nutriya; 3) ondat-ra; 4) tulki; 5) kojan; 6) sug'ur.

A) I - 1, 2, 3, 4; II - 5, 6

B) I - 2, 3, 6; II - 1, 4

C) I - 4, 5, 6; II - 1, 2, 3

D) I - 1, 3, 5; II - 2, 4, 6

**969.** Nima sababdan sudralib yuruvchilarning qorni yerda sudraladi?

A) oyoqlari tanasining ikki yonida joylashgani uchun

B) oyoqlari tanasining ostida joylashgani uchun

C) oyoqlari kalfa bo'lganligi sababli

D) qorni muguz tangachalar bilan qoplanganligi sababli

**970.** O'pkali panjaqanotlilardan ... kelib chiqqan.

A) qadimgi dumlilar

B) dumsizlar

C) toshbaqalar

D) baliqlar

**971.** Cho'l va adirlarda (1), Yevropaning janubida (2), Uzoq Sharq sùv havzalarida (3), tropik dengizlarda (4) uchraydigan toshbaqalarni belgilang.

a) O'rta Osiyo toshbaqasi;  
b) botqoq toshbaqasi; c) terili toshbaqa; d) dengiz toshbaqasi.

A) 1 - a, 2 - d, 3 - c, 4 - b

B) 1 - a, 2 - b, 3 - c, 4 - d

C) 1 - a, 2 - b, 3 - d, 4 - c

D) 1 - a, 2 - c, 3 - b, 4 - d

**972.** Quyida berilgan timsohlar va ular tarqalgan hududlarini juftlang.

a) Nil timsohi; b) alligator; c) gavial.

1) Amerika; 2) Hindiston; 3) Afrika.

A) 1 - c, 2 - b, 3 - a

B) 1 - a, 2 - c, 3 - b

C) 1 - b, 2 - c, 3 - a

D) 1 - b, 2 - a, 3 - c

**973.** Timsohning burun teshigi va ko'zlari qayerda joylashgan?

A) boshining oldingi uchida

B) tumshug'ining markazida

C) boshi ustidagi maxsus bo'rtiqlarda

D) boshidagi maxsus chuqurchalarda

**974.** Sirdaryo va Amudaryoda tarqalgan losossimonlar turkumi vakilini belgilang.

A) gulmoy B) xumbosh

C) qilquyruq D) beluga

**975.** Soxta kurakburun baliqning ikkinchi nomini belgilang.

A) forel B) beluga

C) qilquyruq D) gulmoy

**976.** Salt miniladigan ot zotlarini belgilang.

1) Vladimir; 2) Orlov yo'rg'asi; 3) rus yo'rg'asi; 4) laqay; 5) axaltaka; 6) qorabayir.

A) 1, 5, 6 B) 2, 3, 4

C) 1, 2, 3 D) 4, 5, 6

**977.** Qaysi turkumga mansub qushlarda toj suyagi bo'lmaydi va patlari yelpig'ich hosil qilmaydi?

A) tuvaloqlar

B) pingvinlar

C) tuyaqushsimonlar

D) g'ozsimonlar

**978.** Oqqush qaysi qushlar turkumiga mansub?

A) tuvaloqlar

B) g'ozsimonlar

C) laylaksimonlar

D) kaptarsimonlar

**979.** Sohil qushlariga qaysi qushlar turkumi misol bo'ladi?

A) laylaksimonlar

B) pingvinlar

C) tuvaloqlar

D) g'ozsimonlar

**980.** Bo'yni va oyoqlari uzun, balchiqda yaxshi yuradigan, suvda suzolmaydigan qushni belgilang.

A) g'oz B) o'rdak

C) oqqush D) oq laylak

**981.** Bo'g'imoyoqlilarning ajdodini belgilang.

- A) trilobitlar
- B) qisqichbaqasimonlar
- C) stegotsefallar
- D) psilofitlar

**982.** Qaysi hayvon tulkidek ke-  
ladigan besh barmoqli yirtqich  
hayvonlardan kelib chiqqan?

- A) quyon      B) ot
- C) qushlar    D) kaltakesak

**983.** Panjaqanotli baliqlar  
qaysi hayvonlarning oraliq for-  
masi hisoblanadi?

A) baliqlar va sudralib yuruv-  
chilar

B) baliqlar va suvda ham  
quruqlikda yashovchilar

C) suvda ham quruqlikda ya-  
shovchilar va sudralib yuruv-  
chilar

D) baliqlar va lansetnik

**984.** Yevropaning janubida  
qaysi toshbaqa turi uchraydi?

- A) dengiz toshbaqasi
- B) terili toshbaqa
- C) botqoq toshbaqasi
- D) cho'l toshbaqasi

**985.** Tirnoqlari kuchsiz rivoj-  
langan, lekin tumshug'i o'tkir,  
qayrilgan qushni belgilang.

- A) burgut      B) kalxat
- C) ukki        D) tasqara

**986.** Chumchuqsimonlar tur-  
kumining erkak qushlari qaysi  
xususiyatlari bilan ajralib turadi?

1) yirikligi; 2) maydaligi; 3)  
rangdorligi; 4) boshida toj pat-  
larining bo'lishi; 5) bo'ynining  
uzunligi; 6) ovozinig o'tkirligi.

A) 1, 3, 4, 6

B) 2, 3, 4, 6

C) 1, 3, 4, 5

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

**987.** Lansetnikka o'xshash tu-  
ban xordalilar nimalardan kelib  
chiqqan?

A) eng qadimgi tuban halqali  
chuvalchanglardan

B) kiprikli chuvalchanglardan

C) mollyuskalardan

D) bo'g'imoyoqlilardan

**988.** Lansetnikning qaysi bel-  
gilari halqali chuvalchanglar bi-  
lan qarindoshligini ko'rsatadi?

a) ayirish sistemasining tuzi-  
lishi; b) qon aylanish sistema-  
sining tuzilishi; c) bosh miya-  
si va yuragining bo'lmasligi; d)  
muskullarining bo'g'im bo'lib  
joylashganligi; e) nerv nayining  
bo'lishi; f) xordasining bo'lishi.

A) a, b, c, d, e, f

B) a, b, c

C) a, b, d, e      D) b, c, e, f

**989.** Sersut (1), sersut-  
go'shtdor (2) va go'shtdor (3)  
zotlarni farqlang.

a) Bushiyev; b) Simmental;  
c) Shortgorn; d) Yaroslavl; e)  
Kostroma; f) Gereford.

A) 1 - c, f; 2 - b, e; 3 - a, d

B) 1 - a, d; 2 - b, e; 3 - c, f

C) 1 - a, d; 2 - c, f; 3 - b, e

D) 1 - b, e; 2 - c, f; 3 - a, d

**990.** Qozog'iston oqbooshi,  
Santa-Gertruda qoramol zot-  
lari qaysi yo'nalishda ko'payti-  
riladi?

A) go'sht      B) sut



C) sut-go'sht D) go'sht-teri  
**991.** Qo'y zotlari junining sifa-  
tiga ko'ra qanday zotlarga ajra-  
tiladi?

A) merinos, chala mayin,  
qorako'l terili

B) qorako'l terili, mayin, dag'al

C) mayin, chala mayin, dag'al

D) po'stinbop terili, go'sht-jun-  
li, go'sht-yog'li

**992.** Mayin junli qo'ylarning  
juni nimadan iborat?

A) bir xil uzunlikdagi tivitdan

B) har xil uzunlikdagi tivitdan

C) faqat dag'al qildan

D) dag'al qil va tivitdan

**993.** Dag'al junli qo'ylarning  
juni nimadan iborat?

A) bir xil uzunlikdagi tivitdan

B) har xil uzunlikdagi tivitdan

C) faqat dag'al qildan

D) dag'al qil va tivitdan

**994.** Dag'al junli qo'ylar qan-  
day yo'nalishdagi zotlarga ajra-  
tiladi?

A) po'stinbop terili, qorako'l  
terili

B) faqat go'sht-yog'li

C) go'sht-junli va go'sht-yog'li

D) po'stinbop terili, qorako'l  
terili, go'sht-junli va go'sht-  
yog'li

**995.** Po'stinbop teri beradi-  
gan qo'y zotini belgilang.

A) Romanov B) Hisor

C) Merinos D) Qorako'l

**996.** O'zbekistonda boqila-  
digan go'sht-yog' yo'nalishida-  
gi qo'y zotini belgilang.

A) Romanov B) Hisor

C) Merinos D) Qorako'l

**997.** Qaysi hayvonlar hid-  
ni yaxshi sezmaydi, lekin juda  
yaxshi eshitadi?

a) gepard; b) silovsin; c)  
chiyabo'ri; d) kaptar; e)  
qaldirg'och; f) qorsak.

A) a, b, d, e B) a, b, c, d

C) c, d, e, f D) a, b, c, d, e, f

**998.** Ko'krak qafasi rivojlan-  
gan (1) va rivojlanmagan (2)  
umurtqalilarni belgilang.

a) manta; b) baqa; c) qur-  
baqa; d) keta; e) kit; f) kaltake-  
sak; j) miqqiy.

A) 1 – a, d, e, f; 2 – b, c, j

B) 1 – f, j; 2 – a, b, c, d, e

C) 1 – a, b, c, d; 2 – e, f, j

D) 1 – e, f, j; 2 – a, b, c, d

**999.** Qaysi ilonlar kemiruv-  
chi, qush va kaltakesaklar bilan  
oziqlanadi?

a) bo'g'ma ilon; b) chipor ilon;  
c) ko'lvor ilon; d) charx ilon; e)  
suvilon; f) kapcha ilon.

A) d, e, f B) b, d, e

C) a, b, c D) b, c, e

**1000.** Cho'l va sohil qushlari-  
ning o'xshash belgilarini toping.

A) oyoqlari va bo'yni kalta

B) oyoqlari uzun, bo'yni kalta

C) oyoqlari va bo'yni uzun

D) oyoqlari va tumshug'i uzun

**1001.** Qaysi baliqlar ko'pa-  
yish davrida dengizdan chu-  
chuk suvlarga o'tadi?

A) ugor, zog'ora

B) losos, ugor

C) gorbusha, keta

D) oqcha, baqra

**1002.** Qaysi baliq ko'payish davrida dengizdan chuchuk suvga borib tuxum qo'ymaydi?

A) gorbusha B) keta

C) losos D) ugor

**1003.** Baliq (1), uy pashshasi (2) va yashil bronza qo'ng'izining (3) ta'm bilish hujayralari qayerda joylashgan?

a) oldingi oyoqlari panjasidagi tukchalarda; b) og'iz bo'shlig'ida; c) paypaslagichlarda; d) halqumda; e) tana yuzasida; f) mo'ylovida; j) yostiqtchasimon xartumchada.

A) 1 - b, d, e; 2 - a, c; 3 - f

B) 1 - b, d, e; 2 - a; 3 - c

C) 1 - b, d; 2 - e, f; 3 - c

D) 1 - b, d, e; 2 - c, j; 3 - a, f

**1004.** Tikanli (1), gigant (2) va kit (3) akulasining uzunligini toping.

a) 18 m; b) 15 m; c) 180 sm; d) 40 - 45 sm; e) 4 - 4,5 m.

A) 1 - d, 2 - b, 3 - c

B) 1 - e, 2 - b, 3 - a

C) 1 - c, 2 - e, 3 - a

D) 1 - d, 2 - b, 3 - a

**1005.** Chuchuk suv (a) va dengizlarda (b) yashovchi baliqlarni juftlab ko'rsating.

1) soxta kurakburun; 2) keta; 3) qora baliq; 4) gulmoy; 5) osminog; 6) nereida; 7) qizil chuvalchang; 8) oq planariya; 9) aktiniya; 10) foraminifera; 11) nursimonlar; 12) baqachanoq.

A) a - 1, 2, 3, 4, 5, 6; b - 7, 8, 9, 10, 11, 12

B) a - 1, 3, 4, 7, 8, 12; b - 2, 5, 6, 9, 10, 11

C) a - 1, 2, 4, 7, 8, 12; b - 3, 5, 6, 9, 10, 11

D) a - 2, 3, 4, 7, 9, 12; b - 1, 5, 6, 8, 10, 11

**1006.** Ikki qon aylanish doirasi va uch kamerali yurakka ega bo'lgan organizmlarni ko'rsating.

1) itbaliq; 2) triton; 3) alligator; 4) gavial; 5) kojan; 6) kaputsin; 7) gekkon.

A) 1, 2, 6, 7 B) 3, 4, 5, 7

C) 2, 7 D) 3, 4, 5, 6

**1007.** O'troq (a) va ko'chib yuruvchi (b) qushlarni ko'rsating.

1) qorayaloq; 2) mayna; 3) kaklik; 4) zog'cha; 5) musicha; 6) chittak.

A) a - 1, 2, 3; b - 4, 5, 6

B) a - 1, 4; b - 2, 3, 5, 6

C) a - 2, 3, 5, 6; b - 1, 4

D) a - 2, 3, 6; b - 1, 4, 5

**1008.** Yopiq qon aylanish sistemasiga ega bo'lgan hayvonlar ...

A) yomg'ir chuvalchangi, qandala

B) qizil chuvalchang, tridakna

C) bitiniya, qoraqurt

D) qorsak, forel

**1009.** Yuragida faqat venoz qoni bor hayvonlar guruhini belgilang.

A) akula, skat

- B) kit, delfin
- C) baqa, gekkon
- D) forel, gulmoy

**1010.** Ildam kaltakesakning qaysi organi tuyg'u vazifasini bajaradi?

- A) yon chizig'i
- B) sezuvchi mo'ylovlari
- C) tanadagi sezgi hujayralari
- D) tili

**1011.** Juft tuyoqli kavsh qaytaruvchi hayvonlar guruhini belgilang.

- A) jirafa, begemot
- B) zubr, yovvoyi cho'chqa
- C) zubr, alqor
- D) alqor, qulon

**1012.** Tinch turgan kaptarning yuragi bir daqiqada necha marta qisqaradi?

- A) 550
- B) 250
- C) 300
- D) 165

**1013.** Og'iz bo'shlig'ida tishi bo'lmaydigan baliqni belgilang.

- A) cho'rtan
- B) forel
- C) moybaliq
- D) ilonbosh

**1014.** Ko'rish vazifasini yorug'lik sezuvchi hujayralari bajaradigan hayvonni belgilang.

- A) planariya
- B) lansetnik
- C) baliq
- D) skat

**1015.** Qaysi hayvonlarda regeneratsiya qilish xususiyati yaxshi rivojlangan?

- 1) gidra; 2) foraminifera; 3) radiolyariya; 4) yomg'ir chuvalchangi; 5) askarida; 6) bitiniya; 7) tez kaltakesak.

- A) 1, 2, 3
- B) 3, 5, 6
- C) 1, 5, 6
- D) 1, 4, 7

**1016.** Tritonning ko'zi nima bilan himoyalangan?

- A) teri
- B) oqsil qobiq
- C) qovoq
- D) kutikula

**1017.** Lansetnikning ovqat hazm qilish sistemasi qanday organlardan tashkil topgan?

- 1) og'iz; 2) halqum; 3) qizilo'ngach; 4) oshqozon; 5) ichak; 6) kloaka; 7) anal teshigi.

- A) 1, 2, 5, 6
- B) 1, 3, 5, 6
- C) 1, 3, 4, 7
- D) 1, 2, 5, 7

**1018.** Itlarda qaysi suyak rivojlanmagan?

- A) ko'krak tirgak
- B) to'sh
- C) kurak
- D) o'mrov

**1019.** Qaysi sutemizuvchilar tirik bola tug'masdan tuxum qo'yib ko'payadi?

- A) xaltalilar

- B) kloakalilar
- C) yo'ldoshiilar
- D) xaltalilar va kloakalilar

**1020.** Qaysi sutemizuvchi hayvonlarda tana harorati o'zgarib turadi?

- A) hasharotxo'rlar
- B) kitsimonlar
- C) tuxum qo'yuvchilar
- D) kemiruvchilar

**1021.** Miyachasi kuchsiz rivojlangan hayvonni belgilang.

- A) forel
- B) kaltakesak
- C) qorsak
- D) qurbaqa

**1022.** Ko'krak qafasi, qovurg'alar, to'sh suyagi, tovon suyagi qaysi hayvonlarga xos?

1) kashalot; 2) alqor; 3) miqqiy; 4) urchuqsimon kaltakesak; 5) tasqara; 6) baqa; 7) jayron.

- A) 2, 3, 5, 7    B) 2, 3, 5, 6  
C) 1, 7, 4, 2    D) 2, 4, 5, 7

**1023.** Akulalarning qaysi orqani rezonator vazifasini bajaradi?

- A) suzgich pufagi  
B) muskullari  
C) jabrasi  
D) rezonator vazifasini bajar-  
maydi

**1024.** Qaysi qush Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda qishlaydi?

- A) tasqara    B) kalxat  
C) bulbul  
D) qalding'och

**1025.** O'zbekistonda uchraydigan zaharli ilonlar berilgan qatorni ko'rsating.

- A) ko'lvor, kapcha  
B) chipor ilon va qalqontumshuq ilon  
C) charx ilon, suvilon  
D) ko'lvor ilon, chipor ilon

**1026.** Sutemizuvchilarda qaysi sezgi organlari qushlarnikiga nisbatan kuchsizroq rivojlangan?

- A) ko'rish    B) hid bilish  
C) ta'm bilish    D) eshitish

**1027.** Ultratovushdan foydalanuvchi hayvonlarni ko'rsating.

- A) ko'rshapalak, koata  
B) ko'rshapalak, boyo'g'li  
C) taqaburun, delfin  
D) ko'rshapalak, tyulen

**1028.** Ko'payish davrida dengizdan daryoning yuqori qismiga ko'tariladigan baliqni belgilang.

- A) oqcha  
B) mo'ylov baliq  
C) moybaliq  
D) baqra

**1029.** Uzunligi 75 sm gacha, og'irligi 2 kg gacha boradigan, noyob tur sifatida muhofaza qilinadigan baliqni belgilang.

- A) qilquyruq    B) forel  
C) baqra    D) beluga

**1030.** Qaysi sutemizuvchilarda oshqozonda hazm bo'lmagan oziq chuvalchangsimon o'simtada hazm bo'ladi?

- A) qoramollarda  
B) otlarda  
C) kurakoyoqilarda  
D) yirtqichlarda

**1031.** Lansetnikning jabralariga qum zarralari kirishidan uning qaysi a'zosi himoya qiladi?

- A) teri burmalari  
B) jabra qopqog'i  
C) tangachalari  
D) jabra yorig'i

**1032.** Quyida berilgan qushlardan O'rta Osiyo hududida uchraydigan kunduzgi yirtqichlarni belgilang.

- a) qora kalxat; b) miqqiy; c) boyqush; d) boyo'g'li; e) jo'rchi; f) qarchig'ay; g) ukki.

- A) a, d, f, g    B) a, f, g  
C) a, b, e, g    D) a, b, e, f

**1033.** Yevropa laylaklarining qishlash joyini belgilang.

- A) Afrikaning shimoli
- B) O'rta Osiyo
- C) Afrika va Hindiston
- D) Janubi-Sharqiy, Tropik Afrika

**1034.** O'rta Osiyo laylaklarining qishlash joyini belgilang.

- A) Shimoliy Hindiston
- B) Afrika
- C) Tropik Afrika
- D) O'rta Osiyo

**1035.** Yirtqich tishli kaltakesak necha yil ilgari yashagan?

- A) 200 – 300 ming
- B) 200 – 300 mln
- C) 30 mln
- D) 150 – 180 mln

**1036.** Dag'al junli qo'y zotlarini belgilang.

1) go'sht-sut; 2) qorako'l terili; 3) go'sht-yog'li; 4) go'sht-junli; 5) po'stinbop terili.

- A) 2, 3, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 3, 5
- D) 3, 4, 5

**1037.** Otlar miloddan necha yil oldin xonakilashtirilgan?

- A) 7000
- B) 3000
- C) 5000
- D) 8000

**1038.** Qaysi javobda sersut sigir zoti keltirilgan?

- A) qora-ola
- B) simmental
- C) gereford
- D) shortgorn

**1039.** «Erkaklarining tana-si qora, faqat qanotlari va du-

mida oq patlari bo'lganidan qorong'ida sezilmaydi va ular qumni tumshug'i bilan kovlab uya yasaydi». Bu xususiyat qaysi qushlarning erkaklariga xos?

- A) tuvaloq
- B) yirtqich, tungi qushlar
- C) yovvoyi o'rdak
- D) Afrika tuyaqushi

**1041.** Anal teshigi bo'lmagan (a) va bo'lgan (b) chuvalchanglarni juftlab ko'rsating.

1) exinokokk; 2) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi; 3) nereida; 4) bolalar gijjasi; 5) jigar qurti.

- A) a – 2, 5; b – 1, 3, 4
- B) a – 1, 3, 5; b – 2, 4
- C) a – 1, 2, 5; b – 3, 4
- D) a – 1, 5; b – 2, 3, 4

**1042.** Bosh-oyoqlilarning dushmandan himoyalaniş usulini toping.

- A) reaktiv harakatlanadi
- B) suvga siyoh chiqaradi
- C) suv tubida harakatsiz yotadi
- D) zahar bezi mavjud

**1043.** Tana bo'shlig'i bo'lmaydigan hayvonlarni belgilang.

- A) yassi chuvalchanglar
- B) mollyuskalar
- C) to'garak chuvalchanglar
- D) halqali chuvalchanglar

## ODAM VA UNING SALOMATLIGI (8-sinf)

1. Qaysi suyaklar odam yelka kamari skeletini tashkil qiladi?

A) kurak suyagi, o'mrov suyagi

B) kurak suyagi, o'mrov suyagi, nomsiz suyak

C) kurak suyagi, yelka suyagi, tirsak suyagi

D) kurak suyagi, o'mrov suyagi, tirsak suyagi

2. Qaysi suyaklar harakatsiz birikkan bo'ladi?

A) yelka, bilak

B) son suyaklari

C) boldir suyaklari

D) chanoq

3. Kurak va yelka suyaklari birikkan bo'g'im qanday tuzilishga ega bo'ladi?

A) silindrsimon

B) egarsimon

C) sharsimon

D) g'altaksimon

4. Qaysi a'zolar silliq to'li muskul to'qimasidan tashkil topgan?

A) yurak, qon-tomir, siydik pufagi

B) buyrak, qon-tomir, ichaklar, yurak

C) tomir, ichaklar, siydik pufagi

D) siydik pufagi, ichaklar, yurak

5. Odam skeletidagi suyaklardan nechitasi juft?

A) 36 B) 40

C) 206 D) 85

6. Odam tanasidagi kaftusti suyaklari soni nechta?

A) 5 B) 8

C) 12 D) 9

7. Suyakning qaysi qismida mayda qon va limfa tomirlari, nerv tolalari juda ko'p?

A) g'ovak moddada

B) suyakusti pardasida

C) suyakning tog'ay bilan qoplangan qismida

D) ilik qismida

8. Keng serbar muskullar odamning qayerida bo'ladi?

A) jag'da B) orqada

C) oyoqda D) qo'lda

9. Quyida berilgan muskularning qaysi biri odamning orqa muskullari hisoblanadi?

A) umurtqa pog'onasini tiklovchi

B) deltasimon muskul

C) uch boshli muskul

D) so'rg'ichsimon muskul

10. Odamdagi skelet muskullari tana massasining necha foizini tashkil etadi?

A) 5 - 10%

B) 70%

C) 20 - 30%

D) 40%

11. Muskul tashqi tomondan yupqa o'ralgan parda nima deb ataladi?

- A) sinaps
- B) fassiya
- C) sinovial suyuqlik
- D) meyelin parda

**12.** Quyida berilganlarning qaysi biri tayanch-harakatlanish sistemasining faol qismi hisoblanadi?

- A) yurak
- B) skelet
- C) muskul
- D) tog'ay

**13.** Necha juft qovurg'alar chin qovurg'alar deyiladi?

- A) 8 – 10-juft
- B) 3 – 5-juft
- C) 11 – 12-juft
- D) 1 – 7-juft

**14.** Quyida berilgan muskulardan qaysi biri yuz muskullariga misol bo'ladi?

- A) so'rg'ichsimon
- B) kvadratsimon
- C) rombsimon
- D) uchburchak

**15.** Kalta naysimon suyak berilgan qatorni toping.

- A) bilak
- B) kaftusti
- C) yelka
- D) barmoq

**16.** Barmoqlarning suyakka aylanishi necha yoshgacha davom etadi?

- A) 20 – 25
- B) 25 – 30
- C) 16 – 20
- D) 30 – 35

**17.** Tizza qopqog'i suyagiga qaysi muskulning payi birikadi?

- A) uch boshli
- B) ikki boshli
- C) to'rt boshli
- D) boldir

**18.** Quyida berilganlarning qaysi biri bo'yin muskuli hisoblanadi?

- A) tishsimon muskul
- B) narvonsimon
- C) serbar muskul
- D) trapetsiyasimon muskul

**19.** Muskulning statik ishi natijasida odam tanasi va uning ayrim qismlari ma'lum vaqt davomida nima qiladi?

- A) har xil harakatlarni bajaradi
- B) zarur bo'lgan vaziyatni saqlaydi
- C) charchaydi
- D) bir xil harakatlarni bajaradi

**20.** Tana muskullari tarangligi va harakatini boshqaruvchi nerv markazi quyidagilarning qaysi biri hisoblanadi?

- A) uzunchoq miya
- B) miyacha

- C) targ'il tana
- D) oqimtir yadro

**21.** Sportchilarning uzoq jismoniy mashqlarda tez charchamasligi sababini aniqlang.

- A) qonda glyukoza miqdori ko'p
- B) muskullarda glikogen zaxirasi ko'p

- C) nerv, muskullarda oqsil zaxirasi ko'p

- D) nerv, muskullarda yog' zaxirasi ko'p

**22.** Odam skeletining qaysi qismi tananing ressoi vazifasini bajaradi?

- A) ko'krak qafasi

- B) umurtqa pog'onasi
- C) boldir suyagi
- D) tovon-kaft

**23.** Suyak singanda, uning bitishida suyakning qaysi qismi muhim ahamiyatga ega bo'ladi?

- A) ko'mik qismi
- B) kollagen tolalar
- C) periost
- D) anorganik moddalar

**24.** Erkin qo'l suyaklarining soni jami nechtani tashkil qiladi?

- A) 66
- B) 60
- C) 64
- D) 30

**25.** Qaysi ichki organ muskullari tuzilishi jihatidan ko'ndalang yo'lli, ish faoliyati jihatidan silliq tolali muskullarga o'xshaydi?

- A) yurak
- B) oshqozon
- C) buyrak
- D) jigar

**26.** Yosh bola bosh suyagining qaysi qismida kichik liqildoq joylashgan bo'ladi?

- A) tepa va ensa suyagi o'rtasida
- B) peshona va chakka suyagi o'rtasida
- C) peshona va tepa suyagi o'rtasida
- D) tepa va chakka suyagi o'rtasida

**27.** Tabiiy egilishlar necha yoshgacha bolalarda bo'lmaydi?

- A) bir yoshgacha
- B) ikki yoshgacha
- C) uch yoshgacha

D) olti oylikkacha

**28.** Qaysi suyak 3 qismga – dasta, tana, qilichsimon o'simtaga bo'linadi?

- A) kurak
- B) o'mrov
- C) to'sh
- D) qovurg'a

**29.** Axill payi odam tanasining qaysi sohasida joylashgan?

- A) bo'yin
- B) ko'krak
- C) son
- D) boldir

**30.** Miyaning nerv hujayralarini oziqlantirish vazifasini nima bajaradi?

- A) neyroglia
- B) neyron
- C) akson
- D) dendrit

**31.** Suyaklarning bo'g'im yuzalari tuzilishini belgilang.

1) sharsimon; 2) naysimon; 3) silindsimon; 4) konussimon; 5) egarsimon; 6) yulduzsimon; 7) g'altaksimon; 8) ellipssimon; 9) yoysimon.

A) 2, 4, 6, 7, 9

B) 1, 3, 5, 7, 8

C) 1, 2, 4, 6, 7

D) 1, 3, 4, 8, 9

**32.** Gavda suyaklaridan qaysi birining suyakka aylanishi 30 yoshgacha davom etadi?

- A) dum umurtqalari
- B) umurtqa suyaklari
- C) tos suyaklari
- D) yelka va son suyaklari

**33.** Qaysi suyaklarning o'sishi 20 – 25 yoshgacha davom etadi?

1) bosh suyagi; 2) umurtqa suyaklari; 3) kurak, o'mrov, yelka, bilak, tirsak; 4) to'sh suyagi;



5) qo'l kaft suyaklari; 6) barmoq suyaklari.

A) 1, 3, 4      B) 2, 4, 6

C) 4, 5, 6      D) 1, 2, 5

34. Qo'l barmoqlarining suyakka aylanishi necha yoshgacha davom etadi?

A) 11 – 13      B) 14 – 16

C) 16 – 17      D) 16 – 20

35. Kurak, o'mrov, yelka, bilak, tirsak suyaklarining suyakka aylanishi necha yoshgacha davom etadi?

A) 25 – 30      B) 16 – 20

C) 20 – 25      D) 17 – 25

36. Umurtqa suyaklari qaysi yoshda suyakka aylanib bo'ladi?

A) 14 – 16      B) 13 – 15

C) 18            D) 17 – 20

37. Odamning suyagi qanday vazifalarni bajarishda qatnashadi?

A) himoya, muvozanat

B) tayanch, qon deposi

C) mineral tuzlar uchun depo, muvozanat

D) himoya, tayanch, mineral tuzlar uchun depo

38. Muskulning statik ishiga tegishli misolni belgilang.

A) turgan joyda chopish

B) yurish

C) sakrash

D) qaldirg'och holat

39. O'simlik, hayvon mahsulotlaridan va mineral moddalardan tayyorlangan dorilar

haqida kimning qaysi asarida ma'lumot berilgan?

A) Ibn Sinoning «Tib qonunlari»

B) Beruniyning «Saydana»

C) Jurjoniyning «Al-Kimyoy»

D) Abu Bakr Ahaviy Buxoriyning «Hidoyat»

40. To'sh suyagi qaysi yoshda bir-biriga qo'shilib yaxlit to'sh suyagini hosil qiladi?

A) 8 – 10      B) 14 – 16

C) 15 – 16      D) 20 – 25

41. Anotomiya fani rivojlani-shiga hissa qo'shgan olimni toping.

A) A.Y. Yunusov

B) R.A. Alavi

C) Z.T. Tursunov

D) E.S. Mahmudov

42. Uzoq vaqt poshnasiz oyoq kiyim kiyish oyoq kaftida qanday o'zgarishga olib keladi?

A) kichik barmoq suyagining egrilanishi

B) tovonning qalinlashishi

C) butun kaftning egrilani-shi

D) yassioyoqlilik

43. Qon va limfa tomirlari devorining muskullari qanday to'qimadan tashkil topgan?

A) epiteliy

B) nerv

C) silliq tolali

D) ko'ndalang yo'lli

44. Anotomiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarni ko'rsating.

1) X.Z.Zohidov; 2) U.Qodirov;  
3) K.Rahimov; 4) O'.Oripov; 5)  
S. Asomov; 6) K.Zufarov; 7)  
A.Asqarov; 8) N.Ismoilov; 9)  
R.A.Alavi; 10) E.Mahmudov.

- A) 1, 9            B) 6, 7, 8  
C) 2, 3, 10      D) 4, 5

**45.** Ichki kasalliklarni o'rganishga doir ilmiy ishlar olib borgan olimlarni ko'rsating.

1) N.K.Ahmedov; 2) U.Qodirov; 3) K.Rahimov; 4) O'.Oripov; 5) S.Shamsiyev; 6) K.Zufarov; 7) A.Asqarov; 8) N.Ismoilov; 9) S.Asomov; 10) E.Mahmudov.

- A) 1, 6, 9            B) 7, 8  
C) 2, 3, 10      D) 4, 5

**46.** Jarrohlik sohasida ish olib borgan olimlarni ko'rsating.

1) R.Xudoyberdiyev;  
2) U.Qodirov; 3) K.Rahimov;  
4) O'.Oripov; 5) V.Vohidov;  
6) K.Zufarov; 7) A.Asqarov;  
8) N.Ismoilov; 9) S.Asomov;  
10) E.Mahmudov.

- A) 1, 6, 9            B) 7, 8  
C) 2, 3, 10      D) 4, 5

**47.** Fiziologiya fanining rivojiga hissa qo'shgan olimlarni ko'rsating.

1) R.Xudoyberdiyev;  
2) U.Qodirov; 3) K.Rahimov;  
4) O'.Oripov; 5) Z.Umidova;  
6) K.Zufarov; 7) A.Asqarov;  
8) N.Ismoilov; 9) S.Asomov;  
10) E.Mahmudov.

- A) 1, 9            B) 7, 8  
C) 2, 3, 10      D) 4, 5, 6

**48.** Qaysi to'qima o'zaro zich joylashgan hujayralardan iborat?

- A) nerv  
B) muskul  
C) epiteliy  
D) biriktiruvchi

**49.** V.Vohidov va O'.Oripov tibbiyotning qaysi yo'nalishiga katta hissa qo'shgan?

A) jarrohlik  
B) hujayralarda kechadigan o'zgarishlarni o'rganishga  
C) ichki kasalliklarni o'rganish va davolashga  
D) fiziologiya sohasiga

**50.** K.Zufarov tibbiyotning qaysi yo'nalishida ishlar olib borgan?

A) jarrohlik  
B) hujayralarda kechadigan o'zgarishlarni o'rganish  
C) ichki kasalliklarni o'rganish va davolash

D) asab kasalliklari  
**51.** Z.Umidova tibbiyotning qaysi sohasida ishlar olib borgan?

A) fiziologiya sohasi  
B) hujayralarda kechadigan o'zgarishlarni o'rganish  
C) ichki kasalliklarni o'rganish va davolash

D) yuqumli kasalliklarning tarqalish sabablarini aniqlash

**52.** I.Musaboyev tibbiyotning qaysi sohasida ishlar olib borgan?

- A) jarrohlik

B) hujayralarda kechadigan o'zgarishlarni o'rganish

C) ichki kasalliklarni o'rganish va davolash

D) yuqumli kasalliklarning tarqalish sabablarini aniqlash

53. Muskul to'qimaning qaysi xili odam tinch turganda ham o'z vazifasini bajaraveradi?

A) yelka muskullari

B) boldir muskullari

C) silliq tolali muskullar

D) skelet muskullar

54. Qaysi muskul tuzilishiga ko'ra ko'ndalang yo'lli muskul-larga, bajaradigan vazifasi ji-hatidan silliq tolali muskullarga o'xshaydi?

A) barcha skelet muskullari

B) til muskuli

C) yurak muskuli

D) qon va limfa tomirlari muskullari

55. Magnit bo'roni qanday odamlarga ko'proq seziladi?

1) asab organlari xastalan-gan; 2) buyragi xastalangan; 3) teri kasalliklari bilan xastalan-gan; 4) yurak-qon tomir siste-masi xastalangan; 5) tayanch-harakatlanish organlari xasta-langan.

A) 1, 2, 3

B) 2, 4, 5

C) 1, 3, 4

D) 1, 4, 5

56. «Biror tirik organizm tashqi muhitsiz yashay olmaydi». Bu qaysi olimning fikri?

A) I.Mechnikov

B) I.Sechenov

C) I.Pavlov

D) L.Paster

57. Kalta naysimon (1), kal-ta g'ovak (2), yassi (3), g'alvir-simon (4) suyaklar turiga mos suyaklarni juftlang.

a) barmoq; b) kaft; c) umurtqa; d) kaftusti; e) ensa; f) pona-simon suyak; g) kurak; h) pe-shona.

A) 1 – c, d; 2 – a, b; 3 – e, g; 4 – f, h

B) 1 – a, b; 2 – c, d; 3 – e, g; 4 – f, h

C) 1 – a, b; 2 – c, d; 3 – f, g; 4 – e, h

D) 1 – b, d; 2 – a, c; 3 – e, g; 4 – f, h

58. Qovurg'a (1), o'mrov (2) suyaklari qaysi suyaklar turiga mansub?

a) uzun naysimon; b) uzun g'ovak; c) yassi; d) g'alvirsi-mon.

A) 1 – b, 2 – a

B) 1 – b, 2 – b

C) 1 – c, 2 – d

D) 1 – c, 2 – b

59. Nechta qovurg'a soxta qovurg'alar deyiladi?

A) 14 ta                      B) 4 ta

C) 6 ta                        D) 12 ta

60. Soxta qovurg'alar qayerga birikadi?

A) to'sh suyagi dasta qismiga

B) avval o'zaro va yettinchi qovurg'aning tog'ayiga

C) o'zaro va ko'krak muskulari orasida yotadi

D) o'zaro va o'mrov suyagiga

**61.** Umurtqa pog'onasining qaysi qismlarida lordoz (1) va kifoz (2) egilishlari bo'ladi?

a) bo'yin; b) ko'krak; c) bel; d) dumg'aza.

A) 1 – a, b; 2 – c, d

B) 1 – a, d; 2 – b, c

C) 1 – a, c; 2 – b, d

D) 1 – b, d; 2 – a, c

**62.** Bosh qutisining qaysi suyaklari bola o'sgan sari chok yordamida birikadi?

A) peshona, tepa, chakka, ensa

B) peshona, tepa, ensa, ponasimon

C) g'alvirsimon, ponasimon, chakka, tepa

D) ensa, yanoq, chakka, tepa

**63.** Barmog'larning (1) va qo'l kaftining (2) suyakka aylaniishi necha yoshgacha davom etadi?

a) 17 – 25; b) 20 – 25; c) 15 – 16; d) 16 – 20.

A) 1 – d, 2 – c

B) 1 – d, 2 – a

C) 1 – b, 2 – c

D) 1 – d, 2 – b

**64.** Bo'yin muskulini belgilang.

A) trapetsiyasimon

B) deltasimon

C) o'mrovosti muskuli

D) narvonsimon

**65.** Anatomiya fani rivojlantirishiga hissa qo'shgan olimni toping.

A) A.Asqarov

B) R.A.Alavi

C) Z.T.Tursunov

D) I.Q.Musaboyev

**66.** Tuzilishiga ko'ra suyaklarning qanday xillari bo'ladi?

1) naysimon; 2) kalta; 3) uzun; 4) yassi; 5) g'ovak; 6) harakatsiz; 7) g'alvirsimon; 8) harakatchan.

A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 4, 5, 7

C) 1, 2, 3, 6, 8 D) 2, 3, 6, 8

**67.** Umurtqa suyaklari shaklini belgilang.

A) kalta naysimon

B) kalta g'ovak

C) kalta g'alvirsimon

D) uzun naysimon

**68.** Gavda skeleti qismlarini belgilang.

A) umurtqa-pog'onasi, ko'krak qafasi

B) umurtqa pog'onasi, qovurg'alar

C) qovurg'alar, to'sh suyagi

D) umurtqa pog'onasi, to'sh, o'mrov suyaklari

**69.** Qorin muskullari orasida necha juft qovurg'alar yotadi?

A) 2 B) 4

C) 6 D) 14

**70.** Chin qovurg'alar soni nechta?

A) 2 B) 4

C) 6 D) 14

71. Suyakning o'sishi, singanda bitishida nima katta ahamiyatga ega?

- A) periost      B) miyelin  
C) fassiya      D) tog'ay

72. Qaysi kasallikda oyoqlar, umurtqa pog'ona, ko'krak qafasi, chanoq egilib qoladi?

- A) raxit      B) skolioz  
C) kifoz      D) egilgan

73. Yelka kamari muskulini belgilang.

A) yelkaning uch boshli muskuli

B) yelka muskuli

C) to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon muskul

D) deltasimon

74. Dinamik ishni belgilang.

1) tik turish; 2) yurish; 3) yugurish; 4) qo'lni oldinga ko'tarish; 5) sakrash; 6) qo'lni yuqoriga ko'tarish; 7) gapirish.

A) 1, 4, 6      B) 1, 4, 6, 7

C) 2, 3, 5, 7      D) 2, 4, 6, 7

75. Statik ishni belgilang.

1) tik turish; 2) yurish; 3) yugurish; 4) qo'lni oldinga ko'tarish; 5) sakrash; 6) qo'lni yuqoriga ko'tarish; 7) gapirish.

A) 1, 4, 6      B) 1, 4, 6, 7

C) 2, 3, 5, 7      D) 2, 4, 6, 7

76. Charchagan muskul to'lalari qisqarib bo'shasha olmay qolgan holat nima deyiladi?

A) statik ish

B) dinamik ish

C) muskullar kontrakturasi

D) gipodimamiya

77. Odam tanasining o'zi odatlangan holda erkin turishi nima deyiladi?

A) statik ish

B) dinamik ish

C) qad-qomat

D) tetaniya

78. G'ovak (1), yassi (2), g'alvirsimon (3) suyaklarga mansub bo'lgan suyaklarni belgilang.

a) qovurg'a; b) kurak; c) umurtqa; d) peshona; e) pona-simon; f) yuqori jag'; g) kaftusti; h) ensa; i) chanoq.

A) 1 - b, h, i; 2 - a, c, g; 3 - d, e, f

B) 1 - a, c, g; 2 - b, h, i; 3 - d, e, f

C) 1 - a, c, g; 2 - d, e, f; 3 - b, h, i

D) 1 - d, e, f; 2 - b, c, g; 3 - a, h, i

79. Yelka kamari suyaklarini belgilang.

A) yelka, kurak, o'mrov

B) kurak, bilak, yelka

C) yelka, bilak-tirsak, o'mrov

D) kurak, o'mrov

80. Qaysi organlarda silliq (1), ko'ndalang-targ'il (2) muskullar bo'ladi?

a) til; b) siydik pufagi; c) yelka; d) limfa tomiri; e) yurak; f) ingichka ichak.

A) 1 - a, c, e; 2 - b, d, f

B) 1 - a, d, e; 2 - b, c, f

C) 1 - b, d, f; 2 - a, c, e

D) 1 - a, b, f; 2 - c, d, e

81. Muskularning kontraktura-si nima?

- A) kam harakatlilik
- B) muskul tolalari qisqarib, bo'shasha olmay qolishi
- C) harakatlantiruvchi nerv to-lasining yallig'lanishi
- D) muskul va paylar zo'riqishi

82. Ponasimon suyak qa-yerda joylashgan?

- A) tepa va ensa suyaklari ora-sida
- B) bosh suyagining pastki asos qismida
- C) jag' suyagining chakka suyagiga birikish joyida
- D) oyoqning tovon qismida

83. G'alvirsimon (a) va yassi (b) suyaklarni belgilang.

1) tepa; 2) yuqori jag'; 3) pe-shona; 4) ensa; 5) yuz.

- A) a - 2, 3; b - 1, 4, 5
- B) a - 1, 2; b - 3, 4, 5
- C) a - 2, 3, 4; b - 1, 5
- D) a - 1, 4, 5; b - 2, 3

84. Umurtqa pog'onasining oldinga (a) va orqaga (b) tabi-iy egilish qismini belgilang.

1) bo'yin; 2) ko'krak; 3) bel; 4) dumg'aza.

- A) a - 1, 2; b - 3, 4
- B) a - 1, 3; b - 2, 4
- C) a - 2, 3; b - 1, 4
- D) a - 3, 4; b - 1, 2

85. Qaysi suyaklar kamar su-yagiga kirmaydi?

- A) kurak
- B) nomsiz suyaklar
- C) dimog'

D) dum umurtqalari

86. Oyoqning erkin suyaklarini ko'rsating.

1) panja; 2) boldir; 3) son; 4) tizza qopqog'i; 5) dumg'aza umurtqalari.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 2, 3, 5
- D) 1, 2, 3, 4, 5

87. Suyaklarning oraliqsiz biri-kishi nimalar yordamida amal-ga oshadi?

- A) bo'g'im xaltasi
- B) suyak choklari
- C) fassiya
- D) bo'g'im suyuqligi

88. Bosh suyagi (a) va bola-ning bo'yiga (b) o'sishi necha yoshda tezlashadi?

1) 3. yoshgacha; 2) 3 - 4; 3) 5 - 7; 4) 6 - 8; 5) 11 - 15; 6) 12 - 16.

- A) a - 1, 3, 5; b - 2, 4, 6
- B) a - 1, 3, 6; b - 2, 4, 5
- C) a - 1, 4, 5; b - 2, 3, 6
- D) a - 2, 4, 5; b - 1, 3, 6

89. Nomsiz suyaklar skelet-ning qaysi qismiga mansub?

- A) bosh suyagiga
- B) yelka kamariga
- C) umurtqa suyaklariga
- D) oyoq kamariga

90. Odam organizmida ikki boshli (a) va uch boshli (b) muskullar qayerda joylashgan?

1) bilak sohasida; 2) tirsak so-hasida; 3) yelkaning oldingi so-hasida; 4) yelkaning orqa soha-

sida; 5) sonning oldingi sohasida; 6) sonning orqa sohasida; 7) boldirning orqa sohasida.

A) a - 1, 3; b - 2, 4

B) a - 3, 5; b - 1, 4

C) a - 2, 5; b - 4, 7

D) a - 3, 6; b - 4, 7

91. Axill payi qaysi muskulga birikkan?

A) 2 boshli

B) 3 boshli

C) 4 boshli

D) deltasimon

92. Tananing qaysi qismida bel kvadrat muskullari joylashgan?

A) chakka B) ko'krak

C) qorin D) orqa

93. Aylanasimon muskullar qayerda uchraydi?

1) og'iz atrofida; 2) burun sohasida; 3) ko'z atrofida; 4) yonoqda; 5) gavhar atrofida; 6) ingichka ichakda.

A) 1, 3 B) 1, 3, 6

C) 2, 3, 4 D) 1, 3, 5

94. Organik moddalar suyak tarkibining qancha qismini tashkil etadi?

A) 3/1 B) 2/1

C) 2/3 D) 1/3

95. G'alvirsimon suyakni belgilang.

A) pastki jag' B) qovurg'a

C) peshona D) chanoq

96. Gipofiz bezining qaysi gormonlari suyakning o'sishini tartibga soladi?

A) somatotrop

B) testosteron

C) intermedin

D) timozin

97. Qon tomirlari devoridagi muskullar qanday to'qimadan tashkil topgan?

A) epitely

B) nerv

C) silliq tolali muskul

D) ko'ndalang yo'lli muskul

98. Odam tanasining qaysi qismida tashqi va ichki qanotsimon muskul joylashgan bo'ladi?

A) yelkaning oldingi sohasida

B) yelkaning orqa sohasida

C) chakka sohasida

D) boldir suyagining orqa sohasida

99. Odam umurtqa pog'onasi qismlarining nechtdan iborat bo'lishini belgilang.

1) bo'yin; 2) ko'krak; 3) bel; 4) dumg'aza; 5) dum.

a) 5; b) 5; c) 4 - 5; d) 12; e) 7.

A) 1 - c, 2 - b, 3 - c, 4 - a, 5 - d

B) 1 - a, 2 - b, 3 - d, 4 - e, 5 - d

C) 1 - e, 2 - d, 3 - a, 4 - b, 5 - c

D) 1 - e, 2 - c, 3 - a, 4 - b, 5 - e

100. O'mrov suyagi ichki tomonidan qaysi suyak bilan birikkan bo'ladi?

A) to'sh B) yelka

C) kurak D) qovurg'a

**101.** Chaynash muskullari berilgan qatorni belgilang.

- A) deltasimon
- B) tashqi va ichki qanotsimon
- C) og'izning aylana muskuli
- D) narvonsimon

**102.** Qo'l muskullarini belgilang.

1) rombsimon; 2) uch boshli; 3) deltasimon; 4) tikuvchi; 5) trapetsiyasimon; 6) ikki boshli.

- A) 1, 3, 5
- B) 1, 2, 5
- C) 2, 4, 6
- D) 2, 3, 6

**103.** Bilak suyagining past qismi qaysi suyak bilan birikadi?

- A) yelka
- B) kaftusti
- C) tirsak
- D) oyoq-kaft

**104.** Bosh suyagining miya qutisi suyaklariga qaysi suyaklar kiradi?

- A) pastki va yuqori jag'
- B) asosiy, chakka
- C) yuqori jag', chakka
- D) pastki jag'

**105.** Kalta g'ovaksimon suyaklar berilgan qatorni toping.

1) qovurg'a; 2) umurtqa; 3) to'sh; 4) o'mrov; 5) kaftusti.

- A) 1, 2
- B) 1, 3
- C) 2, 4
- D) 2, 5

**106.** Qaysi muskullarning qisqarishi hisobiga qo'l panjasi bo'g'imlari yoziladi?

- A) yelkaning ikki boshli
- B) yelkaning uch boshli
- C) bilakning orqa qismidagi
- D) oldingi qismidagi

**107.** Ko'krak qafasi muskullari qanday jarayonlarda ishtirok etadi?

1) nafas olish; 2) ichki organlar bosimini saqlash; 3) nafas chiqarish; 4) qo'llarni harakatlantirish; 5) umurtqa pog'onasini bukish; 6) kurak suyagi harakatlari.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2, 4
- C) 1, 2, 5
- D) 1, 3, 4

**108.** Odamning oyoq suyaklari hayvonlarning orqa oyoqlariga nisbatan kuchli rivojlangan va baquvvat. Buning sababi nimada?

- A) tik yurishda
- B) yashash sharoitining yaxshilanishida
- C) mehnat faoliyatida
- D) bosh miyaning rivojlantirishida

**109.** Quyidagilardan yuz suyaklarini belgilang.

1) peshona; 2) dimog'; 3) tepa; 4) tanglay; 5) yonoq; 6) chakka; 7) ko'z yosh; 8) burun; 9) tilosti.

- A) 1, 2, 6, 8, 9
- B) 1, 3, 6, 7, 8, 9
- C) 1, 2, 5, 6, 7, 9
- D) 2, 4, 5, 7, 8, 9

**110.** Tishsimon muskullar odam tanasining qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

- A) bosh
- B) bo'yin
- C) ko'krak
- D) qo'l

**111.** Gavda muskullari joylashishiga qarab qanday xillarga



ajratiladi va ularga xos muskul-  
larni belgilang.

1) ko'krak qafasi; 2) qorin; 3)  
bo'yin; 4) orqa.

a) trapetsiyasimon; b) kvad-  
ratsimon; c) o'mrovosti; d) del-  
tasimon.

A) 1 - d; 2 - a; 4 - c

B) 1 - b; 3 - c; 4 - d

C) 1 - c; 2 - a; 4 - d

D) 1 - c; 2 - b; 4 - a

**112.** Bilaguzuk suyaklari  
nechta va qanday joylashadi?

A) 8 ta bo'lib, ular 4 tadan ikki  
qator

B) 10 ta bo'lib, ular 5 tadan  
ikki qator

C) 4 ta bo'lib, ular bir qator

D) 6 ta bo'lib, ular 3 tadan ikki  
qator

**113.** Tabiiy egilishda umurtqa  
pog'onasining qaysi qismi biroz  
oldinga egilgan bo'ladi?

A) bo'yin va dum

B) ko'krak va dumg'aza

C) bo'yin va dumg'aza

D) bo'yin va bel

**114.** Tabiiy egilishda umurtqa  
pog'onasining qaysi qismi biroz  
orqaga egilgan bo'ladi?

A) ko'krak va dum

B) ko'krak va bel

C) ko'krak va dumg'aza

D) bel va dum

**115.** Qaysi muskullar gavdani  
rostdab turadi?

A) ko'krak qafasi

B) qorin

C) orqa

D) oyoq

**116.** Quyida berilgan suyak-  
larning soni to'g'ri berilgan ja-  
vobni toping.

1) dimog'; 2) ko'z yosh; 3)  
soxta qovurg'alar; 4) yelka ka-  
mari suyaklari.

a) 4; b) 6; c) 1; d) 2.

A) 1 - a, 2 - b, 3 - c, 4 - d

B) 1 - b, 2 - d, 3 - c, 4 - a

C) 1 - c, 2 - a, 3 - b, 4 - d

D) 1 - c, 2 - d, 3 - b, 4 - a

**117.** Kichik chanoq bo'sh-  
lig'ida quyidagilarning qaysilari  
joylashgan bo'ladi?

1) to'g'ri ichak; 2) siydik pufa-  
gi; 3) qon, nerv, limfa tugunlari;  
4) nerv tomirlari; 5) qon, limfa  
tomirlari; 6) jinsiy a'zolar.

A) 1, 2, 3, 4

B) 1, 3, 4, 5

C) 1, 4, 5, 6

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

**118.** Uch boshli muskul qaysi  
sohada joylashgan?

A) son, yelka

B) boldir, son

C) boldir, yelka

D) son, bilak-tirsak

**119.** Bola necha oylik bo'l-  
ganda umurtqa pog'onasining  
ko'krak qismida egilma hosil  
bo'ladi?

A) 8 B) 12

C) 3 D) 5

**120.** Erkin oyoq suyaklari  
to'g'ri berilgan javobni toping.

1) yelka; 2) son; 3) bilak-tir-sak; 4) katta boldir; 5) kichik boldir; 6) to'sh; 7) panja.

A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5

C) 1, 2, 6, 7 D) 2, 4, 5, 7

**121.** Fosfat tuzlari (1) va kalsiy karbonat (2) suyak anorganik tarkibining qanchasini tashkil etadi?

a) 50%; b) 53%; c) 60%; d) 5,9%; e) 12%.

A) 1 – a, 2 – b

B) 1 – a, 2 – c

C) 1 – d, 2 – e

D) 1 – c, 2 – d

**122.** Bola necha yoshligida jismoniy va ruhiy jihatdan tez rivojlanadi?

A) 1 B) 2

C) 6 D) 8

**123.** Odamning bo'yi qaysi yosh o'rtasida deyarli bir xil saqlanadi?

A) 60 – 70 B) 20 – 25

C) 25 – 50 D) 50 – 60

**124.** Yelkaning oldingi yuzasida qaysi muskul bo'ladi?

A) ikki boshli

B) uch boshli

C) qiyshiq

D) deltasimon

**125.** To'sh suyagi odamning necha yoshida bir-biriga qo'shilib yaxlit suyakka aylanadi?

A) 20 – 25 B) 17 – 25

C) 15 – 16 D) 16 – 20

**126.** O'ng o'pka bilan chap o'pkaning o'rtasida qaysi bez joylashadi?

A) qalqonsimon

B) epifiz

C) qalqonorqa

D) ayrisimon

**127.** Qaysi suyakning pastki qismi oyoqning tashqi to'pig'ini hosil qiladi va u qaysi suyak bilan birikadi?

A) son suyagi, boldir suyagi

B) kichik boldir suyagi va katta boldir suyagi

C) kichik boldir suyagi, oshiq suyagi

D) kichik boldir suyagi, tovon suyagi

**128.** Qon va limfa tomirlari qanday to'qimadan iborat?

A) yassi epiteliy

B) biriktiruvchi

C) bir qavatli epiteliy

D) silliq tolali muskul

**129.** Bola suyak sistema-sining normal rivojlanganligi nima bilan aniqlanadi?

A) ruhiy holati yaxshiligi

B) vaznning ortishi

C) sut tishlarining chiqishi

D) sezgi a'zolarining rivojlanishi

**130.** Quyida berilgan suyaklarning soni nechtdan bo'ladi?

1) bosh suyagi; 2) umurtqa pog'onasi; 3) ko'krak qafasi; 4) yetim qovurg'alar; 5) chin qovurg'alar.

a) 22; b) 23; c) 33 – 34; d) 34 – 35; e) 4; f) 14; g) 36; h) 37.

A) 1 – a; 2 – d; 3 – g; 4 – e; 5 – f

B) 1 – b; 2 – d; 3 – a; 4 – f;  
5 – e

C) 1 – b; 2 – c; 3 – h; 4 – e;  
5 – f

D) 1 – e; 2 – d; 3 – c; 4 – b;  
5 – h

**131.** Raxit kasalligida bolalarning suyagida qanday o'zgarish yuzaga keladi?

A) egilmaydigan bo'lib qoladi

B) egiluvchan bo'lib qoladi

C) organik moddalar miqdori ortadi

D) sinuvchan bo'lib qoladi

**132.** G'ovak suyaklar berilgan javobni toping.

1) qovurg'a; 2) to'sh; 3) o'mrov; 4) kaftusti; 5) bilaguzuk; 6) yuqori jag'; 7) peshona; 8) ponasimon; 9) yelka; 10) g'alvirsimon.

A) 1, 4, 6, 8, 10

B) 2, 5, 7, 9, 10

C) 1, 2, 3, 4, 5

D) 2, 3, 4, 6, 7

**133.** Yuz suyaklaridagi qaysi suyaklar ikkitadan bo'ladi?

A) peshona, yonoq, burun

B) pastki jag', yuqori jag', dimog'

C) yuqori jag', tilosti, tanglay

D) yuqori jag', yonoq, ko'z yoshi

**134.** O'sish 20 – 25 yoshgacha davom etadi, uning asosiy qismi, ya'ni necha foizi 15 – 16 yoshgacha kechadi?

A) 10%

B) 30%

C) 50%

D) 90%

**135.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog'lom avlod» davlat dasturi qachon tasdiqlandi?

A) 1993-yil 3-dekabrda 589-sonli qarori bilan

B) 2000-yil 15-fevralda 46-sonli qarori bilan

C) 1993-yil 3-dekabrda 586-sonli qarori bilan

D) 2000-yil 15-fevralda 586-sonli qarori bilan

**136.** «Sog'lom avlod» davlat dasturi qachon tasdiqlangan?

A) 2000-yil 15-fevralda

B) 1999-yil 3-dekabrda

C) 2001-yil 5-yanvarda

D) 1998-yil 13-dekabrda

**137.** Yon liqildoqlar qachon suyakka aylanadi?

A) 1 oyligidan

B) 6 oyligidan

C) 2 – 3 oyligidan

D) 5 – 6 oyligidan

**138.** Odam tez yugurgan vaqtda boldir muskullarida ba'zan qanday holat yuzaga keladi?

A) muskullarning kontrakturasi

B) muskulning charchashi

C) muskulning bo'shashib qisqara olmasligi

D) muskullarning bo'ysunmasligi

**139.** Motoneyronlarning markazlari qayerlarda joylashgan?

1) uzunchoq miya; 2) oraliq miya; 3) miyacha; 4) miya yarimsharlari; 5) o'rta miya; 6) orqa miya.

- A) 3, 6, 1      B) 1, 5, 6  
C) 5, 4, 3      D) 4, 1, 5

**140.** Odam bo'yining uzunligi, asosan, qaysi suyaklarining o'sishi bilan bog'liq?

- A) umurtqa pog'onasi  
B) uzun naysimon va umurtqa pog'onasi  
C) son va umurtqa pog'onasi  
D) g'alvirsimon va umurtqa pog'onasi

**141.** Egilgan qad-qomatli odam tik turganda uning tanasi qanday holatda bo'ladi?

1) boshi biroz oldinga egilgan; 2) yelkari oldinga osilgan; 3) orqa-yelka qismi do'mpayib chiqqan; 4) ko'krak qafasi botiqroq; 5) ko'krak qafasi yassi; 6) qorni oldinga chiqqan.

- A) 2, 3, 5, 6  
B) 1, 2, 3, 4, 6  
C) 1, 3, 5, 6  
D) 1, 2, 4, 6

**142.** Odam tanasining qaysi qismi mineral tuzlar deposi hisoblanadi?

- A) taloq  
B) siydik pufagi  
C) limfa tugunlari  
D) suyak ko'migi

**143.** Oyoq panja suyaklarining soni nechta bo'ladi?

- A) 15      B) 14  
C) 16      D) 27

**144.** Qon plazmasi tarkibida quyidagilardan qaysilar bo'ladi?

- A) suv, oqsil, yog', glyukoza, tromb, fibrin  
B) antitelalar, erigan holdagi gazlar, gormonlar  
C) trombin, suv, oqsil, yog', glyukoza, mineral  
D) suv, oqsil, glyukoza, trombin, fibrin, mineral

**145.** Qonda rezu's faktori omilini qaysi olim aniqlagan?

- A) Y.Yanskiy  
B) K.Landshteyner  
C) N.I.Pirogov  
D) I.M.Sechenov

**146.** Qonning qizil rangi uning qaysi shaklli elementiga bog'liq?

- A) trombosit  
B) leykotsit  
C) eritrotsit  
D) qon plazmasi

**147.** Ovoz boylamlarining uzunligi ayollarda necha mm bo'ladi?

- A) 20 – 22      B) 18 – 22  
C) 18 – 20      D) 22 – 25

**148.** Qonning osmotik bosimi 7,6 – 8,1 atm ga teng. Uning 60 foizini qonda erigan nima tashkil etadi?

- A) natriy xlorid  
B) kalsiy xlorid  
C) kaliy xlorid  
D) magniy xlorid

**149.** Eritrotsitlar qaysi organ-da parchalanadi?

- A) jigar      B) limfa

C) buyrak D) taloq  
150. Tanadagi barcha limfa tomirlarida o'rtacha qancha limfa suyuqligi bo'ladi?

- A) 4,9 l B) 3 – 4 l  
C) 1 – 2 l D) 0,5 l

151. Yuqumli kasalliklarni mikroblar qo'zg'atishini birinchi bo'lib qaysi olim aniqlagan?

- A) I.I.Mechnikov  
B) L.Paster  
C) K.Landshteyner  
D) I.P.Pavlov

152. Pay qaysi to'qima turiga kiradi?

- A) epiteliy  
B) biriktiruvchi  
C) ko'ndalang  
D) nerv

153. Trombotsitlar odam organizmida necha kun yashashini belgilang.

- A) 90 B) 120  
C) 1 – 2 D) 2 – 5

154. Qon umumiy hajmining necha foizini qon plazmasi tashkil etadi?

- A) 15 – 20 B) 20 – 30  
C) 55 – 60 D) 40 – 45

155. Tashqi sekretsia bezini ko'rsating.

- A) oshqozonosti  
B) gipofiz  
C) epifiz  
D) sut

156. Qonning ivishida qaysi omil asosiy rol o'ynaydi?

- A) gameostaz  
B) ferment

C) biriktiruvchi to'qima  
D) antigemofil

157. Suyaklar kimyoviy tarkibining necha foizini osseinlar va anorganik moddalar tashkil etadi?

- A) 1/3 va 2/3  
B) 2/3 va 1/3  
C) 1/2 va 1/8  
D) 1/4 va 1/4

158. Tovush qayerda hosil bo'ladi?

- A) tilda  
B) bronxda  
C) hiqildoqda  
D) traxeyada

159. Burun ichki shilliq pardasining yallig'lanishi qanday ataladi?

- A) laringit B) faringit  
C) rinit D) enterit

160. Tomoqning shilliq pardasi yallig'lanishi kasalligi qanday ataladi?

- A) faringit B) laringit  
C) plevrit D) bronxit

161. Qonning 40 – 45% ni qaysi moddalar tashkil etadi?

- A) shaklli elementlar  
B) suv  
C) qon plazma  
D) mineral tuz

162. Nechta kovak vena yurakka qon olib keladi?

- A) 1 B) 2  
C) 3 D) 4

163. Qaysi organ nerv sistemasidan birmuncha mustaqil holda ishlay oladi?

- A) miya
- B) o'pka
- C) yurak
- D) siydik pufagi

164. Sog'lom odamda qon necha daqiqada iviydi?

- A) 15 – 16
- B) 2 – 3
- C) 1 – 2
- D) 3 – 4

165. Qaysi qon tomirlarida qon bosimi juda yuqori hisoblanadi?

- A) arteriya
- B) qopqa vena
- C) kapilyar
- D) aorta

166. Qonning ivishida qaysi ion va vitamin muhim rol o'ynaydi?

- A) Ca, A
- B) K, B<sub>1</sub>
- C) Ca, C
- D) Ca, K

167. Qon deposi vazifasini quyida berilgan organlardan qaysi biri bajaradi?

- A) taloq
- B) limfa
- C) periost parda
- D) suyak ko'migi

168. Taloq organizmda qanday vazifalarni bajaradi?

1) yuqumli kasalliklardan himoya qilish; 2) qonning deposi; 3) ayirish; 4) limfotsitlarni hosil qilish; 5) biofiltr.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 4, 5
- C) 1, 2, 4
- D) 2, 3, 5

169. Odamda maksimal bosim yurakning qaysi qismi qisqarganda vujudga keladi?

- A) o'ng qorincha
- B) chap qorincha

- C) o'ng bo'lmacha
- D) chap bo'lmacha

170. Trombotsit odam tanasining qaysi qismlarida hosil bo'ladi?

1) ko'mikda; 2) jigarda; 3) taloqda; 4) limfada; 5) ayrisimon bezda.

- A) 1, 2
- B) 1, 3
- C) 2, 4
- D) 1, 4

171. Yurakning qaysi qismida yarimoysimon klapanlar joylashgan?

A) bo'lmachalar orasida  
B) aorta qon tomirining o'rtasida

C) o'pka venasida va chap qorinchaning tutashgan joyida

D) chap qorincha bilan aorta o'rtasida

172. Organizm o'zini himoya qilishining ikkinchi bosqichida nimalar qatnashadi?

- A) immunitet
- B) leykotsitlar
- C) antitoksinlar
- D) antitanalar

173. Yurak devorining qaysi qavati yurakning qisqarish va kengayish harakatlariga qulaylik tug'diradi?

- A) perikard
- B) endokard
- C) miokard
- D) epikard

174. Eritrotsitlarda agglyutinogen umuman bo'lmaydigan qon guruhini belgilang.

- A) I
- B) II

C) III D) IV

**175.** Eritrotsitlarda agglyutinogen B, plazmada agglyutinin  $\alpha$  moddasi bor qon guruhini belgilang.

A) I B) II  
C) III D) IV

**176.** Qorin bilan nafas olish qaysi muskullarning faol ishtiroki bilan boradi?

A) qovurg'alararo  
B) diafragma  
C) qorinning to'g'ri va qiyshiq muskullari  
D) diafragma, qovurg'alararo

**177.** Limfa aylanishida limfa tomirlari qayerdan boshlanadi?

A) organlar sistemasidan  
B) organ, to'qimalardan  
C) yurakning chap qorinchasidan  
D) o'ng qorinchadan

**178.** Turli odamlar qoni kimyoviy biologik xossalariga ko'ra bir-biridan farq qilishi qaysi olimlar tomonidan belgilangan?

A) K.Landshteyner va I.P.Pavlov  
B) K.Landshteyner va A.I.Ugolev  
C) K.Landshteyner va Y.Yanskiy  
D) Y.Yanskiy va I.I.Mechnikov

**179.** Yurak bir marta qisqarganda o'rtacha 70 ml qon chiqarsa, yurakning daqiqalik qon chiqarish hajmi necha litrga teng bo'ladi?

A) 6 l B) 5,9 l

C) 5,0 l D) 4,9 l

**180.** O'z-o'zidan burun qonashi qon tarkibining qaysi qismi kamayishi bilan bog'liq?

A) eritrotsitlar  
B) leykotsitlar  
C) trombotsitlar  
D) plazma

**181.** Nafas olish organlarining ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

1) o'pka; 2) traxeya; 3) hiqildoq; 4) burun bo'shlig'i; 5) bronxlar.

A) 1, 2, 3, 4, 5  
B) 4, 2, 3, 5, 1  
C) 4, 3, 2, 5, 1  
D) 4, 5, 1, 2, 3

**182.** Limfa suyuqligi nimadan hosil bo'ladi?

A) hujayra ichi suyuqligi  
B) limfa tomiri  
C) almashinuv mahsulotlari  
D) to'qima suyuqligi

**183.** Burun shilliq qavatining sathi qanchaga teng?

A) 2 m<sup>2</sup>  
B) 5 m<sup>2</sup>  
C) 2 sm<sup>2</sup>  
D) 1,5 sm<sup>2</sup>

**184.** Ateroskleroz qon tomir kasalligi kelib chiqishiga qaysi modda sabab bo'ladi?

A) xolesterin  
B) mochevina  
C) uglevod  
D) radioaktiv poloniy

**185.** Leykotsitlar sonining kamayishiga nima deyiladi?

- A) leykopeniya
- B) leykotsitoz
- C) anemiya
- D) limfotsit

**186.** Qon aylanishining buzilishi tufayli yurak muskullarining ma'lum qismi yemirilishidan qanday kasallik kelib chiqadi?

- A) miokard infarkti
- B) ateroskleroz
- C) yurakning ishemik kasalligi
- D) gipertoniya

**187.** Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobi necha marta qayta nashr etilgan?

- A) 5
- B) 18
- C) 40
- D) 40

**188.** Qonning osmotik bosimi necha atm ga teng.

- A) 7,6 – 8,1
- B) 0,76 – 1
- C) 3,5 – 5
- D) 0,5 – 0,8

**189.** Leykotsitlar nima, ular necha turga bo'linadi?

- A) yadrosiz qon hujayralari, 3 turga
- B) yadroli qon hujayralari, 3 turga
- C) yadroli qon hujayralari, 2 turga
- D) yadroli qon hujayralari, 1 turga

**190.** Organizmning yuqumli kasalliklardan himoyalaniishi uchinchi bosqichi nimadan iborat?

- A) antitana va antitoksinlar ishlab chiqarish

B) a'zolarining shilliq pardali bo'lishi

C) leykotsitlar ishlab chiqarilishi

D) organizmni toza saqlash

**191.** Quyidagilarning boshqarish markazlari nerv sistemasining qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

1) nafas olishni; 2) diafragma harakatini; 3) qovurg'alararo muskullar harakatini.

a) uzunchoq miyada; b) bo'yinda; c) ko'krakda.

A) 1 – a, 2 – b, 3 – c

B) 1 – b, 2 – a, 3 – b

C) 1 – b, 2 – c, 3 – a

D) 1 – c, 2 – b, 3 – a

**192.** Qonning osmotik bosimini nima ta'minlaydi?

A)  $CaCl_2$

B) nerv sistemasi

C) NaCl

D) endoxrin sistema

**193.** Qaysi organ qorin bo'shlig'i chap tomonining yuqori qismida, chap qovurg'alar ostida joylashgan?

A) jigar

B) taloq

C) buyrak

D) oshqozonosti bezi

**194.** Arterial qon nima?

A)  $CO_2$  ga to'yingan qon

B) CO gaziga to'yingan qon

C)  $O_2$  ga to'yingan qon

D) eritrotsitlari ko'p bo'lgan qon



**195.** Venoz qon qayerda arterial qonga aylanadi?

- A) katta qon aylanish doirasida
- B) kichik qon aylanish doirasida
- C) buyrakda
- D) o'pka venalarida

**196.** Nima uchun IV guruh qonli odamlar universal retsi-piyent deyiladi?

- A) hamma guruhga qon beradi
- B) hamma guruhdan qon oladi
- C) faqat o'ziga qon beradi
- D) I va IV guruhdan qon oladi

**197.** Qaysi organ uchta yirik, uch juft mayda tog'aydan iborat bo'lib, unda uch guruh muskul-lar bo'ladi?

- A) halqum      B) hiqildoq
- C) traxeya      D) bronx

**198.** Qorin muskullari qisqar-ganda qaysi organ yuqoriga ko'tariladi?

- A) qovurg'alar
- B) oshqozon
- C) diafragma
- D) yurak

**199.** Sun'iy nafas olish ikki usulda: ... usulida amalga oshi-riladi.

- A) «og'izdan og'izga», «bu-rundan og'izga»
- B) ko'krak qafasi va o'pkani massaj qilish
- C) yurak va o'pkani massaj qilish
- D) «og'izdan og'izga», «og'iz-dan burunga»

**200.** Qaysi kasallikda aksa urish, burundan suv kelishi, bu-

run orqali nafas olishning qiyin-lashishi belgilari bo'ladi?

- A) faringit      B) rinit
- C) laringit      D) angina

**201.** Qaysi kasallikda bemor yo'talganda nafas olishi tez-lashadi, ko'krak qafasida og'riq, darmonsizlik, tana haroratining ko'tarilishi kabi belgilar bo'ladi?

- A) laringit      B) zotiljam
- C) rinit          D) plevrit

**202.** Qaysi organ ko'krak qa-fasi to'sh suyagining orqa qis-mida joylashgan?

- A) halqum
- B) hiqildoq
- C) qizilo'ngach
- D) oshqozon

**203.** Yurak pastki tomonidan nima orqali qorin bo'shlig'ida ajralib turadi?

- A) diafragma

B) qorin kvadrat muskuli  
C) ko'krak qafasi muskullari  
D) qorinning tishsimon mus-kullari

**204.** Odamdagi qaysi hujay-ralarda yadro uchramaydi?

- A) epiteliy to'qima hujayra-larida
- B) nerv hujayralarida
- C) muskul to'qima hujayrala-rida
- D) qizil qon tanachalarida

**205.** Yurak muskuliga yo-pishib turadigan qavat qanday nomlanadi?

- A) epikard
- B) endokard

- C) miokard
- D) mezokard

206. Yurak devorining qaysi qavatini qo'sh qavatli bo'ladi?

- A) epikard
- B) miokard
- C) endokard
- D) perikard

207. Nafas olish jarayoni necha qismdan iborat?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

208. Traxeya nechanchi bo'yin umurtqalari ro'parasidan boshlanadi?

- A) IV – VI
- B) V – VI
- C) VI – VII
- D) V

209. Traxeya qayerda o'ng va chap bronxlarga bo'linadi?

A) IV-ko'krak-umurtqasi ro'parasida

B) VI ko'krak umurtqasi ro'parasida

C) VII-ko'krak-umurtqasi ro'parasida

D) V ko'krak umurtqasi ro'parasida

210. Traxeyaning devori nechta aylanasimon tog'aylar va paylardan tashkil topgan?

- A) 16 ta
- B) 16 – 18 ta
- C) 16 – 20 ta
- D) 12 ta

211. Qovurg'alararo muskul-lar faoliyatini boshqaruvchi nerv markazini belgilang.

- A) orqa miyaning ko'krak qismi
- B) uzunchoq miya

C) oraliq miya

D) orqa miyaning bo'yin qismi

212. Kislorodga to'yingan qon ... orqali chap yurak bo'lmasiga keladi.

- A) 4 ta o'pka arteriyasi
- B) 2 ta o'pka venasi
- C) 4 ta o'pka venasi
- D) kovak vena

213. Qon ivishi jarayonida qaysi vitamin asosiy ahamiyatga ega?

- A) B<sub>1</sub>
- B) C
- C) A
- D) K

214. Tinch holatda o'pkaning daqiqalik ventilyatsiyasi qancha teng?

- A) 2 – 3 l
- B) 4,9 l
- C) 5 – 6 l
- D) 8 – 9 l

215. II guruh qoni qaysi guruhga qon bera oladi?

- A) I, II
- B) II, III
- C) II, IV
- D) I, II, III

216. Qaysi olim Rossiya-da birinchi bo'lib quturish, kuydirgi kasalliklarining oldini olish uchun vaksina va qon zardoblarini tayyorlab qo'llagan?

- A) I. Sechenov
- B) I. Pavlov
- C) I. Mechnikov
- D) A. Ugolev

217. Qon plazmasining solishtirma massasi nechaga teng?

- A) 1,025 – 1,034
- B) 1,05 – 1,06
- C) 1,25 – 1,34
- D) 1,09

218. Qanday hollarda qon-  
dagi leykotsitlar miqdori a) ko'-  
payadi, b) kamayadi?

1) infeksiyon kasalliklar bilan kasallanganda; 2) uzoq vaqt sifatsiz ovqatlanilganda; 3) jismoniy mehnatdan surunkali charchaganda; 4) uzoq vaqt kechadigan surunkali kasalliklar bilan og'riganda.

A) a - 1, 4; b - 2, 3

B) a - 1; b - 4

C) a - 1; b - 2, 3, 4

D) a - 2; b - 1, 3, 4

219. Avtomatizm odamning qaysi organiga xos?

A) yurak

B) miya

C) buyrak

D) siydik pufagi

220. Eritrotsitlarida A va B aglyutinogenlar bo'lgan qon guruhini belgilang.

A) I B) II

C) III D) IV

221. Nos chekuvchi odamlarda qaysi kasalliklar ko'p uchraydi?

1) og'iz bo'shlig'i raki; 2) qizilo'ngach raki; 3) o'n ikki barmoqli ichak raki; 4) me'da raki; 5) yo'g'on ichak raki; 6) o'pka raki.

A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4

C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 5

222. Odam va barcha issiqqonli hayvonlar uchun qaysi eritma fiziologik hisoblanadi?

A) osh tuzining 0,9% lisi

B) organik moddalarning 0,9% lisi

C) osh tuzining 0,9% dan yuqori bo'lgani

D) osh tuzining 0,9% dan past bo'lgani

223. OITSning belgilarini aniqlang.

a) tana harorati ko'tariladi; b) tana harorati pasayadi; c) terida yiringli yaralar paydo bo'ladi; d) terida qizil dog'lar paydo bo'ladi; e) limfa tugunlari kattalashadi; f) limfa tugunlari kichiklashadi.

A) b, d, f B) a, c, e

C) a, d, e D) b, c, f

224. OITS birinchi marta qachon ro'yxatga olingan?

A) 1981-yili B) 1987-yili

C) 1979-yili D) 1983-yil

225. Bir kecha-kunduzda hosil bo'lgan limfa suyuqligi qaysi tomirlarga quyiladi?

A) vena B) arteriya

C) kapillyar D) aorta

226. Qonning shaklli elementlari qaysi organlarda parchalanadi?

A) buyrak, jigar

B) jigar, oshqozonosti bezi

C) taloq, jigar

D) taloq, buyrak

227. Tamaki tutuni tarkibida uchraydigan zaharli kimyoviy moddalarni belgilang.

a) poloniy; b) kobalt; c) kadmiy; d) xlor; e) magniy; f) margimush.

- A) a, b, d, f    B) c, d, e, f  
C) a, d, e, f    D) a, b, c, f

**228.** Diafragmaning pastga tushishi qaysi muskullarning qisqarishi tufayli sodir bo'ladi?

- A) bo'yin va tashqi qovurg'alararo  
B) ichki qovurg'alararo  
C) qorin  
D) diafragma

**229.** Diafragmaning yuqoriga ko'tarilishi qaysi muskullarning qisqarishi tufayli sodir bo'ladi?

- A) bo'yin va tashqi qovurg'alararo  
B) ichki qovurg'alararo  
C) qorin  
D) diafragma

**230.** Qovurg'alarning pastga tushishi qaysi muskullarga bog'liq?

- A) bo'yin va tashqi qovurg'alararo  
B) ichki qovurg'alararo  
C) qorin  
D) diafragma

**231.** Qon bilan to'qimalar orasida gaz almashinuvi qaysi yo'l bilan sodir bo'ladi?

- A) osmos    B) fagotsitoz  
C) pinotsitoz    D) diffuziya

**232.** Qaysi oqsil odamlarga xos hamma qon guruhlarining eritrotsitlari tarkibida uchraydi?

- A) agglyutinogen  
B) agglyutinin  
C) gemoglobin  
D) rezus omil

**233.** Qonning yopishqoqligi nimaga bog'liq?

1) oqsillar miqdoriga; 2) yog'lar miqdoriga; 3) uglevodlar miqdoriga; 4) eritrotsitlar miqdoriga.

- A) 1, 2, 4    B) 1, 3, 4  
C) 2, 3, 4    D) 1, 4

**234.** Sentrifugalash jara-yonida qonni plazma va shakli elementlarga ajratish uchun probirkaga qanday modda to-miziladi?

- A) glitserin  
B) geparin  
C) yod  
D) natriy xlor

**235.** Yadrosiz qonning shakli elementlarini ko'rsating.

- A) yosh eritrotsit  
B) tuban umurtqali hayvonlar trombotsitlari  
C) monotsitlar  
D) trombotsitlar

**236.** Jismoniy ish bajarayotgan vaqtda yurak bir daqiqada 85 – 90 marta qisqarib-bo'shshayotgan bo'lsa, shu paytdagi yurakning daqiqalik hajmi qanchaga teng keladi?

- A) 4 – 5 l  
B) 5,6 – 6,3 l  
C) 65 – 70 ml  
D) 8 – 9 l

**237.** Qon tomirlarining o'rta qavati tarkibiga nimalar kiradi?

- A) silliq va ko'ndalang muskullar

B) ko'ndalang muskul va elastik tolalar

C) silliq muskul, elastik tolalar; tig'iz biriktiruvchi to'qima

D) silliq muskul va elastik tolalar

**238.** Burun bo'shlig'ining qo'shimcha kovaklari qaysi suyaklar orasida joylashgan?

A) yonoq, burunning yon devorida

B) yuz, peshonada

C) burunning pastki devori, ko'zyosh suyagida

D) yonoq, burunning yuqori devorida

**239.** Nafas olish (a) va nafas chiqarish (b)da ishtirok etuvchi muskullarni belgilang.

1) tashqi qovurg'alararo; 2) tishsimon; 3) deltasimon; 4) bo'yin; 5) o'mrovosti; 6) ichki qovurg'alararo; 7) diafragma; 8) qorin.

A) a - 1, 7; b - 6, 7

B) a - 1, 5, 7; b - 6, 7, 8

C) a - 2, 3, 5; b - 1, 2, 8

D) a - 1, 4, 7; b - 6, 8

**240.** Odam bir daqiqada 20 - 22 marta nafas olganida o'pkaning daqiqalik ventilyatsiyasi qanchaga teng bo'ladi?

A) 8 - 9 l      B) 90 - 10 l

C) 10 - 11 l

D) 11 - 12 l

**241.** Nafas olishni gumoral yo'l bilan boshqarishda ishtirok etuvchi omilni belgilang.

A) tiroksin

B) vazopressin

C) adrenalin

D) karbonat angidrid

**242.** OITS virusi nerv sistemasining qaysi qismini zararladi?

A) orqa miyaning kulrang moddasini

B) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ini

C) bosh miyaning oq moddasini

D) orqa miyaning kulrang moddasini

**243.** OITS virusi nerv sistemasining qaysi qismini zararlashi tufayli bemorning qo'l-oyoqlaridagi nerv tolalari bo'ylab og'riq seziladi?

A) orqa miyaning kulrang moddasini

B) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ini

C) bosh miyaning oq moddasini

D) orqa miyaning kulrang moddasini

**244.** Leykotsitlar hosil bo'ladigan a'zolari belgilang.

A) jigar, taloq

B) limfa tugunlari, oshqozon-osti bezi

C) suyak ko'migi, taloq

D) jigar, taloq

**245.** Qo'shimcha havo bilan nafas havosi birgalikda nechamini tashkil qiladi?

A) 3500      B) 1500

C) 2000

D) 4500

**246.** Agar odamning qon guruhi III bo'lsa, u qaysi qon guruhlariga qon bera oladi?

- A) II, III                      B) I, II  
C) II, IV                        D) III, IV

**247.** Odamning qon guruhi III bo'lsa, u qaysi guruhlardan qon olishi mumkin?

- A) I, II                            B) II – IV  
C) I – IV                        D) I – III

**248.** Qaysi organda limfotsitlar hosil bo'lishini belgilang.

- A) ayrisimon bezda  
B) jigarda  
C) suyak ko'migida, buyrakda  
D) taloqda

**249.** Odamda qo'shimcha havoni miqdori qanchaga teng?

- A) 150 ml                        B) 1250 ml  
C) 1350 ml                       D) 1500 ml

**250.** Qaysi moddalar qon plazmasi tarkibiga kiradi?

A) suv, oqsillar, yog'lar  
B) suv, oqsillar, glyukoza, mineral tuzlar

C) suv, qon plastinkalari, mineral tuzlar

D) suv, glyukoza, oqsillar, yog'lar

**251.** Trombotsitlar qayerda hosil bo'ladi va u qancha vaqt yashaydi?

A) jigar, taloqda, 6 oy  
B) suyak ko'migi, taloqda, 2 – 5 kun

- C) taloqda, 3 oy  
D) suyak ko'migida, 4 oy

**252.** Qaysi qon guruhiga ega bo'lgan odamlar universal retsipiyent deyiladi?

- A) I                                B) II  
C) III                              D) IV

**253.** Eritrotsitlarning shakli qanday bo'ladi?

A) o'rtasi botiq, duksimon  
B) o'rtasi ozroq botiq, yu-maloq

- C) soxta oyoqli, sharsimon  
D) kvadrat

**254.** Ichaklarning devori qaysi to'qimadan tashkil topgan?

- A) muskul  
B) epiteliy  
C) nerv  
D) biriktiruvchi

**255.** Nafas olishi to'xtagan odamga bir daqiqada necha marta sun'iy nafas beriladi?

- A) 3 – 4                            B) 5 – 6  
C) 1 – 2                            D) 12 – 15

**256.** Qaysi gormon qon tomirlarini toraytirib, bosimni oshiradi?

- A) ADG                            B) insulin  
C) tiroksin  
D) paratgormon

**257.** Havoni traxeyadan qayerga o'tadi?

- A) o'pka  
B) alveola  
C) bronx  
D) plevra parda

**258.** Yurak qon tomirlari ish faoliyatini boshqaradigan nerv markazlari nerv sistemasining

qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

1) uzunchoq miya; 2) orqa miya; 3) gipotalamus; 4) bosh miya yarimsharlari po'stlog'i; 5) parasimpatik nerv; 6) o'rta miya; 7) miyacha.

A) 2, 3, 4, 7

B) 4, 5, 6, 7

C) 1, 5, 6, 7

D) 1, 2, 3, 4

**259.** Qonning yopishqoqligi nechega teng?

A) 1 B) 3

C) 5 D) 7

**260.** Ikki tavaqali klapan yurakning qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

A) o'ng bo'lmacha bilan chap bo'lmacha o'rtasida

B) chap bo'lmacha bilan o'ng qorincha o'rtasida

C) o'ng-bo'lmacha bilan o'ng qorincha o'rtasida

D) chap bo'lmacha bilan chap qorincha o'rtasida

**261.** Qaysi kasallikda organizmning jag'osti, bo'yin, qo'ltiq ostidagi limfa tugunlari barmoq bilan sezadigan darajada kattalashadi?

A) yuqumli gepatit

B) triotoksikoz

C) OITS

D) ateroskleroz

**262.** G'ovaksimon suyaklarni belgilang.

A) tepa, bilaguzuk, o'mrov

B) to'sh, chakka, peshona

C) umurtqa, ensa, yuz

D) umurtqa, kaftusti

**263.** Parchalangan eritrotsitlarning gemoglobini tarkibidagi gem moddasidan hosil bo'ladigan moddani belgilang.

A) temir

B) bilirubin

C) intermidin

D) melotanin

**264.** Qonning qaysi shaklli elementi taloqda hosil bo'ladi?

A) leykotsitlar

B) limfotsitlar

C) trombotsitlar

D) monotsitlar

**265.** Diafragma harakatini boshqaruvchi nerv markazi orqa miyaning qaysi qismida joylashgan?

A) ko'krak

B) bo'yin

C) bel

D) dumg'aza

**266.** Qon plazmasi tarkibidagi moddalarning necha foiz bo'lishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) suv; 2) oqsil; 3) tuz;

4) glyukoza; 5) yog'.

a) 7 - 8%; b) 90 - 92%; c) 0,1%; d) 0,8%; e) 0,9%.

A) 1 - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d; 5 - e.

B) 1 - e; 2 - b; 3 - c; 4 - a; 5 - d

C) 1 - e; 2 - d; 3 - c; 4 - b; 5 - a

D) 1 – b; 2 – a; 3 – e; 4 – c;  
5 – d

**267.** Qonning ivishida qon tarkibidagi qaysi omillar muhim ahamiyatga ega?

1) eritrotsitlar; 2) trombon fermenti; 3) Na ionlari; 4) Ca ionlari; 5) A vitamini; 6) K vitamini.

- A) 1, 2, 5      B) 1, 3, 5  
C) 2, 4, 6      D) 2, 3, 5

**268.** Qon plazmasi tarkibida quyida berilganlarning qaysi biri bo'ladi?

- A) agglyutinogen  
B) gormon  
C) Rh-faktor  
D) agglyutin

**269.** Nafas chiqarish harakati qaysi muskullarning qisqarishi orqali ta'minlanadi?

A) bo'yin va tashqi qovurg'alararo

B) tashqi qovurg'alararo va diafragma

C) ichki qovurg'alararo va qorin

D) tashqi va ichki qovurg'alararo

**270.** Har bir o'pkadan nechta o'pka venasi orqali qon yurakning chap bo'lmachasiga quyiladi?

- A) 1              B) 2  
C) 3              D) 4

**271.** Kichik qon aylanish doirasi qaysi qon tomiridan boshlanadi?

- A) o'pka arteriyasi  
B) o'pka venasi

C) tojsimon arteriya

D) aorta

**272.** Nafas olish a'zolarining yuqumli kasalliklari berilgan qatorni belgilang.

A) rinit, zotiljam

B) sil, bronxit

C) sil, gripp

D) traxeit, bronxit

**273.** Qonning yopishqoqligi, ayniqsa, quyidagilarning qaysi biriga bog'liq?

A) mineral tuzlarga

B) leykotsitlar soniga

C) eritrotsitlar miqdoriga

D) trombotsitlar miqdoriga

**274.** Nafas olishni boshqaruvchi oliy nerv markazi bosh miyaning qaysi qismida joylashgan?

A) uzunchoq miyada

B) orqa miyaning bo'yin qismida

C) orqa miyaning ko'krak qismida

D) yarimsharlar po'stlog'ida

**275.** Qonga o'tgan kislorod nimaga birikib tana bo'ylab tarqaladi?

A) leykotsitlarga

B) trombotsitlarga

C) gormonlarga

D) gemoglobinnlarga

**276.** Tug'ma immunitet bolada necha yoshligidan yo'qola boradi?

A) 1 yoshdan

B) 1,5 yoshdan

C) 2 yoshdan



D) 2,5 yoshdan

**277.** Magnit bo'roni qaysi a'zolari xastalangan odamlarga ko'proq ta'sir qiladi?

A) asab, yurak, qon tomir

B) buyrak, taloq, jigar

C) quloq, ko'z, teri

D) ichak, qizilo'ngach, yurak

**278.** Qonning shaklli elementlari qancha yashashini belgilang.

1) eritrotsitlar; 2) leykotsitlar; 3) trombotsitlar.

a) 2 – 5 kun; b) 120 kun; c) 50 kun; d) 6 oy.

A) 1 – c; 2 – d; 3 – b.

B) 1 – a; 2 – b; 3 – c

C) 1 – b; 2 – c; 3 – a

D) 1 – b; 2 – a; 3 – a

**279.** Nafas bilan chiqarilgan havo tarkibida gazlar miqdorlari to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

A) 4% karbonat anhidrid, 79,7% kislorod, 16% azot

B) 4% kislorod, 16,3% karbonat anhidrid, 79,7% azot

C) 4% azot, 16,3% karbonat anhidrid, 79,7% kislorod

D) 4% karbonat anhidrid, 16,3% kislorod, 79,7% azot

**280.** Odam tanasidagi limfa tomirlarida jami qancha limfa suyuqligi bo'lishi va bir sutkada qancha limfa suyuqligining vena qon tomirlariga quyilishini belgilang.

A) 1 – 2 l va 200 – 500 ml

B) 0,5 – 1 l va 120 – 150 ml

C) 1 – 2 l va 1200 – 1500 ml

D) 2 – 4 l va 1500 – 2000 ml

**281.** Qon osmotik bosimining nisbiy doimiyligini nima boshqaradi?

A) nerv sistemasi

B) ayirish organlari

C) ovqat hazm qilish organlari

D) qon aylanish organlari

**282.** Antitoksinlar o'z xossasiga ko'ra qanday moddalar hisoblanadi?

A) oqsil B) lipid

C) uglevod D) gormon

**283.** Bolaning qaysi a'zolari tug'ilgandan keyin ishlay boshlaydi?

A) yuragi, katta qon aylanish doirasi

B) katta qon aylanish doirasi, buyragi

C) ichki sekretiya bezlari, nerv sistemasi

D) nafas, ovqat hazm qilish sistemasi

**284.** Agglyutinin moddasi qonning qaysi qismida bo'ladi?

A) eritrotsit

B) leykotsit

C) trombotsit

D) plazma

**285.** Qaysi sistema organizmda gumoral boshqarishida ishtirok etadi?

A) ovqat hazm qilish

B) nafas olish

C) tayanch-harakat

D) yurak va qon tomirlar

**286.** Eritrotsitlar tarkibida qanday oqsillar bo'ladi?

1) gemoglobin; 2) agglyutinogen; 3) agglyutinin; 4) fibrinogen; 5) rezus-faktor.

- A) 1, 3, 5      B) 1, 2, 5-  
C) 2, 3, 5      D) 2, 4

**287.** Ko'krak bilan nafas olishda qaysi muskullar faol ishtirok etadi?

- A) qorin  
B) ko'krak va yelka  
C) diafragma  
D) qovurg'alararo

**288.** Qon ivishida muhim rol o'ynovchi omillarni belgilang.

1) Na ionlari; 2) antigemofil omili; 3) Ca ionlari; 4) K ionlari; 5) K vitamini; 6) tiroksin; 7) agglyutinogen; 8) trombin fermenti; 9) fibrinogen; 10) agglyutinin.

- A) 2, 3, 5, 8, 9  
B) 1, 3, 5, 6, 7, 9  
C) 2, 4, 6, 8, 9  
D) 1, 2, 4, 6, 10

**289.** Odam organizmidagi qaysi fiziologik hodisalar 3 bosqichda o'tadi?

1) nafas olish; 2) qon aylanishi; 3) ovqat hazm bo'lishi; 4) siydik ajralishi; 5) organizmning o'zini himoya qilishi; 6) refleks.

- A) 1, 5      B) 1, 3  
C) 3, 5      D) 5, 6

**290.** Miokardga yopishib turadigan qavat qanday ataladi?

- A) endokard      B) miokard  
C) perikard      D) epikard

**291.** Leykotsitlar sonining kamayishi qanday yuritiladi?

- A) leykopeniya  
B) leykotsitoz  
C) limfotsit  
D) monotsit

**292.** Quyidagilardan qaysi biri immunitet hosil bo'lishida qatnashadi?

1) ayrisimon bez; 2) taloq; 3) jigar; 4) antitana; 5) antitoksin; 6) gipofiz.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 3, 5, 6  
C) 1, 2, 4, 5      D) 1, 3, 4, 5

**293.** Qaysi organ vazifasi jihatidan limfa sistemasiga yaqin turadi?

- A) jigar  
B) qon aylanish sistemasi  
C) taloq

D) buyrak

**294.** Rinit kasalligiga chalingan odam qulog'ining qaysi qismida havo bosimi o'zgaradi?

- A) o'rta quloqda  
B) tashqi quloqda  
C) Yevstaxiyev nayida  
D) suyak labirintida

**295.** Quyidagi kasalliklardan qaysi birlari ko'pincha birgalikda sodir bo'ladi?

- A) traxeit, bronxit  
B) laringit, faringit  
C) rinit, gripp  
D) plevrit, zotiljam

**296.** Nafas olishni boshqaruvchi oliy nerv markazini belgilang.

A) bosh miya yarimsharlari po'stlog'i

B) uzunchoq miya

C) orqa miya

D) oldingi miya

**297.** Diafragma harakatini boshqaruvchi nerv markazi qayerda joylashgan?

A) uzunchoq miyada

B) orqa miyaning bo'yin qismida

C) orqa miyaning ko'krak qismida

D) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ida

**298.** Sistola nima?

A) yurak bo'lmachalari muskullarining qisqarishi

B) yurak qorinchalari muskullarining qisqarishi

C) yurak bo'lmachalari muskullarining kengayishi

D) bo'lmacha va qorinchalar muskullarining qisqarishi

**299.** Bakteriyalar qo'zg'atadigan kasalliklarni belgilang.

1) sil; 2) gepatit; 3) OITS; 4) terlama; 5) gommoz; 6) tamaki mozaikasi; 7) o'lat.

A) 1, 4, 5, 7 B) 1, 2, 3

C) 4, 5, 6 D) 2, 6, 7

**300.** Yarimoysimon klapanlar yurakning qaysi qismida joylashgan?

A) chap bo'lma va chap qorincha o'rtasida

B) chap bo'lma va o'ng qorincha o'rtasida

C) o'ng bo'lma va o'ng qorincha o'rtasida

D) o'pka arteriyasi va aorta o'rtasida

**301.** Qaysi qon guruhida eritrotsit yuzasida agglyutinogen bo'lmaydi?

A) I B) II

C) III D) IV

**302.** Tinch holatda odam bir daqiqada qancha (ml) O<sub>2</sub> o'zlashtiradi?

A) 3500 B) 20,94

C) 500

D) 250 – 300

**303.** Zotiljam qaysi organning yallig'lanish kasalligi hisoblanadi?

A) ingichka ichak

B) o'pka to'qimalari

C) plevra pardasi

D) bronxlar

**304.** Jim turganda (1), pichirlab gapirganda (2), gapirganda (3) hiqildoqdagi ovoz teshigi qanday holatda bo'ladi?

a) uchburchak shaklida; b) ochiq; c) yarimochiq; d) yopiq.

A) 1 – b; 2 – a; 3 – c, d

B) 1 – d; 2 – a; 3 – b, c

C) 1 – d; 2 – c; 3 – a, b

D) 1 – a, b; 2 – c; 3 – d

**305.** Yurak va qon tomir faoliyatida qon tomirni toraytirib, bosimni oshiradigan gormonlarni belgilang.

A) adrenalin – vazopressin

B) adrenalin – tiroksin

C) adrenalin – glyukogon

D) adrenalin – oksitotsin

**306.** Qanday hollarda qondagi leykotsitlar miqdori a) ko'payadi, b) kamayadi?

1) yuqumli kasalliklar bilan kasallanganda; 2) uzoq vaqt sifatli ovqatlanmaganida; 3) jismoniy mehnatdan surunkali charchaganda; 4) uzoq vaqt kechadigan surunkali kasalliklar bilan og'riganda.

A) a – 1, 4; b – 2, 3

B) a – 1; b – 4

C) a – 1; b – 2, 3, 4

D) a – 2; b – 1, 3, 4

**307.** Avtomatizm odamning qaysi organiga xos?

A) yurak

B) miya

C) siydik pufagi

D) jigar

**308.** Qaysi qon guruhida eritrotsit yuzasida agglyutinogen bo'lmaydi?

A) I B) II C) III D) IV

**309.** Plazma tarkibidagi qaysi birikmalar moddalar almashinuvining normal o'tishida muhim ahamiyatga ega?

1) antitanalar; 2) vitaminlar; 3) fermentlar; 4) gormonlar.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4

C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

**310.** Leykotsitlarning qanday xillari bor?

1) eritrotsit; 2) fagotsit; 3) gepatotsit; 4) eozinofil; 5) bazofil; 6) limfotsit; 7) trombotsit.

A) 4, 5, 6

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 1, 2, 3, 6, 7

D) 1, 2, 3, 4, 7

**311.** Fagotsitoz hodisasini kim kashf etgan?

A) I.M.Sechenov

B) I.P.Pavlov

C) I.I.Mechnikov

D) L.Paster

**312.** Arteriya qanday qon tomiri?

A) arterial qon oqadigan qon tomiri

B) venoz qon oqadigan qon tomiri

C) yurak qorinchalaridan chiqadigan qon tomiri

D) yurak bo'lmalari kiruvchi qon tomiri

**313.** Vena qanday qon tomiri?

A) arterial qon oqadigan qon tomiri

B) venoz qon oqadigan qon tomiri

C) yurak qorinchalaridan chiqadigan qon tomiri

D) yurak bo'lmalari kiruvchi qon tomiri

**314.** Sog'lom odamda qon necha daqiqada iviydi?

A) 1 – 2 B) 3 – 4

C) 5 – 10 D) 6 – 8

**315.** Bilirubin moddasining ahamiyati qanday?

A) o't suyuqligi hosil bo'lishi uchun sarflanadi

B) gemoglobin hosil bo'lishini ta'minlaydi

C) qonning yopishqoqligini belgilaydi

D) gormon hosil bo'lishida ahamiyatga ega

**316.** Leykotsitóz-nima?

A) leykotsitlar sonining kamayishi

B) leykotsitlar shaklining o'zgarishi

C) leykotsitlar yig'indisi

D) leykotsitlar sonining ko'payishi

**317.** Qonda agglyutinogen A va B bo'lsa, u holda quyidagilardan tegishli javobni belgilang.

A) faqat agglyutinini  $\alpha$  bo'ladi

B) faqat agglyutinini  $\beta$  bo'ladi

C) agglyutinlar umuman bo'lmaydi

D) agglyutinini  $\alpha$  va  $\beta$  bo'ladi

**318.** Rezus-faktor qonning qaysi qismida bo'ladi?

A) trombosit

B) plazma

C) leykosit

D) eritrotsit

**319.** Boshqalardan qon oluvchi odam qanday ataladi?

A) retsiyent

B) donor

C) universal

D) bemor

**320.** Agglyutinini (1), rezus-faktor (2); agglyutinogen (3) moddalar qonning qaysi qismida bo'ladi?

a) eritrotsit; b) leykosit; c) plazma.

A) 1 - a, 2 - c, 3 - a

B) 1 - a, 2 - b, 3 - c

C) 1 - c, 2 - a, 3 - b

D) 1 - c, 2 - a, 3 - a

**321.** Organizmga kirgan mikroblarni bir-biriga yopishtirib eritib yuboruvchi moddani belgilang.

A) antitoksin B) antigen

C) antitana D) limfotsit

**322.** Mikroblar ajratadigan zaharli moddalarni neytrallovchi moddani belgilang.

A) antitoksin B) antigen

C) antitana

D) limfotsit

**323.** Olimlar va ularning kashfiyotlarini juftlab ko'rsating.

1) K.Landshteyner;

2) L.Montane; 3) I.Mechnikov;

4) Y.Yanskiy.

a) OITS virusini aniqlagan; b)

eritrotsitlarda agglyutinogen, plazmada agglyutinini borligini aniqlagan; c) kasalliklarning oldini olish uchun vaktsina va qon zardoblarini tayyorlashni taklif qilgan; d) eritrotsitlardagi rezus-faktor aniqlagan.

A) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b, d

B) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b

C) 1 - b, d; 2 - c; 3 - a; 4 - d

D) 1 - b, d; 2 - a; 3 - c; 4 - b

**324.** Umumjahon OITSGa qarshi kurash kunini belgilang.

A) 1-iyun B) 26-fevral

C) 1-dekabr D) 14-yanvar

**325.** Qaysi immunitet doimiy bo'lmaydi va bolaning birinchi

yoshidayoq o'z kuchini yo'qotadi?

- A) tabiiy
- B) sun'iy
- C) aktiv va passiv
- D) tug'ma

**326.** Limfa aylanish sistemasining qon aylanish sistemasidan qanday farqli jihati bor?

A) limfa tomirlari yurakning chap bo'lmachasidan boshlanadi va vena tomirlariga quyiladi

B) limfa tomirlari to'qima va organlardan boshlanadi

C) limfa suyuqligi aorta orqali yurakka quyiladi

D) farqi bo'lmaydi

**327.** Chap qovurg'alar ostida qaysi organ joylashgan?

- A) jigar
- B) taloq
- C) oshqozonosti bezi
- D) oshqozon

**328.** Bir sutkada qancha limfa suyuqligi limfa tomirlaridan o'tadi va qayerga quyiladi?

A) 1200 – 1500 ml; vena qon tomirlariga

B) 1000 – 2000 ml; aorta qon tomirlariga

C) 700 – 1200 ml; arteriya qon tomirlariga

D) 500 – 700 ml; to'qima va organlarga

**329.** Arteriya (1), kapillyar (2) va vena (3)lar devori necha qavat hujayralardan tashkil topgan?

a) 1; b) 2; c) 3; d) 4.

A) 1 – c, 2 – a, 3 – b

B) 1 – c, 2 – c, 3 – d

C) 1 – c, 2 – a, 3 – c

D) 1 – d, 2 – a, 3 – c

**330.** Diafragma (1) va qovurg'alararo muskullar (2) faoliyatini boshqaruvchi nerv markazi qayerda joylashgan?

A) 1 – uzunchoq miyada; 2 – orqa miyaning ko'krak qismida

B) 1 – orqa miyaning bo'yin qismida; 2 – bosh miya po'stlog'ida

C) 1 – bosh miya po'stlog'ida; 2 – orqa miyaning bo'yin qismida

D) 1 – orqa miyaning bo'yin qismida; 2 – orqa miyaning ko'krak qismida

**331.** Yetilmagan yosh eritrotsitlarda boshqa hujayralar singari nima bo'ladi?

A) membrana

B) yadro

C) sitoplazma

D) gemoglobin

**332.** Eritrotsitlarning hosil bo'lishi va soni normal miqdorda bo'lishi nimalarga bog'liq?

1) odam sog'lig'iga; 2) jinsiga; 3) ovqatlanishiga; 4) yoshiga; 5) uyqusiga; 6) jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishiga; 7) quyoshning ultrabinafsha nurlarini qabul qilishiga.

A) 2, 3, 4, 5

B) 1, 3, 6, 7

C) 1, 3, 5, 6

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

**333.** Trombotsitlar (I), eritrotsitlar (II), leykotsitlar (III)ga xos belgilarni belgilang.

1) yadroli; 2) yadrosiz; 3) 120 kun yashaydi; 4) 120 soat yashaydi; 5) 2 – 5 kun yashaydi; 6) qon ivishini ta'minlaydi; 7) himoya vazifasini bajaradi; 8) gazlarni tashiydi; 9) suyak ko'migida hosil bo'ladi; 10) ta- loqda hosil bo'ladi.

A) I – 2, 5, 6, 9, 10; II – 2, 3, 8, 9; III – 1, 5, 7, 9, 10

B) I – 1, 5, 6, 9, 10; II – 2, 4, 8, 9, 10; III – 1, 5, 7, 9

C) I – 2, 3, 8, 9; II – 2, 5, 6, 9, 10; III – 1, 5, 7, 10

D) I – 2, 4, 6, 10; II – 2, 3, 8, 9; III – 1, 5, 7, 9

**334.** Qon plazmasi tarkibida agglyutinini  $\alpha$  va  $\beta$  bo'lsa ...

A) agglyutinogenlar bo'lmaydi

B) agglyutinogen A bo'lmaydi

C) agglyutinogen B bo'lmaydi

D) agglyutinogen A va B bo'ladi

**335.** II qon guruhi tarkibini belgilang.

A) agglyutinogen B, agglyutinini  $\alpha$

B) agglyutinogen B, agglyutinini  $\beta$

C) agglyutinogen A, B

D) agglyutinogen A, agglyutinini  $\beta$

**336.** Plazma tarkibidagi yog'ning miqdorini belgilang.

A) 0,1%      B) 0,9%

C) 0,8%      D) 7 – 8%

**337.** I.I. Mechnikov qaysi kasalliklarga qarshi vaksina va qon zardoblarini tayyorlab qo'llagan?

1) qizilcha; 2) quturish; 3) sil; 4) bo'g'ma; 5) kuydirgi.

A) 1, 2, 4      B) 2, 4, 5

C) 2, 5      D) 1, 2, 3

**338.** Qon deposi vazifasini bajaradigan organni belgilang.

A) taloq      B) jigar

C) o'pka

D) yurak

**339.** Yurak muskullarida qon aylanishining buzilishi tufayli qanday kasallik kelib chiqadi?

A) ateroskleroz

B) ishemik

C) insult

D) mioziz

**340.** Tamaki tarkibidagi yurak qon-tomir-sistemasiga zaharli ta'sir ko'rsatadigan moddalarni belgilang.

1) nikotin; 2) karbonat anhidrid; 3) radioaktiv poloniy; 4) kadmiy; 5) kobalt; 6) qo'r-g'oshin; 7) margimush.

A) 1, 2, 4, 5

B) 3, 5, 6

C) 4, 5, 7, 1

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

**341.** Odam qancha qon yo'qotganda halok bo'ladi?

A) 2 – 2,5 l      B) 1 – 1,5 l

C) 3 – 3,5 l      D) 2 – 2,5 ml

**342.** Uzunchoq miyadagi nafas olish markazidan har ... rit-

mik ravishda nerv impulslari orqa miyaning ... qismida joylashgan ... muskullar harakatini boshqaruvchi nerv markazlariga ta'sir qilib ularni qo'zg'atadi.

A) 2 – 3 sekundda; ko'krak va bel; diafragma –va qovurg'alararo

B) 4 – 5 sekundda; bo'yin va ko'krak; diafragma va qovurg'alararo

C) 4 – 5 sekundda; bel va bo'yin; diafragma va qovurg'alararo

D) 4 – 5 daqiqada; bo'yin va ko'krak; qovurg'alararo tashqi va ichki

**343.** Nafas olishning oliy nerv markazi qayerda joylashgan?

A) uzunchoq miyada

B) o'rta miyada

C) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ida

D) orqa miyada

**344.** Nima uchun odam jismoniy mashq bajargan vaqtda nafas olishi tezlashadi?

A) yurakning qisqarishi tezlashgani uchun

B) qonda karbonat angidridning miqdori ko'paygani uchun

C) qonda karbonat angidridning miqdori kamaygani uchun

D) qonda harorat oshgani uchun

**345.** Eritrotsit (1) va leykotsit (2)larga xos belgilarni aniqlang.

a) suyakning ko'mik qismida hosil bo'ladi; b) taloqda ho-

sil bo'ladi; c) yadrosiz; d) yadroli; e) rangli; f) rangsiz; g) 120 kun yashaydi; h) 2 – 5 kun yashaydi; i) 1 mm<sup>3</sup> qonda 4 – 6 mln bo'ladi; j) 1mm<sup>3</sup> qonda 6 – 8 ming bo'ladi; k) 1mm<sup>3</sup> qonda 6 – 8 mln bo'ladi.

A) 1 – a, c, d, f, g, i; 2 – b, e, h, i

B) 1 – a, c, e, g, i; 2 – a, b, d, f, h, k

C) 1 – a, c, e, g, i; 2 – a, b, d, f, h, j

D) 1 – a, b, d, f, h, j; 2 – a, c, e, g, i

**346.** Hiqildoq (1), kekirdak (2) qayerda joylashgan?

a) IV – VI bo'yin umurtqalari ro'parasida; b) III – V ko'krak umurtqalari ro'parasida; c) VI

– VII bo'yin umurtqalaridan V ko'krak umurtqasigacha; d) I

– IV bo'yin umurtqalaridan III ko'krak umurtqasigacha.

A) 1 – a; 2 – c

B) 1 – b; 2 – d

C) 1 – a; 2 – b

D) 1 – d; 2 – b

**347.** O'pkaning tiriklik sig'imi (1), o'pka ventilyatsiyasi (2), nafas havosi (3) va tinch holatda bir daqiqada qabul qilinadigan kislorod (4) miqdori to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

a) 250 – 300 ml; b) 500 ml; c) 8000 – 9000 ml; d) 1500 ml; e) 3500 ml; f) 250 – 300 l.

A) 1 – e, 2 – c, 3 – b, 4 – a

B) 1 – e, 2 – c, 3 – b, 4 – f



C) 1 - e, 2 - d, 3 - b, 4 - c

D) 1 - e, 2 - c, 3 - d, 4 - f

**348.** Yurak-qon tomir faoliyati- ni kuchaytiruvchi (a) va susayti- ruvchi (b) nerv va gormonlarni juftlab ko'rsating.

1) parasimpatik nerv; 2) sim- patik nerv; 3) adrenalin; 4) vazopressin.

A) a - 2, 3; b - 1, 4

B) a - 1, 3, 4; b - 2

C) a - 2; b - 1, 3, 4

D) a - 2, 3, 4; b - 1

**349.** Nima uchun o'pka to'qi- masi g'ovaksimon tuzilgan?

A) epiteliy to'qimasidan tash- kil topganligi uchun

B) ko'ndalang yo'lli muskul to'qimasidan tashkil topganligi uchun

C) ko'p qavatli epiteliy to'- qimasidan tashkil topganligi uchun

D) bronxlar va alveolalardan tashkil topganligi uchun

**350.** Yurak bo'lmacha va qo- rinchalar muskullarining qisqa- rishi nima deyiladi?

A) yurak sikli

B) sistola

C) diastola

D) puls

**351.** Minimal bosim qachon yuzaga keladi?

A) yurak muskullari qisqar- ganda

B) bo'lmacha muskullari qis- qarganda

C) qorinchalar qisqarganda

D) yurak qorinchasi kengay- ganda

**352.** Qaysi qon guruhida eritrotsitda agglyutinogen A, plazmada agglyutinini  $\alpha$  bo'- ladi?

A) I B) III C) IV D) II

**353.** Yurakning qaysi qismi- da yarimoysimon klapan joy- lashadi?

A) chap bo'lmacha bilan chap qorinchada

B) chap bo'lmacha bilan o'ng qorinchada

C) chap bo'lmacha bilan o'ng bo'lmachada

D) o'ng qorincha bilan o'pka arteriyasida

**354.** Qaysi qon guruhining plazmasida agglyutinini bo'- maydi?

A) I B) II

C) III D) IV

**355.** Eritrotsitlarda agglyuti- nogen B, plazmada agglyutinini  $\alpha$  bo'lishi qaysi qon guruhiga xos?

A) I B) II

C) III D) IV

**356.** Osmotik bosimining nis- biy doimiyligi qaysi organlar faoliyati orqali boshqariladi?

A) o'pka, jigar

B) o'pka, yurak

C) buyrak, yurak

D) buyrak, teri

**357.** Qaysi organ burun bo'sh- lig'i, og'iz bo'shlig'i, hiqildoqqa ajratiladi?

- A) halqum
- B) burun-halqum
- C) qizilo'ngach
- D) oshqozon

**358.** Tinch holatda odam bir daqiqada atmosfera havosidan qancha kislorod qabul qiladi?

- A) 110 – 150 ml
- B) 1 – 2 l
- C) 8000 – 9000 ml
- D) 250 – 300 ml

**359.** Ovoz boylamlarining uzunligi erkaklarda o'rtacha necha mm ga teng?

- A) 10 – 12      B) 9 – 13
- C) 20 – 22      D) 18 – 20

**360.** Qonning shaklli elementlari va ularning 1 mm<sup>3</sup> qonda qancha bo'lishini belgilang.

1) eritrotsit; 2) leykotsit; 3) trombotsit; 4) rezus-faktor.

a) 300 – 400 ming; b) 6 – 8 million; c) 6 – 8 ming; d) 4 – 6 million.

- A) 1 – d, 2 – c, 4 – b
- B) 1 – d, 2 – c, 3 – a
- C) 1 – b, 2 – a, 3 – b
- D) 1 – c, 2 – b, 3 – d

**361.** Leykotsitlar qaysi xususiyatlariga ko'ra uch turga bo'linadi?

- A) leykotsitning shakli va rangiga
- B) leykotsit yadrosining soni va rangiga
- C) leykotsit yadrosining shakli va bo'yalishiga

D) leykotsitning bajaradigan vazifasiga

**362.** Diastolik bosim qaysi vaqtda yuzaga keladi?

- A) yurak qorinchasi kengayganda
- B) yurak qorinchasi qisqarganda
- C) yurak bo'lmachasi qisqarganda
- D) qon tomirlar torayganda

**363.** Minimal bosim qaysi paytda hosil bo'ladi?

- A) yurakning chap qorinchasi qisqarganda
- B) yurakning chap qorinchasi kengaygan paytda
- C) yurakning har ikkala bo'lmachasi qisqarganda
- D) yurakning o'ng qorincha va o'ng bo'lmachasi kengayganda

**364.** Qonning shaklli elementlari va ularning vazifasi to'g'ri keltirilgan javobni toping.

1) eritrotsit; 2) leykotsit; 3) trombotsit; 4) rezus-faktor.

a) agglyutinatsiya jarayonida ishtirok etish; b) qonning ivishini ta'minlash; c) organizmning barcha hujayralarini O<sub>2</sub> bilan ta'minlash; d) organizmni yuqumli kasalliklardan himoya qilish.

- A) 1 – a, 2 – b, 3 – c
- B) 1 – c, 2 – d, 3 – b
- C) 1 – c, 2 – d, 4 – a
- D) 1 – a, 3 – d, 4 – c

**365.** Yurakning sistolik hajmi 70 ml. Tinch holatda turgan

odamning yuragi 1 daqiqada 70 marta qisqarsa, uning daqiqalik hajmi qancha bo'ladi?

- A) 4900 ml    B) 4760 ml  
C) 9000 ml    D) 400 ml

**366.** Qon va to'qimalar o'rtasida kislorod va karbonat anhidrid almashinuvi nima deb ataladi?

- A) ichki nafas olish  
B) gazlar almashinuvi  
C) diffuziya hodisasi  
D) tashqi nafas olish

**367.** Qovurg'alararo muskularning faoliyatini boshqaruvchi nervlar markaziy nerv sistemasining qaysi qismida joylashgan?

- A) uzunchoq miyada  
B) o'rta miyada  
C) orqa miyaning bo'yin qismida  
D) orqa miyaning ko'krak qismida

**368.** Maksimal bosim qanday yuzaga keladi?

- A) yurakning chap qorinchasi qisqarganda  
B) yurakning chap bo'lmasi qisqarganda  
C) yurakning o'ng qorinchasi qisqarganda  
D) yurakning o'ng bo'lmasi qisqarganda

**369.** Qon tomirlari devorining ritmik ravishda to'qinlanib turishi nima deyiladi?

- A) qon bosim  
B) puls

C) yurak sikli

D) atm bosim

**370.** Quyidagi berilganlar qachon vujudga keladi?

1) maksimal bosim; 2) minimal bosim; 3) gipertoniya; 4) gipotoniya.

a) yurak qorinchasi kengayganda; b) yurak qorinchasi qisqarganda; c) qon bosimi normaga nisbatan kamayganda; d) qon bosimi normaga nisbatan ortganda.

- A) 1 - b; 2 - a; 3 - d; 4 - c  
B) 1 - a; 2 - c; 3 - a; 4 - b  
C) 1 - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d  
D) 1 - d; 2 - c; 3 - b; 4 - a

**371.** Hiqildoq yon tomonidan nimalar bilan chegaralangan?

1) tilosti suyagi muskullari; 2) teri; 3) qon tomirlari; 4) nerv to'lalari; 5) qalqonsimon bez; 6) traxeya; 7) ayrisimon bez.

- A) 1, 2, 7    B) 1, 5, 7  
C) 2, 5, 6    D) 3, 4, 5

**372.** Quyida berilgan qonning shaklli elementlari qaysi organlarda hosil bo'ladi va necha kun yashaydi?

1) eritrotsitlar; 2) leykotsitlar; 3) trombotsitlar.

a) ko'mikda; b) taloqda; c) limfa tugunlarida.

I) 120 kun; II) 2 - 5 kun; III) 10 - 15 kun.

A) 1 - a - I; 1 - a, b, c - II; 3 - a, b - II

B) 1 - a - II; 2 - a, b - I; 3 - b, c - III

C) 1 – c – III; 2 – a, b – II; 3 – a – I

D) 1 – b – II; 2 – a, b, c – III; 3 – a, b – I

**373.** Nafas olish markazlarini belgilang.

A) miyacha, uzunchoq miya, yarimsharlar po'stlog'i

B) orqa miya bo'yin va ko'krak qismi, uzunchoq miya

C) miyacha, yarimshar po'stlog'i, orqa miya bo'yin qismi

D) bosh miya katta yarimsharlari

**374.** Nafas olish sistemasi-ga tegishli qaysi organda uch guruh muskullar bo'lib, ular har xil-vazifani bajaradi?

A) burun-halqumda

B) burun bo'shlig'ida

C) hiqildoqda

D) bronxda

**375.** Ingichka ichakning 1 mm<sup>2</sup> sathida nechaga yaqin vorsinka bo'ladi?

A) 30 – 40 ming

B) 4 mln

C) 30 – 40 ta

D) 14 mln

**376.** Oshqozon-ichaklardan so'rilgan ovqat tarkibidagi zaharli moddalar qaysi organ hujayralarida zararsizlantiriladi?

A) oshqozonosti bezi

B) buyrakusti bezi

C) jigar

D) taloq

**377.** Vorsinkalar ovqatning ichak devorlarida hazm bo'li-

shini ta'minlashini qaysi olim aniqlagan?

A) I.Pavlov

B) I.Sechenov

C) A.Ugolev

D) Landshteyner

**378.** Og'iz bo'shlig'iga necha juft yirik so'lak bezlari yo'li ochiladi?

A) ikki juft

B) uch juft

C) to'rt juft

D) besh juft

**379.** Aralash ovqatlar oshqozonda necha soat davomida saqlanadi?

A) 3 – 4 soat

B) 4 – 5 soat

C) 4 – 10 soat

D) 4 – 8 soat

**380.** Oshqozon shirasi tarkibiga qanday fermentlar va qaysi kislota kirishini belgilang.

1 – pepsin; 2 – lipaza; 3 – sirtka kislota; 4 – fosfat kislota; 5 – xlorid kislota; 6 – tripsin; 7 – lizotsim.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 5      D) 1, 5, 6

**381.** Quyosh nuri ta'sirida odam terisida qanday vitamin hosil bo'lishini belgilang.

A) C      B) A

C) B<sub>1</sub>      D) D

**382.** Yo'g'on ichakda oqsil-larning necha foizi so'riladi?

A) 3      B) 2

C) 1      D) 4

**383.** Oshqozon shirasida xlorid kislotaning vazifasi nima?

- A) oshqozon devorini shikastlanishdan himoyalash
- B) pepsin fermentining aktivlik kuchini oshirish
- C) yog'larni parchalash
- D) uglevodlarni parchalash

**384.** Odam ingichka ichagining butun yuzasida nechtaga yaqin vorsinkalar bo'ladi?

- A) 30 – 40 dona
- B) 2 – 2,5 mln
- C) 2,5 mln
- D) 4 mln

**385.** Qon tarkibidagi ortiqcha qand qaysi gormon ta'sirida glikogenga aylanadi va qayerda to'planadi?

- A) glyukagon, taloqda
- B) insulin, muskul
- C) gastrin, muskullarda
- D) glyukoza, jigarda

**386.** Tish kasalliklarini belgilang.

- 1) kariyes; 2) pulpit; 3) nekroz;
- 4) diareya; 5) nefrit; 6) nevroz;
- 7) gipotoniya.

- A) 1, 2, 3      B) 1, 4, 7
- C) 1, 5, 6      D) 4, 5, 6

**387.** Qaysi ferment ovqat tarkibidagi oqsillarni parchalaydi?

- A) ptialin      B) lipaza
- C) amilaza      D) tripsin

**388.** Katta odamda ingichka ichakning uzunligi o'rtacha necha metr bo'ladi?

- A) 1,5      B) 2,5
- C) 2 – 3      D) 5 – 6

**389.** Vitaminlar hayvon organizmi uchun muhim modda ekanligini birinchi bo'lib qaysi olim nechanchi yilda belgilagan?

- A) K.Funk, 1912
- B) N.I.Lunin, 1880
- C) I.P.Pavlov, 1916
- D) I.I.Mechnikov, 1912

**390.** Sut tishlarning umumiy soni nechta bo'ladi?

- A) 20      B) 16
- C) 28      D) 32

**391.** Qaysi kasallikda suyak egiluvchan bo'lib qoladi?

- A) raxit
- B) singa
- C) sil
- D) paratgormon

**392.** Vorsinkalar quyida berilganlarning qaysi biri bilan yaxshi ta'minlangan?

- A) qon va limfa tomirlari
- B) ayrimlarida limfa tomiri
- C) gemoglobin
- D) vena tomirlari

**393.** Qaysi moddalar ovqat tarkibida energiya hosil qilmaydi?

- 1) suv; 2) kraxmal; 3) oqsil;
- 4) mineral tuz; 5) yog'; 6) glikogen; 7) vitamin.

- A) 1, 2, 3      B) 1, 3, 5
- C) 1, 4, 7      D) 2, 3, 5

**394.** Qaysi ichakda joylashgan bezlar suyuqligida fermentlar kam, shilliq modda esa ko'p bo'ladi?

- A) og'iz bo'shlig'ida

- B) oshqozonda
- C) o'n ikki barmoqli ichakda
- D) yo'g'on ichakda

**395.** Soxta ovqatlanish operatsiyasini qaysi olim ishlab chiqqan?

- A) I.P.Pavlov
- B) V.A.Basov
- C) N.I.Lunin
- D) K.Funk

**396.** Ovqat hazm qilish sistemasining, asosan, qaysi qismida suv va mineral tuzlar qon-ga so'riladi?

- A) oshqozonda
- B) ingichka ichakda
- C) yo'g'on ichakda
- D) to'g'ri ichakda

**397.** Bir kecha-kunduzda suv-ga bo'lgan ehtiyoj katta odamlarda necha litrni tashkil etadi?

- A) 0,5 – 1 l
- B) 1 – 2 l
- C) 2 – 3 l
- D) 4 – 5 l

**398.** Atmosfera bosimining pasayishi natijasida odamda qaysi kasallikning belgilari yuzaga keladi?

- A) tog' kasalligi
- B) oshqozon-ichak kasalligi
- C) yurak-qon tomir kasalligi
- D) nerv sistemasi kasalligi

**399.** O'n ikki barmoqli ichakning umumiy uzunligi qancha?

- A) 10 – 12 sm
- B) 1,5 sm
- C) 14 – 16 sm
- D) 25 – 30 sm

**400.** Ovqat hazm qilish sistemasi organlari ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

1) og'iz bo'shlig'i; 2) oshqozon; 3) halqum; 4) o'n ikki barmoqli ichak; 5) qizilo'ngach; 6) yo'g'on ichak; 7) ingichka ichak:

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- B) 1, 3, 4, 6, 7, 5, 2
- C) 1, 3, 5, 2, 6, 7, 4
- D) 1, 3, 5, 2, 4, 7, 6

**401.** Jigar organizmida qanday vazifalarni bajaradi?

1) eritrotsitlarni parchalash; 2) o't suyuqligi ishlab chiqarish; 3) leykotsitlarni hosil qilish; 4) qonni zaharli moddalardan tozalash; 5) gormonlar ishlab chiqarish; 6) moddalar almashinuvida ishtirok etish.

- A) 1, 2, 4, 6
- B) 1, 2, 3, 5
- C) 1, 3, 5, 6
- D) 1, 3, 4, 5

**402.** A vitamini qaysi organlarning funksional holatini me'yorda saqlashda muhim rol o'ynaydi?

1) terining ustki qavati; 2) nerv sistemasida qo'zg'alishning normal o'tishi; 3) nafas yo'llari; 4) markaziy nerv sistemasida tormozlanish jarayonining normal o'tishi; 5) ovqat hazm qilish organining shilliq qavati; 6) odam aqliy faoliyatining yaxshi bo'lishida.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 4, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 3, 6

**403.** Qaysi element hujayradagi gaz almashinuvida ishtirok etadi?

- A) temir            B) kobalt  
C) natriy           D) kalsiy

**404.** Til qanday vazifalarni bajaradi?

1) ovqatni parchalash; 2) ovqatni aralashtirish; 3) ovqatni surib berish; 4) tishni himoya qilish; 5) ta'm bilish.

- A) 1, 2, 4            B) 2, 4, 5  
C) 1, 3, 5            D) 2, 3, 5

**405.** Vorsinkalar tananing qaysi qismida ovqat hazm bo'lishini ta'minlaydi?

- A) yo'g'on ichak devorida  
B) ingichka ichak kanalida  
C) ingichka ichak devorida  
D) o'n ikki barmoqli ichakda

**406.** Oziq-ovqat tarkibida xolesterin moddasining ko'payishi qaysi kasallikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi?

- A) tireotoksikoz  
B) gipotireoz  
C) botulizm  
D) ateroskleroz

**407.** Odamda ovqatni hazm qilishga sarflanadigan energiya qancha kkal ga teng?

- A) 1680  
B) 2300  
C) 3000 – 35000  
D) 168

**408.** Qaysi kasallik ingichka ichak shilliq pardasining yalig'lanishi bilan ajralib turadi?

- A) raxit            B) enterit  
C) kolit            D) gastrit

**409.** Yo'g'on ichakda ovqat qoldiqlari necha soat saqlanadi?

- A) 3 – 4            B) 6 – 8  
C) 10 – 12        D) 18 – 20

**410.** Ichakning yallig'lanish kasalliklari berilgan javobni belgilang.

- A) enterit, kolit  
B) gastrit, nefrit  
C) kolit, gepatit  
D) enterit, salmonellyoz

**411.** Uglevodlar almashinuvining buzilishi qaysi gormonlar yetishmasligi natijasida hosil bo'ladi?

- A) glyukagon, gastrin  
B) insulin, gastrin  
C) tiroksin, insulin  
D) glyukagon, insulin

**412.** Tashqi va ichki sekretsiya bezlariga mos keladigan javobni belgilang.

1) tashqi sekretsiya; 2) ichki sekretsiya.

a) so'lak bezi; b) epifiz; c) yog'; d) ter; e) qalqonsimon; f) oshqozonosti; g) buyrakusti.

- A) 1 – a, c, d; 2 – b, e, g  
B) 1 – a, b, f; 2 – a, e, g  
C) 1 – b, c, d; 2 – e, f, g  
D) 1 – g, f, e; 2 – d, c, b

**413.** Oshqozon bezlaridan bir kecha-kunduzda necha litrga yaqin oshqozon shirasi ajraladi?

- A) 0,5            B) 6  
C) 5                D) 3

**414.** Ovqatni parchalovchi fermentlar nomi va vazifalari ko'rsatilgan qatorni toping.

1) fruktoza; 2) lipaza; 3) glyukoza; 4) tripsin; 5) amilaza.

a) oqsillarni parchalash; b) yog'larni parchalash; c) uglevodlarni parchalash.

- A) 2 – b, 4 – a, 5 – c
- B) 1 – a, 2 – c, 3 – b
- C) 3 – b, 4 – b, 5 – c
- D) 2 – c, 3 – c, 4 – a

**415.** Amilaza fermentini tanamizdagi qaysi bez ishlab chiqaradi va u qanday moddani parchalashga yordam beradi?

- A) oshqozon, oqsil
- B) so'lak, uglevod
- C) oshqozonosti, uglevod
- D) jigar, lipid

**416.** Kolit kasalligi qaysi a'zoning yallig'lanishi natijasida kelib chiqadi?

- A) oshqozonosti bezi
- B) to'g'ri ichak
- C) ingichka ichak
- D) yo'g'on ichak

**417.** Qaysi kitobda o'simlik va hayvon mahsulotlari hamda mineral moddalardan tayyorlangan mingdan ortiq dorilar haqida ma'lumot berilgan?

- A) «Al-kimyó»
- B) «Al-Marza»
- C) «Tib qonunlari»
- D) «Saydana»

**418.** Qaysi organ kirish, tibi, tanasi va chiqish qismlaridan iborat?

- A) buyrak
- B) o'pka
- C) oshqozonosti bezi
- D) oshqozon

**419.** Oshqozon ichki shilliq pardasida qancha mayda bezchalar bor?

- A) 13 mln
- B) 14 mln
- C) 15 mln
- D) 4 mln

**420.** Quyidagi elementlardan qaysi biri tamaki tutuni tarkibida bo'ladi va yurak-qontomir sistemasiga zaharli ta'sir qiladi?

1) kadmiy; 2) kalsiy; 3) kobalt; 4) qo'rg'oshin; 5) poloniy; 6) natriy; 7) kaliy.

- A) 1, 3, 4, 5
- B) 1, 2, 5, 7
- C) 2, 6, 7, 5
- D) 2, 4, 6, 7

**421.** Bug'doy non tarkibida qaysi vitamin bo'ladi?

- A) B<sub>1</sub>
- B) A
- C) D
- D) C

**422.** Qaysi organ uch qismdan, ya'ni uchi, tanasi, ildizlardan iborat?

- A) til
- B) tish
- C) oshqozon
- D) ichak

**423.** Og'iz bo'shlig'iga qaysi so'lak bezlarining kanallari ochiladi?

A) tilosti, tilusti, jag'osti so'lak  
B) tilosti, jag'osti, quloqoldi so'lak

C) jag'usti, tilosti, halqum atrofi so'lak

D) tilusti, jag'usti, quloqoldi so'lak

**424.** Quyida berilgan ovqat hazm qilish kanalining qismlaridan qanday fermentlar ajraladi?



a) so'lak; b) oshqozon; c) oshqozonosti bezi; d) ingichka ichak.

1) ptialin; 2) amilaza; 3) lipaza; 4) pepsin; 5) tripsin; 6) enterokinaza.

A) a – 1, 5; b – 2, 4; c – 3, 6; d – 5, 6

B) a – 3, 4; b – 1; c – 2, 3, 6; d – 2, 3, 5

C) a – 1; b – 3, 4; c – 2, 3, 5; d – 2, 3, 6

D) a – 5, 6; b – 1, 2; c – 4, 5; d – 2, 3

**425.** Oshqozonda xlorid kislotasi nimaning faolligini kuchini oshiradi?

A) lipaza

B) karbogidraza

C) amilaza

D) pepsin

**426.** Quyida berilganlar qaysi organlarning yallig'lanishi kasalliklari hisoblanadi?

1) nefrit; 2) kolit; 3) enterit; 4) gastrit.

a) oshqozon shilliq pardasining; b) ingichka ichak shilliq pardasining; c) yo'g'on ichak shilliq pardasining; d) buyrakning.

A) 1 – a; 2 – b; 3 – c; 4 – d

B) 1 – d; 2 – a; 3 – c; 4 – b

C) 1 – b; 2 – c; 3 – d; 4 – a

D) 1 – d; 2 – c; 3 – b; 4 – a

**427.** Katta odamda bir kecha-kunduzda o'n ikki barmoqli ichakka qancha oshqozonosti suyuqligi va qancha miqdorda o't suyuqligi quyiladi?

A) 500 – 800 ml, 700 – 1200 ml

B) 200 – 300 ml, 300 – 400 ml

C) 100 – 200 ml, 700 – 1200 ml

D) 500 – 800 ml, 750 – 450 ml

**428.** Ona sutini tarkibida necha foiz oqsil bo'ladi?

A) 0,5 B) 1,5

C) 4,5 D) 6,5

**429.** Qaysi vitamin yetishmasligi natijasida odamning ko'rish o'tkirligi pasayadi, ayniqsa, qorong'ida yaxshi ko'ra olmaydi?

A) C vitamini

B) D vitamini

C) B<sub>1</sub> vitamini

D) A vitamini

**430.** Odam organizmida qaysi vitamin yetishmasligi natijasida teri quruqlashib yoriladi, nafas yo'llari va oshqozon-ichak ichki qavatining yallig'lanishi kasalliklari yuzaga keladi?

A) B vitamin

B) C vitamin

C) A vitamin

D) D vitamin

**431.** Organizmda qaysi tuzlar almashinuvining buzilishi sababli raxit kasalligi kelib chiqadi?

A) natriy va kalsiy

B) kaliy va natriy

C) fosfor va kaliy

D) fosfor va kalsiy

**432.** So'lak tarkibida qaysi fermentlar bo'ladi?

1) ptialin; 2) pepsin; 3) lizotsim; 4) laktaza; 5) lipaza; 6) tripsin.

A) 3, 5, 6      B) 1, 2, 3

C) 3, 4          D) 1, 3

**433.** Bir kecha-kunduzda katta yoshli odamning o'n ikki barmoqli ichagiga necha ml o't suyuqligi quyiladi?

A) 1400 – 1600 ml

B) 500 – 600 ml

C) 500 – 800 ml

D) 700 – 1200 ml

**434.** Sifatsiz oqsillar qaysi mahsulotlarda ko'p bo'ladi?

1) guruch; 2) no'xat; 3) go'sht; 4) loviya; 5) baliq; 6) tuxum sarig'i; 7) kartoshka; 8) bug'doy; 9) sut; 10) makkajo'xori.

A) 1, 3, 5, 7, 9

B) 2, 4, 7, 9, 10

C) 1, 2, 4, 7, 8, 10

D) 3, 5, 6, 9, 10

**435.** Ovqat tarkibidagi yog'larni emulsiya holatiga keltiruvchi moddani belgilang.

A) o't suyuqligi

B) lipaza

C) tripsin

D) ptialin

**436.** Melatonin (1), intermidin (2), timozin (3) gormonlari qaysi bezlar gormoni hisoblanadi?

a) epifiz; b) qalqonsimon; c) buyrakusti; d) ayrisimon; e) gipofiz.

A) 1 – a, 2 – e, 3 – d

B) 1 – e, 2 – a, 3 – d

C) 1 – a, 2 – c, 3 – d

D) 1 – e, 2 – d, 3 – a

**437.** Buyrakdan ajraladigan moddalarni belgilang.

1) siydik kislota; 2) qoldiq azot; 3) ortiqcha tuzlar; 4) kreatinin; 5) oqsil; 6) lipaza; 7) ortiqcha oqsillar.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 3, 5, 6      D) 3, 4, 6, 7

**438.** Buyrakda siydik ajralishini kuchaytiruvchi (a) va kamaytiruvchi (b) nervlar hamda gormonlarni juftlab ko'rsating.

1) simpatik nerv tolalari; 2) parasimpatik nerv tolalari; 3) vazopressin; 4) tiroksin.

A) a – 1, 3; b – 2, 4

B) a – 2, 4; b – 1, 3

C) a – 1, 3, 4; b – 2

D) a – 2; b – 1, 3, 4

**439.** Teri epidermisining sirtqi qavatidagi o'lik hujayralar va derma qavati orasida qanday hujayralar qavati joylashgan?

A) dermaning o'lik hujayralar qavati

B) epidermisning tirik hujayralar qavati

C) gipoderma qavati

D) harorat sezuvchi hujayralar qavati

**440.** Jismoniy mashq bajarish vaqtida 2000 ml ter ajralgan bo'lsa, uning tarkibidagi azot qoldig'i (a) va osh tuzi (b) ning miqdorini belgilang.

A) a – 1 g; b – 2 g

B) a – 4 g; b – 8 g

C) a – 8 g; b – 4 g

D) a – 3 g; b – 6 g

**441.** Qon plazmasi (a) va ona suti (b) tarkibidagi oqsillar miqdorini belgilang.

- A) a – 7 – 8%; b – 6,5%
- B) a – 7 – 8%; b – 1,5%
- C) a – 7 – 8%; b – 87%
- D) a – 7 – 8%; b – 0,3%

**442.** Qon plazmasi (a) va ona suti (b) tarkibidagi yog'lar miqdorini belgilang.

- A) a – 0,9%; b – 1,5%
- B) a – 0,8%; b – 4,5%
- C) a – 0,8%; b – 6,5%
- D) a – 0,1%; b – 4,5%

**443.** Ona suti (a) va qon plazmasi (b) tarkibidagi uglevodlar miqdorini belgilang.

- A) a – 0,1%; b – 1,5%
- B) a – 1,5%; b – 0,1%
- C) a – 4,5%; b – 0,1%
- D) a – 6,5%; b – 0,1%

**444.** Ona suti (a) va qon plazmasi (b) tarkibidagi mineral tuzlar miqdorini belgilang.

- A) a – 0,9%; b – 0,3%
- B) a – 0,3%; b – 0,9%
- C) a – 0,8%; b – 0,9%
- D) a – 1,5%; b – 0,8%

**445.** Quyidagi birikmalarning qaysilari sog'lom odamning ikkilamchi siydigi tarkibida uchraydi?

1) tuz; 2) oqsil; 3) glyukoza; 4) kreatinin; 5) mochevina.

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 2, 3, 4, 5
- C) 2, 3, 5
- D) 1, 4, 5

**446.** Bolalar sovuni tarkibidagi qaysi moddalar teridagi mikroblarni yo'qotadi?

- A) sulfat kislotasi
- B) xlorid kislotasi
- C) bor kislotasi
- D) lanolin

**447.** Quyidagi qaysi gormonlar organizmning o'sishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi?

- A) vazopressin, timozin
- B) somatotrop, tiroksin
- C) glyukokortikoid, tiroksin
- D) insulin, timozin

**448.** Gipofiz bezining ishi qaysi nerv sistemasi tomonidan boshqariladi?

- A) somatik
- B) vegetativ
- C) periferik
- D) simpatik

**449.** 1 g yog' parchalangan-da qancha energiya (kkal) hosil bo'ladi?

- A) 9,3
- B) 4,1
- C) 4,2
- D) 7,8

**450.** Qaysi organ orqali qoldiq azot va suvda erigan tuzlar tashqariga chiqariladi?

- A) teri
- B) bronx
- C) ichak
- D) buyrak

**451.** Og'iz bo'shlig'iga tushgan mikroblarni eritib yuborish xususiyatiga ega bo'lgan moddani belgilang.

- A) pepsin
- B) ptialin
- C) uglevod
- D) lizotsim

**452.** 1 g yog' oksidlanishiga necha litr kislorod sarflanadi?

- A) 1 l
- B) 2 l

C) 3 l. D) 0,8 l

453. Appenditsit kasalligi belgilarini ko'rsating.

A) qorinning chap tomonida kuchsiz og'riq paydo bo'ladi

B) qovurg'aning ostki qismida kuchsiz og'riq paydo bo'lib, ko'ngil ayniydi

C) qorinning o'ng tomonida kuchli sanchiq va g'ijimlovchi og'riq paydo bo'ladi, ko'ngil ayniydi

D) qorinning o'ng va chap tomonida kuchsiz og'riq paydo bo'lib, odam tez suv ichadi

454. Monosaxaridlar qanday yo'llar bilan to'qima va hujayralarga yetib boradi?

A) limfa va to'qima suyuqligi

B) hazm organlari orqali

C) nerv yo'li bilan

D) qon orqali

455. Hazm qilish yo'lining qaysi bo'limida oziq moddalar qonga so'riladi?

A) o'n ikki barmoqli ichakda

B) oshqozonda

C) yo'g'on ichakda

D) ingichka ichakda

456. Quyidagi fermentlarning qaysi biri uglevodlarga ta'sir qiladi?

1) enterokinaza; 2) lipaza; 3) pepsin; 4) ptialin; 5) enterogastron; 6) amilaza.

A) 4, 6 B) 2, 3

C) 2, 5 D) 3, 6

457. Oshqozon bezi suyuqligi tarkibida qanday fermentlar bo'ladi?

A) pepsin, ptialin, ektenokinaza

B) tripsin, lipaza, amilaza

C) ptialin, lizotsim, lipaza

D) pepsin, lipaza

458. Organizmda A vitamin yetishmasa, qanday belgilar paydo bo'ladi?

1) asabiylik rivojlanadi; 2) teri quruqlashib, yoriladi; 3) qon bosimi ko'tariladi; 4) nafas yo'llari yallig'lanadi; 5) o'smirlar organizmining rivojlanishi susayadi; 6) tish milklari qonaydi; 7) suyaklar mo'rt bo'lib qoladi.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4

C) 2, 4, 5 D) 4, 5, 6

459. Moddalar almashinuvi-ning oxirgi mahsulotlari: ortiqcha tuzlar, suv, organizm uchun zarur bo'lmagan va zararli moddalar chiqib ketadigan organlarni belgilang.

1) o'pka; 2) jigar; 3) buyrak; 4) taloq; 5) teri; 6) ichak; 7) o't pufagi.

A) 1, 2, 3, 7 B) 2, 3, 4, 7

C) 5, 6, 7 D) 1, 3, 5, 6

460. Nos odam organizmining qaysi organlari orqali o'tadi va qaysi muhim organlarni zaharlaydi?

A) o'pka, miya, yurak

B) miya, yurak, jigar

C) taloq, jigar, o't pufagi

D) oshqozon, jigar, taloq

461. Ingichka ichak devorlaridagi bezlardan ajraladigan fermentlarni belgilang.

1) enterokinaza; 2) tripsin; 3) pepsin; 4) ptialin; 5) lipaza; 6) amilaza.

A) 3, 4                      B) 1, 4

C) 2, 5                      D) 1, 5

**462.** Oshqozonosti bezlaridan qanday fermentlar ajraladi?

1) tripsin; 2) lipaza; 3) pepsin; 4) ptialin; 5) enterokinaza; 6) lizotsim; 7) amilaza.

A) 1, 3, 6                      B) 2, 6, 7

C) 1, 2, 7                      D) 2, 5, 7

**463.** Oshqozonosti bezi ajratadigan shiraning tarkibini belgilang.

A) tripsin, lipaza, xlorid kislota  
B) pepsin, lipaza, xlorid kislota

C) tripsin, lipaza, amilaza  
D) tripsin, amilaza, xlorid kislota

**464.** Xlorid kislota qaysi fermentning faollik kuchini oshiradi?

A) pepsin                      B) lipaza

C) tripsin                      D) amilaza

**465.** Tananing qaysi qismlarida terining qalinligi 4 mm gacha bo'ladi?

1) qo'lining kaft; 2) yuz; 3) ko'krak; 4) oyoqning tovon; 5) qorin; 6) tananing orqa; 7) son.

A) 1, 2, 3, 4

B) 2, 3, 4, 5

C) 3, 4, 5, 6

D) 1, 4, 6, 7

**466.** Odam organizmida bir kecha-kunduz davomida sarf-

lanadigan energiyani qanday guruhlarga ajratish mumkin?

1) asosiy moddalar almashinuvini ta'minlaydigan; 2) ovqatni hazm qilishga sarflanadigan; 3) bir kecha-kunduzda bajaradigan ishiga sarflanadigan; 4) jismoniy mehnat uchun sarflanadigan; 5) aqliy mehnat uchun sarflanadigan.

A) 1, 2, 3                      B) 2, 3, 4

C) 3, 4, 5                      D) 2, 3, 5

**467.** 62 yoshli odam organizmida quyida berilgan jarayonlarning qaysi biri ustun bo'ladi?

A) assimilyatsiya

B) anabolizm

C) plastik almashinuv

D) dissimilyatsiya

**468.** Oshqozonosti bezi suyuqligi tarkibida oqsilni parchalovchi qanday ferment bo'ladi?

A) pepsin

B) tripsin

C) enterogastron

D) enterogastrin

**469.** Mimika muskullariga qaysi muskullar kiradi?

1) chakka; 2) og'izning aylana muskuli; 3) yonoq muskuli; 4) lablarning kvadrat muskullari; 5) tashqi qanotsimon muskul; 6) ichki qanotsimon muskul.

A) 1, 2, 3                      B) 1, 3, 4

C) 2, 3, 4                      D) 1, 5, 6

**470.** Odamning o'zlashtirish va esda saqlash qobiliyati qay-

si vitamin yetishmasligi natijasida susayadi?

- A) B<sub>1</sub>                      B) A  
C) C                        D) D

**471.** E'tiborni biror muhim masalaga jalb etish kabi qobiliyatning pasayishi qaysi vitamin yetishmasligi bilan bog'liq?

- A) B<sub>1</sub>                      B) A  
C) C                        D) D

**472.** Sog'lom bola bir yoshga to'lganda nechta tishi bo'ladi?

- A) 8                        B) 12  
C) 16                      D) 20

**473.** I.P.Pavlovning qaysi ilmiy ishlariga Nobel mukofoti berilgan?

A) nafas olish fiziologiyasi sohasidagi

B) qon aylanish sistemasi sohasidagi

C) ovqat hazm qilish fiziologiyasi sohasidagi

D) tayanch-harakatlanish sohasidagi

**474.** Somatotrop gormoni organizmda qanday vazifani boshqaradi?

A) organizmda oqsil sintezi, bolalar va o'smirlar o'sishini

B) pigment, uglevodlar almashinuvini

C) bolalarning o'sish va rivojlanishini

D) kalsiy-fosfor almashinuvini

**475.** Timozin gormonini qaysi bez ishlab chiqaradi?

- A) gipofiz  
B) epifiz

C) ayrisimon

D) epifiz

**476.** Enterokinaza fermenti qayerda ishlab chiqiladi?

A) ingichka ichakning shilliq qavatida

B) o'n ikki barmoqli ichakning boshlang'ich qismida

C) oshqozon devorining shilliq qavatida

D) oshqozonosti bezida

**477.** Jigar organizmda qanday vazifalarni bajaradi?

1) eritrotsitlarni parchalaydi; 2) o't suyuqligi ishlab chiqadi; 3) leykotsitlar hosil qiladi; 4) qonni tozalaydi; 5) gormonlar ishlab chiqaradi; 6) moddalar almashinuvida ishtirok etadi.

A) 1, 2, 4, 6

B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 4, 5, 6

D) 5, 6

**478.** ADG gormoni quyidagilardan qaysi jarayonni boshqaradi?

A) terida pigment hosil bo'lishini

B) bolalarda o'sish va rivojlanishni

C) reabsorbsiya jarayonini

D) sut-bezlari faoliyatini

**479.** Birlamchi siydikning tarkibi qonning qaysi qismi tarkibiga yaqin bo'ladi?

A) qon plazmasi

B) leykotsitlar

C) eritrotsitlar

D) trombotsitlar

**480.** Katta yoshli odamda 1 sutka davomida o'n ikki barmoqli ichakka ajraladigan oshqozonosti bezi suyuqligi miqdorlarini ko'rsating.

- A) 700 – 1200 ml
- B) 500 – 800 ml
- C) 1200 – 1300 ml
- D) 1200 – 1500 ml

**481.** So'lak tarkibidagi lizot-sim qanday ahamiyatga ega?

- A) oziq oqsillarini parchalaydi
- B) oziq yog'larini parchalaydi
- C) mikroblarni zararsizlantiradi

D) uglevodlarni parchalaydi

**482.** Ikkinchi nomi «tiamin» deb ataluvchi vitaminni belgilang.

- A) B<sub>1</sub>
- B) A
- C) C
- D) D

**483.** Qaysi vitamin odam organizmining o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega?

- A) B
- B) C
- C) D
- D) A

**484.** Raxit kasalligi bolalarda qachon boshlanishi mumkin?

- A) 1 – 2 oylikidan
- B) 3 – 4 oylikidan
- C) 5 – 6 oylikidan
- D) 7 – 9 oylikidan

**485.** Qaysi vitamin oqsillar va uglevodlar almashinuvida muhim ahamiyatga ega?

- A) B
- B) D
- C) C
- D) A

**486.** Organizmda kalsiy va fosfor almashinuvi me'yorida o'tishida ishtirok etadigan vitaminni toping.

- A) B<sub>1</sub>
- B) A
- C) C
- D) D

**487.** Bo'yi o'sishdan to'xtagan odamlarda samodarop gormonning ko'p ishlab chiqarilishi natijasida qanday kasallik kelib chiqadi?

- A) nanizm
- B) gigantizm
- C) qandsiz diabet
- D) akromegaliya

**488.** Odam organizmining ichki muhit doimiyliги nima deb ataladi?

- A) gameostaz
- B) gipodinamiya
- C) akseleratsiya
- D) gipoksiya

**489.** Qaysi organda uzuksimon, qalqonsimon va hiqildoqusti tog'aylari bo'ladi?

- A) halqum
- B) burun
- C) hiqildoq
- D) traxeya

**490.** Yog'larni parchalovchi fermentni belgilang.

- A) lipaza
- B) karbogidraza
- C) ligaza
- D) proteaza

**491.** Reabsorbsiya jarayonini pasaytiradigan ichki sekretsia bezi va gormonini belgilang.

- A) gipofiz, vazopressin
- B) qalqonsimon bez, tiroksin
- C) gipofiz, oksitotsin

D) ayrisimon bez, timozin  
492. Ter va yog' bezlari terining qaysi qavatida joylashgan?

- A) gipoderma
- B) derma
- C) derma va gipoderma
- D) epidermis va derma

493. Bola 7 yoshga to'lguncha faoliyati kuchayib, balog'atga yetish oldidan butunlay to'xtaydigan ichki sekretiya bezini belgilang.

- A) ayrisimon bez
- B) qalqonsimon bez
- C) jinsiy bezlar
- D) epifiz

494. Qaysi gormon ta'sirida qonda qand, jigarda glikogen miqdori ortadi?

- A) insulin
- B) glyukokortikoid
- C) timozin
- D) insulin, glyukogon

495. Odam embrioni tuxum yo'lida qancha vaqt bo'ladi?

- A) ikki hafta
- B) bir hafta
- C) 18 – 20 kun
- D) 3 kun

496. Kalsiy va fosfor almashinuvini boshqaradigan gormonni ko'rsating.

- A) paratgormon
- B) glyukokortikoid gormoni
- C) tiroksin gormoni
- D) timozin gormoni

497. Oqsil va uglevodlar almashinuvini boshqaradigan gormonni ko'rsating.

- A) paratgormon
- B) glyukokortikoid gormoni
- C) tiroksin gormoni
- D) timozin gormoni

498. Odamning aqliy faoliyatiga ta'sir etuvchi gormonni ko'rsating.

- A) paratgormon
- B) glyukokortikoid gormoni
- C) timozin gormoni
- D) tiroksin gormoni

499. Esterogen gormoni qayerda ishlab chiqariladi?

1) buyrakusti bezining po'stloq qavatida; 2) tuxumdonda; 3) urug'donda.

- A) 1
- B) 1, 2
- C) 1, 3
- D) 2, 3

500. Nefrit qanday kasallik?

A) sezuvchi nervning yallig'lanishi

B) harakatlantiruvchi nervning yallig'lanishi

C) buyrakning yallig'lanishi

D) tish kasalligi

501. Kalla suyagining turk egarchasida qaysi bez joylashgan?

- A) epifiz
- B) qalqonorqa bezi
- C) gipofiz
- D) ayrisimon

502. Gipofizning oldingi (1) va oraliq (2) bo'lagidan ajraladigan gormonlarni belgilang.

a) somatotrop; b) melatonin; c) intermidin; d) tiroksin.

- A) 1 – a, 2 – b
- B) 1 – b, 2 – a



C) 1 – c, 2 – b

D) 1 – a, 2 – c

**503.** Paratgormon (1), glyukokortikoid (2), somatotrop (3) gormonlari organizmda qaysi funksiyalarni boshqaradi?

a) kalsiy-fosfor almashinuvini; b) oqsil va uglevodlar almashinuvini; c) oqsillar sintezlanishini.

A) 1 – a, 2 – b, 3 – c

B) 1 – a, 2 – c, 3 – b

C) 1 – c, 2 – b, 3 – a

D) 1 – a, 2 – b, 3 – b

**504.** Paratgormon ishlab chiqarilishi ko'paysa, bemorda qaysi belgilar kuzatiladi?

1) nerv-muskul sistemasi-ning qo'zg'aluvchanligi pasayadi; 2) soch to'kiladi; 3) tana muskullari bo'shashadi; 4) suyaklar mo'rt bo'lib qoladi; 5) nerv-muskul sistemasi-ning qo'zg'aluvchanligi ortadi; 6) odam umumiy holsizlanadi va tez charchaydi; 7) odamda tetoniya holati yuzaga keladi.

A) 2, 4, 5, 7 B) 1, 3, 6

C) 1, 2, 3, 6 D) 3, 5, 7

**505.** Qaysi gormon tufayli odam nerv-muskul tizimining qo'zg'aluvchanligi ortib, qovoqlari, lablari pirqirab uchadi, qo'llari qaltiraydi?

A) paratgormon kam ishlab chiqarilsa

B) paratgormon ko'p ishlab chiqarilsa

C) timozin yetishmasa

D) triotoksikoz ortib ketsa

**506.** Odamning immunitet xususiyatini oshiruvchi gormonni belgilang.

A) tiroksin

B) paratgormon

C) katexolamin

D) timozin

**507.** Buyrakusti bezining gormonlari qaysilar?

A) insulin, katexolamin

B) testesteron, adrenalin

C) androgen, esterogen

D) esteron, estradiol

**508.** D vitaminining yetishmasligi organizmda qaysi tuzlar almashinuvini buzadi?

A) kaliy, natriy

B) kalsiy, fosfor

C) temir, magniy

D) kaliy, temir

**509.** Odamning har bir jag'ida qanday tishlar borligi va ularning soni nechtdan bo'lishini belgilang.

1) qoziq; 2) kurak; 3) kichik oziq tish; 4) katta oziq tish.

a) 4; b) 2; c) 6; d) 4.

A) 1 – a, 2 – b, 3 – c, 4 – d

B) 1 – b, 2 – a, 3 – c, 4 – d

C) 1 – c, 2 – c, 3 – d, 4 – c.

D) 1 – b, 2 – a, 3 – d, 4 – c

**510.** Qaysi bezlar ichki sekretsiya bezlari hisoblanadi?

A) oshqozonosti, so'lak, gipofiz

B) buyrakusti, qalqonsimon

C) buyrakusti, epifiz, qalqonoldi

D) qalqonsimon, gipofiz, buyrak

**511.** Katta yoshdagi odamda bir sutkada necha litr birlamchi siydik hosil bo'ladi?

- A) 50                      B) 10  
C) 100                     D) 200

**512.** Aralash bezlarni belgilang.

- A) qalqonsimon, jinsiy  
B) buyrakusti, gipofiz  
C) oshqozonosti, teri  
D) oshqozonosti, jinsiy

**513.** Qanday to'qimalardan gipoderma qavatida hosil bo'ladi?

- A) bir-qavatli epiteliy  
B) ko'p qavatli epiteliy  
C) biriktiruvchi  
D) muskul

**514.** Teri bezlari terining qaysi qavatida joylashgan?

- A) epidermis  
B) gipoderma  
C) derma                      D) periost

**515.** Qanday kasallik qalqonsimon bez funksiyasining oshishi natijasida yuzaga keladi?

- A) tireotoksikoz  
B) gipotireoz  
C) beri-beri  
D) singa

**516.** Jigarning o't suyuqligi nimaga yordam beradi?

- A) ovqat hazm bo'lishiga  
B) yog'larning hazm bo'lishiga  
C) oqsillarning parchalanishiga  
D) uglevodlarning parchalanishiga

**517.** Bazedov kasalligi qanday sababga ko'ra kelib chiqadi?

- A) qalqonsimon bez funksiyasining susayishi  
B) tiroksin gormoni miqdorining kamayishi  
C) bo'qoq bezi funksiyasining susayishi  
D) tiroksin gormoni me'yordan ko'p sintezlanishi

**518.** Yog' bezlari terining qaysi qismida joylashadi?

- A) epidermis  
B) derma  
C) gipoderma  
D) epidermis, derma

**519.** Siydik ajralishini qaysi gormon ko'paytiradi?

- A) esterogen  
B) androgen  
C) katexolamin  
D) tiroksin

**520.** Yog' va ter bezlari terining qaysi qismida joylashgan?

- A) epidermis  
B) derma  
C) ko'p qavatli epiteliy  
D) epidermis, derma

**521.** Qaysi bez balog'atga yetish davrigacha kattalashib, so'ngra kichiklasha boshlaydi?

- A) gipofiz  
B) epifiz  
C) qalqonsimon  
D) ayrisimon

**522.** Balog'atga yetish davridan boshlab qaysi bezning funksiyasi susaya boradi?

A) qalqonoldi  
B) ayrisimon  
C) gipofiz  
D) buyrakusti  
**523.** Bolalar qaysi davrda aqliy jihatdan, ayniqsa, tez rivojlanadi?

A) chaqaloqlik davrida  
B) emizadigan davrida  
C) maktabgacha tarbiya yoshi davrida  
D) maktab yoshidagi davrda

**524.** Insulin qanday vazifani bajaradi?

A) qondagi ortiqcha glyukozani glikogenga aylantiradi

B) glikogenni glyukozaga parchalaydi

C) polisaxaridlar hosil bo'lishini ta'minlaydi

D) yog'larning oksidlanishiga yordam beradi

**525.** Qaysi olim qalqonsimon bez kasalligini o'rganish va davolash usullarini ishlab chiqqan?

A) A.Y.Yunusov

B) I.K.Musaboyev

C) Y.X.To'raqulov

D) K.A.Zufarov

**526.** Qaysi bez barcha endokrin sistemaning ishini tartibga soladi?

A) gipofiz

B) epifiz

C) qalqonsimon

D) ayrisimon

**527.** Tayanch harakatlanish sistemasi qanday qismdan iborat?

1) skelet; 2) limfa; 3) qon tomir; 4) nerv; 5) muskul; 6) tog'ay; 7) to'qima.

A) 1, 7

B) 2, 7

C) 1, 3

D) 1, 5

**528.** Turli kasalliklar tufayli hujayralarda kechadigan o'zgarishlarni o'rgangan olimni belgilang.

A) S.Shamsiyev

B) K.A.Zufarov

C) O'.Oripov

D) Y.X.To'raqulov

**529.** Qaysi gormon oshqozon bezlarining shira ajratish funksiyasini kamaytiradi?

A) gastrin B) gastron

C) timozin

D) tiroksin

**530.** Androgen gormonini qaysi bez ishlab chiqaradi?

A) ayrisimon

B) oshqozonosti

C) qalqonoldi

D) buyrakusti

**531.** Somatotrop gormoni gipofiz bezining qaysi qismidan ajraladi?

A) oraliq

B) oldingi

C) orqa

D) keyingi

**532.** Gepatotsit nima?

A) jigar bo'lakchalari

B) o't suyuqligi

C) jigar bo'lakchalaridagi hujayralar to'plami

D) jigar hujayralarining yangi hosil bo'lganlari

**533.** Buyrak-tosh kasalliklarining asosiy sababi nima?

- A) birlamchi siydik hosil bo'lishining kamayishi
- B) organizmda tuz almashinuvining buzilishi
- C) organizmda qon aylanishining buzilishi
- D) organizmda uglevod va oqsil miqdorining ortib ketishi

**534.** Qaysi bezning og'irligi 70 – 80 g bo'ladi?

- A) oshqozonosti
- B) qalqonsimon
- C) jinsiy
- D) ter

**535.** Gipofiz bezi funksiyasi markaziy nerv sistemasining qaysi qismidan ajralgan gormonlar orqali boshqarilishini belgilang.

- A) gipotalamus – neyrogormon
- B) talamus – intermedingormon
- C) orqa miya – melatonin gormoni
- D) miya ko'prigi – paratgormon

**536.** Qaysi fermentlar ta'sirida oqsillar parchalanadi?

- A) enterokinaza, tripsin
- B) amilaza, lipaza
- C) amilaza, ptialin
- D) enterokinaza, lipaza

**537.** Qaysi vitamin oqsillar va uglevodlar almashinuvida muhim ahamiyatga ega?

- A) A
- B) D
- C) C
- D) B<sub>1</sub>

**538.** Tiroksin gormoni vazifasi to'g'ri keltirilgan javobni toping.

1) reabsorbsiya jarayonini pasaytiradi; 2) siydik ajralishini kamaytiradi; 3) reabsorbsiya jarayonini kuchaytiradi; 4) siydik ajralishini kuchaytiradi.

- A) 1, 2
- B) 1, 4.
- C) 3, 4
- D) 2, 3

**539.** Odam hayajonlanganda qaysi bezning qanday gormoni hosil bo'lishi kuchayadi?

- A) buyrakusti bezi, glyukokortikoid
- B) buyrakusti bezi, katexolamin
- C) ayrisimon, timozin
- D) qalqonsimon, tiroksin

**540.** Chaqaloqlarda qaysi vitamin yetishmasa, sut tishlarining chiqishi kechikadi?

- A) B<sub>1</sub>
- B) A
- C) C
- D) D

**541.** Oshqozonda oqsilni qaysi ferment parchalaydi?

- A) xlorid kislotasi
- B) lipaza
- C) pepsin
- D) tripsin

**542.** Bajaradigan vazifasi o'xshash bo'lgan gormonlarni toping.

- A) intermedin, melatonin
- B) intermedin, oksitotsin
- C) adrenalini, melatonin
- D) intermedin, adrenalini

**543.** Ingichka ichakdan ajralib chiqadigan suyuqlikda qanday fermentlar bo'ladi?

- A) ptialin, tripsin
- B) lipaza, pepsin
- C) tripsin, ptialin, lipaza
- D) enterokinaza, lipaza, amilaza

**544.** Gipotalamus qaysi miyaning tarkibiy qismiga kiradi?

- A) o'rta
- B) oraliq
- C) uzunchoq
- D) oldingi

**545.** C vitamin nimalar tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi?

- A) sut mahsulotlari, tuxum
- B) no'xat, loviya
- C) karam, piyoz
- D) limon, no'xat

**546.** Teri necha qavatdan iborat?

- A) 3 B) 1 C) 2 D) 4

**547.** Oshqozonosti bezi to'qimasining necha foizi tashqi sekretsiya vazifasini bajaradi?

- A) 98 – 99 B) 1 – 2
- C) 70 – 80 D) 50

**548.** Terining epidermis qavati necha kunda yangilanadi?

- A) 2 – 5 B) 7 – 11
- C) 10 – 15 D) 15 – 17

**549.** Necha yoshdagi odamda ayrisimon bezning eng ko'p massasi 30 – 40 g ni tashkil etadi?

- A) 1 B) 14 – 15
- C) 25 D) 60

**550.** 1 ml ter bug'lanishida qancha (kkal) issiqlik energiyasi sarflanadi?

- A) 0,58 kkal

B) 0,9 kkal

C) 2 kkal

D) 4,1 kkal

**551.** Qaysi gormon organizmida pigment almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi?

- A) somatotrop
- B) melatonin
- C) timozon
- D) tiroksin

**552.** Insulin gormoni qaysi bezdan ishlab chiqariladi?

- A) jigar
- B) epifiz
- C) oshqozonosti bezi
- D) ayrisimon bez

**553.** Gipofiz qayerda joylashgan?

A) kalla suyakning «turk egarchasi»da

B) o'rta miya sohasida

C) to'sh suyakning orqasida

D) bo'yinning oldingi qismida

**554.** Qaysi gormonning yetishmasligi odam tanasining umumiy qaltirashi, ya'ni tutqanoqqa olib keladi?

- A) timozin
- B) paratgormon
- C) tiroksin
- D) glyukokortikoid

**555.** Oshqozon shilliq pardasining yallig'lanish kasalligini belgilang.

- A) gastrit
- B) enterit
- C) kolit
- D) gepatit

**556.** Ovqat tarkibidagi oziq moddalarning fermentlar ta'sirida parchalanishi qanday ataladi?

- A) fizik o'zgarish
- B) kimyoviy o'zgarish.
- C) biofizik o'zgarish
- D) modifikatsion o'zgarish

**557.** Ovqatning ichak harakati natijasida maydalanishi qanday ataladi?

- A) fizik o'zgarish
- B) kimyoviy o'zgarish
- C) biofizik o'zgarish
- D) modifikatsion o'zgarish

**558.** Ovqat hazm qilish shartli reflekslarining markazi qayerda joylashgan?

A) oraliq miyaning talamus qismida

- B) gipotalamusda
- C) bosh miya yarimsharlari-ning po'stloq qismida
- D) oraliq va uzunchoq miyada

**559.** Qorin bo'shlig'i o'ng tomonining yuqori qismida qaysi organ joylashgan?

- A) taloq
- B) ayrisimon bez
- C) oshqozonosti bezi
- D) jigar

**560.** Jigarning o'ng bo'lagi (1) va chap bo'lagi (2) tana-ning qaysi qismida joylashgan? a) o'ng qovurg'a yoyi ostida; b) chap qovurg'a yoyi ostida; c) to'sh suyagining ostida; d) taloqning ostida.

- A) 1 - a, 2 - c

B) 1 - b, 2 - c

C) 1 - b, 2 - d

D) 1 - c, 2 - d

**561.** Jigar serrozida yemirilgan jigar hujayralari o'rniga qanday to'qima hujayralari hosil bo'ladi?

- A) qoplovchi
- B) biriktiruvchi
- C) muskul
- D) epiteliy va muskul

**562.** Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida odam terisida qanday vitamin sintezlanadi?

- A) B<sub>1</sub>
- B) A
- C) C
- D) D

**563.** Ovqatning funksiyalarini belgilang.

a) transport; b) energetik; c) plastik; d) katalizatorlik.

- A) a, b
- B) b, c
- C) c, d
- D) a, b, c, d

**564.** Ratsional ovqatlanishning qoidalarini ko'rsating.

- A) energetik, plastik
- B) energetik, sifat
- C) miqdor, sifat, rejim
- D) miqdor, rejim, plastik

**565.** Qaysi oziq-ovqat mahsulotlarida vitamin A (1) va vitamin B<sub>1</sub> (2) uchraydi?

a) baliq yog'i; b) tuxum sarig'i; c) jigar; d) loviya; e) yong'oq.

- A) 1 - a, b, c; 2 - b, c, d, e
- B) 1 - b, c, d; 2 - a, b, e
- C) 1 - c, d, e; 2 - a, b
- D) 1 - a, c, d; 2 - b, d, e

**566.** Quyidagi birikmalar-ning qaysi biri vorsinkalarda kapillyar (a) va limfa (b) tomirlariga so'riladi?

1) oqsillar; 2) yog'lar; 3) karbon suvlar.

A) a – 1; b – 2, 3

B) a – 2; b – 1, 3

C) a – 3; b – 1, 2

D) a – 1, 3; b – 2

**567.** Ovqat hazm qilish sistemasining qaysi qismida oqsillar parchalanmaydi?

A) og'iz bo'shlig'ida

B) oshqozonda

C) o'n ikki barmoqli ichakda

D) ingichka ichakda

**568.** Asosan, o'simlik mahsulotlarida uchraydigan vitamini belgilang.

A) B<sub>1</sub>                      B) A

C) C                        D) D

**569.** Kechki ovqat bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining necha foizini tashkil etishi kerak?

A) 10 – 15              B) 15 – 20

C) 25 – 30              D) 35 – 40

**570.** Mayda muskul tolalari tananing qaysi qismida uchraydi?

A) barmoqlarda

B) qovurg'alar orasida

C) kaftlarda

D) terining derma qavatida

**571.** Odam organizmidagi uglevodlarni parchalovchi fermentlarni belgilang.

1) lizotsim; 2) ptialin; 3) tripsin; 4) amilaza; 5) enterokinaza.

A) 1, 3                      B) 1, 2

C) 2, 4                      D) 3, 4

**572.** Buyrakusti bezlarining ustki po'stloq qavatidan hosil bo'ladigan gormonni belgilang.

A) adrenalin

B) esterogen

C) noradrenalin

D) melotonin

**573.** Arterial qon bosimining ortishiga qaysi gormonlar sabab bo'ladi?

A) vazoressin

B) insulin

C) glyukokortikoid

D) paratgormon

**574.** Ortiqcha suv organizmdan qaysi a'zolar orqali chiqarib yuboriladi?

1 – buyrak; 2 – o'pka; 3 – jigar; 4 – teri; 5 – yurak.

A) 1, 2, 3                      B) 1, 3, 4

C) 2, 3, 4                      D) 1, 2, 4

**575.** Katta odamda siydik pufagining hajmi necha ml ni tashkil etadi?

A) 100 – 200

B) 500 – 700

C) 350 – 400

D) 450 – 50

**576.** Qanday kasallik qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi natijasida paydo bo'ladi?

A) tireotoksikoz

B) gipotireoz

C) qandli diabet

D) singa

**577.** Ayirish sistemasining qaysi a'zolari uch qavatdan tashkil topgan?

A) siydik yo'li, siydik pufagi, buyrak

B) buyrak, siydik yo'li, siydik pufagi

C) buyrak, siydik pufagi, siydik

D) siydik yo'li, siydik pufagi

**578.** Qaysi sekretiya bezi to'sh suyagining orqa yuzasida joylashgan?

A) epifiz

B) qalqonsimon bezorqa bezi

C) gipofiz

D) ayrisimon bez

**579.** Katta odamlarda qaysi bez faoliyati buzilishida akromegaliya kasalligi kelib chiqadi?

A) buyrakusti

B) epifiz

C) gipofiz

D) qalqonoldi

**580.** Birlamchi siydikning vena tomiriga qayta so'rilishiga nima deyiladi?

A) reabsorbsiya

B) adaptatsiya

C) akseleratsiya

D) filtratsiya

**581.** Quyida berilgan gormon(lar)ning qaysilari gipofiz bezining oraliq bo'lagidan hosil bo'ladi?

A) oksitotsin, vazopressin

B) malotonin, timozin

C) adrenokortikotrop, gonadotrop

D) intermidin

**582.** Qaysi bezning gormoni ta'sirida siydik ajralishi ko'payadi?

A) jinsiy

B) qalqonsimon

C) buyrakusti

D) ayrisimon

**583.** Gormon nima?

A) tashqi sekretiya bezlaridan ishlab chiqarilgan modda

B) hujayra tarkibiga kiruvchi oqsil

C) ichki sekretiya bezlaridan ishlab chiqarilgan modda

D) steroid

**584.** Qaysi bezlarning faoliyati pasaysa, bolada vaqtidan ilgari balog'atga yetish belgilari paydo bo'ladi?

A) gipofiz, epifiz

B) qalqonsimon, qalqonoldi

C) epifiz, ayrisimon

D) buyrakusti, oshqozonosti

**585.** Arterial qon bosimini oshiradigan gormonni belgilang.

A) katexolamin

B) intermidin

C) insulin

D) melotanin

**586.** Paratiriodin kamayib ketsa, organizmda qanday o'zgarishlar yuzaga keladi?

1) nerv-muskul sistemasining qo'zg'aluvchanligi ortadi; 2) soch to'kiladi; 3) suyaklar qat-



tiqlashib qoladi; 4) qovoqlar pirirab uchadi; 5) tutqanoq holati yuzaga kelishi pasayadi; 6) qo'llar qaltiraydi.

- A) 2, 3, 5      B) 1, 4, 6  
C) 1, 3, 4      D) 1, 3, 6

**587.** Somatotrop gormon organizmda qanday jarayonlarni boshqaradi?

- A) o'smirlarning o'sishini  
B) uglevod sintezlanishini  
C) lipidlar sintezlanishini  
D) qalqonsimon bez ishini

**588.** Odam hayajonlanganda qaysi bezning funksiyasi kuchayadi?

- A) ayrisimon  
B) buyrakusti  
C) qalqonsimon  
D) oshqozonosti

**589.** Ona qornida homilaning rivojlanish davrida qaysi organlari ishlamaydi?

1) yuragi; 2) o'pkasi; 3) katta qon aylanish doirasi; 4) kichik qon aylanish doirasi.

- A) 1, 2      B) 2, 3  
C) 3, 4      D) 2, 4

**590.** Oshqozonosti bezi qanday gormonlar ishlab chiqaradi?

A) glyukagon, insulin, gastrin  
B) insulin, gastrin, glikogen  
C) gastrin, glikogen, enterogastrin

D) glikogen, enterogastrin, insulin

**591.** Insulinga teskari bo'lgan funksiyani boshqaruvchi gormonni belgilang.

- A) gastrin  
B) tiroksin  
C) glyukagon  
D) glikogen

**592.** Odam tanasining turli qismlarida joylashgan bo'lsa ham, funksiyasi bir-biriga chambarchas bog'liq sistemani belgilang.

- A) endokrin  
B) ovqat hazm qilish  
C) qon aylanish  
D) ayirish

**593.** Tireotoksikoz kasalligida qanday belgilar paydo bo'ladi?

-1) bemorning tanasi shishadi; 2) yurak o'ynaydi; 3) aqliy faoliyat zaiflashadi; 4) esda saqlash va o'zlashtirish qobiliyati pasayadi; 5) uyqusizlik; 6) asabiy-lashish.

- A) 1, 2, 3      B) 2, 3, 6  
C) 2, 5, 6      D) 1, 3, 4

**594.** Og'irligi 0,5 – 0,6 g bo'lgan bezni ko'rsating.

- A) epifiz  
B) ayrisimon  
C) gipofiz  
D) qalqonsimon

**595.** Androgen va estero-gen gormonlari qayerda ishlab chiqiladi?

- A) buyrakusti bezlarining ustki – po'stloq qismida  
B) buyrakusti bezlarining ichki – miya qismida  
C) oshqozonosti bezida  
D) qalqonoldi bezlarida

**596.** Nerv sistemasining rivojlanishida ahamiyatga ega bo'lgan gormonni belgilang.

- A) gonadotrop
- B) tiroksin
- C) somatotrop
- D) insulin

**597.** Me'daosti bezidan qanday gormonlar ishlab chiqariladi?

- A) gastrin, gastron, sekretin
- B) insulin, tiroksin, timozin
- C) sekretin, melatonin, insulin
- D) glyukagon, insulin, gastrin

**598.** Odam tanasining, qaysi qismida mayda muskullar bo'ladi?

- A) terida
- B) ikki boshli muskulda
- C) ko'krakda
- D) yelkada

**599.** Bolalarda somatotrop gormoni kam ishlab chiqarilsa, qanday kasallik vujudga keladi?

- A) nanizm
- B) gigantizm
- C) qandli diabet
- D) akromegaliya

**600.** Qaysi gormon kam hosil bo'lsa, birlamchi siydikning qonga so'rinishi buziladi?

- A) oksitotsin
- B) melatonin
- C) ADG
- D) intermedin

**601.** Odam tanasidagi qaysi organ uch qism: bosh, tana va dumdan iborat?

- A) jigar
- B) oshqozonosti bezi
- C) so'lak bezi
- D) o'pka

**602.** Buyrakda siydik hosil bo'lishining ikkinchi davri nima deb ataladi?

- A) filtratsiya davri
- B) reabsorbsiya jarayoni
- C) akkomodatsiya
- D) birlamchi siydik hosil bo'lish davri

**603.** Katta odam organizmida ter bezlari ayirishi natijasida bir kecha-kunduzda ajraladigan ter miqdorini belgilang.

- A) 500 ml
- B) 600 ml
- C) 700 ml
- D) 500 ml

**604.** Ayollar ko'krak sut bezlaridan ajraladigan sutning tarkibidagi oqsil, yog', uglevod miqdori to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) 1,5%, 3,5%, 6,5%
- B) 1,5%, 3,5%, 6,5%
- C) 1,5%, 4,5%, 5,5%
- D) 1,5%, 4,5%, 6,5%

**605.** Triotoksikoz kasalligiga xos belgilarni belgilang.

- 1) ko'zning chaqchayishi, ozib ketish;
- 2) terining quruqlashishi, sovqotish;
- 3) ko'p terlash, yurak o'ynashi holatlari;
- 4) ich qotishi;
- 5) asabiylashish, uyqusizlik;
- 6) bo'shashganlik, uyqusirash.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 3, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4, 6

**606.** Oqsil sintezini boshqaruvchi gormonni belgilang.

- A) intermidin
- B) somatotrop
- C) melatonin
- D) paratgormon

**607.** Bolalarda somatotrop gormoni ko'p ishlab chiqarilishi sababli qanday kasallik rivojlantadi?

- A) nanizm
- B) gigantizm
- C) xoreya
- D) akromegaliya

**608.** Qon tomirlarini toraytirib, qon bosimini oshiruvchi gormonni aniqlang.

- A) timozin
- B) paratgormon
- C) oksitotsin
- D) vazopressin

**609.** Qaysi bezning ko'p gormon ishlab chiqarishi gigantizmga olib keladi?

- A) buyrakusti
- B) oshqozonosti
- C) gipofiz
- D) qalqonsimon

**610.** Terining qaysi qavatida qon va limfa tomirlari bo'ladi?

- A) epidermisda
- B) dermada
- C) ko'p qavatli epiteliyda
- D) epidermis va dermada

**611.** Ichki sekretiya bezlari ishlab chiqargan mahsulotlar qanday ataladi?

- A) qon

- B) fermentlar
- C) antitanalar
- D) gormonlar

**612.** Oshqozonosti bezi massasi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) 70 – 80 g
- B) 80 – 90 g
- C) 100 g
- D) 70 g

**613.** Qaysi kasallikda ko'p terlash, asabiylashish, odamning ozishi kabi belgilar kuzatiladi?

- A) tireotoksikoz
- B) endemik bo'qoq
- C) gipoterioz
- D) tetaniya

**614.** Katta odamda siydik yo'lining uzunligi qancha bo'ladi?

- A) 40 sm
- B) 25 sm
- C) 40 sm
- D) 30 sm

**615.** Gipofizning oraliq bo'lagidan ajraluvchi gormonni ko'rsating.

- A) somatotrop
- B) vazopressin
- C) intermidin
- D) oksitotsin

**616.** Quyida berilganlarni fermentlar (1) va gormonlarga (2) ajrating.

a) amilaza; b) timozin; c) ptialin; d) tiroksin; e) melatonin; f) pepsin; g) laktotrop; h) tripsin.

- A) 1 – a, b, c, h; 2 – c, d, e, g
- B) 1 – a, c, f, h; 2 – b, d, e, g

- C) 1 – b, e, h, g; 2 – a, c, f, g  
D) 1 – b, f, e, g; 2 – a, c, f, h

**617.** Qaysi vitamin oqsillar va uglevodlar almashinuvida muhim o'rin tutadi?

- A) B<sub>1</sub>                      B) A  
C) C                        D) D

**618.** Buyrakda siydik hosil bo'lishining birinchi davri qanday nomlanadi?

- A) filtratsiya  
B) reabsorbsiya  
C) plazmoliz  
D) metabolizm

**619.** Qaysi bezning ko'p gormon ishlab chiqarishi gigantizmga olib keladi?

- A) buyrakusti  
B) oshqozonosti  
C) gipofiz  
D) qalqonsimon

**620.** Oshqozon va ichak shirasini tekshirish uchun qanday usul qo'llaniladi?

- A) zondlash  
B) rentgenoskopiya  
C) ultratovush  
D) bariy eritmasi

**621.** Ovqat hazm qilish a'zolarining ishini o'rganishda qanday usuldan foydalanilmaydi?

- A) rentgenoskopiya  
B) zondlash  
C) ultratovush  
D) daktiloskopiya

**622.** O't suyuqligining ahamiyati qanday?

A) uglevod va oqsillarni emulsiya holatiga keltiradi

B) yog'larni emulsiya holatiga keltiradi va lipaza fermentining faolligini kamaytiradi

C) yog'larni va oqsillarni emulsiya holatiga keltiradi hamda lipaza bilan tripsinning faolligini oshiradi

D) yog'larni emulsiya holatiga keltiradi va lipaza fermentining faolligini oshiradi

**623.** Halqumning vazifalarini belgilang.

1) ovqatni og'iz bo'shlig'idan qizilo'ngachga o'tkazish; 2) havoni burun bo'shlig'idan hiqildoqqa o'tkazish; 3) ovqatni oshqozonga o'tkazish; 4) to'vush hosil qilish.

- A) 1, 3                      B) 2, 4  
C) 1, 2

D) 1, 2, 3, 4

**624.** Xlorid kislotaga qaysi fermentning faolligini oshiradi?

- A) tripsin                      B) lizotsim  
C) pepsin                      D) lipaza

**625.** Gastrit (1), enterit (2), kolit (3) qaysi organlar shilliq pardasining yallig'lanishi hisoblanadi?

a) me'da; b) ingichka ichak; c) yo'g'on ichak.

- A) 1 – a, 2 – b, 3 – c  
B) 1 – a, 2 – c, 3 – b  
C) 1 – b, 2 – a, 3 – c  
D) 1 – c, 2 – b, 3 – a

**626.** Yog' (1) va suvda (2) eriydigan vitaminlarni ajrating.

a) PP; b) C; c) A; d) E; e) D; f) B<sub>1</sub>; g) K.

- A) 1 – a, b, f; 2 – c, d, e, g  
 B) 1 – c, d, e, g; 2 – a, b, f  
 C) 1 – a, c, d, f; 2 – b, e, g  
 D) 1 – c, d, f, g; 2 – a, b, e
- 627.** Proteaza (1) va karbohidrazalarni (2) juftlab bering.  
 a) ptialin; b) tripsin; c) pepsin.  
 A) 1 – a; 2 – b, c  
 B) 1 – b, c; 2 – a  
 C) 1 – a, b; 2 – c  
 D) 1 – a, c; 2 – b
- 628.** Terining gipoderma qavati qanday to'qima va moddadan tashkil topgan?  
 A) biriktiruvchi yog'  
 B) biriktiruvchi oqsil  
 C) muskul uglevod  
 D) biriktiruvchi uglevod
- 629.** Epifizda qaysi gormon ishlab chiqariladi?  
 A) esterogen  
 B) intermidin  
 C) melatonin  
 D) timozin
- 630.** Qaysi bezning faoliyati balog'atga yetish davri oldidan butunlay to'xtaydi?  
 A) qalqonsimon  
 B) qalqonoldi  
 C) ayrisimon  
 D) epifiz
- 631.** Gastron gormonining funksiyasini belgilang.  
 A) oshqozon bezlarining shira ajratishini kamaytirish  
 B) oshqozon bezlarining shira ajratishini kuchaytirish  
 C) o't suyuqligini ko'paytirish

D) o't suyuqligining faolligini kuchaytirish

**632.** Tiroksin gormoni ishlab chiqarilishini gipofiz bezining qaysi gormoni boshqaradi?

- A) somatotrop  
 B) tireotrop  
 C) gonadotrop  
 D) intermidin

**633.** Quyida berilgan qaysi a'zo zararlangan, miozit kasalligi kelib chiqadi?

- A) targ'il tana  
 B) oqimtir yadro  
 C) orqa miya  
 D) talamus

**634.** Nerv sistemasining qaysi qismi zararlangan, muskullar tarangligi pasayib, ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi?

- A) miyacha  
 B) oqimtir yadro  
 C) targ'il tana  
 D) orqa miya

**635.** Bosh miya yarimsharlar po'stlog'ining qaysi qismi zararlangan, odam gapirish qobiliyatini yo'qotadi?

- A) chap, chakka qismi  
 B) o'ng, chakka qismi  
 C) o'ng, ensa qismi  
 D) chap, ensa qismi

**636.** Tizza refleksi ketma-ketlik tartibini belgilang.

1) harakatlantiruvchi nerv to'lasi; 2) oraliq nerv hujayrasi; 3) muskul; 4) sezuvchi nerv hujayrasi; 5) harakatlantiruv-

chi nerv hujayrasi; 6) sezuvchi nerv tolasi; 7) retseptor.

- A) 7, 6, 4, 2, 5, 1, 3
- B) 7, 3, 5, 1, 6, 2, 4
- C) 3, 1, 5, 2, 4, 7, 6
- D) 4, 2, 6, 1, 5, 3, 7

**637.** Timozin gormoni qanday jarayonlarga ta'sir etadi?

1) bolalarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; 2) nerv-muskul sistemasining qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi; 3) jinsiy bezlar funksiyasini pasaytiradi; 4) ayollarning jinsiy bezi funksiyasini kuchaytiradi; 5) bolaning balog'atga yetishini susaytiradi; 6) organizmning immunitet xususiyatini oshiradi; 7) organizmda yog' almashinuvini tartibga soladi.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 2, 3, 4, 5
- C) 1, 3, 5, 6
- D) 4, 5, 6, 7

**638.** Qaysi bezlar organizmda pigment almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi?

- A) gipofiz
- B) epifiz
- C) qalqonsimon
- D) buyrakusti

**639.** Odamlarning orqa miyasida nechtdan ko'proq nerv hujayralari bo'ladi?

- A) 13 mlrd      B) 13 mln
- C) 12 mlrd      D) 13 ming

**640.** Bosh miya bo'limlaridan qaysi birining tuzilishi va

shakli bosh miya yarimsharlariga o'xshash?

- A) uzunchoq miya
- B) miyacha
- C) o'rta miya
- D) ko'prikcha

**641.** Pay va muskullardagi sezuvchanlikni chuqur o'rgangan olim qaysi javobda berilgan?

- A) I. Sechenov
- B) I. Pavlov
- C) A. Ugolev
- D) V. Basov

**642.** Nerv to'qimasi qaysi hujayralardan tashkil topgan?

- A) neyron, akson
- B) akson, dendrit
- C) akson, neyrogliya
- D) neyron, neyrogliya

**643.** Bitta buyrakda nechta-ga yaqin nefronlar bo'ladi?

- A) 2,6 million
- B) 1 million
- C) 4 - 5 million
- D) 3 - 4 million

**644.** Bosh miya o'ng va chap yarimsharlarining bir-biri bilan aloqasini nimaga ta'minlaydi?

- A) sezish va harakatlantirish
- B) markaziy va yon egatchalar
- C) ta'm, hid, ko'rish, eshitish
- D) qadoqsimon tana

**645.** Bosh miyaning qaysi qismida kichik egat va pushtalar bor?

- A) o'rta miya
- B) oraliq miya
- C) uzunchoq miya

D) miyacha

**646.** Yurak muskullarida qon aylanishining buzilishi tufayli sodir bo'ladigan kasallikni belgilang.

A) ateroskleroz

B) yurak infarkti

C) gipertoniya

D) yurakning ishemik kasalligi

**647.** Miya po'stlog'ining qaysi qismida hid sezish markazi joylashgan?

A) peshona      B) chakka

C) ensa            D) tepa

**648.** Nafas olishni boshqaruvchi oliy nerv markazi qayerda joylashgan?

A) uzunchoq miyada

B) bosh miya po'stlog'ida

C) oraliq miyada

D) o'rta miyada

**649.** Yurak va qon tomirlari faoliyati qanday yo'llar bilan boshqariladi?

A) markaziy nerv sistemasi orqali

B) simpatik, parasimpatik nervlar orqali

C) nerv, gumoral

D) faqat gormonlar orqali

**650.** Bosh miya po'stlog'ida nechtagacha nerv hujayralari joylashgan?

A) 14 – 16 mlrd

B) 10 – 12 mlrd

C) 14 – 16 ming

D) 5 – 6 ming

**651.** Miya po'stlog'ida joylashgan hujayralarning funk-

siyasiga qarab po'stloq sathi qanday zonalariga bo'linadi?

A) sezish, eshitish, ko'rish

B) harakat, sezish, hid bilish, ta'm bilish

C) peshona, tepa, chakka, harakat

D) sezish, harakat, assotsiativ

**652.** Bosh miya po'stlog'ining qaysi zonasi nerv hujayralari odam tanasining to'qima va organlari bilan nerv yo'llari orqali bog'lanmagan?

A) sezish

B) harakat

C) assotsiativ

D) chakka

**653.** Bronxlarni qaysi nerv toraytiradi?

A) somatik

B) vegetativ

C) parasimpatik

D) simpatik

**654.** Miyelit nima?

A) faqat muskul tolalarining yallig'lanishi

B) orqa miya to'qimasining yallig'lanishi

C) bosh miya pardasining shamollashi

D) nerv-muskul tolalarining yallig'lanishi

**655.** Markaziy nerv sistema-sining qaysi qismida diafragma harakatini boshqaruvchi nerv markazi joylashgan?

A) orqa miyaning bo'yin qis-mida

B) orqa miyaning ko'krak qismida

C) uzunchoq miyada

D) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ida

**656.** Markaziy nerv sistemasi-ning kasalliklarini belgilang.

A) gepatit, plevrit

B) infarkt, gastrit

C) miyelit, ensefalit

D) polimiyelit, neyrogliya

**657.** Po'stloqosti eshitish markazi bosh miyaning qayerida joylashgan?

A) oldingi miyada

B) o'rta miyada

C) oraliq miyada

D) miyachada

**658.** Uchlik, ko'z soqqasini va yuz muskullarini harakatlantiruvchi markazlari bosh miyaning qaysi qismida joylashgan?

A) miya ko'prigida

B) o'rta miyada

C) oraliq miyada

D) uzunchoq miyada

**659.** Ko'z qachon dam oladi? A) uzoqdagi narsalarga qaraganda

B) yaqindagi narsalarga qaraganda

C) turli xil rangli narsalarga qaraganda

D) qiziqarli narsa o'qiganda

**660.** Refleks yoyining qismlari tartib bilan ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) retseptor; 2) nerv markazi; 3) sezuvchi nerv tolasi; 4) ha-

rakatlantiruvchi nerv tolasi; 5) ishchi a'zo.

A) 1, 2, 4, 3, 5

B) 1, 2, 3, 5, 4

C) 1, 4, 2, 3, 5

D) 1, 3, 2, 4, 5

**661.** Miya po'stlog'i hujayralari olti qavat bo'lib, uchinchi qavatida qanday hujayralar bo'ladi?

A) yulduzsimon

B) piramidasimon

C) donasimon

D) duksimon

**662.** Shartli reflekslarning markazlari qayerda joylashgan?

A) orqa miyada

B) bosh miyaning quyi qismida

C) katta yarimsharlar po'stlog'ida

D) miyachaning po'stlog'ida

**663.** Periferik nerv sistemasi-ning kasalliklarini belgilang.

A) ganglionit, nevrit, nevralgia

B) ensefalit, nevrit, miozit

C) miyelit, meningit

D) rinit, gastrit, nevrit

**664.** Nevrit nima?

A) odam tanasining umumiy qaltirashi

B) muskul tolalari qisqarib, bo'shasha olmay qolishi

C) harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig'lanishi

D) bosh miya to'qimasining yallig'lanishi



665. Ensefalit nima?

A) odam tanasining umumiy qaltirashi

B) muskul tolalari qisqarib, bo'shasha olmay qolishi

C) harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig'lanishi

D) bosh miya to'qimasining yallig'lanishi

666. Oliy nerv markazlarida qolgan ta'sir iziga nima deyiladi?

A) xotira                      B) hissiyot

C) uyqu                        D) fikrlash

667. Ko'zning rangli pardasi o'rtasida nima joylashgan?

A) shoh pardasi

B) ko'z qorachig'i

C) ko'z gavhari

D) shishasimon tana

668. Vestibulyar analizatorning retseptorlari qayerda joylashgan?

A) chig'anoq va dahlizda

B) dahliz va yarimaylana kanalchalarda

C) chig'anoq va yarimaylana kanalchalarda

D) suyak va parda labirintida

669. O'ng va chap yarimsharlar uchun umumiy bo'lgan oliy nerv markazlarini ko'rsating.

1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash; 7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish.

A) 1, 2, 3, 4, 10

B) 1, 3, 5, 8, 9, 10

C) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 10

D) 1, 2, 3, 10

670. O'ng yarimsharlar po'stlog'ining oliy nerv markazlarini belgilang.

1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash; 7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish.

A) 1, 2, 3, 5, 7, 9, 10

B) 1, 2, 3, 4, 6, 8, 10

C) 1, 2, 3, 5, 8, 9, 10

D) 1, 2, 3, 6, 8, 9, 10

671. Chap yarimsharlar po'stlog'ining oliy nerv markazlarini belgilang.

1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash; 7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish.

A) 1, 2, 3, 5, 7, 9, 10

B) 1, 2, 3, 4, 6, 8, 10

C) 1, 2, 3, 5, 8, 9, 10

D) 1, 2, 3, 6, 8, 9, 10

672. Simpatik nerv sistema-si qaysi organlar faoliyatini susaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish.

A) 1, 2                      B) 2, 3

C) 3, 4                      D) 1, 4

673. Simpatik nerv sistema-si qaysi organlar faoliyatini kuchaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish.

- A) 1, 2                      B) 2, 3  
C) 3, 4                      D) 1, 4

**674.** Parasimpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini kuchaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish.

- A) 1, 2                      B) 2, 3  
C) 3, 4                      D) 1, 4

**675.** Parasimpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini susaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish.

- A) 1, 2                      B) 2, 3  
C) 3, 4                      D) 1, 4

**676.** Adashgan nervga xos xususiyatlarni belgilang.

1) simpatik nerv; 2) parasimpatik nerv; 3) o'rta miyadan chiqadi; 4) uzunchoq miyadan chiqadi; 5) orqa miyadan chiqadi; 6) so'lak ajralishini kuchaytiradi; 7) ichki organlarga boradi.

- A) 1, 5, 6                      B) 2, 5, 6  
C) 2, 4, 7                      D) 1, 4, 6, 7

**677.** Tana muskullarining harakatini boshqaruvchi nerv markazlari qayerda joylashgan?

1) miyachada; 2) oqimtir yadroda; 3) uzunchoq miyada; 4) varoliy ko'prigida.

- A) 1                              B) 1, 2  
C) 2, 3                          D) 1, 4

**678.** Bosimni sezuvchi retseptorlar qayerda joylashgan?

- A) og'iz bo'shlig'ida  
B) quloqda  
C) terida  
D) ko'zda

**679.** Yuqori tomondan o'rta miya, yon tomonlardan miya bilan tutashib turadigan bosh miyaning bo'limini belgilang.

- A) uzunchoq miya  
B) oraliq miya  
C) miya ko'prikchasi  
D) gipotalamus

**680.** Miya po'stlog'ining nechanchi qavatida yulduzsimon tuzilgan nerv-hujayralari bo'ladi?

- A) birinchi                      B) ikkinchi  
C) uchinchi                      D) to'rtinchi

**681.** Orqa miyaning oq moddasi qanday funktsiya bajaradi?

- A) reflektor  
B) sezuvchi  
C) qo'zg'alish  
D) o'tkazuvchi

**682.** Har bir neyronda nechta akson bo'ladi?

- A) 1    B) 2    C) 3    D) 4

**683.** Markaziy nerv sistemasi kasalliklari berilgan javobni toping.

1) ganglionit; 2) meningit; 3) miyelit; 4) miozit; 5) ensefalit; 6) radikulit.

- A) 1, 2, 3                      B) 3, 4, 5  
C) 4, 5, 6                      D) 2, 3, 5

**684.** Sezgi organlari ishini boshqaruvchi nerv sistemasini belgilang.

- A) vegetativ
- B) simpatik
- C) parasimpatik
- D) somatik

**685.** Refleks yoyi qismlarining ketma-ketligini to'g'ri belgilang.

1) sezuvchi neyron; 2) harakatlanish yo'li; 3) markaziy nerv sistemasining bir qismi; 4) retseptor; 5) ishchi organ.

- A) 1, 3, 4, 5, 2
- B) 5, 4, 3, 2, 1
- C) 4, 1, 3, 2, 5
- D) 4, 2, 5, 1, 3

**686.** Shartli reflekslar to'g'ri keltirilgan javobni toping.

- A) qon aylanish, yutish
- B) nafas olish, yugurish
- C) qon aylanish, ovqatlanish
- D) yurish, o'qish

**687.** Orqa miya nechta nerv hujayrasidan tashkil topgan?

- A) 16 mlrd
- B) 8 mln
- C) 13 mlrd
- D) 13 mln

**688.** Nafas olishning to'xtab qolishiga bosh miya qaysi qismining shikastlanishi sabab bo'ladi?

- A) miyacha
- B) uzunchoq miya
- C) o'rta miya
- D) oraliq miya

**689.** Bosh miya qaysi qismining ikkita yarimsharlari o'rtasida chuvalchangsimon qismi bor?

- A) katta yarimsharlar
- B) o'rta miya
- C) oraliq miya
- D) miyacha

**690.** Achchiq ta'mdan tilning qaysi qismi ta'sirlanadi?

- A) o'rta
- B) orqa
- C) uch
- D) yon

**691.** Vegetativ nerv sistemasini markazi bosh miyaning qaysi qismida joylashgan?

- A) gipotalamusda
- B) talamusda
- C) po'stloq ostida
- D) o'rta miyadagi qoramtir moddada

**692.** Analizator uchta qismdan iborat bo'lib, ular qaysilar?

1) periferik; 2) ijro etuvchi organ; 3) harakatlantiruvchi neyron; 4) o'tkazuvchi neyron; 5) bosh miya qismlari; 6) markaziy; 7) qo'shimcha neyron.

- A) 1, 4, 6
- B) 1, 3, 6
- C) 2, 3, 5
- D) 3, 5, 7

**693.** Parasimpatik nerv sistemasiga xos belgilarni aniqlang.

1) yurak urishini sekinlashtiradi; 2) arteriya qon tomirlarini toraytiradi; 3) qon bosimini pasaytiradi; 4) qon tomirlarini kengaytiradi; 5) nafas yo'llarini kengaytiradi; 6) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 7) ter ajralishini kamaytiradi.

- A) 1, 3, 4
- B) 1, 2, 3
- C) 1, 6, 7
- D) 3, 4, 7

**694.** Muvozanatlashmagan, tormozlanish qo'zg'alishdan ustun tip qanday ataladi?

- A) xolerik      B) sangvinik  
C) flegmatik   D) melanxolik

**695.** Odam issiqda qolganda nerv sistemasining qaysi markazi qo'zg'aladi?

- A) somatik  
B) simpatik  
C) parasimpatik  
D) periferik

**696.** Qaysi hujayraning o'simtalari miyadan tashqariga chiqmaydi?

- A) sezuvchi  
B) harakatlantiruvchi  
C) neyrogliya  
D) adashgan

**697.** Orqa miyadagi kulrang modda nimalardan tashkil topgan?

A) nerv hujayralari va kalta o'simtalardan

B) qo'shimcha neyronlarning aksonlaridan

C) harakatlantiruvchi neyronlarning dendritlaridan

D) harakatlantiruvchi neyronlarning akson va dendritlaridan

**698.** Nerv sistemasi vazifasiga ko'ra ikki qismdan iborat. Ular qaysilar?

- A) periferik, markaziy  
B) simpatik, parasimpatik  
C) somatik, vegetativ  
D) periferik, somatik

**699.** Nafas olishni boshqaruvchi oliy markaz bosh miyaning qaysi qismida joylashgan bo'ladi?

- A) uzunchoq miyada

B) miya ko'prikchasida

C) o'rta miyada

D) yarimsharlar po'stlog'ida

**700.** Bosh miya yarimsharlari ensa bo'lagining ostida joylashgan bosh miya bo'limini belgilang.

- A) miyacha  
B) uzunchoq miya  
C) o'rta miya  
D) oraliq miya

**701.** Nerv sistemasining qaysi qismi yallig'lanishi nevrалgiya deyiladi?

- A) sezuvchi nerv tolasi  
B) nerv tugunlari  
C) qo'shimcha nerv tolasi  
D) harakatlantiruvchi nerv tolasi

**702.** Meningit nima?

A) bosh va orqa miyani o'rab turgan pardalarning yallig'lanishi

B) bosh va orqa miya neyronlarining yallig'lanishi

C) periferik nerv sistemasining yallig'lanishi

D) vegetativ nerv sistemasi ish faoliyatining buzilishi

**703.** Rivojlanishining 23-kunidan homilaning qaysi a'zolari ishlay boshlaydi?

- A) yuragi va katta qon aylanish doirasi  
B) yuragi va kichik qon aylanish doirasi  
C) yuragi va o'pkasi  
D) yuragi, kichik va katta qon aylanish doirasi

**704.** «Og'riq hamma xavf-xatarda odamning eng ishonchli qo'riqchisidir, u doim ehtiyot bo'ling, hayotingizni asrang va avaylang deb uqtiradi». Mazkür so'zlarni yozgan olimni belgilang.

- A) Volter
- B) Mechnikov
- C) Pavlov
- D) Lunin

**705.** Ensefalit qaysi kasallikni o'z vaqtida davolamaslikdan yuzaga keladi?

- A) meningit
- B) radikulit
- C) nevrit
- D) miyelit

**706.** Qaysi nervlar ta'sirida yurak urishi tezlashadi?

- A) bosh miya
- B) somatik
- C) parasimpatik
- D) simpatik

**707.** Uzunchoq miyaning uzunligi (1), o'rtacha vazni (2) to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.

- A) 1 – 3,5 – 4,5 sm; 2 – 7 g
- B) 1 – 2,5 – 3,5 sm; 2 – 7 g
- C) 1 – 2,5 – 3 sm; 2 – 7 g
- D) 1 – 3 – 3,5 sm; 2 – 7 g

**708.** Nerv tuguni (1), sezuvchi nerv tolasi (2) yallig'lanishi kasalliklarini ko'rsating.

- A) 1 – ganglionit, 2 – nevrit
- B) 1 – ganglionit, 2 – nevralgia
- C) 1 – ganglionit, 2 – meningit
- D) 1 – ganglionit, 2 – ensefalit

**709.** Xotira nerv sistemasi-ning qaysi qismi bilan bog'liq?

- A) orqa miya
- B) yarimsharlar po'stlog'i
- C) oraliq miya
- D) miyacha

**710.** Bosh miya yarimsharlarining qaysi qismida eshitish markazlari joylashgan?

- A) peshona
- B) chakka
- C) ensa
- D) tepa

**711.** Miya ko'prigi ustida joylashgan qism ...

- A) talamus
- B) gipotalamus
- C) miyacha
- D) o'rta miya

**712.** Ko'rish do'mbog'i va do'mboqosti sohasi qaysi miyaning tarkibiy qismi hisoblanadi?

- A) oraliq miya
- B) o'rta miya
- C) miya ko'prigi
- D) po'stloqosti markazi

**713.** Vegetativ nerv sistemasi qaysi organlar ishini boshqaradi?

- A) nafas olish, qon aylanish, skelet
- B) endokrin bezlar, sezgi organlari
- C) ovqat hazm qilish, ayirish, nafas
- D) ichki organlar, skelet muskullari

**714.** Miyelin parda qaysi hujayraga xos?

- A) suyak
- B) tog'ay

C) nerv D) muskul

715. Qaysi muskullar miozit kasalligiga tez chalinaladi?

- A) qovurg'alararo muskullar
- B) barcha muskullar
- C) qorin muskullari
- D) oyoq muskullari

716. Muskul, paylar, bo'g'imlar, suyaklarning retseptorlaridan impulslarni bosh miya yarimsharlarining qaysi zonasi qabul qiladi?

- A) assotsiativ zona
- B) harakatlanish zonasi
- C) sezish zonasi
- D) sezish va harakatlanish zonasi

717. Miya po'stlog'ining nerv hujayralari olti qavatdan iborat bo'lib, uning oxirgi qismida qanday hujayralar joylashgan?

- A) piramidasimon
- B) yulduzsimon
- C) nerv hujayralarining kalta o'simalari
- D) duksimon

718. Odam embrionining necha oyligida miya beshta miya pufagidan iborat bo'ladi?

- A) ikki B) bir
- C) uch D) besh

719. Muvozanatlashgan, kamharakat – bu oliy nerv faoliyatining qaysi tipiga taalluqli?

- A) xolerik B) sangvinik
- C) flegmatik D) melanxolik

720. Muvozanatlashgan, harakatchan – bu oliy nerv faoliyatining qaysi tipiga taalluqli?

A) xolerik B) sangvinik  
C) flegmatik D) melanxolik

721. Odam organizmidagi organ va to'qimalar funksiyasini zaruratga qarab qaysi nerv sistemasi tartibga soladi?

- A) somatik
- B) markaziy
- C) periferik
- D) simpatik va parasimpatik

722. Orqa miya uch qavat parda bilan o'ralgan. Tashqi (1), o'rta (2) va ichki (3) qavatlardan qanday pardalardan iborat?

a) qattiq; b) yumshoq; c) o'rgimchak to'rsimon; d) ohakli.

A) 1 – a, 2 – b, 3 – d.

B) 1 – a, 2 – c, 3 – b

C) 1 – b, 2 – c, 3 – a

D) 1 – d, 2 – a, 3 – b

723. Orqa miyaning ko'ndalang kesimida oq va kulrang moddalar farqlanadi. Oq modda (1) va kulrang modda (2) nimadan tashkil topgan?

a) nerv hujayralaridan; b) nerv tolalaridan; c) neyroglilyadan; d) retseptorlardan.

A) 1 – b, 2 – a

B) 1 – a, 2 – c

C) 1 – c, 2 – d

D) 1 – a, 2 – b

724. Orqa miyaning qaysi segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lining tashqi yuzasi, kaft, barmoqlarning terisi hamda muskullarining sezish va harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi?

- A) ko'krak B) bel  
C) dumg'aza D) bo'yin

**725.** Orqa miyaning qaysi segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lning ichki yuzasi teri va muskullarining sezish hamda harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi?

- A) ko'krak B) bel  
C) dumg'aza D) bo'yin

**726.** Oqimtir yadroning vazifasi nima?

A) oraliq va o'rta miya funksiyasini boshqaradi

B) targ'il tananing ishini boshqaradi

C) uzunchoq va o'rta miyaning funksiyasini boshqaradi

D) katta yarimsharlar po'stlog'ining sezish markazlari ishini boshqaradi

**727.** Simpatik (1) va parasimpatik (2) nerv sistemalarining markazlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

a) o'rta miya; b) orqa miyaning dumg'aza segmenti; c) orqa miyaning ko'krak segmentidan uchinchi bel segmentigacha; d) uzunchoq miya.

- A) 1 - c; 2 - a, b, d  
B) 1 - a, b, d; 2 - c  
C) 1 - a, b, c; 2 - d  
D) 1 - d; 2 - a, b, c

**728.** Adashgan nerv nima?

A) parasimpatik nervning oraliq va uzunchoq miyadan chiqqan bitta tolasi

B) simpatik nervning ko'krak segmentidan chiqqan tolasi

C) parasimpatik nervning o'rta miyadan chiqqan tolasi

D) parasimpatik nervning uzunchoq miyadan chiqib ichki organlarga boradigan bitta tolasi

**729.** Markaziy nerv sistemasi qaysi qismlarining yallig'lanishi natijasida meningit (1), ensefalit (2) va miyelit (3) kasalliklari yuzaga keladi?

a) bosh va orqa miya pardalari; b) bosh miya to'qimasi; c) orqa miya to'qimasi.

- A) 1 - a, 2 - b, 3 - c  
B) 1 - b, 2 - a, 3 - c  
C) 1 - c, 2 - b, 3 - a  
D) 1 - a, 2 - c, 3 - b

**730.** Buyumlarga yaqindan qaraganda ko'z gavhari qanday holatga o'tadi?

- A) qalinlashadi  
B) yassilashadi  
C) cho'ziladi D) o'zgarmaydi

**731.** Buyumlarga uzoqdan qaraganda ko'z gavhari qanday holatga o'tadi?

- A) qalinlashadi  
B) yassilashadi  
C) qisqaradi  
D) o'zgarmaydi

**732.** Ko'z gavhari atrofini qanday muskullar o'rab turadi?

- A) aylana  
B) to'g'ri  
C) kipriksimon  
D) narvonsimon

**733.** Odam organizmidagi organ va to'qimalar funksiyasini zaruratga qarab qaysi nerv sistemasi tartibga soladi?

- A) somatik
- B) markaziy
- C) periferik
- D) vegetativ

**734.** Qaysi nerv sistemasi oshqozon-ichaklarning harakatini susaytirish kabi funksiyalarini boshqaradi?

- A) simpatik
- B) parasimpatik
- C) somatik
- D) nerv tugunlari

**735.** Qaysi qism kasallansa, tana muskullarining tarangligi pasayib, ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi?

- A) targ'il tana
- B) miyacha
- C) oqimtir yadro
- D) miya ko'prigi

**736.** Bosh miyada miya ko'prigi ostida nima joylashgan?

- A) o'rta miya
- B) oraliq miya
- C) uzunchoq miya
- D) miyacha

**737.** Uzunligi 3 – 3,5 sm, vazni o'rtacha 7 g bo'lgan markaziy nerv sistemasi bo'limini belgilang.

- A) orqa miya
- B) o'rta miya
- C) uzunchoq miya
- D) miyacha

**738.** Berilganlarning qaysi birida uchlik va ko'z soqqasini harakatlantiruvchi nervlarning markazlari joylashgan?

- A) miya ko'prigi
- B) oraliq miya
- C) uzunchoq miya
- D) o'rta miya

**739.** Odam oliy nerv faoliyatining fiziologik asosi bosh miyaning qaysi qismi hisoblanadi?

- A) katta yarimsharlar po'stlog'i
- B) oraliq miya
- C) o'rta miya
- D) uzunchoq miya

**740.** Miya po'stlog'ining qaysi qavatida donasimon nerv hujayralari joylashgan?

- A) birinchi
- B) uchinchi
- C) ikkinchi
- D) to'rtinchi

**741.** Kam harakat, fikrlash qobiliyati past bolalar qaysi tipga mansub bo'ladi?

- A) sangvinik
- B) flegmatik
- C) melanxolik
- D) xolerik

**742.** Zehnli, har qanday ishni shoshmasdan bajaradigan bolalar qaysi tipga mansub?

- A) xolerik
- B) sangvinik
- C) flegmatik
- D) melanxolik

**743.** Melanxolik tipga kiruvchi bolalar qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?



1) juda serharakat; 2) kam harakat; 3) ishyoqmas; 4) tez o'rtog'lashib, tez urishadigan; 5) qo'rqqoq; 6) xulq-atvori juda murakkab.

- A) 2, 3, 5      B) 1, 4, 6  
C) 2, 4, 6      D) 1, 5, 6

**744.** Ko'zning optik sistemasi ni belgilang.

1) shoh parda; 2) to'r parda; 3) gavhar; 4) shishasimon tana; 5) tomirli parda; 6) ko'z-ichi suyuqligi.

- A) 1, 2, 3, 5      B) 2, 4, 5, 6  
C) 1, 3, 4, 6  
D) 1, 2, 3, 6

**745.** Katarakta ko'zdagi qaysi qismning kasallanishi hisoblanadi?

- A) gavhari  
B) ko'z soqqasi  
C) qorachig'i

D) shishasimon tanasi

**746.** Ko'zning kolbachasimon retseptorlari qanday ranglarni qabul qilish xususiyatiga ega?

- A) oq, kulrang, qora  
B) oq, qora, sariq  
C) ko'k, yashil, qizil  
D) qo'ng'ir, qizil, sariq

**747.** Ko'proq bolalarda uchraydigan, viruslar qo'zg'atadigan kasallikni belgilang.

- A) nevrit  
B) nevrалgiya  
C) ganglionit  
D) miyelit

**748.** Nevrit nima?

A) harakatlanish nerv tolalari-ning yallig'lanishi

B) sezuvchi nerv tolalarining yallig'lanishi

C) aralash nerv tolalarining yallig'lanishi

D) sezuvchi nerv tolalarining yallig'lanishi

**749.** Gapirish markazi qayerda joylashgan?

A) chap yarimsharlar po'st-log'ining ensa qismida

B) o'ng yarimsharlar po'st-log'ining chakka qismida

C) o'ng yarimsharlar po'st-log'ining ensa qismida

D) chap yarimsharlar po'st-log'ining chakka qismida

**750.** Talamus va gipotalamus qaysi miyaning tarkibiy qismiga kiradi?

A) uzunchoq miya

B) o'rta miya

C) oraliq miya

D) miya ko'prigi

**751.** Targ'il tana zararlangan, odamda qanday holat kuzatiladi?

A) tana muskullari tarangligi ortadi

B) tana muskullari tarangligi pasayadi

C) sezgi a'zolari ishini kuchaytiradi

D) tanada moddalar almashinuvini izdan chiqaradi

**752.** Qaysi olim shartli reflekslar xususida fikr yuritgan?

- A) I.M.Sechenov
- B) I.Ugolev
- C) I.P.Pavlov
- D) I.I.Mechnikov

**753.** Letargiya kasalligining sababi nimada?

1) og'ir nerv kasalliklaridan tuzalgan odamda o'ta charchash; 2) aqliy mehnatdan zo'riqish; 3) qo'rqish; 4) bosh miya nerv hujayralarida qo'zg'alish va tormozlanishning buzilishi; 5) kimyoviy moddalar ta'siri; 6) bosh miya shikastlanishi; 7) nerv sistemasining tug'ma o'ta qo'zg'aluvchanlik va tormozlanish xususiyati.

- A) 1, 3, 6, 7
- B) 1, 3, 4, 5
- C) 2, 5, 6, 7
- D) 1, 2, 6, 7

**754.** Adashgan nerv bosh miyaning qaysi qismidan chiqadi?

- A) o'rta miya
- B) uzunchoq miya
- C) ko'prikcha
- D) oraliq miya

**755.** Orqa miya uch qavat parda bilan o'ralgan bo'lib, ular qaysilar?

- A) qattiq, o'rgimchak to'rsimon, yumshoq parda
- B) yumshoq, parallelsimon, yupqa parda
- C) liqildoq, miya suyuqligi, yupqa parda
- D) yumshoq, kulrang modda, oq modda

**756.** Somatik nerv sistemasi odamda qanday jarayonni boshqaradi?

- A) yurak ishini
- B) oshqozonning shira ajratishini
- C) ayirish sistemasi ishini
- D) sezgi organlari ishini

**757.** Orqa miya kulrang moddasining bir juft yon shoxlarida qaysi nerv hujayralari joylashgan bo'ladi?

- A) harakatlantiruvchi
- B) sezuvchi
- C) vegetativ
- D) oq modda

**758.** Qaysi nerv tolalari jiggardan ajralgan o't-suyuqligini ko'paytiradi?

- A) vegetativ
- B) orqa miya
- C) parasimpatik
- D) somatik

**759.** Periferik nerv-sistemasi-ga nimalar kiradi?

1) orqa miyadan chiqadigan 31 juft sezuvchi, harakatlantiruvchi nerv tolalari; 2) bosh miyadan chiqadigan 12 juft nervlar; 3) nerv tugunlari; 4) bosh miyada joylashgan kulrang modda; 5) bosh miyada joylashgan oq modda; 6) orqa miyadagi kulrang modda.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 3, 4, 5
- D) 4, 5, 6

**760.** Refleks yoyi quyida berilgan qaysi qismlardan iborat?

1) retseptor; 2) sezuvchi nerv tolasi; 3) neyron; 4) neyrogliya; 5) nerv markazi; 6) harakatlantiruvchi nerv tolasi; 7) ishchi organ.

- A) 1, 3, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4, 6
- C) 1, 2, 5, 6, 7
- D) 1, 2, 4, 5, 7

**761.** Orqa miya kulrang moddasining necha juftdan oldingi, orqa, yon shoxlari bo'ladi?

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

**762.** Aqliy zo'riqish tufayli sodir bo'ladigan kasallikni belgilang.

- A) ensefalit
- B) nevralgia
- C) nevrit
- D) nevroz

**763.** Og'zaki nutqning rivojlanishi miyaning qaysi qismiga bog'liq?

- A) chakka
- B) tepa
- C) chakka va tepa
- D) peshona

**764.** Yozma nutqning rivojlanishi miyaning qaysi qismi bilan bog'liq?

- A) chakka
- B) tepa
- C) chakka va tepa
- D) peshona

**765.** Periferik nerv sistemasi-ga quyidagilarning qaysi birlari kiradi?

1) bosh miya; 2) sezuvchi nerv tolalari; 3) orqa miya; 4) harakatlanuvchi nerv tolalari; 5) bosh miyadan chiqadigan 12 juft nervlar; 6) bosh miya po'stlog'i; 7) nerv tugunchalari.

- A) 1, 3, 6, 7
- B) 2, 4, 5, 7
- C) 1, 2, 3, 5
- D) 2, 3, 5, 6

**766.** Somatik (1) va vegetativ (2) nerv sistemasi qaysi organlar ishini boshqaradi?

a) skelet muskullari; b) moddalar almashinuvi; c) ichki sekretsiya bezlari; d) ichki organlar; e) sezgi organlari.

- A) 1 – a, d; 2 – b, c, e
- B) 1 – a, e; 2 – b, c, d
- C) 1 – c, d; 2 – a, b, e
- D) 1 – b, c; 2 – a, d, e

**767.** Ohang, intonatsiya berish markazi bosh miya yarim-sharlari po'stlog'ining qaysi qismida joylashgan?

- A) chap, ensa
- B) o'ng, chakka
- C) o'ng, ensa
- D) chap, chakka

**768.** Quyidagilardan qaysilari nafas olish sistemasi kasalliklari hisoblanadi?

1) appenditsit; 2) poliomiyelet; 3) rinit; 4) laringit; 5) plevrit; 6) eksudatli plevrit; 7) gangliolit; 8) meningit.

- A) 3, 4, 5, 8
- B) 3, 4, 5, 6
- C) 1, 2, 7, 8

D) 2, 3, 7, 8

**769.** Meningit kasalligini o'z vaqtida davolamaslik tufayli qaysi kasallik paydo bo'ladi?

- A) rinit                      B) nevrit  
C) nevrалgiya                D) ensefalit

**770.** Oqimtir yadro ... funksiyalarini bajaradi.

- A) oraliq va o'rta miya  
B) oraliq va uzunchoq miya  
C) uzunchoq miya va ko'p-rikcha

D) miyacha va ko'prikcha

**771.** Nerv sistemasining kasalliklari periferik (1) va markaziy (2) xillarga bo'linadi. Ularga xos kasalliklar nomi berilgan qatorni toping.

a) nevrалgiya; b) ensefalit; c) radikulit; d) meningit; e) miyo-zit; f) miyelit.

A) 1 – a, b, d; 2 – c, e, f

B) 1 – a, c, e; 2 – b, d, f

C) 1 – a, c, e; 2 – b, d, v

D) 1 – b, d, f; 2 – a, c, e

**772.** Quyidagilardan qaysi birining markazlari o'ng yarim-sharlar po'stlog'ida joylashgan?

- A) hid bilish, ko'rish  
B) ohang, intonatsiya, gapirish  
C) mo'ljal olish, geometrik shakllar  
D) eshitish, hid bilish

**773.** Quloqoldi, tilosti, jag'osti so'lak bezlarining ishini qaysi nerv sistemasi kuchaytiradi?

A) simpatik

B) parasimpatik

C) nerv tugunlari

D) uzunchoq miya

**774.** Eshitish retseptorlari quloqning qaysi bo'limida joylashgan?

- A) perilimfada  
B) endolimfada  
C) chig'anoqda  
D) tashqi quloqda

**775.** Nog'ora parda quloqning qaysi bo'limida joylashgan?

- A) ichki quloqda  
B) tashqi quloqda  
C) o'rta quloqda  
D) tashqi quloq bilan o'rta quloq o'rtasida

**776.** Tayoqchasimon va kolbachasimon retseptorlari ko'zning qaysi qismida joylashgan?

- A) qorachiq  
B) shoh parda  
C) to'r-parda  
D) rangli parda

**777.** Ichki quloqda nimalar joylashgan?

- A) eshitish suyakchalari  
B) eshitish yo'li  
C) nog'ora parda  
D) suyak labirinti

**778.** Quyidagilarning qaysi biri sezgi organlari hisoblanadi?

- A) ko'rish, eshitish  
B) quloq, yurak  
C) o'pka, hid bilish  
D) ta'm bilish, buyrak

779. Ko'z soqqasini harakatga keltiruvchi muskul nechta?

- A) 2                      B) 3  
C) 4                      D) 6

780. Ko'zning qaysi qismi shakli o'zgarā oladi?

- A) shoh parda  
B) qorachiq, gavhar  
C) to'r parda  
D) shishasimon tana

781. Sangvinik tipga kiruvchi bolalar qanday bo'ladi?

1) qobiliyatli; 2) zehnli; 3) har bir ishni shoshmasdan bajara-di; 4) fikrlash qobiliyati past; 5) har bir ishni tezroq bajarishga intiladi.

- A) 1, 3, 4                B) 1, 4, 5  
C) 1, 2, 5                D) 1, 3, 4

782. Daltonizm qanday kasallik?

- A) narsalarni uzoqdan ko'ra olmaslik  
B) narsalarni yaqindan ko'ra olmaslik  
C) ayrim ranglarni farqlay olmaslik  
D) xromosoma kasalligi

783. Qanday jarayonlarning sezuvchi retseptorlari bir xil bo'ladi?

- A) hid, ta'm bilish  
B) qichish, og'riq  
C) issiqlik, og'riq  
D) sovuq, issiq

784. Chaqaloqlar umurtqa pog'onasining ko'krak qismida egilma hamda bel qismi-

da oldinga egilish qachon hosil bo'ladi?

- A) 5 va 12 oyligida  
B) 3 va 5 oyligida  
C) 5 va 8 oyligida  
D) 8 va 10 oyligida

785. Gipermetropiya nima?

- A) yaqindan ko'rish  
B) rangni ajratolmaslik  
C) gavharning kasallanishi  
D) uzoqdan ko'rish

786. Muskul va paylardagi sezuvchanlikni yashirin sezgi deb atagan olim kim?

- A) Basov  
B) Lunin  
C) Sechenov  
D) Pavlov

787. Suyak va parda labirinti orasidagi torgina bo'shliqda nima joylashgan bo'ladi?

- A) yarimaylana kanalchalar  
B) perilimfa suyuqligi  
C) endolimfa suyuqligi  
D) dahliz

788. Endolimfa suyuqligi qayerda joylashgan bo'ladi?

- A) ichki quloqda  
B) tashqi quloq bezida  
C) o'rta quloqda  
D) ichki quloq bilan o'rta quloq o'rtasida

789. Hid bilish retseptorlari qayerda joylashgan?

- A) burun bo'shlig'ining shilliq pardasida  
B) halqumning shilimshiq pardasida

C) hiqildoqning muskulli boy-lamlarida

D) o'pkaning plevra pardasida

**790.** Tajribada Golovin jad-vali odamdan qancha uzoqda joylashishi kerak?

A) 20 m

B) 7,5 m

C) 10 m

D) 5 m

**791.** Markaziy va chetki ko'-rish yig'indisi nima deb ataladi?

A) ko'rish o'tkirligi

B) ko'rish maydoni

C) markaziy ko'rish

D) uzoqdan ko'rish

**792.** Ko'z soqqasi fibroz par-dasining oldingi qismida nima bo'ladi?

A) shoh parda

B) rangli parda

C) gavhar

D) shishasimon tana

**793.** Muskul, pay va bo'g'im-larda joylashgan retseptorlar qanday nomlanadi?

A) proprioretseptorlar

B) taktil

C) visseroretseptorlar

D) akseleratsiya

**794.** Quloqning qaysi qismida muvozanat saqlash analizatori joylashgan?

A) ichki quloqda

B) tashqi quloqda

C) o'rta quloqda

D) Yevstaxiyev nayida

**795.** Ko'rish analizatorining yordamchi qismlarini belgilang.

1) sklera; 2) kamalak parda; 3) ko'z soqqasini harakatlan-tiruvchi muskullar; 4) qovoqlar, kipriklar; 5) ko'zyosh bezi; 6) gavhar.

A) 4, 5, 6

B) 3, 4, 5

C) 1, 2, 4, 5

D) 2, 3, 4

**796.** Quloqning qaysi qismida perilimfa joylashgan?

A) o'rta quloqda

B) parda labirintda

C) suyak labirintda

D) quloq yo'lida

**797.** Ko'z gavharining do'ng-ligi ortib ketsa, qanday kasallik kelib chiqadi?

A) gipermetropiya

B) miopiya

C) glaukoma

D) uzoqdan ko'rish

**798.** Gipermetropiya kasal-ligida tasvir ko'zning qayeriga tushadi?

A) ko'z gavharining orqa to-moniga

B) to'r pardaning orqasiga

C) to'r pardaning oldiga

D) shishasimon tananing or-qasiga

**799.** Parda labirint qayerda joylashgan?

A) endolimfa suyuqligida

B) o'rta quloqda

C) suyak labirintda

D) eshitish yo'lida

**800.** Ko'zning qaysi qismiga shoh parda, ko'zichi suyuqligi,

gavhar va shishasimon tana kiradi?

- A) to'r parda
- B) rangli parda
- C) tashqi qismi
- D) optik sistemasi

**801.** Akkomodatsiya ko'zning qaysi qismida amalga oshadi?

- A) qorachiqda
- B) to'r pardada
- C) gavharda
- D) rangli pardada

**802.** Qaysi paytda qorachiq torayadi va ko'z ichidagi bosim pasayadi?

- A) yozganda
- B) o'qiganda
- C) yaqinga qaraganda
- D) uzoqdagi buyumlarga qaraganda

**803.** Perilimfa suyuqligi eshitish organining qaysi qismida bo'ladi?

- A) o'rta quloqda
- B) Yevstaxiyev nayida
- C) tashqi eshitish yo'lida
- D) ichki quloqda

**804.** Ko'zning to'r pardasida joylashgan kolbachasimon retseptorlar qanday ko'rishni ta'minlaydi?

- A) qorong'ilikda
- B) kunduzi
- C) uzoqdan
- D) yaqindan

**805.** Ko'z soqqasining tashqi qismi qanday qavatlardan tashkil topgan?

1) fibroz; 2) qon tomir; 3) to'rsimon parda; 4) ko'z gavhari; 5) shishasimon tana; 6) ko'zichi suyuqligi.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 3, 6
- C) 1, 2, 4
- D) 3, 4, 6

**806.** Ko'zning optik sistemasi uning qaysi qismlari kiradi?

1) shoh parda; 2) sklera; 3) ko'zichi suyuqligi; 4) to'r parda; 5) gavhar; 6) ko'z retseptorlari; 7) shishasimon tana.

- A) 1, 2, 6, 7
- B) 1, 3, 5, 7
- C) 1, 4, 5, 6
- D) 1, 2, 3, 4

**807.** «Tush ko'rish – bu odam ko'rgan-kechirganlari ta'sirining uyqu vaqtida aralash-quralash holdagi ko'rinishidir». Bu fikr kimga tegishli?

- A) I.P.Sechenov
- B) I.I.Mechnikov
- C) I.P.Pavlov
- D) A.M.Ugolev

**808.** Ko'zning uzoq va yaqin ko'rish qobiliyatini nima ta'minlaydi?

- A) akkomodatsiya
- B) miopiya
- C) fibroz parda
- D) glaukoma

**809.** Bola tug'ilgandan keyin qaysi a'zolar sistemasi ishlay boshlaydi?

A) yuragi, katta qon aylanish doirasi

B) yuragi, kichik qon aylanish doirasi

C) ovqat hazm qilish sistemasi

D) o'pka, kichik qon aylanish doirasi

**810.** Qaysi retseptorlarning hamma qo'zg'alishi ham odamga sezilavermaydi?

A) proprioretseptorlar

B) hid bilish

C) visseretseptorlar

D) kolbacha va tayoqchasiimon

**811.** Quyidagi qaysi ranglarni ko'rishda ko'rish maydoni eng katta bo'ladi?

A) ko'k

B) sariq

C) yashil

D) oq

**812.** Ko'zning qaysi qismi atrofi aylana va to'g'ri yo'nalgan muskullar bilan o'ralgan?

A) qorachiq

B) gavhar

C) retseptor

D) shishasiimon tana

**813.** Yevstaxiyev nayi qaysi a'zolari o'zaro tutashtiradi?

A) ichki quloq, burun-halqum

B) o'rta quloq, burun-halqum

C) ichki quloq, tashqi quloq

D) o'rta quloq, tashqi quloq

**814.** Yaqindagi buyumlarga qaralganda ko'z gavhari qanday o'zgarishga uchraydi?

A) yassilashadi

B) qalinlashadi

C) tiniqlashadi

D) o'zgarmaydi

**815.** Ichki quloq qanday qismlardan iborat?

1) suyak labirint; 2) parda labirint; 3) perilimfa suyuqligi; 4) endolimfa suyuqligi; 5) chig'anoq; 6) Yevstaxiyev nayi; 7) eshitish suyakchalari.

A) 1, 2, 4, 5, 6

B) 1, 3, 4, 6, 7

C) 1, 2, 4, 6, 7

D) 1, 2, 3, 4, 5

**816.** Ko'z gavharining kasallanishi qanday ataladi?

A) glaukoma

B) katarakta

C) gipermetropiya

D) miopiya

**817.** Qanday holatlarda qorachiq kengayadi?

1) yorug'lik ko'p bo'lganda; 2) yorug'lik kam bo'lganda; 3) qonda adrenalin kamayganda; 4) qonda adrenalin ko'payganda; 5) qo'rqqanda; 6) hayajonlanganda; 7) og'riq sezganda.

A) 1, 3, 5, 6, 7

B) 1, 4, 5, 6, 7

C) 2, 3, 6, 7, 5

D) 2, 4, 5, 6, 7

**818.** Nog'ora parda qanday to'qimalardan tashkil topgan?

A) yassi epiteliy

B) bir qavatli epiteliy

C) silliq muskul

D) biriktiruvchi

**819.** Bolg'acha, sandoncha, uzangi eshitish a'zosining qaysi qismida joylashgan?

A) tashqi quloqda



B) tashqi va ichki quloq o'rtasida

C) o'rta quloqda

D) ichki quloqda

**820.** Qanday holatlarda ko'z qorachig'i kengayadi?

1) yorug'lik ko'p bo'lganda; 2) yorug'lik kam bo'lganda; 3) og'riq sezganda; 4) hayajonlanganda; 5) qo'rqqanda; 6) kitob o'qiganda; 7) uzoqdagi narsalarga qaraganda.

A) 1, 2, 3, 4, 7

B) 1, 2, 4, 5, 6

C) 2, 3, 4, 5, 6

D) 1, 2, 3, 6, 7

**821.** Quyidagi ko'z kasalliklarining sabablari to'g'ri keltirilgan javobni toping.

1) miopiya; 2) gipermetropiya; 3) daltonizm; 4) katarakta; 5) glaukoma.

a) ko'z gavharining kasallanishi; b) kolbachasimon retseptorlarda ma'lum rang ta'sirida qo'zg'aladigan nerv bo'lmasligi; c) ko'z soqqasining qisqaroq bo'lishi; d) ko'z soqqasining cho'zinchoqroq bo'lishi; e) ko'z ichidagi bosimning ortishi.

A) 1 - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d; 5 - e

B) 1 - d; 2 - c; 3 - b; 4 - a; 5 - e

C) 1 - c; 2 - a; 3 - d; 4 - e; 5 - a

D) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - e; 5 - d

**822.** Tilning uchki qismida qanday ta'mni sezuvchi retseptorlar bo'ladi?

A) achchiq

B) shirin

C) nordon

D) sho'r

**823.** Ko'z qorachig'i atrofi nimalar bilan o'ralgan?

A) aylana va to'g'ri muskullar

B) arteriya va vena qon tomiri

C) simpatik va parasimpatik nerv

D) kipriksimon muskullar

**824.** Ko'z gavhari shaklining o'zgarishiga nima deyiladi?

A) akkomodatsiya

B) glaukoma

C) katarakta

D) miopiya

**825.** Burun bo'shlig'ining hid sezuvchi sathi ... ga teng.

A) 2,5 sm<sup>2</sup>

B) 0,5 sm<sup>2</sup>

C) 4 sm<sup>2</sup>

D) 5 sm<sup>2</sup>

**826.** Necha oylik bola o'ziga yaqin insonlarni taniy boshlaydi?

A) 3 oylik

B) 5 oylik

C) 1 oylik

D) 6 oylik

**827.** Necha oylik bola tovush chiqqan tomonga qaraydi, boshini tik tuta boshlaydi?

A) 15 oylik

B) 2 oylik

C) 3 oylik

D) 4 oylik

**828.** Bola necha oylik bo'lganda o'tira boshlaydi va umurtqa pog'onasining ko'krak qismida egilma hosil bo'ladi?

- A) 4 oylik            B) 5 oylik  
C) 7 oylik  
D) 8 oylik

**829.** Bolalar necha yoshda tinib-tinchimas, harakatchan bo'ladi?

- A) 2 – 3            B) 5  
C) 6                D) 8 – 9

**830.** Eshitish retseptorlari qayerda joylashgan?

- A) suyak labirintining dahlizida  
B) suyak labirintidagi chig'anoqda  
C) suyak labirintining yarimdoira kanalchalarida  
D) o'rta quloqda

**UMUMIY BIOLOGIYA**  
**(9-sinf, akademik litsey va**  
**kasb-hunar kollejlari uchun darslik)**

1. O'zbekiston Respublikasi qaysi biogeografik hududga kiradi?

- A) Paleoarktik
- B) Neoarktik
- C) Neotropik
- D) Hindomalay

2. Sun'iy tanlash natijasida nima hosil bo'ladi?

- A) populyatsiya
- B) individ
- C) tur
- D) shtamm

3. Filembriogenez nazariyasini yaratgan olimni toping.

- A) A.F.Myuller
- B) V.E.Gekkel
- C) T.Morgan
- D) A.N.Seversev

4. Himolay tog' quyonlari rangining haroratga bog'liq holda o'zgarishi o'zgaruvchanlikning qaysi biriga tegishli?

- A) mutatsion
- B) kombinativ
- C) nisbiy
- D) modifikatsion

5. Quyidagilarning qaysi biri mimikriya hodisasiga misol bo'ladi?

- A) umumiy degeneratsiya
- B) aromorfoz
- C) idioadaptatsiya
- D) atavizm

6. Ba'zi genotipli organizmlar son jihatdan ortib yoki niho-

yatda kamayib ketishi nima deb ataladi?

- A) divergensiya
- B) izolyatsiya
- C) populyatsiyalar to'lqini
- D) nisbiylik

7. «Saydana» asari muallifini belgilang.

- A) Ahmad ibn Nasr Jayhoni
- B) Abu Nasr Forobiy
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Abu Ali ibn Sino

8. Evolyutsiyaning boshlang'ich birligi nima?

- A) populyatsiya
- B) o'zgaruvchanlik
- C) irsiyat
- D) mutatsiya

9. Ch.Darvin quyidagilardan qaysi birining kelib chiqish sabablarini to'g'ri tushuntira olmasdi?

- A) irsiyat sabablari
- B) moslanuvchanlik
- C) irsiylanadigan o'zgaruvchanlik
- D) modifikatsiyali o'zgaruvchanlik sabablari

10. Ayrim sutemizuvchi hayvonlar tuzilishidagi suv muhiti sharoitidagi tabiiy tanlanish natijasini aniqlang.

- A) yurakning to'rt kamerali bo'lishi va suzgichlarining hosil bo'lishi

B) tanasida yog' to'planishi  
C) qon aylanish doirasining ikkitaligi

D) tanasining jun bilan qoplanishi

11. Quyidagilardan yashash uchun kurashning shakllarini ajrating.

1) sinflararo; 2) tur ichida; 3) turkumlararo; 4) uzoq formalar o'rtasida; 5) turlararo; 6) tiplararo; 7) noqulay sharoitga qarshi.

A) 1, 3, 6                      B) 6, 4, 2

C) 2, 5, 7                      D) 1, 4, 6

12. Drozofila meva pashshasining nechta qiyofadosh turi bor?

A) 2 ta                          B) 3 ta

C) 1 ta                          D) 4 ta

13. Modifikatsion o'zgaruvchanlik nima?

A) nasldan naslga o'tadigan o'zgaruvchanlik

B) tashqi muhit ta'sirida yuzaga keladigan irsiy o'zgaruvchanlik

C) genotipning o'zgarishi

D) organizmning tashqi muhit ta'sirida o'zgarishi

14. Irsiy o'zgaruvchanlik nima?

A) organizm genotipiga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik

B) aniq bo'lmagan o'zgarish

C) organizm fenotipining o'zgarishi

D) yashash sharoitiga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik

15. Zot va navlar evolyutsiyasini harakatlantiruvchi kuchlarni ko'rsating.

1) yashash uchun kurash; 2) irsiy o'zgaruvchanlik; 3) sun'iy tanlash; 4) tabiiy tanlanish; 5) tur ichidagi yashash uchun kurash.

A) 1, 2                          B) 2, 3

C) 3, 4                          D) 4, 5

16. Tabiiy va sun'iy tanlash uchun manba bo'ladigan tushunchani toping.

A) irsiy o'zgaruvchanlik

B) kenja tur

C) dizruptiv tanlanish

D) modifikatsion o'zgaruvchanlik

17. Tabiiy tanlanish qanday belgilarning to'planib borishiga ta'sir ko'rsatadi?

A) populyatsiya va tur uchun foydali bo'lmagan irsiy o'zgarishlar

B) populyatsiya va tur uchun foydali bo'lgan irsiy o'zgarishlar

C) populyatsiya va tur uchun foydali bo'lgan irsiy bo'lmagan o'zgarishlar

D) gen tarkibi tez o'zgaruvchan bo'lgan individlar

18. 1912-yili Shotlandiyadan topilgan o'simlik fanda qanday nom olgan?

A) kuksoniya

B) riniya

C) psilofit

D) nitella

19. Qovog'ari rangining yashash muhitidan aniq ajralib turishi moslanishning qaysi turiga misol bo'ladi?

- A) maskirovka
- B) ogohlantiruvchi
- C) himoya, maskirovka
- D) taqlid qiluvchi

20. Bir turga mansub organizmlar orasida bir-biridan farq qiladigan bir nechta shaklli individlarning uchrashi tabiiy tanlanishning qaysi shakliga misol bo'ladi?

- A) stabillashtiruvchi
- B) dizruptiv va harakatlantiruvchi
- C) harakatlantiruvchi
- D) dizruptiv

21. Yashash uchun kurashning qaysi shakliga zarpechakning madaniy o'simliklar hisobiga yashashi misol bo'ladi?

- A) tur ichidagi
- B) turlararo
- C) tur ichidagi, turlararo
- D) tabiatning noqulay sharoitiga qarshi

22. Stegotsefallar uchun qulay sharoit qaysi era va davrda vujudga kelgan?

- A) paleozoy, perm
- B) mezozoy, yura
- C) paleozoy, toshko'mir
- D) mezozoy, bo'r

23. Meva va urug'ida ilgak, tikan, tuklar bo'ladigan o'simliklar guruhini belgilang.

1) ittikan; 2) sariqchoy; 3) qayrag'och; 4) zarang; 5) qariqiz; 6) qayin; 7) yovvoyi sabzi; 8) aylant; 9) qo'ytikan.

- A) 1, 2, 5, 7, 9
- B) 3, 4, 5, 8, 7
- C) 1, 2, 3, 5, 9
- D) 1, 4, 6, 7, 9

24. Zaharsiz Amerika suvilonining zaharli karoll aspid iloniga o'xshashi qanday hodisa va evolyutsion o'zgarishlar yo'lining qaysi biriga xos?

1) maskirovka; 2) mimikriya; 3) himoya rangi.

a) aramorfoz; b) idioadaptatsiya; c) umumiy degeneratsiya.

- A) 2 - c
- B) 3 - c
- C) 1 - a
- D) 2 - b

25. Quyidagi olimlar sun'iy ravishda sintezlagan moddalarni ko'rsating.

1) S.Foks; 2) S.Miller; 3) D.Oro.

a) adenin; b) proteinoidlar; c) asparagin; d) nuklein kislotalar; e) koatservatlar.

- A) 1 - a, 2 - b, 3 - d
- B) 1 - b, 2 - a, 3 - e
- C) 1 - b, 2 - c, 3 - a
- D) 1 - c, 2 - b, 3 - a

26. Bir purin bilan ikkinchi purinning almashinuvidan qanday mutatsiya hosil bo'ladi?

- A) noyob
- B) somatik
- C) qaynoq
- D) nuqtali

**27.** Ahmad ibn Nasr Jayhoni yozib qoldirgan ma'lumotlarni toping.

1) mahalliy xalqlar foydalanadigan o'simlik, hayvonlar; 2) tabiatdagi tabiiy tanlanish; 3) o'simlik, hayvonlarning tabiatdagi ahamiyati; 4) tirik mavjudotlar orasidagi yashash uchun kurash.

- A) 1, 2                      B) 2, 3  
C) 3, 4                      D) 1, 3

**28.** Oqsil evolyutsiya darajasining tezligi nima bilan belgilanadi?

- A) aminokislotalar almashinuvi  
B) nukleotidlar almashinuvi  
C) mutatsiyalarning vujudga kelishi  
D) reaksiya normasi

**29.** Qaysi olim: «O'simliklar tashqi muhit ta'sirida, hayvonlar esa ichki intilish bo'yicha murakkablashib boradi», – degan?

- A) Beruniy  
B) Forobiy  
C) Lamark  
D) Aristotel

**30.** O'simliklar arealining hajmi nimaga bog'liq?

- A) oziqlanish usuliga  
B) gullash davriga  
C) urug'lanish jarayoniga  
D) chetdan changlanish masofasiga

**31.** Evolyutsiyaning boshlang'ich omillarini belgilang.

1) genlar dreyfi; 2) populatsiya genofondi; 3) populatsiya to'liqini; 4) geografik alohidalanish; 5) biologik alohidalanish; 6) qaynoq mutatsiyalar.

- A) 1, 2, 3, 4                B) 2, 3, 4, 5  
C) 3, 4, 5, 6                D) 1, 3, 4, 5

**32.** Kapalak qanoti nimadan kelib chiqqan?

- A) oldingi oyoqning o'zgarishi hosilasi  
B) ko'krakning orqa tomonidan chiqqan  
C) ko'krakning o'rta bo'g'igidan chiqqan hosila  
D) ko'krak oyoqlarining shakli o'zgarishi

**33.** Tabiiy sharoitda yashaydigan organizmlarda qanday irsiy o'zgarishlar yuz berishi mumkin?

- A) foydali, mutatsion, somatik  
B) mutatsion, fenotipik, genotipik

- C) foydali, neytral, zararli  
D) fenotipik, somatik, modifikatsion

**34.** «Zoologiyaga kirish» asarining muallifi kim?

- A) J.B.Lamark  
B) Ch.Darvin  
C) K.Linney  
D) N.I.Vavilov

**35.** Biologiya fani qaysi fanlar uchun nazariy asos sanaladi?

- A) qishloq xo'jaligi, tibbiyot  
B) biofizika, biokimyo  
C) biokimyo, tibbiyot

D) fizika, biokimyo  
36. Eng oddiy virus berilgan javobni aniqlang.

- A) gripp
- B) herpes
- C) tamaki mozaikasi
- D) qizilcha

37. Tiriklikning organizmdan yuqori darajasi nima?

- A) molekula
- B) hujayra
- C) populyatsiya
- D) biogeotsenoz

38. Qadimiy odamlardan qaysi biri «maymun odam» deb ham ataladi?

- A) kromanyon
- B) avstralopitek
- C) sinantrop
- D) pitekantrop

39. Tabiiy tanlanish, sun'iy tanlashni e'tirof etgan markaziy osiyolik olim kim?

- A) Ahmad ibn Nasr Jayhoni
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Abu Nasr Forobiy
- D) Abu Ali ibn Sino

40. Turlarning tabiatda mavjudligini tan olmagan olim kim?

- A) Ch.Darvin
- B) K.Linney
- C) J.Kyuve
- D) J.B.Lamark

41. Hayot tuzilishi darajalarining qaysi tizimida moddalar va energiya almashinuvi, irsiy axborot berilishi boshlanadi?

- A) hujayra
- B) organizm
- C) to'qima

D) molekula

42. «Bir o'simlik turi boshqa turga aylanishi mumkin», – degan fikrni aytgan va quvvatlagan olimni toping.

- A) Aristotel
- B) Fales
- C) Demokrit
- D) Teofrast

43. Odamsimon maymunlar tarqalgan biogeografik viloyatlar qaysi?

- A) Paleoarktik, Hindomalay
- B) Neoarktik, Habashiston
- C) Neotropik, Avstraliya
- D) Habashiston, Hindomalay

44. Tuxum qo'yib ko'payadigan sutemizuvchilar tarqalgan biogeografik viloyat qaysi?

- A) Avstraliya
- B) Neoarktik
- C) Neotropik
- D) Habashiston

45. F.Redi va L.Paster tajribalari qaysi nazariyaning noto'g'ri ekanligini isbotladi?

- A) kreatsinizm
- B) panspermiya
- C) hayotning o'z-o'zidan paydo bo'lishi
- D) hayotning anorganik jismlardan paydo bo'lishi

46. Pavituxa qurbaqa o'z naslini qanday himoya qiladi?

- A) otalangan tuxumlardan opichlab oladi
- B) otalangan tuxumlarini qorin tomoniga yopishtirib yuradi

C) tuxumlarni maxsus xaltada olib yuradi

D) urg'ochilari tashlagan tuxumlarni erkaklari og'zida olib yuradi

47. Qaysi o'simlik o'z vegetatsiya muddatini qurg'oqchilik davrigacha tugatadi?

A) lolaqizg'aldoq

B) kaktus

C) sigirquyruq

D) ermon

48. Qaysi olim: «Organizmlar soddadan murakkablashish tomon o'zgaradi», – degan fikrni taklif qilgan?

A) K.Linney

B) J.Lamark

C) Jayhoni

D) Empidokl

49. Quyida berilgan qaysi qush qo'ygan tuxumlarining rangi, shakli va hajmi in egalari-ning tuxumlariga o'xshash bo'ladi?

A) kakku B) qorayaloq

C) musicha D) kayra

50. Sudralib yuruvchilar sinfiga mansub relikt organizmni belgilang.

A) opossum

B) gatteriya

C) latimeriya

D) yexidna

51. Sutmizuvchilar sinfiga mansub relikt organizm ...

A) gatteriya

B) opossum

C) latimeriya

D) ixtiozavr

52. Xaltali va oddiy krotlar tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi nimaning natijasi sanaladi?

A) divergensiya

B) degeneratsiya

C) aromorfoz

D) konvergensiya

53. Bug'doyiq ildizpoyasidagi qobiqlar quyidagilardan qaysi biriga misol bo'la oladi?

A) rudiment ildiz

B) atavizm a'zosi

C) analogik a'zo

D) rudiment barg

54. Jirafalarda bo'yinning uzun bo'lishi evolyutsiya yo'nalishining qaysi turiga xos?

A) aromorfoz

B) idioadaptatsiya

C) umumiy degeneratsiya

D) regeneratsiya

55. Biologik regress holatidagi organizmlarni toping.

1) vixuxol; 2) sudralib yuruvchilar; 3) amfibiyalar; 4) ayrim paporotniklar guruhi; 5) qushlar; 6) hasharotlar.

A) 1, 2, 3, 4

B) 1, 3, 5, 6

C) 5, 6

D) 1, 3, 4

56. Zarpechakning mevasi o'txo'r hayvonlar oziqlanish a'zolarida hazm bo'lmasligi evolyutsiya yo'nalishining qaysi turiga xos?

A) aromorfoz



- B) degeneratsiya  
C) idioadaptatsiya  
D) konvergensiya
57. O'z-o'zini idora qila oladigan sistemani ko'rsating.  
A) biogeotsenoz  
B) ekotip  
C) biologik tur  
D) geotsenoz
58. Qaysi populyatsiyalarga tasodifiy o'zgarishlar kuchli ta'sir ko'rsatadi?  
A) ko'p sonli  
B) o'rtacha sonli  
C) yosh  
D) kam sonli
59. K.Linney o'simliklarni qaysi belgilariga asoslanib 24 ta sinfga ajratdi?  
A) changdonlar soni, chang iplarining uzun-qisqaligiga  
B) gulqo'rg'onining shakli va soniga  
C) gul urug'chisi tumshuqchasi-ning shakliga  
D) urug'chi tugunchasining joylashishiga
60. «Qora kalamush ikkita qiyofadosh turining birida ..., ikkinchisida ... ta xromosoma bor». Nuqtalar o'rniga mos sonlarni qo'ying.  
A) 32; 42      B) 30; 40  
C) 38; 42      D) 38; 40
61. Bargining usti qalin tuk bilan qoplangan o'simlikni toping.  
A) qurtana  
B) sariqchoy  
C) sigirquyruq

- D) bangidevona
62. Quyosh chiqqan kunlari qorga qalin soya solib o'zini yirtqich hayvonlarga sezdirib qo'yadigan hayvon ...  
A) yer iguanasi  
B) tovushqon  
C) toshbaqa  
D) yumronqoziq
63. Qarchig'aysimon qushlar oilasi vakilini toping.  
A) quzg'un  
B) jo'rchi  
C) arixo'r qush  
D) qirg'iy
64. O'troq yoki parazit holda hayot kechirish bilan uzviy aloqador bo'lgan evolyutsiya yo'nalishi qaysi?  
A) idioadaptatsiya  
B) aromorfoz  
C) umumiy degeneratsiya  
D) biologik regress
65. Evolyutsiya nazariyasi-ning muallifini belgilang.  
A) Ch.Darvin  
B) T.Shvann  
C) T.Morgan  
D) F.Myuller
66. Belgilarning tur ichida ajralishiga nima deyiladi?  
A) aromorfoz  
B) degradatsiya  
C) konvergensiya  
D) divergensiya
67. Biror hayvonning ogohlantiruvchi rangga ega bo'lgan boshqa hayvonlar shakliga, ho-

latiga va rangiga taqlid qilishi ... deyiladi.

- A) mimikriya
- B) maskirovka
- C) himoyalovchi rang
- D) ogohlantirish

**68.** «Yer yuzasining o'zgarishi o'simlik va hayvonlarning o'zgarishiga olib keladi». Mazkur fikr qaysi olimga tegishli?

- A) Lamark
- B) Forobiy
- C) Beruniy
- D) Ibn Sino

**69.** Evolyutsion jihatdan ancha yosh o'simliklarni belgilang.

- A) suvo'tlar
- B) tuban o'simliklar
- C) gulli o'simliklar
- D) yo'sinlar

**70.** G'o'za avlodi turlari qaysi davrda bir-biridan alohidalashgan?

- A) bo'r
- B) yura
- C) trias
- D) perm

**71.** Populyatsiyalarning geografik alohidalanishi ko'proq qayerda ro'y beradi?

- A) tur egallagan arealning chetki qismida
- B) populyatsiya arealida alohidalanish ro'y bermaydi
- C) tur egallagan arealning markazida
- D) tur egallagan arealning barcha qismida

**72.** Cho'lda yashovchi hayvonlarda suvsizlikka nisbatan moslanishlarni belgilang.

1) oksidlanish reaksiyalari natijasida hosil bo'ladigan suvni g'amlaydi; 2) qum barxanlariga ko'milib hayot kechiradi; 3) suv mavjud joylarga migratsiya bo'ladi; 4) maxsus moslashgan siydik pufagi bor; 5) qalin qoplovchi to'qimasi mavjud; 6) teri orqali suv bug'latmaydi; 7) kechasi hayot kechiradi.

- A) 1, 3, 5, 6, 7
- B) 1, 2, 3, 4, 5
- C) 1, 2, 3, 6, 7
- D) 2, 4, 5, 6, 7

**73.** Hasharotlarda suv bug'lanishini kamaytiruvchi qanday moslanish bor?

- A) yog' tanachalarining bo'lishi
- B) xitin qoplami

C) nafas teshikchalarining klapanlar bilan yopilishi  
D) anabioz holatga o'tishi

**74.** «O'simliklar rivojlanishining quyi, hayvonlar o'rta, inson eng yuqori bosqichida turadi». Mazkur fikr qaysi olimga tegishli?

- A) Aristotel
- B) Forobiy
- C) Beruniy
- D) Ibn Sino

**75.** Hayvonlarni sistemaga solishda, asosan, nerv sistemasining tuzilishiga asoslangan olim kim?

- A) K.Linney
- B) J.Kyuve
- C) J.Lamark

D) Ch.Darvin

76. Hayvonlarni umurtqalilar, yumshoq tanlilar, bo'g'imlilar, shu'lalilarga ajratgan olim ...

- A) K.Linney
- B) J.Kyuve
- C) J.Lamark
- D) Ch.Darvin

77. Yovvoyi ajdod turlaridan zot va navlarni keltirib chiqarishda qaysi usullardan foydalaniladi?

- A) divergensiya, izolyatsiya
- B) divergensiya, konvergensiya
- C) konvergensiya, izolyatsiya
- D) modellashtirish va taqqoslash

78. Quyidagilardan qaysi biri reliktni hisoblanmaydi?

- A) gatteriya
- B) arxeopteriks
- C) opossum
- D) ginkgo biloba

79. Himoya rangiga ega bo'lgan hayvonlarni toping.

- A) tentakqush, chupchik
- B) kvaksha, chigirtka
- C) ko'lbuqa, chupchik
- D) gornostay, ninabaliq

80. Quyidagilardan qaysi biri uchun maskirovka xos?

- A) kvaksha, odimchi qurt
- B) tentakqush, chupchik
- C) ko'lbuqa, masxaraboz baliq
- D) gornostay, ninabaliq

81. Kakku qushi tuxumini qaysi qushlar iniga qo'ymaydi?

A) qorayaloq iniga

B) jibljibon iniga

C) sirchumchuq iniga

D) kuyka iniga

82. Som balig'ida nasl haqida qayg'urish nimada namoyon bo'ladi?

- A) tuxumlarini qorniga yopishtirib olib yuradi
- B) chavoqlarini og'zida olib yuradi
- C) gavdasining orqa tomonida opichlab yuradi
- D) og'zida olib yuradi

83. Tropik cho'llarda tarqalgan, bargining usti mum bilan qoplangan o'simliklar qaysi?

- A) monstera, agava
- B) aloe, shuvoq
- C) kaktus, juzg'un
- D) yantoq, juzg'un

84. Nepentes o'simligiga xos xususiyatni belgilang.

- A) barglarida maxsus pufakchalar bo'ladi
- B) qopqon hosil qiladi
- C) shilimshiq suyuqlik ishlab chiqaradi
- D) barglari qopqoqli ko'zichalar hosil qiladi

85. Aneuploid turlarni belgilang.

- A) skerda va bug'doy avlodi
- B) iloq va nepentes avlodi
- C) nepentes va aneuploid avlodi
- D) skerda va iloq avlodi

86. Afrikaning shimoliy qismi qaysi biogeografik viloyatga oid?

- A) Neoarktik
- B) Paleoarktik
- C) Neotropik
- D) Hindomalay

87. Sumatra orollari qaysi biogeografik viloyatga tegishli?

- A) Paleoarktik
- B) Neoarktik
- C) Neotropik
- D) Hindomalay

88. Aleut orollari qaysi biogeografik viloyatga kiradi?

- A) Paleoarktik
- B) Neoarktik
- C) Neotropik
- D) Hindomalay

89. Madagaskar orollari qaysi biogeografik viloyatga mansub?

- A) Paleoarktik
- B) Neoarktik
- C) Neotropik
- D) Habashiston

90. Qaysi biogeografik viloyatda skuns, dengiz cho'chqasi uchraydi?

- A) Neotropik
- B) Hindomalay
- C) Habashiston
- D) Avstraliya

91. Qaysi biogeografik viloyatda evkalipt daraxti uchraydi?

- A) Neotropik
- B) Hindomalay
- C) Habashiston

D) Avstraliya

92. Qaysi biogeografik viloyatda dingo iti uchraydi?

- A) Neotropik
- B) Hindomalay
- C) Habashiston
- D) Avstraliya

93. Qaysi biogeografik viloyatda epifitlar uchraydi?

- A) Neotropik
- B) Hindomalay
- C) Habashiston
- D) Avstraliya

94. Pavituxa qaysi sinfga mansub?

- A) sutemizuvchilar
- B) sudralib yuruvchilar
- C) suvda ham quruqlikda yashovchilar
- D) qushlar

95. Qalqondor baliqlar qaysi era va davrda yashagan?

- A) paleozoy, ordovik
- B) paleozoy, kembriy
- C) paleozoy, silur
- D) paleozoy, devon

96. Qalqondorlar hozirda yashayotgan qaysi hayvonlarning uzoq ajdodlari sanaladi?

- A) minoga, miksinaning
- B) sodda hayvonlar, umurtqalilarning
- C) kovakichlilar, qisqichbaqasimonlarning
- D) trilobitsimonlarning

97. Sovutboshlilar uchun o'ta qulay sharoit qaysi era va davrda vujudga keldi?

- A) paleozoy, toshko'mir

- B) paleozoy, perm  
 C) mezozoy, yura  
 D) mezozoy, bo'r
- 98.** Meva va urug'ida ilgak, tikan, tuklar bo'ladigan o'simliklar guruhini aniqlang.  
 1) ittikan; 2) sariqchoy; 3) eman; 4) zarang; 5) qariqiz; 6) qimizak; 7) yovvoyi sabzi; 8) aylant; 9) qo'ytikan.  
 A) 1, 2, 5, 7, 9  
 B) 3, 4, 5, 7, 8,  
 C) 1, 2, 3, 5, 9  
 D) 1, 4, 6, 7, 9
- 99.** Quyidagi olimlar qaysi moddalarni sun'iy ravishda sintezlashgan?  
 1) S.Foks; 2) S.Miller;  
 3) D.Oro.  
 a) adenin; b) proteinoidlar; c) asparagin; d) nuklein kislotalar; e) oqsil.  
 A) 1 – a, 2 – b, 3 – d  
 B) 1 – b, 2 – a, 3 – e  
 C) 1 – b, 2 – c, 3 – a  
 D) 1 – c, 2 – b, 3 – a
- 100.** Yevropada mahalliy hayvon zotlaridan qanchasi yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi?  
 A) 175                      B) 125  
 C) 115                      D) 360
- 101.** Makkajo'xori o'simligida transpozonlarni kashf qilgan olim(a)ni aniqlang.  
 A) G.Georgiyev  
 B) J.Bishop  
 C) A.Buxoriy  
 D) Barbara Mak-Klintonk

**102.** Quyidagilardan qaysi biri qarchig'aysimonlar oilasi vakili?

- A) quzg'un  
 B) jo'rchi  
 C) arixo'r qush  
 D) qirg'iy

**103.** Suvni ko'p yo'qotganda ham hayot faoliyatini saqlaydigan o'simliklarni belgilang.

1) suv qalampiri; 2) papotrotniklar; 3) suv yong'og'i; 4) plaunlar; 5) lola; 6) moxsimonlar; 7) nilufar; 8) lishayniklar.

- A) 1, 3, 5, 7    B) 2, 4, 6, 8  
 C) 1, 2, 3, 4    D) 5, 6, 7, 8

**104.** Qaysi hayvonlar himoya rangiga ega?

- A) kvaksha, odimchi qurt  
 B) beshiktervatar, kvaksha  
 C) ko'lbuqa, ninabaliq  
 D) gornostay, dengiz «masxarabozi»

**105.** Maskirovkaga ega hayvonlarni toping.

- A) kvaksha, odimchi qurt  
 B) tentakqush, chupchik  
 C) ko'lbuqa, chupchik  
 D) korall aspidi, ninabaliq

**106.** Qaysi o'simliklarda poliploid turlar uchraydi?

- A) g'o'za, g'umay  
 B) xrizantema, ajriq  
 C) tamaki, illoq  
 D) xrizantema, g'o'za

**107.** So'nggi 100 yil davomida chaqaloqlarda (I), o'smir-larda (II) bo'yniing o'rtacha uzunligi qanchaga o'rtgan?

- A) I – 5 sm; II – 10 – 15 sm
- B) I – 6 – 8 sm; II – 5 sm
- C) I – 5 mm; II – 10 – 15 mm
- D) I – 10 – 15 mm; II – 6 – 8 sm

**108.** Shakli o'zgargan tikan novdali o'simlik ...

- A) kaktus
- B) do'lana
- C) maymunjon
- D) akatsiya

**109.** O'simliklarning suv muhitidan quruqlikda yashash va spora bilan ko'payishdan urug'dan ko'payishga o'tishi evolyutsion jarayonning qaysi yo'nalishiga mos keladi?

- A) aromorfoz
- B) idioadaptatsiya
- C) umumiy degeneratsiya
- D) biologik regress

**110.** Qaysi erada fotosintez, jinsiy ko'payish, ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lgan?

- A) paleozoy
- B) arxey
- C) kaynazoy
- D) proterozoy

**111.** Rekonstruksiya usulini ishlab chiqqan olim kim?

- A) J. Kyuve
- B) K. Linney
- C) J. B. Lamark
- D) Aristotel

**112.** O'lib ketgan hayvonlarning ayrim suyaklariga qarab ularning butun tashqi qiyofasini tiklash usuli ... deyiladi.

- A) reintroduksiya
- B) rekonstruksiya
- C) regeneratsiya
- D) gen daktioskopiya

**113.** Kriokonservatsiya nima?

A) organizm hujayralari, to'qima va a'zolarini juda past haroratda muzlatib saqlash

B) sut mahsulotlarini pasteurizatsiyalash

C) tibbiyotda yaralar va jarrohlik asboblari sterilizatsiyalash

D) yaxlit organizmni muzlatish jarayoni

**114.** Barglarining usti mum qavat bilan qoplangan o'simliklarni toping.

1) monstera; 2) shuvoq; 3) kaktus; 4) juzg'un; 5) agava; 6) yantoq; 7) aloe.

A) 1, 3, 5, 7

B) 2, 4, 6, 7

C) 1, 2, 4, 6

D) 1, 2, 3, 4

**115.** Poyadagi barcha barglar yaxlit plastinkadan iborat bo'lgan g'o'za turlarini toping.

A) raymondi, klotsianum

B) xirzutum, xerbatseum

C) barbadenza, arbareum

D) raymondi, xirzutum

**116.** Yovvoyi g'o'za turlarini belgilang.

A) raymondi, klotsianum

B) xirzutum, xerbatseum

C) barbadenza, xirzutum

D) raymondi, barbadenza

**117.** Yashil iguana, oybaliq qaysi zoogeografik viloyatga xos?

- A) Paleoarktik
- B) Habashiston
- C) Avstraliya
- D) Neotropik

**118.** Quruqlikda ayrim kalamitlarning balandligi 20 – 25 m ga yetgan davrni toping.

- A) kembriy
- B) ordovik
- C) devon
- D) toshko'mir

**119.** Suv zaxirasi maxsus siydik pufagida saqlanadigan hayvon ...

- A) toshbaqa
- B) sahro baqasi
- C) tuya
- D) yumronqoziq

**120.** Organizmlar tuzilishining umumiy darajasini, hayot faoliyatini oshiradigan evolyutsion o'zgarish ... deb ataladi.

- A) aromorfoz
- B) idioadaptatsiya
- C) umumiy degeneratsiya
- D) regress

**121.** Organizmlarning muayyan yashash sharoitiga moslashuviga yordam beradigan evolyutsion o'zgarish ... deb ataladi.

- A) aromorfoz
- B) idioadaptatsiya
- C) umumiy degeneratsiya
- D) regress

**122.** Organizmlarning o'troq yoki parazit holda hayot kechirishiga moslashuvi natijasi-

da tuzilishining soddalashishi nima deyiladi?

- A) umumiy degeneratsiya
- B) idioadaptatsiya
- C) aromorfoz
- D) regress

**123.** Hozirgi vaqtda biologik progress holatida bo'lgan organizmlarni toping.

- A) suyakli baliqlar, gulli o'simliklar
- B) hasharotlar, sudralib yuruvchilar
- C) suvda ham quruqlikda yashovchilar
- D) paporotniklar, sudralib yuruvchilar

**124.** Hozirda biologik regress holatida bo'lgan organizmlarni toping.

- A) kemiruvchilar
- B) suyakli baliqlar
- C) qushlar
- D) sudralib yuruvchilar

**125.** Assidiy lichinkasida xordali hayvonlarga xos nerv sistemasi xorda, ko'z rivojlangan bo'ladi. Keyinchalik lichinka o'troq hayot kechirishga o'tib, voyaga yetish jarayonida organizmda quyidagilardan qaysi biri ro'y beradi?

- A) regressiv metamorfoz
- B) aromorfoz
- C) idioadaptatsiya
- D) progressiv metamorfoz

**126.** Hayvonlarni «qonlilar» va «qonsizlar»ga bo'lgan olimni ko'rsating.

- A) Empedokl
- B) Aristotel
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Abu Nasr Forobiy

**127.** Ch.Darvin qaysi hayvonlarning Shimoliy Amerika-da uchramaydigan, lekin Janubiy Amerikada uchraydigan turlarini aniqlagan?

a) yalqov; b) tapir; c) vyurok; d) toshbaqalar; e) lama.

- A) b, d
- B) a, b, e
- C) a, c, e
- D) b, c, e

**128.** Yangi nav yoki zot chiqarishda asosiy omil nima hisoblanadi?

A) irsiy o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlash

B) yashash uchun kurash va tabiiy tanlash

C) irsiy o'zgaruvchanlik va sun'iy tanlash

D) yashash uchun kurash va irsiy o'zgaruvchanlik

**129.** Baykal ko'li necha yil ilgari suv havzalaridan ajralib qolgan?

- A) 100 mln
- B) 20 mln
- C) 90 mln
- D) 10 mln

**130.** Yashash uchun kurashning qaysi xili shiddatli bo'ladi?

A) har xil turlarga mansub organizmlar orasidagi kurash

B) organizmlarning anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi kurashi

C) bir turga kiruvchi organizmlar orasidagi kurash

D) turlararo va tur ichidagi kurash

**131.** Shaxsiy o'zgaruvchanlik organizmda qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?

- A) foydali, ziyon, salbiy
- B) befarq, ziyon
- C) foydali, befarq
- D) foydali, befarq, ziyon

**132.** Agar ayolning urug'langan tuxum hujayrasida 44 ta autosoma va bitta Y-xromosoma bo'lsa, boshqacha aytganda, X-xromosoma yetishmasa, u holda homila ona qornida 2 – 3 oydan so'ng rivojlanmay qoladi va tabiiy abort ro'y beradi.

Bu tabiiy tanlanishning qaysi turiga misol bo'ladi?

- A) dizruptiv
- B) stabillashtiruvchi
- C) harakatlantiruvchi
- D) yashash uchun kurash

**133.** Organizmlar yangi belgi-xossalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini ta'minlaydigan tabiiy tanlanish xili qanday ataladi?

- A) dizruptiv
- B) stabillashtiruvchi
- C) harakatlantiruvchi
- D) divergent

**134.** Muayyan joyda tarqalgan bir turga mansub organizmlar orasida bir-biridan farq qiluvchi ikki va undan ortiq in-



dividlar guruhi uchrashi qaysi tabiiy tanlanish natijasidir?

- A) dizruptiv
- B) stabilashtiruvchi
- C) harakatlantiruvchi
- D) divergent

**135.** Yevropaning o'rta mintaqasida yashovchi tulki, tovushqon, kuropatka, gornostay ishda bir, yozda ikkinchi xil rangda bo'lishi moslanishning qaysi turiga misol bo'ladi?

- A) himoya rangi
- B) maskirovka
- C) ogohlantiruvchi rang
- D) mimikriya

**136.** Maskirovka moslanish turiga xos misolni toping.

A) ninachilarning yashil barglar orasida yashashi  
B) baqachanoqlarning daraxt kurtaklariga o'xshashligi

C) korall aspidiga Amerika suviloni rangining o'xshashligi  
D) zaharli gelekoniys kapalagi

**137.** Quyidagilarning qaysi biri ogohlantiruvchi moslanish turiga misol bo'ladi?

A) ninachilarning yashil barglar orasida yashashi

B) baqachanoqlarning daraxt kurtaklariga o'xshashligi

C) korall aspidiga Amerika suviloni rangining o'xshashligi

D) zaharli gelekoniys kapalagi  
**138.** Moslanishning mimikriya turiga xos misolni aniqlang.

A) ninachilarning yashil barglar orasida yashashi

B) baqachanoqlarning daraxt kurtaklariga o'xshashligi

C) korall aspidiga Amerika suviloni rangining o'xshashligi

D) zaharli gelekoniys kapalagi

**139.** Quyidagilarning qaysi biri moslanishning himoya rangi turiga misol bo'ladi?

A) chigirtkalarining yashil barglar orasida yashashi

B) baqachanoqlarning daraxt kurtaklariga o'xshashligi

C) korall aspidiga Amerika suviloni rangining o'xshashligi

D) zaharli gelekoniys kapalagi

**140.** Organizmlarning muhit sharoitiga moslanishi nima ta'sirida paydo bo'lgan?

A) sun'iy tanlash

B) yalpi tanlash

C) yakka tanlash

D) tabiiy tanlash

**141.** Organizmlardagi moslanishlar qanday tavsifga ega?

A) mutlaq B) nisbiy

C) doimiy D) ijobiy

**142.** Tur ichidagi kurashning shiddatli bo'lishi sabablarini ko'rsating.

a) yashash areali o'xshash; b) oziqlanishi o'xshash; c) yashash areali farqlanadi; d) dushmanlari o'xshash; e) urchish davri o'xshash; f) urchish davri farqlanadi.

A) a, b, d, e B) b, c, d, e

C) a, b, d, f D) c, b, d, f

**143.** O'tloqzorlarda zaharli ayiqtovon, sernam yerlarda

sudraluvchi ayiqtovon, botqoqliklarda achishtiradigan ayiqtovon turlari uchrashi qanday mezonga mansub?

- A) fiziologik
- B) genetik
- C) morfologik
- D) ekologik

144. Tur belgilarining ajralishi qanday ataladi?

- A) konvergensiya
- B) divergensiya
- C) regeneratsiya
- D) reduplikatsiya

145. Populyatsiyalarning geografik alohidalanishi, odatda, tur egallagan arealning qaysi qismida ko'proq ro'y beradi?

- A) chetki
- B) o'rta
- C) markaziy
- D) hamma

146. Sirdaryo va Amudaryoda yashovchi soxta kurakburunga yaqin bo'lgan baliq turlari qayerda yashaydi?

- A) Shimoliy Amerikaning Missisipi daryosida
- B) Lanao ko'lida
- C) Atlantika okeanining Sargass dengizida
- D) Shimoliy Afrikaning suv havzalarida

147. G'o'za avlodining turlari qaysi alohidalanish natijasi sanaladi?

- A) ekologik alohidalanish
- B) simpatrik alohidalanish
- C) geografik alohidalanish
- D) etologik alohidalanish

148. Populyatsiya genofonidagi genlarning tasodifiy o'zgarishi ... deyiladi.

- A) alohidalanish
- B) populyatsiya to'liqini
- C) genlar dreyfi
- D) divergensiya

149. Populyatsiya tarkibidagi organizmlarning son jihatidan ortib yoki kamayib ketishi ... deyiladi.

- A) alohidalanish
- B) populyatsiya to'liqini
- C) genlar dreyfi
- D) divergensiya

150. Gemoglobin oqsilining  $\alpha$  zanjirida nechta aminokislota mavjud?

- A) 149
- B) 151
- C) 141
- D) 145

151. Gemoglobin oqsilining  $\beta$  zanjirida nechta aminokislota mavjud?

- A) 149
- B) 151
- C) 141
- D) 145

152. Gemoglobinning 2 ta tuzilishi bir-biriga yaqin bo'lgan zanjirlardan tashkil topganligi sababini aniqlang.

- A) bitta polipeptid zanjirning divergensiya natijasi
- B) 2 xil polipeptid zanjirlarning konvergensiya natijasi
- C) bitta polipeptid zanjirning konvergensiya natijasi
- D) kombinativ o'zgaruvchanlik natijasi

153. Madaniy g'o'zalar shaxsiy rivojlanishida qaysi yovvoyi

g'oz'a turlarining barg shaklini takrorlaydi?

- A) xirzutum, raymondii
- B) barbadenze, klotsianum
- C) raymondii, klotsianum
- D) xerbatsium, xirzutum

154. Biogenetik qonun (1), filembriogenez nazariyasi (2)ni kashf etgan olimlarni aniqlang.

a) A. Seversev; b) E. Gekkel; c) J. Kyuve; d) F. Myuller; e) K. Ber.

- A) 1 – b, d; 2 – a
- B) 1 – a, b; 2 – d
- C) 1 – b, d; 2 – a
- D) 1 – b, d; 2 – e

155. No'xat gajaklari va kaktus tikanlari qaysi organlarga misol bo'ladi?

- A) analogik organlar
- B) rudiment organlar
- C) gomologik organlar
- D) atavizm hodisasi

156. Boshoyoqli mollyuskalar ko'zi bilan umurtqali hayvonlarning ko'zi qaysi organlarga misol bo'ladi?

- A) analogik organlar
- B) rudiment organlar
- C) gomologik organlar
- D) atavizm hodisasi

157. Rudiment organlar berilgan javobni toping.

a) paporotniklarning ildiz-poyasidagi qobiqlar; b) kitning dumg'aza va oyoq suyaklari; c) toychalar zebrasimon bo'lishi; d) pashshalarning bir juft kichik qanotlari; e) to'riq otlarning ora-

sida xira yo'l-yo'l chiziqchilarning paydo bo'lishi.

- A) c, e
- B) a, b, d
- C) a, b, e
- D) c, d, e

158. Quyidagilardan atavizm hodisasiga misol bo'ladigan javobni toping.

a) paporotniklarning ildiz-poyasidagi qobiqlar; b) kitning dumg'aza va oyoq suyaklari; c) toychalar zebrasimon bo'lishi; d) pashshalarning bir juft kichik qanotlari; e) to'riq otning orasida xira yo'l-yo'l chiziqchilarning paydo bo'lishi.

- A) c, e
- B) a, b, d
- C) a, b, e
- D) c, d, e

159. Brontazavrlar qaysi erada yashagan va qaysi sinf vakili hisoblanadi?

- A) mezozoy; sudralib yuruvchilar
- B) mezozoy; baliqlar
- C) kaynozoy; qushlar
- D) paleozoy; qushlar

160. Lira qushi va janubiy qora qayinlar qaysi biogeografik viloyatda uchraydi?

- A) Avstraliya
- B) Neotropik
- C) Hindomalay
- D) Paleoartik

161. Qaysi viloyatlarning hayvonot va o'simlik olami ko'p jihatdan o'xshash bo'ladi?

- A) Avstraliya, Paleoartik
- B) Neotropik, Hindomalay

- C) Paleoarktik; Neoarktik  
D) Habashiston, Avstraliya

**162.** Qaysi olim pashshaning lichinkalari chirigan go'shtda o'z-o'zidan paydo bo'lmasligini isbotlagan?

- A) L.Paster      B) Aristotel  
C) F.Redl        D) F.Krik

**163.** Hayot har xil shakllarining o'z-o'zidan paydo bo'lmasligini isbotlagan olimlarni toping.

- A) L.Paster, F.Krik  
B) F.Krik, S.Arrenius  
C) L.Paster, F.Redl  
D) V.Vernadskiy, A.Oparin

**164.** Qaysi tip vakillari Aristotel tomonidan «zoofitlar» deb atalgan?

- A) bo'shliqichlilar  
B) mollyuskalar  
C) yassi chuvalchanglar  
D) to'garak chuvalchanglar

**165.** «Organlar – alohida-alohida paydo bo'lgan. Organlarning muvofiq qo'shilishidan normal organizmlar, nomuvofiq qo'shilishidan anormal organizmlar vujudga kelgan». Mazkur fikr kimga tegishli?

- A) Empedokl  
B) Aristotel  
C) Fales  
D) Teofrast

**166.** Zagorsk zoti qaysi hayvonlarga xos?

- A) tovuq              B) kaptar  
C) qo'y                D) qoramol

**167.** Bo'qoq zoti qaysi hayvonlarga xos?

- A) tovuq              B) kaptar  
C) qo'y                D) qoramol

**168.** Quyidagi o'simlik turlaridan qaysi biri relik forma sanaladi?

- A) ajdar daraxti  
B) sekvoyadendron  
C) baobab daraxti  
D) ginkgo biloba

**169.** Ko'lbuqa nomli hayvon qaysi sinf vakili?

- A) baliqlar  
B) suvda ham quruqlikda yashovchilar  
C) qushlar  
D) sudralib yuruvchilar

**170.** Sanchuvchi meva qaysi o'simlik turiga oid?

- A) beda  
B) qariqiz  
C) temirtikan  
D) aylant

**171.** Qarmoqli savatcha qaysi o'simlik turiga xos?

- A) beda  
B) aylant  
C) temirtikan  
D) qariqiz

**172.** Zaharli ayiqtovon turi qayerda uchraydi?

- A) cho'lda  
B) dala, o'tloqlarda  
C) sernami joylarda  
D) botqoqlikda

**173.** Sudraluvchi ayiqtovon turi qayerda uchraydi?

- A) cho'lda

- B) dala, o'tloqlarda
- C) sernam joylarda
- D) botqoqlikda

**174.** Achishtiradigan ayiqto-  
von turi qayerda uchraydi?

- A) cho'lda
- B) dala, o'tloqlarda
- C) sernam joylarda
- D) botqoqlikda

**175.** Qora kalamushning ik-  
kita qiyofadosh turi chatisha  
olmasligi sababi qaysi mezon  
yordamida aniqlangan?

- A) fiziologik
- B) ekologik
- C) geografik
- D) genetik

**176.** Ogohlantiruvchi rangga  
ega bo'lgan hayvonni aniqlang.

- A) ninabaliq
- B) kuropatka
- C) suvarak
- D) sariq ari

**177.** Drozafila pashshasining  
nechta qiyofadosh turi bor?

- A) 4
- B) 3
- C) 2
- D) 5

**178.** Ch. Darvinning «Xona-  
kilashtirilgan hayvon, mada-  
niy o'simliklarning o'zgaruv-  
chanligi» asari qachon nashr  
etilgan?

- A) 1857-yili
- B) 1858-yili
- C) 1868-yili
- D) 1860-yili

**179.** Qaysi mezon har bir tur-  
ga kiruvchi organizmlarning mu-  
ayyan muhit sharoitida yashashi,  
unga moslashganligini tushu-  
nish lozimligini talab etadi?

- A) genetik mezon
- B) morfologik mezon

- C) fiziologik mezon
- D) ekologik mezon

**180.** Nima asosini bir tur doira-  
sidagi organizmlarning har xil  
sharoitga muvofiqlanishi tash-  
kil etadi?

- A) regeneratsiya
- B) konvergensiya
- C) konyugatsiya
- D) divergensiya

**181.** Gen tarkibidagi har bir  
nukleotid mutatsiyaga uchrashi  
mumkin. U ... mutatsiya deyi-  
ladi.

- A) indamas
- B) nuqtali
- C) qaynoq
- D) betaraf

**182.** Har xil turga kiruvchi or-  
ganizmlar o'zining kimyoviy  
tarkibi, oqsil, uglevod, peptid-  
lar, nuklein kislotalar va boshqa  
organik-moddalari bilan farq qi-  
lishi qaysi mezonga bog'liq?

- A) geografik
- B) ekologik
- C) fiziologik
- D) biokimyoviy

**183.** Teshiktosh g'oridan qu-  
yidagi odam ajdodlaridan qay-  
si birining skelet qoldiqlari topil-  
gan?

- A) paleoantrop
- B) arxontrop
- C) driopitek
- D) neoantrop

**184.** Dastlabki sutemizuvchi-  
lar qaysi davrda paydo bo'l-  
gan?

- A) yura davrida
- B) trias davrida
- C) bo'r davrida
- D) ordovik davrida

**185.** Shimolda yashaydigan tulkilarning oq rangda bo'lishi moslanishning qaysi turiga kiradi?

- A) himoya rangi
- B) maskirovka
- C) ogohlantiruvchi rang
- D) mimikriya

**186.** Donador endoplazmatik to'rning tuzilishini aniqlang.

1) ikki qavatli membrana; 2) ribosoma; 3) bir qavatli membrana; 4) vakuola; 5) kanalchalar; 6) kanalchalar bo'shlig'i; 7) sisternalar; 8) nuklein kislota; 9) xalaza.

- A) 1, 2, 4, 6, 7, 8
- B) 2, 3, 4, 5, 6, 7
- C) 1, 2, 4, 7, 8, 9
- D) 2, 3, 6, 7, 8, 9

**187.** Z.M.Bobur Kobul shahriga qanday o'simliklarni keltirib ektirdi?

1) anor; 2) limon; 3) olcha; 4) choy; 5) shakarqamish; 6) maxsar; 7) banan.

- A) 3, 5, 7
- B) 1, 2, 3
- C) 3, 4, 6
- D) 4, 5, 6

**188.** Biologik progress holatidagi organizmlar qaysi?

- A) suyakli baliqlar
- B) suvda ham quruqlikda yashovchilar
- C) paporotniklar
- D) sudralib yuruvchilar

**189.** 1809-yili chop etilgan «Zoologiya falsafasi» asari muallifini aniqlang.

- A) K.Linney
- B) Ch.Darvin
- C) Aristotel
- D) J.B.Lamark

**190.** Qaysi olim odamlarning rangi, qiyofasi, tabiati, axloqi turlicha bo'lishiga irsiyatgina emas, balki tuproq, suv, havo, muhit sharoiti sababchi deb e'tirof etadi?

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Ahmad ibn Nasr Jayhoniy
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Abu Ali ibn Sino

**191.** Retsessiv, letal mutatsiyalarni aniqlash usullarini kim ixtiro qilgan?

- A) S.S.Chetverikov
- B) Ch.Darvin
- C) Bempes
- D) Meller

**192.** Embrional rivojlanish davrida odam embrionida qaysi soha, gorilla embrionida qaysi joy oldinga bo'rtib chiqadi?

- A) jag'; peshona
- B) qosh suyagi; peshona
- C) iyak; jag'
- D) peshona; jag'

**193.** Lanao ko'lida yagona bitta ajdod baliq turidan 18 ta baliq turining paydo bo'lishi alohidalanishning qaysi yo'nalishiga misol bo'ladi?

- A) simpatrik
- A) allopatrik

C) etologik

D) geografik

**194.** Alohidalanishning qanday turlari bor?

A) geografik, ekologik

B) etologik, biologik

C) biokimyoviy, sitogenetik

D) geografik, ekologik, etologik, biologik

**195.** Qaysi o'simlikning barglari qopqoqli «ko'zachalar»ga aylangan?

A) suv qaroqchisi

B) aldrovanda

C) nepentes

D) vulfiya

**196.** Quyidagilardan Aristotelning shogirdlaridan biri Teofrast fikrini toping.

A) qonli hayvonlarning ichki organlari o'zaro o'xshash va bir xil joylashgan

B) tirik mavjudotlar orasida yashash uchun kurash boradi

C) o'simliklar rivojlanishining quyi bosqichida, hayvonlar o'rta bosqichida, odam eng yuqori bosqichida turadi

D) bir o'simlik turi boshqa turgacha aylanishi mumkin

**197.** Markaziy osiyolik olimlarning qaysilari tabiiy tanlashni e'tirof etishgan?

a) Ahmad ibn Nasr Jayhoni;

b) Abu Nasr Forobiy; c) Abu Rayhon Beruniy; d) Zahiriddin Bobur.

A) b, c

B) a, b

C) c, d

D) b, d

**198.** Gemoglobin oqsili  $\alpha$  (1) va  $\beta$  (2) zanjirining farqi (I) va o'xshashligi (II)ni toping.

a) 141 aminokislotadan iborat; b) tarkibida 145 aminokislotaga bo'ladi; c) tarkibida 145 nukleotid bo'ladi; d) tarkibida 141 nukleotid bo'ladi; e) aminokislotalarning izchilligi o'xshash; f) aminokislotalarning izchilligi bilan farq qiladi.

A) I – 1 – a, 2 – b; II – e

B) I – 1 – c, 2 – d; II – f

C) I – 1 – a, f; 2 – b, e; II – f

D) I – 1 – b, 2 – d; II – e

**199.** Odam DNK molekulasining tuzilishi ho'kiz (1), losos balig'i (2) DNK tuzilishiga necha foiz o'xshaydi?

a) 2%; b) 8%; c) 66%; d) 28%.

A) 1 – c, 2 – a

B) 1 – b, 2 – a

C) 1 – d, 2 – b

D) 1 – a, 2 – c

**200.** Yevropa zubri (1), Sibir bug'usi maral (2) qaysi hayvonlarga o'xshaydi?

a) Shimoliy Amerika bizoni-ga; b) Amerika vapitasiga; c) Amerika tog' qo'yiga.

A) 1 – a; 2 – b

B) 1 – b; 2 – a

C) 1 – a; 2 – c

D) 1 – c; 2 – a

**201.** Qaysi biogeografik viloyatlarda daraxtda yashovchi ilonlar (1), chala maymunlar – tupaylar (2), lemur (3) uchraydi?

a) Hindomalay; b) Neotropik;  
c) Habashiston; d) Neoarktik.

A) 1 – b; 2 – a; 3 – c

B) 1 – b; 2 – a; 3 – c

C) 1 – c; 2 – a; 3 – d

D) 1 – a; 2 – c; 3 – c

**202.** Qaysi olim qanday yo'l bilan laboratoriya sharoitida adeninni sintezladi?

A) D.Oro; metan, ammiak va suv aralashmasidan ionlashtiruvchi nurlarni ta'sir etib

B) S.Miller; qizdirilgan metan, ammiak, vodorod va suv bug'lariga elektr uchquni ta'sir etib

C) S.Foks; aminokislotalar aralashmasini qizdirib

D) D.Oro; vodorod sianid, ammiak va suvni qizdirib

**203.** Laboratoriya sharoitida qaysi olim qanday yo'l bilan riboza va dezoksiribozani sintezlagan?

A) D.Oro; metan, ammiak va suv aralashmasidan ionlashtiruvchi nurlar ta'sir etib

B) S.Miller; qizdirilgan metan, ammiak, vodorod va suv bug'lariga elektr uchquni ta'sir etib

C) D.Oro; vodorod sianid, ammiak va suvni qizdirib

D) S.Foks; aminokislotalar aralashmasini qizdirib

**204.** Qaysi olim qanday yo'l bilan laboratoriya sharoitida asparagin, glitsin, glyutamin aminokislotalarini sun'iy sintezladi?

A) D.Oro; metan, ammiak va suv aralashmasidan ionlashtiruvchi nurlar ta'sir etib

B) S.Miller; qizdirilgan metan, ammiak, vodorod va suv bug'lariga elektr uchquni ta'sir etib

C) D.Oro; vodorod, sianid, ammiak va suvni qizdirib

D) S.Foks; aminokislotalar aralashmasini qizdirib

**205.** Laboratoriya sharoitida qaysi olim qanday yo'l bilan protenoidlar (oqsilsimon moddalar)ni sintezladi?

A) D.Oro; metan, ammiak va suv aralashmasidan ionlashtiruvchi nurlar ta'sir etib

B) S.Miller; qizdirilgan metan, ammiak, vodorod va suv bug'lariga elektr uchquni ta'sir etib

C) D.Oro; vodorod, sianid, ammiak va suvni qizdirib

D) S.Foks; aminokislotalar aralashmasini qizdirib

**206.** Quyidagilardan aerob organizmlar (1), kovakichlilar (2), qalqondor baliqlar (3) suvda ham qurilikda yashovchilarning dastlabki turlari (4) paydo bo'lgan erani toping.

a) arxei; b) paleozoy; c) proterozoy; d) mezozoy; e) kaynozoy.

A) 1 – c, 2 – c, 3 – b, 4 – b

B) 1 – a, 2 – b, 3 – c, 4 – d

C) 1 – a, 2 – c, 3 – b, 4 – c

D) 1 – c, 2 – a, 3 – b, 4 – b



207. Amerika zaharsiz suv iloni tashqi ko'rinishidan zaharli korall aspidiga o'xshashi moslanishning qaysi turiga misol bo'ladi?

- A) mimikriya
- B) adaptatsiya
- C) niqoblanish
- D) ogohlantiruvchi rang

208. Habashiston biogeografik viloyatining sutemizuvchi hayvonlarini toping.

- A) mindano, vapita
- B) qiloyoq, kanna
- C) kafr buyvoli, maral
- D) malla revun, shinshilla

209. Ch.Darvin Shimoliy va Janubiy Amerika hayvonlarini o'zaro taqqoslab Janubiy Amerikada qaysi hayvonlar borligini aniqladi?

A) toshbaqa, kaltakesak, kakadu

B) letyaga, toshbaqa, vyurok  
C) lama, tapir, kanna, qiloyoq, mindano

D) lama, tapir, yalqov, chumolixo'r, zirhlilar

210. Qirg'ovul kenja turi alohidalanishning qaysi yo'nalishiga kiradi?

- A) etologik
- B) mutatsion
- C) ekologik
- D) geografik

211. Bajaradigan vazifasi jihatidan o'xshash, ammo kelib chiqishi jihatidan har xil bo'lgan organlar qanday ataladi?

- A) konvergent organlar

B) gomologik organlar

C) rudiment organlar

D) analogik organlar

212. No'xatning gajaklari (1), do'lananing tikani (2) va malinaning tikani (3) nimaning o'zgarishidan hosil bo'lgan?

a) epidermis; b) barg; c) poya.

A) 1 – a, 2 – b, 3 – c

B) 1 – b, 2 – c, 3 – a

C) 1 – c, 2 – a, 3 – b

D) 1 – b, 2 – c, 3 – b

213. Quyidagilardan hayotning tuzilish darajalarini toping.

1) organ; 2) organizm; 3) turkum; 4) tur; 5) biotsenoz; 6) fitotsenoz; 7) molekula; 8) hujayra; 9) populyatsiya; 10) biosfera; 11) biogeotsenoz.

A) 2, 4, 7, 8, 9, 10, 11

B) 1, 2, 3, 7, 9, 10

C) 2, 3, 4, 6, 8, 10, 11

D) 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11

214. Qaysi o'simliklar hayvonlarning juniga va odamlarning kiyimiga yopishib uzoq masofalarga tarqaladi?

A) sigirquyruq, g'umay

B) yovvoyi sabzi, sariqchoy

C) ittikanak, qurtana

D) ebalak, sho'rak

215. Ayrim hollarda hayvonning tana shakli va rangi atrofidagi barg, novda, kurtak, o'simliklarga o'xshash bo'ladi. Bu hodisa nima deyiladi?

A) himoya rangi

B) mimikriya

C) ogohlantiruvchi

D) maskirovka

**216.** Meksikaning tropik qismi quyidagi biogeografik viloyatlardan qaysi biriga taalluqli?

- A) Paleoarktik
- B) Neotropik
- C) Habashiston
- D) Hindomalay

**217.** Evolyutsiyaning boshlang'ich materiali ... hisoblanadi.

- A) mutatsion, kombinativ o'zgaruvchanlik
- B) populyatsiya, turlarning hosil bo'lishi
- C) modifikatsion, kombinativ o'zgaruvchanlik
- D) organizmning erkin chatishuvi

**218.** O'simliklar populyatsiyasidagi areal hajmi nimaga bog'liq?

- A) chetdan changlanish masofasiga
- B) o'simliklar soniga
- C) ekologik muhitga
- D) urug'ning tarqalishiga

**219.** Ninabaliqning suvo'tlariga o'xshash bo'lishi moslanishning qaysi turiga kiradi?

- A) maskirovka
- B) himoya rangi
- C) ogohlantiruvchi
- D) mimikriya

**220.** Tiriklikning qaysi bosqichidan irsiy axborot berilishi boshlanadi?

- A) hujayra
- B) tur

C) populyatsiya

D) molekula

**221.** Har xil turga kiruvchi populyatsiyalar bir-biridan, avvalo, ... bilan farq qiladi.

- A) harakatlanish tezligi
- B) egallagan areal hajmi
- C) ko'payish intensivligi
- D) chetdan changlanish masofasi

**222.** 1928 – 1929-yillarda Amerika genetigi Meller qaysi usullarni ixtiro qildi?

- A) organizm genotipini aniqlash
- B) populyatsiya genofondini o'zgartirish
- C) populyatsiya genofondini aniqlash
- D) retsessiv, letal mutatsiyalarni aniqlash

**223.** Tiriklikning bir butunligi hayot darajalarining qaysi birida ta'minlanadi?

- A) molekula
- B) hujayra
- C) populyatsiya
- D) biogeotsenotik

**224.** Biologiya fanining ilk rivojlanish davrida qaysi usul keng qo'llangan?

- A) taqqoslash
- B) eksperimental
- C) modellashtirish
- D) kuzatish

**225.** Aristotel «zoofitlar» deb atagan hayvonlarni belgilang.

- 1) xivchinlilar; 2) volvokslar;
- 3) infuzoriyalar; 4) meduzalar;

5) aktiniyalar; 6) bulutlar; 7) ha-sharotlar; 8) qisqichbaqalar; 9) o'rgimchaklar.

- A) 1, 2, 3      B) 2, 3, 4  
C) 7, 8, 9      D) 4, 5, 6

**226.** Cho'l toshbaqalarini os-mondan qattiq yerga tashlab parchalab yeydigan qushlarni toping.

- A) burgut, qarchig'ay, jo'rchi  
B) burgut, lochin, kalxat  
C) burgut, tasqara, kalxat  
D) burgut, boltayutar, sarisor

**227.** Quyidagi qaysi hayvon-larning tana shakli va rangi atrofidagi narsalarga o'xshash bo'ladi?

1) beshiktervatar; 2) ko'lbuqa; 3) chupchik; 4) dengiz toychasi; 5) qovog'ari; 6) tukli ari; 7) tug-macha qo'ng'iz; 8) tillaqo'ng'iz.

- A) 1, 2, 3, 8  
B) 1, 3, 4, 6  
C) 1, 2, 3, 4  
D) 2, 4, 6, 8

**228.** Bargining usti mum qa-vat bilan qoplangan o'simlik ...

- A) sigirquyruq  
B) fikus  
C) sunbul  
D) ayiqtovon

**229.** Ikkitadan qiyofadosh turlari belgilangan hayvonlarni toping.

A) drozofila, bezgak chivini, qora kalamush

B) drozofila, uy pashshasi, kulrang kalamush

C) drozofila, latimeriya, gat-teriya

D) latimeriya, gatteriya, te-ropsid

**230.** Qirg'ovul kenja turlari keltirilgan javobni belgilang.

1) Yettisoy; 2) Kavkaz; 3) Murg'ob; 4) Yapon; 5) Xiva; 6) Manjur; 7) Pekin; 8) Ukraina; 9) Zagorsk; 10) Yakobin.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
B) 1, 3, 5, 7, 8, 9  
C) 2, 4, 6, 8, 10  
D) 2, 7, 8, 9, 10

**231.** J.Kyuve nerv sistema-si tuzilishiga qarab barcha hay-vonlarni qanday guruhga – tip-ga ajratdi?

1) umurtqalilar; 2) yumshoq tanlilar; 3) hasharotlar; 4) bo'g'imlilar; 5) sodda hayvon-lar; 6) shu'lalilar.

- A) 1, 2, 4, 6  
B) 1, 3, 4, 6  
C) 2, 4, 5, 6  
D) 1, 3, 5, 6

**232.** Agar organizmda bio-logik yuksalish (progress) bo'lsa, quyidagilarning qaysi birlari kuzatiladi?

1) bir turga mansub individlar soni orta boradi; 2) tur ishg'ol qilgan areal kengaya boradi; 3) tur zaminida yangi populyat-siyalar, kenja turlar, turlar va boshqa taksonomik birliklar ho-sil bo'ladi; 4) turlar soddalasha boradi; 5) taksonomik birliklar-ning kenja avlodi yo'qola boradi.

- A) 2, 3, 5      B) 1, 2, 4  
C) 3, 4, 5      D) 1, 2, 3

**233.** Hayvonlarda to'rt kamerali yurakning paydo bo'lishi organik evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga misol bo'ladi?

- A) divergensiya  
B) aromorfoz  
C) idioadaptatsiya  
D) konvergensiya

**234.** Biogenetik qonun deb nimaga aytiladi?

A) ontogenezda filogenezning, ya'ni tarixiy rivojlanishining qisqacha takrorlanishi  
B) organizmlarning tarixiy rivojlanishi

C) organizmlarning individual rivojlanishi

D) filogenezda ontogenezning, ya'ni tarixiy rivojlanishining qisqacha takrorlanishi

**235.** Filembriogenez nazariyasini kashf qilgan olim ...

- A) E.Gekker  
B) F.Myuller  
C) A.N.Seversov  
D) I.I.Mechnikov

**236.** Barglarning suv bug'lanishini kamaytirishga moslashganligi evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga kiradi?

- A) aromorfozga  
B) idioadaptatsiyaga  
C) umumiy degeneratsiyaga  
D) senogenezga

**237.** Parazit holda yashaydigan o'simlik qaysi?

- A) beda

- B) suv qaroqchisi  
C) qo'yitikan  
D) zarpechak

**238.** Qirqquloqlar bilan ochiq urug'li o'simliklar orasidagi oraliq formani toping.

- A) yo'sin  
B) urug'li qirqquloqlar  
C) qirqbo'g'im  
D) sporali o'simliklar

**239.** Quyidagi hayvonlardan qaysi biri tirik «qazilma» deb ataladi?

- A) latimeriya  
B) lansetnik  
C) tiropsid  
D) arxeoptriks

**240.** Chupchik rangi va shakli jihatidan ingichka novdani eslatadi. Bu moslanishning qaysi turiga kiradi?

- A) mimikriya  
B) himoya rangi  
C) ogohlantiruvchi  
D) maskirovka

**241.** Tasmasimon chuvalchanglarda ovqat hazm qilish sistemasining bo'lmasligi evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga misol bo'ladi?

- A) aromorfoz  
B) idioadaptatsiya  
C) umumiy degeneratsiya  
D) biologik regress

**242.** O'simliklarning sporali yo'l bilan ko'payishdan urug'dan ko'payishga o'tishi evolyutsion yo'nalishlarning qaysi biriga kiradi?

- A) aromorfoz
- B) idioadaptatsiya
- C) umumiy degeneratsiya
- D) biologik regress

**243.** Ildizpoyasidagi qobiqlar rudiment holdagi barg hisoblangan o'simliklarni toping.

1) karam; 2) marvaridgul; 3) jag'-jag'; 4) bug'doyiq; 5) paprotnik; 6) funariya; 7) aspidistra.

- A) 1, 2, 3, 5    B) 1, 4, 6, 7
- C) 1, 3, 5, 7
- D) 2, 4, 5, 7

**244.** Sporali va ochiq urug'li o'simliklar qaysi davrda avj olib rivojlangan?

- A) trias davrida
- B) yura davrida
- C) bo'r davrida
- D) uchlamchi davrda

**245.** Uchuvchi hasharot – suvaraklar, ninachilar qaysi davrda rivojlangan?

- A) toshko'mir
- B) yura
- C) kembriy
- D) perm

**246.** Havodagi erkin azotni o'zlashtirib, tuproqni azotga boyitishda ishtirok etadigan organizmni toping.

- A) tugunak bakteriya
- B) chirituvchi bakteriya
- C) achituvchi bakteriya
- D) temir bakteriya

**247.** «Yerda mavjud bo'lgan tirik organizmlar biopolimer-

lardan, ya'ni oqsillar va nuklein kislotalardan tuzilgan. Ular o'z-o'zini idora qila oladigan va yarata biladigan ochiq sistemalardir». Ushbu ta'rif kimga tegishli?

- A) V.Volkenshteyn
- B) J.Lamark
- C) L.Paster
- D) A.Tensli

**248.** Organik olam evolyutsiyasi to'g'risida mulohaza yuritganda nima sababdan barcha tirik mavjudotlar oddiydan murakkablanish tomon bir xil rivojlanmagan, ular orasida sodda va murakkab tuzilishga ega bo'lgan mavjudotlar mavjud degan savolni dastlab qaysi olimlar ijobiy hal qildilar?

- A) A.I.Oparin va Xoldeyn
- B) A.N.Seversov va I.I.Shmalgauzen
- C) A.N.Seversov va S.Arrenius
- D) G.Myuller va S.Myuller

**249.** Partenogenez yo'li bilan ko'payuvchi organizmni toping.

- A) odam askaridasi
- B) oq planariya
- C) yomg'ir chuvalchangi
- D) mayda qisqichbaqasimonlar

**250.** O'simlikka tushayotgan quyosh nurining necha foizi suv bug'lanishiga sarf bo'ladi?

- A) 25 foizi    B) 50 foizi
- C) 10 foizi    D) 75 foizi

**251.** Quyidagilardan mutalizm (1), kommensalizm (2) ga mos keladigan misollarni aniqlang.

a) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib yashashi; b) baliqlar o'zining tuxumlarini baqachanoqning mantiya bo'shlig'iga qo'yishi; c) o'rmon chumolilarining ichigida xivchinilarning yashashi; d) lishayniklar; e) odam og'iz bo'shlig'ida og'iz amyobasining yashashi.

A) 1 – c, d; 2 – a, e

B) 1 – c, d; 2 – b, e

C) 1 – a, e; 2 – c, d

D) 1 – a, b, c; 2 – d, e

**252.** Ekologik sistemalarning abiotik omillariga kiruvchi topografik omillarni belgilang.

a) balandlik; b) iqlim; c) tirik organizmlar; d) qiyalikning joylashishi; e) vaqt; f) qiyalikning tikligi; g) fotoperiodizm.

A) a, b, c      B) d, e, f

C) a, d, f      D) e, f, g

**253.** Shimoliy yarimsharda janubga qaragan qiyaliklarda yorug'lik va harorat shimolga qaragan qiyaliklarga nisbatan qanday bo'ladi?

A) pastroq      B) yuqoriroq

C) teng      D) juda past

**254.** Turning yaxlitligi individlar orasidagi ... xususiyatining mavjudligiga bog'liqdir.

A) sun'iy urchish

B) panmiksiya

C) ko'payish

D) sun'iy urchish

**255.** Tasodifiy o'zgarishlar qaysi populyatsiyalarga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi?

A) kam sonli

B) ko'p sonli

C) gomozigotali

D) geterozigotali

**256.** Xalqaro «Qizil kitob»ga nechta qushlar (1), sudralib yuruvchilar (2) turi kiritilgan?

a) 321; b) 485; c) 141; d) 41; e) 194.

A) 1 – b, 2 – c

B) 1 – d, 2 – e

C) 1 – c, 2 – d

D) 1 – d, 2 – e

**257.** Xalqaro «Qizil kitob»ga nechta suvda ham quruqlikda yashovchilar (1), baliqlar (2) turi kiritilgan?

a) 141; b) 41; c) 194; d) 321.

A) 1 – a, 2 – b

B) 1 – b, 2 – c

C) 1 – c, 2 – b

D) 1 – a, 2 – d

**258.** Xalqaro «Qizil kitob»ga (a) va O'zbekiston «Qizil kitob»iga (b) kiritilgan sudralib yuruvchilarning soni to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) a – 141; b – 5

B) a – 41; b – 5

C) a – 5; b – 15

D) a – 141; b – 41

**259.** 2003-yili nashr etilgan O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan hayvonlar (1) va 1998-yili nashr etilgan «Qizil kitob»ga

kiritilgan o'simliklar (2) sonini aniqlang.

a) 163; b) 301; c) 63; d) 184.

A) 1 - d, 2 - a

B) 1 - d, 2 - b

C) 1 - c, 2 - d

D) 1 - a, 2 - b

**260.** Agroekosistemaning tabiiy ekosistemadan farqi berilgan javobni toping.

a) turlar soni ko'p; b) turlar soni kam; c) o'z-o'zini idora qilolmaydi; d) turg'unligi mustahkam emas; e) turg'unligi mustahkam; f) energiya manbai quyosh energiyasi va inson tomonidan sarflanadigan energiya.

A) a, c, e, f      B) b, c, e

C) b, c, d, f      D) a, c, d, f

**261.** Ko'krak qafasi tor (1) va ko'krak qafasi keng (2) adaptiv tiplarni aniqlang.

a) tog'; b) o'rta iqlim; c) arktik; d) tropik.

A) 1 - b, 2 - a

B) 1 - d, 2 - a

C) 1 - a, 2 - d

D) 1 - c, 2 - b

**262.** Bosh skeletsizlar kenja tipi qaysi erada paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi?

A) arxey erasining oxiri

B) paleozoy erasining boshlari

C) proterozoy erasining oxiri

D) kaynozoy erasining boshlari

**263.** Qaysi davrda atmosfera quruq va shaffof bo'lgan?

A) trias

B) bo'r

C) yura

D) ordovik

**264.** Arxey erasida ro'y bergan yirik aromorfozlarni toping.

A) fotosintez, jinsiy ko'payish: ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lgan

B) suvo'tlar, kovakichlilar, halqali chuvalchanglar va umurtqasizlarning boshqa ko'pgina tiplari rivojlandi

C) sudralib yuruvchi hayvonlar kelib chiqqan

D) qo'ng'ir, qizil suvo'tlar, boshoyoqli, qorinoyoqli molluskalarning xilma-xilligi ortadi

**265.** Mezozoy erasi qanday davrlarga bo'linadi?

A) kembriy, ordovik, devon, toshko'mir, yura, bo'r

B) kembriy, perm, toshko'mir, ordovik, silur, devon

C) trias, yura, bo'r

D) trias, perm, toshko'mir, devon

**266.** Dastlabki avtotrof organizmlar paydo bo'lgan erani toping.

A) paleozoy

B) proterozoy

C) arxey

D) mezozoy

**267.** Sutemizuvchi hayvonlar va gulli o'simliklar qaysi erada avj olib rivojlangan?

A) arxey

B) proterozoy

C) paleozoy

D) kaynozoy

**268.** Otning ikkinchi va to'rtinchi barmoqlari nimaga misol bo'ladi?

- A) atavizm
- B) analogik organlar
- C) rudiment organlar
- D) gomologik organlar

**269.** Dumg'aza va oyoq suyaklarining rudiment holatda bo'lishi qaysi hayvonga xos?

- A) dengiz otchasi
- B) manta
- C) morj
- D) kit

**270.** Qaysi davrda o'rmonlarning kamayishi va o't o'simliklarning keng tarqalishi yuz bergan?

- A) kembriy
- B) uchlamchi
- C) ordovik
- D) silur

**271.** ...larning ba'zi vakillari sudralib yuruvchilar bilan sutemizuvchilar orasidagi oraliq forma hisoblanadi.

- A) opossum
- B) tiropsid
- C) ixtiozavr
- D) protovis

**272.** Yopiqurug'lilarning kelib chiqishi evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga oid?

- A) aromorfoz
- B) umumiy degeneratsiya
- C) idioadaptatsiya
- D) konvergensiya

**273.** Hayvonlardagi himoya rangi evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga misol bo'la oladi?

- A) aromorfoz
- B) idioadaptatsiya
- C) umumiy degeneratsiya
- D) divergensiya

**274.** Gulli o'simliklar qaysi erada avj olib rivojlangan?

- A) arxey
- B) mezozoy
- C) paleozoy
- D) kaynozoy

**275.** Yomg'ir chuvalchangida qon aylanish sistemasining paydo bo'lishi quyidagilardan qaysi biriga misol bo'ladi?

- A) umumiy degeneratsiya
- B) idioadaptatsiya
- C) aromorfoz
- D) konvergensiya

**276.** Jannat qushi qaysi biogeografik viloyatda uchraydi.

- A) Avstraliya
- B) Efiopiya
- C) Neotropik
- D) Paleoarktik

**277.** Paleozoy erasida paydo bo'lgan organizmlarni belgilang.

A) jag'siz qalqondor baliqlar, suvda ham quruqlikda yashovchilarning dastlabki vakillari, latimeriya

B) latimeriya, primatlar, tana-si kalamushdek dastlabki sutemizuvchi hayvonlar

C) sudralib yuruvchi hayvonlar, havoda uchar kaltakesaklar, arxeopterikslar

D) suvo'tlari, kovakichlilar, halqali chuvalchanglar, mol-



lyuskalar, bo'g'imoyoqlilar va umurtqasizlarning boshqa ko'p-gina tiplari

278. Umumiy degeneratsiya organizmlarning qaysi xususiyatlari bilan aloqador?

A) muayyan yashash sharoiti-ga moslashuvi

B) bo'g'indan bo'g'inga o'tgan sari individlar

C) populyatsiya va turfar soni kamayishi

D) o'troq yoki parazit holda hayot kechirishi

279. Sherbashara odamning tug'ilishi quyidaqilardan qaysi biriga misol bo'ladi?

A) atavizm

B) aromorfoz

C) rudiment

D) filogenez

280. Quyida berilgan o'simliklarning tikani qaysi qismining o'zgarishidan yuzaga kelgan?

1) zirk; 2) do'lana; 3) atirgul; 4) malina.

a) novda; b) barg; c) epidermis o'siqlari; d) parenxima.

A) 1 - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d

B) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - c

C) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - b

D) 1 - d; 2 - a; 3 - b; 4 - c

281. Qaysi olim hayotning abiogen usulda kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyani taklif etgan?

A) A.I.Oparin

B) S.Arrenius

C) F.Krik

D) G.Miller

282. Dastlabki hasharotlar qaysi davrda paydo bo'lgan?

A) perm

B) devon

C) yura

D) toshko'mir

283. Arxeopterikslar qaysi davrda paydo bo'lgan?

A) bo'r

B) trias

C) yura

D) perm

284. Qaysi olimning e'tirof etishicha, Yer dastlab yagona quruqlik - Pangeya va yagona okeandan iborat bo'lgan?

A) A.Vegener

B) D.Guker

C) A.Sedjvik

D) F.Krik

285. Karamda xromosomalar soni nechta?

A) 20 ta

B) 24 ta

C) 12 ta

D) 18 ta

286. Hozirgi davrda yashayotgan to'garak og'izlilar, minogalar, miksinalarning uzoq ajdodini toping.

A) ko'p tukli halqalilar

B) kam tukli halqalilar

C) trilobitlar

D) qalqondorlar

287. Korall riflarning paydo bo'lishi qaysi davrda avj olgan?

A) toshko'mir

B) ordovik

C) silur

D) devon

**288.** Ko'p hujayrali organizmlar: suvo'tlar, kovakichlilar, halqali chuvalchanglar, mollyuskalar va boshqa ko'pgina tiplar qaysi erada rivojlangan?

A) arxey erasining ikkinchi yarmida

B) proterozoy boshida

C) proterozoy oxirida

D) paleozoy boshida

**289.** Jinsiy ko'payish jarayoni qaysi erada rivojlangan?

A) arxey

B) proterazoy

C) paleozoy

D) mezazoy

**290.** Bülutlar hamda ayrim bir-ikki palla chig'anoqli mollyuskalar turli-tumanligining kamayishi qaysi davrda yuz bergan?

A) kembriy

B) ordovik

C) silur

D) devon

**291.** Ninatanlilar paydo bo'lgan davrni toping.

A) kembriy

B) ordovik

C) silur

D) devon

**292.** Suyakli baliqlar kelib chiqqan davrni belgilang.

A) ordovik

B) devon

C) silur

D) kembriy

**293.** Ochiq urug'li o'simliklar qachon paydo bo'lgan?

A) devon

B) toshko'mir

C) ordovik

D) silur

**294.** Sudralib yuruvchilar sinfining vakillari qaysi davrda kelib chiqqan?

A) ordovik

B) toshko'mir

C) silur D) perm

**295.** Tanasi kalamushdek dastlabki sutemizuvchi hayvonlar qaysi davrda kelib chiqqan?

A) uchlamchi davrda

B) to'rtlamchi davrda

C) yura davrida

D) trias davrida

**296.** Dastlabki gulli o'simliklar paydo bo'lgan davrni toping.

A) perm davri

B) trias davri

C) yura davri

D) bo'r davri

**297.** Yopiq urug'li o'simliklarning bir urug' pallali, ikki urug' pallali sinflari ko'p oilalari qachon rivojlangan?

A) trias davrining boshlarida

B) yura davrining oxirida

C) bo'r davrining o'rtalarida

D) uchlamchi davr boshida

**298.** O'rmon chumolisi ichagida yashovchi sodda hayvonlar sinfini belgilang.

A) kiprikli

B) infuzoriyalar

C) xivchinlilar

D) soxtaoyoqlilar

**299.** Sudralib yuruvchilar sinfi yuzaga kelgan erani aniqlang.

- A) arxey erasi
- B) proterozoy erasi
- C) mezozoy erasi
- D) paleozoy erasi

**300.** Qirg'ovul kenja turlarining hosil bo'lishi quyidagilarning qaysi biriga misol bo'ladi?

- A) regress
- B) umumiy degeneratsiya
- C) makroevolyutsiya
- D) mikroevolyutsiya

**301.** Panja qanotli baliqlarning ayrim vakillari qaysi davrda quruqlikka chiqqan?

- A) kembriy davrida
- B) ordovik davrida
- C) devon davrida
- D) toshko'mir davrida

**302.** Aromorfozga misol bo'ladigan javobni toping.

- A) hayvonlarda himoya rangi
- B) hayvonlardagi mimikriya hodisasi
- C) o'simliklarning shamol yordamida changlanishi
- D) umurtqali hayvonlarda qon aylanishining takomillasha borishi

**303.** Tuzilishiga ko'ra turli sinf belgilarini o'zida birlashtirgan organizmlar ... deyiladi.

- A) relik
- B) oraliq formalar
- C) sovuq-qonli hayvonlar
- D) issiq qonli hayvonlar

**304.** Suvda ham quruqlikda yashovchilarda ikkita qon ayla-

nish doirasining paydo bo'lishi quyidagilardan qaysi biriga misol?

- A) idioadaptatsiya
- B) aromorfoz
- C) umumiy degeneratsiya
- D) regeneratsiya

**305.** Gulli o'simliklar meva va urug'larining tarqalishiga bog'liq bo'lgan moslanishlarni evolyutsiyaning qaysi yo'nalishiga kiritish mumkin?

- A) aromorfoz
- B) idioadaptatsiya
- C) degeneratsiya
- D) divergensiya

**306.** Uch barmoqli yalqov qaysi biogeografik viloyat hayvonot olami vakili?

- A) Paleoarktik
- B) Neotropik
- C) Hindomalay
- D) Neoarktik

**307.** «Yerga hayot Quyosh sistemasidan tashqarida bo'lgan boshqa sayyoralar sistemasidan ongli ravishda keltirilgan». Bu kimning fikri?

- A) S.Arrenius
- B) I.Oparin
- C) S.Miller
- D) F.Krik

**308.** Tashqi muhit bilan modalar almashinish xususiyatiga ega bo'lgan koatservatlar nima deb ataladi?

- A) viruslar
- B) prokariotlar
- C) eukariotlar

D) protobiontlar

**309.** Yunoncha «paleozoy» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) o'rta hayot
- B) dastlabki hayot
- C) yangi hayot
- D) qadimgi hayot

**310.** Tikani bargining o'zgarishidan hosil bo'lgan o'simliklar berilgan javobni toping.

1) do'lana; 2) kaktus; 3) zirk; 4) akatsiya; 5) maymunjon; 6) malina.

- A) 1, 2, 5
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 5, 6
- D) 2, 4, 5

**311.** Qaysi davr oxiriga kelib yashash uchun kurashda yo'l-doshli sutemizuvchi hayvonlar xaitalilardan ustun kelgan?

- A) uchlamchi davr
- B) to'rtlamchi davr
- C) yura davri
- D) bo'r davri

**312.** Organik olamning takomillashishiga, xilma-xilligining ortishiga nima sabab bo'lgan?

- A) biologik progress
- B) ontogenez
- C) filogenez
- D) biologik regress

**313.** Latimeriya hozirda qayerlarda uchraydi?

- A) Avstraliya, Yangi Zelandiya
- B) Janubiy Afrika, Madagaskar
- C) Shimoliy Afrika, Tasmaniya orollari
- D) Hindiston

**314.** Qaysi taxminga ko'ra hayot koinotda mangu mavjud bo'lib, bir sayyoradan ikkinchi sayyora ko'chib yuradi?

- A) abiogen
- B) panspermiya
- C) filembriogenez
- D) panmiksiya

**315.** Aneuploid turlar nima-ni natijasida kelib chiqqan?

- A) xromosomalar sonining ortishi yoki kamayishi
- B) xromosomalar bir yelkasining uzilishi
- C) xromosomada genlar sonining ortishi
- D) genlar strukturasi o'zgarishi

**316.** Odam embrioni rivojlanishining 18 – 20 kunligida qaysi a'zo paydo bo'ladi?

- A) yurak
- B) beshta miya pufagi
- C) miya po'stlog'i
- D) jabra yoriqlari

**317.** Hayotning qandaydir g'ayritabiiy kuchlar tomonidan yaratilganligini qaysi nazariya yoqlaydi?

- A) kreationsizm
- B) abiogenez
- C) biogenez
- D) panspermiya

**318.** Infuzoriyalar ustida tajriba olib borgan olim kim?

- A) G.F.Gauze
- B) V.N.Sukachev
- C) V.V.Dokuchayev
- D) J.Kyuve

**319.** Hozirgi vaqtda biologik progressda bo'lgan organizmlarni toping.

1) hasharotlar; 2) sutemizuvchilar; 3) suyakli baliqlar; 4) kemiruvchilar; 5) paporotniklar; 6) gulli o'simliklar; 7) sudralib yuruvchilar.

- A) 3, 4, 7      B) 1, 3, 4, 6  
C) 1, 2, 4, 5      D) 1, 5, 6, 7

**320.** Odamda nechta rudiment-organlar mavjud?

- A) 90 ta      B) 6 ta  
C) 24 ta      D) 12 ta

**321.** Hayvonlar va o'simliklarning janubdan shimolga tarqalishida nima cheklovchi omil sanaladi?

- A) namlik yetishmasligi  
B) issiqlik yetishmasligi  
C) tuproq  
D) bosim

**322.** Keng bargli o'rmonning birinchi yarusini qaysi o'simliklar tashkil etadi?

- A) gulxayri, qirqbo'g'im  
B) zarang, chetan  
C) kalina, zarang  
D) eman, shumtol

**323.** Dengiz ekosistemalarini nimalar tashkil qiladi?

- A) limanlar  
B) ochiq dengizlar va kontinental shelflar  
C) kontinental shelflar  
D) ochiq dengizlar

**324.** Nima uchun kam sonli populyatsiyalar tez qirilib ketadi?

A) tug'ilish o'limning o'rnini to'ldirolmagani uchun

B) yashash joyi tor bo'lganligi tufayli

C) yemish uchun kuchli raqobat sababli

D) oziq kam qolganligi uchun

**325.** Ekosistema atamasini fanga kim kiritgan?

- A) A.Tensli  
B) V.Vernadskiy  
C) E.Zyuss  
D) G.Gayze

**326.** Hayvon organizmidagi davriy o'zgarishlarni belgilovchi omil nima?

- A) oziqning kamayishi  
B) haroratning o'zgarishi  
C) kun uzunligining o'zgarishi  
D) hayot faoliyatining susayishi

**327.** Qaysi organizmlar tuproq-gumusi-tarkibidagi oqsillarni aminokislotalarga parchalaydi?

- A) tuproq bakteriyalari  
B) azot bakteriyalari  
C) zamburug'lar  
D) lishayniklar

**328.** Alp o'simliklarida suv bug'lanishini kamaytiruvchi qanday moslanish mavjud?

- A) bargining tikanga aylanishi  
B) qalin mum qavatining hosil bo'lishi

- C) qalin tuklar bilan qoplanishi  
D) bargining so'lganligi

**329.** Sigirquyruqda suv bug'lanishini kamaytiruvchi qanday moslanish bor?

- A) bargining tikanga aylanishi
- B) qalin mum qavatining hosil bo'lishi
- C) qalin tuklar bilan qoplanishi
- D) barglarining so'lganligi

**330.** Tuyaning suv bug'lanishini kamaytiruvchi moslanish omilini toping.

- A) nafas teshiklarining klapnlar bilan berkilishi
- B) ter ajratishning kamayishi
- C) yerosti suvlarigacha yo'l ochish
- D) maxsuslashgan siydik pufagida suvni to'plashi

**331.** Hasharotlarda suv bug'lanishini kamaytiruvchi qanday moslanish mavjud?

- A) nafas teshiklarining klapnlar bilan berkilishi
- B) ter ajratishning kamayishi
- C) yerosti suvlarigacha yo'l ochish
- D) maxsuslashgan siydik pufagida suvni to'plashi

**332.** Termitlarda suv so'rili-shini kuchaytiruvchi qanday moslanish bor?

- A) nafas teshiklarining klapnlar bilan berkilishi
- B) ter ajratishning kamayishi
- C) yerosti suvlarigacha yo'l ochish
- D) maxsuslashgan siydik pufagida suvni to'plashi

**333.** Sahro baqasining suv tanqisligiga moslanish omilini aniqlang.

- A) nafas teshiklarining klapnlar bilan berkilishi
- B) ter ajratishning kamayishi
- C) yerosti suvlarigacha yo'l ochish
- D) maxsuslashgan siydik pufagida suvni to'plashi

**334.** Yomg'ir chuvalchangida suv tanqisligiga qanday moslanish bo'ladi?

- A) yer ostidan suv izlaydi
- B) suvni ko'p yo'qotganda ham hayotiy xususiyat saqlaydi
- C) tana massasi ancha kamayganda ham suv bo'lsa, o'zini tez tiklaydi
- D) pillaga o'ralib yozgi uyquga ketadi

**335.** Tuproqshunoslik faniga qaysi olim asos solgan?

- A) V.Vernadskiy
- B) N.Zyuss
- C) V.Dokuchayev
- D) S.Arrenius

**336.** Tuproq hosil qiluvchi omillar nechtaga bo'linadi?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

**337.** Gumus nima?

- A) tuproqdagi organik moddalar yig'indisi
- B) tuproqdagi mineral moddalar
- C) organik moddalar parchalanishining oxirgi mahsuloti
- D) mineral modda

**338.** Qiyalik qancha tik bo'lsa, unda o'simliklar shuncha

kam o'sadi. Bunda, asosan, qanday o'simliklar uchraydi?

- A) gigrofit
- B) gidrofit
- C) mezofit
- D) kserofit

**339.** Gormonlar sekretsiyasi va hujayra bo'linishi tezligining o'zgarishi qaysi biologik ritmlarning turiga kiradi?

- A) kecha-kunduzlik
- B) yillik
- C) mavsumiy
- D) o'zgarib turuvchi

**340.** O'zaro raqobat, parazitizm va yirtqichlik organizmlar o'zaro munosabatlarining qaysi turiga kiradi?

- A) simbioz
- B) neytralizm
- C) antibiotiz
- D) mutualizm

**341.** O'simliklar zamburug'lar yoki bakteriyalar bilan zararlanganda ularga qarshi qanday antibiotiklarni ishlab chiqaradi?

- A) fikotsian
- B) fitoaleksin
- C) penitsillin
- D) siankolamin

**342.** O'zbekiston hududida baliqlarning necha turi mavjud?

- A) 79 ta
- B) 37 ta
- C) 410 ta
- D) 99 ta

**343.** Yurtimiz hududida sudralib yuruvchilarning necha turi bor?

- A) 79 ta
- B) 37 ta
- C) 410 ta
- D) 99 ta

**344.** O'zbekiston hududida qushlarning necha turi mavjud?

- A) 79 ta
- B) 37 ta
- C) 410 ta
- D) 99 ta

**345.** Yurtimiz hududida sutemizuvchilarning necha turi bor?

- A) 79 ta
- B) 37 ta
- C) 410 ta
- D) 99 ta

**346.** Autekologiya nimani o'rganadi?

A) har xil turga mansub organizmlar umumlashmasining o'zaro va muhit bilan munosabatlarini

B) bir turga mansub ayrim organizmlar yoki, populyatsiyalarning o'zaro va muhit bilan munosabatlarini

C) ekologik sistemalarning sayyoramizda hayot kelib chiqishi bilan birga o'zgarishlari, biosferaning evolyutsiyasiga insonning ta'sirini

D) insoniyat sivilizatsiyasi va texnologiyasining rivojlanishi natijasidagi ekologik o'zgarishlarni neolit davridan boshlab hozirgi davrgacha o'rganadi

**347.** Sinekologiya nimani o'rganadi?

A) har xil turga mansub organizmlar umumlashmasining o'zaro va muhit bilan munosabatlarini

B) bir xil turga kiruvchi organizmlarning o'zaro va muhit bilan munosabatini

C) ekologik sistemalarning sayyoramizda hayot kelib chiqishi bilan birga o'zgarishlari, biosferaning evolyutsiyasiga insonning ta'sirini

D) insoniyat sivilizatsiyasi va texnologiyasining rivojlanishi natijasidagi ekologik o'zgarishlarni neolit davridan boshlab hozirgi davrgacha o'rganadi

**348.** Evolyutsion ekologiya bo'limining o'rganish predmetini toping.

A) har xil turga mansub organizmlar umumlashmasining o'zaro va muhit bilan munosabatlarini

B) bir xil turga kiruvchi organizmlarning o'zaro va muhit bilan munosabatini

C) ekologik sistemalarning sayyoramizda hayot kelib chiqishi bilan birga o'zgarishlari, biosferaning evolyutsiyasiga insonning ta'sirini

D) insoniyat sivilizatsiyasi va texnologiyasining rivojlanishi natijasidagi ekologik o'zgarishlarni neolit davridan boshlab hozirgi davrgacha o'rganadi

**349.** Tarixiy ekologiya bo'limining o'rganish predmetini toping.

A) har xil turga kiruvchi organizmlarning o'zaro va muhit bilan munosabatini

B) bir xil turga kiruvchi organizmlarning o'zaro va muhit bilan munosabatini

C) biosferaning evolyutsiyasiga insonning ta'sirini

D) inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ekologik o'zgarishlarni neolit davridan boshlab hozirgi davrgacha o'rganadi

**350.** Mutualizmga misol qilib quyidagilarning qaysi birini keltirish mumkin?

A) baliq tuxumlarini yumshoq tanlilarning mantiya bo'shlig'iga qo'yishi

B) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib olishi

C) daraxtlar bilan tuproqda mikoriza zamburug'larining o'zaro munosabatlarini

D) hayvonlarning qishki uyquga ketishi

**351.** Sinoykiyaga misol qilib quyidagilarning qaysi birini keltirish mumkin?

A) baliq tuxumlarini yumshoq tanlilarning mantiya bo'shlig'iga qo'yishi

B) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib olishi

C) daraxtlar bilan tuproqda mikoriza zamburug'larining o'zaro munosabatlarini

D) hayvonlarning qishki uyquga ketishi

**352.** Kommensalizmga misol qilib quyidagilarning qaysi birini keltirish mumkin?



A) baliq tuxumlarini yumshoq tanilarning mantiya bo'shlig'iga qo'yishi

B) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib olishi

C) daraxtlar bilan tuproqda mikoriza zamburug'larining o'zaro munosabatlarini

D) hayvonlarning qishki uyquga ketishi

**353.** Hayvonlarda biologik katalizatorlar tarkibida biokimyoviy reaksiyalarni tezlashtirishni ta'minlaydigan kimyoviy element ...

A) Ca B) P

C) Fe D) Mg

**354.** Mikroskopning ko'rish kuchi qanday aniqlanadi?

A) ikki nuqtani farq qilish uchun zarur bo'lgan minimum masofa bilan

B) - ikki nuqtani farq qilish uchun zarur bo'lgan maksimum masofa bilan

C) obyektiv va okulyardagi sonlarning ko'paytmasi bilan

D) obyektiv va okulyardagi sonlarning yig'indisi bilan

**355.** Moddalarning mikroskopiya nazariyasiga ko'ra, mikroskop ko'rish kuchining chegarasi nimaga teng?

A) yorug'lik to'lqin uzunligining yarmiga

B) yorug'lik to'lqin uzunligining 1/3 qismiga

C) obyektiv bilan preparat orasidagi masofaga

D) yorug'lik to'lqin uzunligiga

**356.** Qanday organizmlarning DNKsi sitoplazmada joylashib va membrana bilan o'ralmagan?

A) vertitsill B) eukariot

C) prokariot D) fag

**357.** Faqat prokariot hujayrada uchraydigan organoid qanday ataladi?

A) mezosoma

B) plazmada

C) o'zak ip

D) vakuol

**358.** Qaysi organizmlarning DNKlari oqsillar bilan birga komplekslar hosil qilmaydi?

A) bakteriya

B) vertitsill

C) achitqi

D) zamburug'

**359.** Nerv hujayralarida hosil bo'ladigan qo'zg'alishlarning o'tishi qaysi kimyoviy elementlarga bog'liq?

A) Na; K, Cl

B) Na, K, Ca

C) Fe, Mg, K

D) Na, K, Fe

**360.** Jinsiy gormonlarning faolligini oshiruvchi element ...

A) Ca B) Zn

C) Fe D) Na

**361.** Qon hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega elementni toping.

A) Fe B) Zn

C) Mg D) Na

**362.** Kalsiy va fosforning asosiy qismi qaysi to'qimalarni hosil qilishda, mustahkamligini ta'minlashda ishtirok etadi?

- A) muskul to'qimalarni
- B) nerv to'qimalarni
- C) suyak to'qimalarni
- D) epiteliy to'qimalarni

**363.** Organik birikmalar tirik organizmlar hujayrasining necha foizini tashkil qiladi?

- A) 20 – 30%
- B) 50 – 80%
- C) 10 – 15%
- D) 40 – 45%

**364.** Yumaloq shaklga ega bo'lgan oqsil ...

- A) gemoglobin
- B) albumin
- C) odam sochidagi oqsil
- D) ipak qurti ipagidagi oqsil

**365.** Qaysi oqsil xromoprotein oqsillar guruhiga kiradi?

- A) albumin
- B) globulin
- C) gemoglobin
- D) fibrin

**366.** Eng muhim monosaxaridlarni toping.

- A) riboza, saxaroza
- B) glyukoza, fruktoza
- C) glyukoza, saxaroza
- D) glyukoza, maltoza

**367.** Xitin qanday modda?

- A) oqsil
- B) yog'
- C) polisaxarid
- D) disaxarid

**368.** Quyidagilardan qaysi biri umurtqali hayvonlarda issiqlikni saqlash vazifasini bajaradi?

- A) yog'
- B) uglevod
- C) xromoprotein
- D) oqsil

**369.** Tuya o'rkachiga to'plangan yog' nimaning manbai hisoblanadi?

- A) energiya
- B) ozuqa
- C) suv
- D) ozuqa va energiya

**370.** Tiroksin gormonining tarkibida uchraydigan aminokislotalarni toping.

- A) treonin
- B) tirozin
- C) triptofan
- D) metionin

**371.** O'simlik yoki mikroorganizmlarning hujayralarida kechadigan anaerob nafas olish jarayoni qanday ataladi?

- A) fotosintez
- B) gidroliz
- C) achish
- D) chirish

**372.** Qanday organizmlar energiya manбайдan foydalanişhiga qarab fototrof va xemotroflarga bo'linadi?

- A) geterotrof
- B) saprofit
- C) avtotrof
- D) parazit

**373.** Ch.Darvinning nomi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot usulini toping.

- A) kuzatish
- B) tarixiy
- C) taqqoslash

D) eksperimental  
**374.** Tirik organizmlarning qaysi xususiyati homeostaz bilan bog'liq?

- A) o'zini o'zi idora etish
- B) nafas olish
- C) o'sish
- D) rivojlanish

**375.** Bakteriyali filtrdan o'ta olish xususiyatiga ega bo'lgan tuzilma ...

- A) viruslar
- B) spri'llalar
- C) tuban zamburug'lar
- D) sianobakteriyalar

**376.** Qaysi organizmlarda gazli vakuolalar bo'ladi?

- A) zamburug'larda
- B) prokariotlarda
- C) viruslarda
- D) eukariotlarda

**377.** Qaysi bakteriyalar kislorodsiz muhitda yashaydi?

- A) anaerob
- B) aerob
- C) chirituvchi
- D) parazit

**378.** Amyobasimon shaklli hujayrani aniqlang.

- A) antitana
- B) eritrotsit
- C) leykotsit
- D) trombosit

**379.** Bakteriofag nima?

A) bakteriyaning shakli har xil bo'lishi

B) bakteriyalar qo'zg'atadigan kasallik nomi

C) bakteriyaning ko'payish turi

D) bakteriyani o'ldiruvchi virus

**380.** O'z-o'zidan ko'paya oladigan organoid ...

- A) lizosoma
- B) ribosoma
- C) sentriola
- D) Golji majmuasi

**381.** Hujayra markazi bo'lmaydigan organizmlarni ko'rsating.

A) virus, bakteriya  
B) suvo't, bakteriya  
C) barcha hayvonlar, ayrim o'simliklar

D) sodda hayvonlar, bakteriofag

**382.** Xromatinning kimyoviy tarkibi qaysi?

- A) DNK, polisaxarid
- B) oqsil, nuklein kislota
- C) DNK, oqsil
- D) nuklein kislota, murein

**383.** Xromosomaning shakli nimaga bog'liq?

- A) sentromeraga
- B) sentriolaga
- C) xromatinga
- D) sentrosomaga

**384.** Qaysi organoidlar tarkibida DNK bo'ladi?

- A) lizosoma, mitoxondriya
- B) ribosoma, mezosoma
- C) xloroplast, mitoxondriya
- D) leykoplast, endoplazmatik to'r

**385.** Suv molekulasining bir chekkasi kuchsiz musbat zar-

yadga ega bo'lsa, ikkinchisi manfiy bo'ladi. Bunday molekula qanday nomlanadi?

- A) gidrofob
- B) gidroliz
- C) polimer
- D) dipol

**386.** Biopolimerlar qatoriga kiradigan moddalarni toping.

- A) oqsil, nuklein kislota, lipidlar
- B) gormonlar, vitaminlar, fermentlar
- C) oqsil, uglevod, nuklein kislota
- D) lipidlar, vitaminlar, kofermentlar

**387.** Qaysi biopolimerlar katalizatorlik vazifasini bajaradi?

- A) polisaxaridlar
- B) oqsillar
- C) nuklein kislota
- D) lipidlar

**388.** Axborot saqlovchi informatsion biopolimerlarni toping.

- A) polisaxaridlar
- B) oqsillar
- C) nuklein kislota
- D) koferment

**389.** Hujayrani energiya bilan ta'minlovchi biomolekulalarni aniqlang.

- A) polisaxaridlar va ayrim oqsillar
- B) uglevodlar va lipidlar
- C) nuklein kislota va vitaminlar
- D) vitamin va gormonlar

**390.** Qaysi organik birikma tarkibida azot miqdori doimiy bo'lib, u 16% ni tashkil etadi?

- A) nukleoid
- B) gormon
- C) nuklein kislota
- D) oqsil

**391.** Oddiy oqsillar nimadan tashkil topgan?

- A) oddiy metall atomidan
- B) faqat bitta karboksil guruhi-dan
- C) faqat aminokislotalardan
- D) xromoprotein oqsillardan

**392.** Aminokislotalarning xos-sasini belgilang.

- A) denaturatsiya
- B) degeneratsiya
- C) reduplikatsiya
- D) amfoterlik

**393.** Oqsildagi aminokislotalar ketma-ketligi nimaga bog'liq?

- A) ribosomalar soniga
- B) fermentlar turiga
- C) irsiy axborotga
- D) organizm yashash sharoitiga

**394.** Monosaxaridlar keltirilgan qatorni toping.

- A) kraxmal, glikogen
- B) riboza, fruktoza
- C) fruktoza, saxaroza
- D) glyukoza, xitin

**395.** Sellyulozaning monome-rini belgilang.

- A) saxaroza
- B) laktoza
- C) riboza
- D) glyukoza

**396.** O'simlik (1) va zamburug' (2) hujayralarining qobig'i hamda hasharotlarning tashqi

skeleti (3) tarkibidagi polisaxaridlarni toping.

a) xitin; b) glikogen; c) kraxmal; d) selluloza.

A) 1 – d, 2 – b, 3 – c

B) 1 – c, 2 – b, 3 – a

C) 1 – d, 2 – a, 3 – a

D) 1 – b, 2 – d, 3 – a

**397.** O'simlik va hayvonlar mumdan nima maqsadda foydalanadi?

A) himoya

B) suvni yuqtirmaslik

C) energiya

D) suvni ko'p miqdorda jamg'arish

**398.** O'rgimchaksimonlar tashqi skeleti tarkibidagi polisaxaridni toping.

A) glikogen B) selluloza

C) xitin D) glikokaliks

**399.** Aminokislotalarni kodlamaydigan kodonlar qanday ataladi?

A) terminator

B) antikodon

C) transformatsiya

D) matritsa

**400.** Oqsil sintezining qaysi bosqichi yadroda amalga oshadi?

A) translyatsiya

B) transkripsiya

C) transduksiya

D) transformatsiya

**401.** Glyukozaning to'liq parchalanishi natijasida nechta molekula ATF sintezlanadi?

A) 36 ta

B) 2 ta

C) 38 ta D) 40 ta

**402.** Yorug'lik ta'sirida suv dissotsialanish jarayoniga nima deyiladi?

A) foton B) gidroliz

C) fotoliz D) taksis

**403.** 235 ta aminokislotalardan iborat oqsil zanjiri sintezlashda necha molekula suv ajraladi?

A) 234 ta

B) 235 ta

C) 117 ta

D) 470 ta

**404.** Quyidagi ketma-ketlikka ega bo'lgan DNK zanjiridagi vodород bog'lar sonini aniqlang.

ATTGSSTAGG TAASGGAT-SS

A) 20

B) 22

C) 24

D) 25

**405.** Yadroda (1) va sitoplazmada (2) amalga oshadigan jarayonlarni toping.

a) translyatsiya; b) transkripsiya; c) reduplikatsiya.

A) 1 – a, b; 2 – c

B) 1 – a; 2 – b, c

C) 1 – b, c; 2 – a

D) 1 – a, c; 2 – b

**406.** Quyidagilardan terminatorlarni ajrating.

1) UAG; 2) UAU; 3) UAA; 4) UAU; 5) UGA; 6) UGS.

A) 1, 2, 3 B) 1, 4, 5

C) 1, 3, 5 D) 4, 5, 6

**407.** Qaysi hujayralar shaklini o'zgartirish xususiyatiga ega?

A) leykotsitlar va ayrim biriktiruvchi to'qima hujayralari

B) biriktiruvchi to'qima hujayralari

C) eritrotsit va leykotsitlar

D) nerv hujayralari

**408.** Ribosoma RNK va oqsil miqdori qanday nisbatda bo'ladi?

A) asosan, RNK, kam miqdorda oqsil

B) asosan, oqsil, kam miqdorda RNK

C) taxminan teng miqdorda RNK va oqsil

D) oqsil deyarli bo'lmaydi

**409.** Albuminlar sirasiga kirmaydigan oqsillar qaysi?

A) tuxum oqsili

B) gemeglobin

C) no'xat oqsili

D) bug'doy oqsili

**410.** Tirik organizmlarga xos bo'lgan qo'zg'aluvchanlikni amalga oshirishni ta'minlaydigan ionlarni aniqlang.

A)  $K^+$ ,  $Na^+$ ,  $Ca^{+2}$

B)  $H_2PO_4^-$ ,  $HPO_4^{-2}$

C)  $Fe^{+2}$ ,  $Ca^{+2}$ , P

D)  $OH^-$ ,  $HCO_3^-$

**411.** Hujayraning 98% ni qaysi elementlar tashkil etadi?

A) vodorod, kislorod, karbon, azot

B) suv, kislorod, vodorod, azot

C) suv, oltingugurt, fosfor, azot

D) vodorod, kislorod, karbon, suv

**412.** Qaysi o'zbek olimlari hujayraning kimyoviy tarkibi va ularda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlarni o'rganishga katta hissa qo'shgan?

A) Y.To'raqulov, B.Toshmuhamedov

B) S.Alimuhamedov, V.Yaxon-tov

C) M.Muzaffarov, S.Asqarov

D) M.Mavloniy, M.Mirzayev

**413.** Biologiya fanining qaysi usulidan foydalanib har qanday biologik hodisalarni tasvirlash mumkin?

A) kuzatish

B) taqqoslash

C) eksperimental

D) tarixiy

**414.** Biologiya fanining qaysi usuli fizika va kimyo fanlarining ravnaqi tufayli XIX – XX asrlardan keng qo'llanila boshlandi?

A) kuzatish usuli

B) taqqoslash usuli

C) eksperimental usuli

D) tarixiy usuli

**415.** Tiriklikning tuzilish darajalari ketma-ketlikda berilgan javobni toping.

1) molekula; 2) hujayra; 3) virus; 4) to'qima; 5) organ; 6) organizm; 7) prokariot; 8) populatsiya; 9) biogeotsenoz; 10) biotsenoz; 11) biosfera.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 8, 9, 11

B) 2, 3, 4, 5, 8, 10, 11

C) 1, 2, 3, 5, 6, 8, 10, 11

D) 3, 4, 7, 10, 11

**416.** Tiriklikning qaysi darajasida energiyani to'plash va taqsimlash (I), modda va energiyaning davriy aylanishi (II) kuzatiladi?

A) I – biogeotsenoz; II – biosfera

B) I – biotsenoz; II – biosfera

C) I – populyatsiya; II – biogeotsenoz

D) I – populyatsiya; II – biosfera

**417.** Tamaki mozaikasi virusi tuzilishini toping.

A) oqsil qobiq, DNK

B) oqsil qobiq, RNK

C) lipid qobiq, RNK

D) oqsil qobiq, RNK va DNK

**418.** Ko'k-yashil suvo'tlarning po'sti (I) va zamburug' (II) qobiqlari qanday moddalardan iborat?

a) pektin; b) sellyuloza; c) glikogen; d) murein; e) fikot-sian; f) xitin.

A) I – a; II – f

B) I – d; II – f

C) I – b; II – d

D) I – e; II – f

**419.** Hujayra nazariyasini yaratishda qaysi ilmiy tadqiqot usulidan foydalanilgan?

A) kuzatish

B) taqqoslash

C) eksperimental

D) tarixiy

**420.** Suvda yashab uni tozalovchi organizmlar qanday ataladi?

A) biofiltr B) bentos

C) plankton D) tallom

**421.** DNK molekulasi halqa shakli bo'lgan organizmni aniqlang.

A) spirogira

B) amyoba

C) qo'ziqorin

D) pichan batsillasi

**422.** Ikki membranali organoidni ko'rsating.

A) mitoxondriya

B) Golji majmuasi

C) lizosoma

D) vakuola

**423.** Silliq endoplazmatik to'ring asosiy vazifasi nima?

A) lipid va uglevodlarni sintezlash

B) oqsillarni sintezlash

C) barcha biomolekulalarni sintezlash

D) oqsil, uglevod, nuklein kislot, yog'larni parchalash

**424.** Lizosoma qaysi organoiddan hosil bo'ladi?

A) ribosoma

B) mezosoma

C) Golji majmuasi

D) mitoxondriya

**425.** Sitoskelet tuzilmalari-ning vazifalari nimadan iborat?

a) hujayra shaklini aniqlaydi;

b) hujayra joyining o'zgarishini ta'minlaydi;

c) hujayra ichki tizimlarining harakatini ta'minlaydi;

d) hujayraning turgor holatini ta'minlaydi.

A) a, b, c

B) b, c, d

C) a, b, d      D) a, b, c, d  
**426.** Hujayraning buferlik xususiyati nimaga bog'liq bo'ladi?

- A) tuzlarning aralashmasiga
- B) oqsilning miqdoriga
- C) suvning miqdoriga
- D) barcha biopolimerlar aralashmasiga

**427.** Oqsil zanjiridagi aminokislotalar o'zaro qanday bog' bilan bog'lanadi?

- A) vodorod bog'
- B) kovalent bog'
- C) peptid bog'
- D) disulfid bog'

**428.** Insulin gormoni qanday tabiatli modda?

- A) uglevod      B) lipid
- C) oqsil      D) nukleotid

**429.** Ipak qurtining ipagidagi oqsillar (1) va gemoglobin (2) oqsili qanday shaklga ega?

- A) 1 – yumaloq, 2 – yumaloq
- B) 1 – tolasimon, 2 – yumaloq
- C) 1 – tolasimon, 2 – tolasimon
- D) 1 – yumaloq, 2 – tolasimon

**430.** DNKning ikki hissa ortishi qanday nomlanadi?

- A) reduplikatsiya
- B) renaturatsiya
- C) denaturatsiya
- D) degeneratsiya

**431.** DNKning strukturasi kashf etgan olimlarni aniqlang.

- A) F.Krik, F. de Erell
- B) J.Uotson, F.Krik
- C) F.Misher, P.Frosh

D) F.Leffler, J.Uotson  
**432.** Modda almashinuvining dastlabki (1), oraliq (2) va oxirgi (3) bosqichlarini toping.

- a) oziq hazm bo'lishi; b) keraksiz - mahsulotlarning tashqariga chiqarilishi; c) hujayrada sodir bo'ladigan jarayonlar.

- A) 1 – a; 2 – b; 3 – c
- B) 1 – a; 2 – c; 3 – b
- C) 1 – c; 2 – b; 3 – a
- D) 1 – c; 2 – a; 3 – b

**433.** ATF tarkibida qanday azotli asos (1) va monosaxarid (2) bo'ladi?

- a) adenin; b) guanin; c) glyukoza; d) riboza; e) dezoksiriboza; f) uratsil.

- A) 1 – a; 2 – d
- B) 1 – f; 2 – e
- C) 1 – b; 2 – c
- D) 1 – a; 2 – e

**434.** ATF tarkibidagi uchinchi fosfat kislotaning ajralishi qancha energiya chiqishiga imkon beradi?

- A) 17,6 kJ      B) 38,9 kJ
- C) 40 kJ
- D) 4,1 kkal

**435.** Fotosintezda hosil bo'lgan molekulyar kislorodning manbai nima?

- A) CO<sub>2</sub>
- B) uglevod
- C) suv
- D) xlorofill pigmenti

**436.** Gullamaydigan yuksak o'simliklarni toping.



1) qirqquloq; 2) qirqbo'g'im; 3) yo'sin; 4) mamont daraxti.

A) 1, 2, 3, 4    B) 1, 2, 3

C) 1, 2, 4    D) 2, 3, 4

**437.** Lishayniklar tarkibida qaysi vitaminlar uchraydi?

A) C, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>

B) C, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>

C) – B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>

D) C, B<sub>1</sub>, A

**438.** Ribosomalar hujayraning qayerida joylashishi mumkin?

1) yadroning ichki membranasida; 2) yadroning tashqi membranasida; 3) sitoplazmada; 4) donador endoplazmatik to'ming zichlangan membrana qopchalari ustki qismida.

A) 1, 2, 4    B) 2, 3

C) 3, 4    D) 2, 3, 4

**439.** Quyidagilardan hujayra markaziga ega bo'lmagan organizmlarni toping.

1) o'simliklar; 2) suvo'tlar; 3) bakteriyalar; 4) ko'k-yashil suvo'tlar; 5) yassi chuvalchanglar.

A) 1, 2, 5    B) 2, 4, 5

C) 2, 3, 4, 5    D) 1, 2, 3, 4

**440.** Sentiola devori nechta bog'lamdan iborat?

A) 3 ta    B) 9 ta

C) 18 ta    D) 27 ta

**441.** Sentiola devorini hosil qiluvchi bog'lamlarning har biri nechtadan mikronaychani o'z ichiga oladi?

A) 3 tadan    B) 9 tadan

C) 18 tadan    D) 2 tadan

**442.** Sentiola tarkibiga jami nechta mikronaycha kiradi?

A) 3 ta    B) 9 ta

C) 18 ta    D) 27 ta

**443.** Sitoplazmaning tayanch elementlari vazifalariga nimalar kiradi?

1) hujayralar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi; 2) hujayra shaklini aniqlaydi; 3) hujayra ichki tizimlarining harakatini ta'minlaydi; 4) hujayra joyining o'zgarishini ta'minlaydi.

A) 1, 2, 3    B) 1, 3, 4

C) 2, 3, 4    D) 1, 4

**444.** Xromosoma yelkalari-ning uzunligi nimaga bog'liq?

A) sentromeraning joylashishiga

B) xromosomaning uzunligiga

C) birikish guruhlar soniga

D) xromosomalar soniga

**445.** Deplazmoliz hodisasi qachon ro'y beradi?

A) hujayra tuzli eritmadan toza suvga o'tkazilganda

B) hujayra tuzli eritmaga botirilganda

C) hujayralar qizdirilganda

D) hujayra bo'linishi tugaganda

**446.** Monomerga ega bo'lmagan biomolekulani toping.

A) oqsil

B) nuklein kislotasi

C) uglevod

D) mum

**447.** DNK (a) va RNK (b) tarkibidagi azotli asoslarni juftlab ko'rsating.

1) adenin; 2) ATF; 3) ADF; 4) guanin; 5) sitozin; 6) timin; 7) uratsil.

- A) a – 1, 2, 4, 5; b – 1, 3, 4, 5  
B) a – 1, 2, 4, 5; b – 1, 4, 5, 7  
C) a – 1, 4, 5, 6; b – 1, 4, 5, 6  
D) a – 1, 4, 5, 6; b – 1, 4, 5, 7

**448.** RNK tarkibiga kiruvchi guaninli nukleotid tarkibini aniqlang.

A) guanin – riboza – fosfat kislotasi qoldig'i

B) guanin – dezoksiriboza – fosfat kislotasi qoldig'i

C) guanin – maltoza – fosfat kislotasi qoldig'i

D) guanin – sitozin – fosfat kislotasi qoldig'i

**449.** DNKning qaysi nukleotidlari o'rtasida vodород bog'lari hosil bo'ladi va bog'larning soni nechta?

A) A va G orasida ikkita, T va S orasida ikkita

B) A va T orasida uchta, G va S orasida ikkita

C) A va T orasida ikkita, G va S orasida uchta

D) A va S orasida ikkita, G va T orasida uchta

**450.** Aminokislotalarni kodlashda nechta triplet ishtirok etadi?

A) 3 ta                      B) 20 ta

C) 61 ta                     D) 64 ta

**451.** Quyidagi jarayonlarning qaysi birida 40 kJ energiya ajraladi?

A) 1 g oqsilning oksidlanishida

B) 1 g yog'ning oksidlanishida

C) ATF tarkibidagi uchinchi fosfat kislotaning ajralishida

D) 1 molekula glyukozaning parchalanishida

**452.** Viruslar qo'zg'atadigan kasalliklarni aniqlang.

A) ensefalit, terlama

B) qizilcha, quturish

C) qoqshol, gripp

D) ensefalit, o'lat

**453.** «Bo'yi 156 – 165 sm, peshonasi nishab, qosh yoylari, iyagi zaif rivojlangan, miyasining hajmi 1400 sm<sup>3</sup> ga yaqin». Mazkur belgilar odamning qaysi ajdodiga mansub?

A) pitekanthrop

B) sinantrop

C) geydelberg

D) neandertal

**965.** Odam (a), drozofila (b) va no'xat (c) xromosomalari-ning birikkan guruhi soni to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) a – 23, b – 4, c – 7
- B) a – 22, b – 4, c – 8
- C) a – 24, b – 8, c – 9
- D) a – 23, b – 8, c – 14

**966.** O'simliklar tarkibidagi vitaminlar miqdori qaysi genlarning ta'siriga bog'liq?

- A) komplementar
- B) epistaz
- C) polimer
- D) jamlangan

**967.** Lavlagi ildizmevasidagi shakar miqdori qaysi genlarning ta'siriga bog'liq?

- A) epistaz
- B) chala dominantlik

C) polimer  
D) komplementar  
**968.** Genlarning komplementar (1), epistaz (2), polimer (3) ta'sirida vujudga keladigan fenotipik xilma-xillik to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

a) 9:3:3:1; b) 3:1; c) 1:4:6:4:1;  
d) 9:7; e) 13:3; f) 2:1.

- A) 1 – a, d; 2 – e; 3 – c  
B) 1 – a, b; 2 – e; 3 – d  
C) 1 – d; 2 – c; 3 – e  
D) 1 – b; 2 – c; 3 – a

**969.** Tovuqning nasl qoldirish xususiyati va hayotchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan belgi qaysi?

- A) patning jingalak bo'lishi  
B) no'xatsimon tojli bo'lishi  
C) oddiy tojli bo'lishi  
D) patning silliq bo'lishi

**970.** Qaysi mutatsiya genlarning yangi kombinatsiyasini paydo qiladi?

- A) retsessiv  
B) indamas  
C) xromosoma  
D) dominant

**971.** Mutatsiyalar ta'sir doirasiga qarab qanday guruhlariga bo'linadi?

1) foydali; 2) nuqtali; 3) zararli; 4) dominant; 5) befarq; 6) retsessiv.

- A) 1, 3, 4, 6  
B) 1, 2, 3, 5  
C) 2, 3, 4, 5  
D) 2, 4, 5, 6

**972.** Suv yong'og'ida suvosti (1) va suvusti (2) barglarining shakli qanday bo'ladi?

a) ingichka lansetsimon; b) patsimon qirqilgan; c) voronkasimon; d) yaxlit.

- A) 1 – a, 2 – c  
B) 1 – b, 2 – d  
C) 1 – b, 2 – c  
D) 1 – d, 2 – b

**973.** Odam hujayrasidagi xromosomalar soni va tuzilishini o'rganishda qaysi hujayradan foydalaniladi?

- A) eritrotsitlar  
B) leykotsitlar  
C) trombotsitlar  
D) epiteliy hujayrasi

**974.** Quyidagi navlarni o'simlik guruhiga ajrating.

a) Sanzor; b) Yulduz; c) Gul-tish; d) Farhod; e) Obidov.

- 1) g'alla; 2) g'o'za; 3) uzum.  
A) 1 – b, 2 – a, 3 – d  
B) 1 – a, 2 – b, 3 – c  
C) 1 – c, 2 – d, 3 – e  
D) 1 – d, 2 – e, 3 – a

**975.** Genlarning polimer ta'sirida fenotip bo'yicha 1:4:6:4:1 nisbatda ajralish ro'y bersa, genotip bo'yicha qanday ajralish kuzatiladi?

- A) 9:3:3:1      B) 1:2:1  
C) 1:2:1:2:4:2:1:2:1  
D) 15:1

**976.** Zog'ora baliqda birikish guruhining soni nechta?

- A) 104 ta      B) 52 ta  
C) 26 ta      D) 2 ta



**977.** Qaysi kasallikka duchor bo'lgan ayollar fenotip bo'yicha sog'lom, genotip bo'yicha tashuvchi bo'ladi?

- A) Daun sindromi
- B) gemofiliya
- C) fenilketonuriya
- D) Turner-Shershevskiy sindromi

**978.** Klaynfelter sindromli o'g'il bolaning somatik hujayrasida nechta autosoma xromosomalari mavjud?

- A) 47 ta
- B) 46 ta
- C) 44 ta
- D) 22 ta

**979.** Faqat gomozigota holatda namoyon bo'luvchi kasallik ...

- A) albinizm
- B) braxidaktiliya
- C) polidaktiliya
- D) mikrotsefaliya

**980.** Bug'doy o'simligida xromosomaning gaploid to'plami nechaga teng?

- A) 14 ga
- B) 7 ga
- C) 28 ga
- D) 42 ga

**981.** Daun sindromi nima uchun ham o'g'il, ham qizlarda namoyon bo'ladi?

- A) kasallikni belgilovchi gen X bo'lganligi bois
- B) autosoma xromosomalarning o'zgarishi bois
- C) dominant belgi bo'lganligi bois
- D) jinsiy xromosomalarning o'zgarishi bois

**982.** Klaynfelter sindromi kasalligiga jinsiy xromosomalarning qaysi to'plami xos emas?

- A) XXY
- B) XYY
- C) XXXY
- D) X

**983.** No'xat o'simligining qaysi belgisi retsessiv tarzda irsiylanadi?

- A) don shaklining silliq bo'lishi
- B) gul rangining qizil bo'lishi
- C) dukkakning bo'g'imliliigi
- D) poyasining uzun bo'lishi

**984.** Chala dominantlik holda irsiylanadigan belgilarni aniqlang.

- 1) namozshomgulning rangi;
- 2) qulupnay mevasining rangi;
- 3) qushlar patining tuzilishi;
- 4) Andaluz tovuq patining rangi;
- 5) no'xat urug'ining rangi.

- A) 1, 2, 5
- B) 3, 4, 5
- C) 1, 4, 5
- D) 1, 2, 3, 4

**985.** G.Mendel o'z tajribalarida xushbo'y no'xat o'simligining qancha irsiy belgisi nasldan naslga o'tishini kuzatdi?

- A) 1 juft
- B) 3 juft
- C) 2 juft
- D) 7 juft

**986.** Xushbo'y no'xatning qaysi belgilari nasllarda mustaqil taqsimlanmasligi isbotlandi?

- A) changchi shakli, gulning rangi
- B) gulning rangi, donning rangi
- C) donning shakli, donning rangi
- D) no'xatning barcha belgilari

**987.** Irsiyatning tuzilish va funksional birligi nima?

- A) autosomalalar
- B) gen
- C) fenotip
- D) jinsiy xromosomalar

**988.** Kariotipda xromosomalar sonining ko'payishi bilan organizmning ..., mutatsiya jara-yonida hayotchanlikning ...

A) genetik barqarorligi ortadi; pasayishi xavfi kamayadi

B) genetik barqarorligi kama-yadi; pasayishi xavfi ortadi

C) genetik barqarorligi o'z ma-romiga tushadi; pasayishi xav-fi ortadi

D) genetik barqarorligi o'z ma-romiga tushadi; pasayishi xavfi kamayadi

**989.** Himolay quyonlari +30°C da boqilsa, junining rangi qan-day o'zgaradi?

A) hamma juni oq rangda

B) hamma juni qora rangda

C) qulog'i, oyoqlari, dumi qo-  
ra rangda

D) qulog'i, oyoqlari, dumi oq  
rangda

**990.** Genlarning epistaz ta'-siri natijasida tovuqlarning oq patli (1) va qora patli (2) xillarini aniqlang.

a) IICC; b) liCc; c) liCC; d) licc; e) iiCc; f) iicc.

A) 1 – a, b, d, f; 2 – c, e

B) 1 – c, e; 2 – a, b, d, f

C) 1 – a, c, d, e; 2 – b, f

D) 1 – c, f; 2 – a, b, d, e

**991.** Qaysi genotip genlar-ning epistaz ta'siri natijasida tovuqlarning qora rangda bo'-lishini belgilaydi?

A) Ccli B) Ccli

C) ccii D) Ccii

**992.** Ikki belgisi bo'yicha ge-terozigotali bo'lgan genotipni aniqlang.

A) AABbCCDD

B) AaBbCcDD

C) AaBBCCDD

D) AABbCCDD

**993.** Quyidagi genotipga ega bo'lgan organizmlardan qay-si biri 4 xildagi gametalar hosil qiladi?

A) AaBbCcDD

B) AaBBCCDD

C) AABBCcDD

D) AaBBCCDd

**994.** AaBBCCDD genotipga ega bo'lgan organizm necha xil gametalarni hosil qiladi?

A) 4 xil tipdagi

B) 2 xil tipdagi

C) 8 xil tipdagi

D) 16 xil tipdagi

**995.** 4 xil tipdagi gametalar olish mumkin bo'lgan genotip-lar berilgan javobni toping.

1) AABB; 2) AaBB; 3) AaBbCC; 4) AABbCcDD; 5) AABbCCDD; 6) AaBBCCDD; 7) AaBbCc; 8) AABbCcDd; 9) AaBBCCDd.

A) 3, 4, 6, 9

B) 1, 2, 3, 5

C) 4, 7, 8, 9

D) 2, 3, 4, 6

**996.** Dengiz cho'chqachalalarining qaysi belgilari allel genlar bilan ifodalanadi?

- A) silliq va kulrang
- B) qora va silliq
- C) silliq va hurpaygan
- D) qora va hurpaygan

**997.** Genlarning epistatik ta'siri natijasida patlari oq rangdagi tovuq zotlari o'zaro chatishtirilganda  $F_2$  da genotip jihatidan ajralish qanday nisbatda bo'ladi?

- A) 1:2:2:4:1:2:1:2:1
- B) 1:4:6:4:1
- C) 9:3:3:1
- D) 13:3

**998.** Polimer hodisasini das-tavval qaysi olim o'rgandi?

- A) amerikalik olim T.Morgan
- B) chex olimi G.Mendel
- C) shved olimi Nilson Ele
- D) nemis olimi F.Myuller

**999.** Retsessiv holda irsiylanuvchi kasallikni aniqlang.

- A) polidaktiliya
- B) gemofiliya
- C) braxidaktiliya
- D) mikrotsefaliya

**1000.** Qaysi bo'linish natijasida xromosomalar sonining doimiyliги saqlanadi?

- A) meyoz
- B) mitoz
- C) meyoz, mitoz
- D) mitoz, amitoz

**1001.** Postembrional rivojlani-shi bevosita, ya'ni to'g'ri kechadigan hayvonlarni aniqlang.

- A) g'ovaktanlilar
- B) bo'g'imoyoqlilar
- C) assidiyalar
- D) qushlar

**1002.** Bug'doyiq va g'umay o'simliklarining vegetativ ko'payish usulini toping.

- A) parxish yo'li
- B) ildizpoyalari va tugunaklari
- C) ildiz bachkisi
- D) ildizpoyalari

**1003.** Gametogenezning yetilish bosqichidagi bo'linishlardan keyin nechtdan spermatozoid va tuxum hujayra yuzaga keladi?

- A) 2 ta va 2 ta
- B) 1 ta va 4 ta
- C) 4 ta va 1 ta
- D) 3 ta va 2 ta

**1004.** Aminokislotalarning tarkibi, oqsilning polipeptid zanjiri va uning tarkibiga qaysi mutatsiya ta'sir ko'rsatadi?

- A) xromosoma
- B) gen
- C) somatik
- D) sitoplazmatik

**1005.** Mitozning anafazasida qanday jarayonlar ro'y beradi?

1) xromosoma xromatidlarini birlashtirib turuvchi belbog' uziladi; 2) xromatidlar bir-biridan itariladi; 3) xromatidlar bir-biridan ajraladi; 4) xromatidlarning har biri alohida xromosomaga aylanadi; 5) sitokinez kuzatiladi; 6) xromosomalar qutblarga tarqala boshlaydi.

- A) 1, 2, 5, 4
- B) 2, 3, 4, 5
- C) 1, 3, 4, 6
- D) 1, 2, 5, 6

**1006.** Mitozning telofaza bosqichida qanday jarayonlar ro'y beradi?

1) yadro qobig'i erib ketadi; 2) xromosomalar qutblarda to'planadi; 3) bo'linish dukining hosil bo'lishi tugallanadi; 4) yadro qobig'i hosil bo'ladi; 5) mikronaychalar qisqarib xromatidlarni qutblarga tortadi; 6) yadrocha qaytadan shakllanadi; 7) sitokinez kuzatiladi.

- A) 1, 3, 5, 7
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 2, 3, 5, 6
- D) 2, 4, 6, 7

**1007.** Interfazaning  $G_1$  davrida qanday jarayonlar kuzatiladi?

1) DNK miqdori ikki hissa ortadi; 2) tubilin oqsili sintezlanadi; 3) sentriolalar soni ikki hissa ortadi; 4) hujayra o'sadi; 5) DNK sintezi uchun zarur bo'lgan fermentlar sintezlanadi; 6) RNK sintezlanadi.

- A) 1, 2, 5
- B) 4, 5, 6
- C) 1, 3, 6
- D) 2, 3, 5

**1008.** Ovogenezning spermatogenezdan farqi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) jarayon uzoqroq davom etadi; 2) shakllanish davri bo'ladi; 3) shakllanish davri bo'lmaydi; 4) sitoplazma hamma hujayralarga bir xil taqsimlanadi; 5) sitoplazma hamma hujayralarga

bir xil taqsimlanmaydi; 6) jarayon uzoq davom etmaydi.

- A) 1, 2, 4
- B) 1, 3, 5
- C) 3, 5, 6
- D) 1, 3, 6

**1009.** Homilaning o'rta – mezoderma qavatidan qanday organlar rivojlanadi?

1) muskullar; 2) ovqat hazm qilish; 3) nafas olish; 4) suyaklar; 5) qon va limfa tomirlari.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 3, 4, 5
- D) 1, 4, 5

**1010.** Halqali aminokislota to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) gistidin
- B) trionin
- C) valin
- D) leysin

**1011.** DNK reduplikatsiyalanishi interfazaning qaysi davriga mansub?

- A)  $G_1$  davriga
- B) S davriga
- C)  $G_2$  davriga
- D)  $G_1$  va  $G_2$  davrlariga

**1012.** Homilaning o'zak a'zolari qaysilar?

1) nerv naychasi; 2) yurak-tomir; 3) o'pka; 4) xorda; 5) ichak naychasi; 6) buyrak.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 4, 5, 6
- D) 1, 4, 5

**1013.** Mitozning qaysi bosqichida hujayra markazi sentriolalari juft-juft bo'lib bir-biridan itarila boshlaydi?

- A) profaza
- B) metafaza
- C) anafaza
- D) telofaza

**1014.** Quyidagilardan qaysi biri gametogenez jarayonida sodir bo'ladi?

- A)  $1n \rightarrow 2n$     B)  $2n \rightarrow 2n$   
C)  $2n \rightarrow 4n$     D)  $2n \rightarrow n$

**1015.** Spermatogenez qanday davrlarga bo'linadi?

- A) ko'payish, o'sish, shakllanish  
B) ko'payish, o'sish, sitokinez, yetilish  
C) ko'payish, o'sish, yetilish  
D) ko'payish, o'sish, yetilish, shakllanish

**1016.** Embrional rivojlanishning qaysi davrida homilaning ektoderma, mezoderma, endoderma qavatlarini shakllanadi?

- A) organogenez  
B) gastrula  
C) blastula  
D) blastomer

**1017.** Entodermadan rivojlanuvchi to'qima va a'zolari naniq.

1) nerv sistemasi; 2) biriktiruvchi va muskul to'qimalari; 3) o'rta ichak; 4) terining epidermis qismi; 5) sezgi a'zolari; 6) hazm bezlari; 7) jabra; 8) teri hosilalari; 9) o'pka.

- A) 3, 4, 6, 8  
B) 1, 2, 3, 6  
C) 2, 4, 5, 7  
D) 3, 6, 7, 9

**1018.** Qarama-qarshi,  $F_1$  da namoyon bo'lmaydigan belgi ... belgi deb ataladi.

- A) gomologik    B) dominant

C) retsessiv    D) allel

**1019.** Quyidagi organizmlarning qaysi biridan 2 xil gameta olish mumkin?

- A) AAVV    B) AaVv  
C) AAvv    D) Aavv

**1020.** Qanday xromosomalarga autosomal deyiladi?

A) erkaklari bilan urg'ochilaridan farq qilmaydigan, bir xildagi

B) erkak va urg'ochilarida farq qiladigan

C) faqat erkak organizmda joylashgan

D) faqat urg'ochi organizmda joylashgan, bir xildagi

**1021.** Odam Shershevskiy-Terner sindromi irsiy kasalligiga chalinganda xromosomalarning soni qancha bo'ladi?

- A) 46 ta    B) 45 ta  
C) 44 ta    D) 47 ta

**1022.** Nasidan naslga o'tuvchi odamdagi retsessiv belgilar qaysilar?

A) malla soch, pakanalik, poli-daktiliya

B) ko'k ko'z, jingalak soch, sepkillar

C) malla soch, ko'k ko'z, normal bo'y

D) normal bo'y, sepkillar, tekis soch

**1023.** Nasidan naslga o'tib boruvchi irsiy kasalliklarni aniqlang.

- A) shizofreniya, albinizm  
B) gastrit, raxit

C) Daun sindromi, qandli diabet

D) fenilketonuriya, mikrotsefaliya

**1024.** AaBBCC genotipga ega bo'lgan organizm necha xildagi gameta hosil qiladi?

- A) 8 xil                      B) 3 xil  
C) 4 xil                      D) 2 xil

**1025.** Quyidagi genotiplarning qaysi birlari o'zaro chatishtirilganda faqat geterozigota organizmlar hosil bo'lishi mumkin?

- A) Aa, AA                      B) aa, aa  
C) AA, AA                      D) AA, aa

**1026.** Nasldan naslga o'tuvchi odamdagi dominant belgilar qaysilar?

A) qo'y ko'z, malla soch, pakanalik

B) ko'k ko'z, jingalak soch, normal bo'y

C) polidaktiliya, pakanalik, qo'y ko'z

D) pakanalik, ko'k ko'z, to'g'ri soch

**1027.** Keltirilganlarning qaysi birida belgilarning ajralishi genotip bo'yicha 1:2:2:4:1:2:1:2:1 nisbatda bo'ladi?

- A) tahliliy chatishtirishda  
B) triduragay chatishtirishda  
C) monoduragay chatishtirishda  
D) diduragay chatishtirishda

**1028.** Mikroskopda ko'rinmaydigan darajadagi o'zgarishlar

bilan boradigan mutatsiyalar qanday nomlanadi?

- A) xromosoma mutatsiyalari  
B) gen mutatsiyalari  
C) somatik mutatsiyalar  
D) genom mutatsiyalari

**1029.** Organizmlarning erkaklari bilan urg'ochilarida bir-biridan farq qiladigan xromosomalar ... deyiladi.

- A) polisomalar  
B) jinsiy xromosomalar  
C) geteropolisomalar  
D) ribosomalar

**1030.** Ota-ona qo'yko'zlik bo'yicha geterozigota bo'lsa, farzandlarining necha foizi ko'k ko'zli bo'ladi?

- A) 25%                      B) 75%  
C) 50%                      D) 100%

**1031.** Geterozigota kulrang (Aa) quyon gomozigota kulrang quyon bilan chatishtirilsa, F<sub>1</sub> da qanday fenotipli avlod kuzatiladi?

- A) 1 ta kulrang, 1 ta qora  
B) hammasi qora  
C) 1 ta qora, 3 ta kulrang  
D) faqat kulrang

**1032.** Qaysi kasalliklarga duchor bo'lgan odamning diploid holatdagi xromosomalari soni 47 ta bo'ladi?

- A) Daun sindromi, Shershevskiy-Terner sindromi  
B) Daun sindromi, sindaktiliya  
C) Daun sindromi, Klaynfelter sindromi

D) mikrotsefaliya, Daun sindromi

**1033.** AaBbCCDD genotipli heterozigota organizm necha xil gameta hosil qilishi mumkin?

- A) 2 xil                      B) 16 xil  
C) 8 xil                      D) 4 xil

**1034.** Qaysi mutatsiya hayvonlarda nasldan naslga o'tmaydi?

- A) gen  
B) xromosoma  
C) kombinatsion  
D) somatik

**1035.** Fenotip va genotip jihatdan nisbat chala dominantlikda qanday bo'ladi?

- A) 3:1  
B) 1:2:1  
C) 3:1 va 1:2:1  
D) 9:3:3:1

**1036.** G.Mendel tadqiqotlari qaysi olimlar tomonidan qayta kashf etildi va tasdiqlandi?

- A) T.Morgan, G.de Friz  
B) E.Chermak, G.de Friz, J.Kyuve  
C) G.de Friz, E.Chermak, K.Korrens  
D) N.I.Vavilov, T.Morgan, K.Korrens

**1037.** Organizmning individual rivojlanishida hosil bo'lgan belgi va xususiyatlarning yig'indisi qanday ataladi?

- A) gen                      B) genotip  
C) allel gen              D) fenotip

**1038.** Pomidorda mevaning qizil bo'lishi sariq bo'lishi ustidan dominant sanaladi. Qizil (Aa) mevali pomidor o'zaro chatishtirilganda ajralish nisbati qanday namoyon bo'ladi?

- A) 1/2 qizil : 1/2 sariq  
B) 1/4 sariq : 3/4 qizil  
C) 2/4 sariq : 3/4 qizil  
D) 3/4 sariq : 1/4 qizil

**1039.** Autosomalar sonining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan irsiy kasallikni belgilang.

- A) Daun sindromi  
B) Klaynfelter sindromi  
C) Shershevskiy-Terner sindromi  
D) gemofiliya

**1040.** Yaratilgan sun'iy plazmid qanday ataladi?

- A) vektor konstruksiya  
B) genetik elementlar  
C) rekombinant DNK  
D) qo'shimcha xromosomalar

**1041.** Transpozonlarni kashf qilgan olimlarni aniqlang.

- 1) Barbara Mak-Klintok; 2) Griffit; 3) Tomson; 4) Ahmad Buxoriy; 5) L.Paster; 6) Boyer; 7) G.Georgiyev.

- A) 1, 3, 5                      B) 1, 4, 7  
C) 2, 5, 6                      D) 2, 3, 6

**1042.** Asosiy xromosomaga qaysi plazmid birika oladi?

- A) avtonom  
B) transmissibl  
C) restriksion  
D) transpozon

**1043.** Plazmidlar o'rtacha qancha genlardan iborat bo'ladi?

- A) 10 – 15 dona
- B) 20 – 30 dona
- C) 30 – 40 dona
- D) 3 – 10 dona

**1044.** Qaysi kasallikda jinsiy xromosomalar «X» holatda bo'ladi?

- A) Shershevskiy-Terner sindromi
- B) Daun sindromi
- C) Kleynfelter sindromi
- D) sindaktiliya

**1045.** Tahliliy chatishtirish berilgan qatorni toping.

- A) AaBb x aabb
- B) AABB x aabb
- C) AaBB x AABB
- D) AABB x AABB

**1046.** Lizis nima?

A) bakteriya hujayrasining bakteriofaglar tomonidan nobud qilinishi

B) fag bilan zararlangan ba'zi bakteriyalar

C) bakteriyalar avlodi

D) DNK bir bo'lagining boshqa xromosoma tarkibiga kiritilishi

**1047.** Qaysi kasalliklarning nasidan naslga o'tishi odam genetikasi usuli yordamida aniqlangan?

- 1) fenil ketonuriya; 2) gastrit;
- 3) Shershevskiy-Terner;
- 4) gemofiliya; 5) sindaktiliya;
- 6) bo'qoq; 7) polidaktiliya; 8) qandli diabet.

A) 1, 2, 3, 5    B) 1, 4, 7, 8

C) 1, 3, 5, 8    D) 4, 8

**1048.** Genetikaga oid barcha ilmiy tadqiqot ishlarida keng qo'llanib kelayotgan usulni belgilang.

A) duragaylash

B) sitogenetik

C) molekulyar genetik

D) genetik injeneriya

**1049.** Nimaga bog'liq belgilar faqat onasidan bolalariga o'tadi?

A) X-xromosomaga

B) autosom retsessivlikka

C) autosom dominantlikka

D) sitoplazmatik irsiyatga

**1050.** Belgilarning bir necha juft allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'sir etib irsiylanishi qanday xillarga bo'linadi?

1) gameostaz; 2) epistaz; 3) komplementariya; 4) polimeriya; 5) pleyotropiya.

A) 1, 2, 3    B) 2, 3, 4

C) 3, 4, 5    D) 1, 2, 4

**1051.** Kim mutatsiyalarni tajriba orqali o'rganish mumkinligini isbotlagan?

A) shved olimi S.Arrenius

B) rus olimi I.Oparin

C) amerikalik olimi S.Miller

D) nemis olimi F.Myuller

**1052.** Produtsentlar qanday organizmlar hisoblanadi?

A) geterotrof

B) avtotrof

C) patogen    D) saprofit



**1053.** Jinsga bog'liq holda nasldan naslga o'tadigan gen kasalliklarini toping.

A) Daun va Klaynfelter sindromi

B) daltonizm, gemofiliya

C) polidaktiliya, qandli diabet

D) qandli diabet, daltonizm

**1054.** Qaysi hayvonlarda partenogenez uchraydi?

A) qo'ng'iz, chumoli

B) dafniya, asalari urg'ochisi

C) kapalak, chivin

D) dafniya, asalari erkagi

**1055.** Qoramollarda shoxsizlik dominant, shoxlilik retsessiv belgi hisoblanadi.  $F_2$  da hosil bo'lgan shoxlilarni o'zaro chatishtirishdan qanday individlar yuzaga keladi?

A) 50% shoxli, 50% shoxsiz

B) hammasi shoxli

C) 25% shoxsiz, 75% shoxli

D) hammasi shoxsiz

**1056.** G.Mendel fenotipi bir xil, genotipi har xil organizmlarning irsiy asoslarini aniqlashda qaysi usuldan foydalandi?

A) diduragay chatishtirish

B) monoduragay chatishtirish

C) tahliliy chatishtirish

D) poliduragay chatishtirish

**1057.** Gen kasalliklarini aniqlang.

1) Daun sindromi; 2) fenilketonuriya; 3) albinizm; 4) Klaynfelter sindromi; 5) gemofiliya;

6) daltonizm; 7) Shershevskiy-Terner sindromi.

A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 4, 7

C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 5, 6, 7

**1058.** G.Mendelning ikkinchi qonunida  $F_2$  avlod genotip bo'yicha qanday nisbatda ajralish namoyon qiladi?

A) 3:1 B) 25:50:25

C) 1:2:1 D) 9:3:3:1

**1059.** Qachon fenotip va genotip bo'yicha 1:2:1 nisbatda nasl olish mumkin?

A) diduragay chatishtirishning  $F_2$  naslida

B) genlar birikkan holda nasldan naslga o'tganda

C) chala dominantlikning  $F_2$  naslida

D) polimeriya hodisasida

**1060.** Retsessiv gen kasalliklarini toping.

A) albinizm, daltonizm, gemofiliya

B) polidaktiliya, mikrotsefaliya, sindaktiliya

C) qandli diabet, raxit, braxidaktiliya

D) raxit, albinizm, mikrotsefaliya

**1061.** Dominant gen kasalliklarini toping.

A) albinizm, daltonizm, gemofiliya

B) polidaktiliya, mikrotsefaliya, sindaktiliya

C) qandli diabet, Daun, braxidaktiliya

D) raxit, albinizm, mikrotsefaliya

-1062. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning chegarasi organizmning nimasiga bog'liq?

- A) yashash sharoitiga
- B) kariotipiga
- C) genotipiga
- D) fenotipiga

1063. Faqat ayollarga xos bo'lgan xromosomalar kasalligini belgilang.

- A) Daun sindromi
- B) Shershevskiy-Terner sindromi
- C) Klaynfelter sindromi
- D) sindaktilya

1064. Faqat erkaklarga xos bo'lgan xromosoma kasalligini belgilang.

- A) Daun sindromi
- B) Shershevskiy-Terner sindromi
- C) Klaynfelter sindromi
- D) sindaktilya

1065. Bir juft belgi bilan farqlanuvchi geterozigotali organizmlar chatishtirilganda fenotip bo'yicha qanday ajralish ro'y beradi?

- A) 1:1
- B) 2:1
- C) 1:2:1
- D) 3:1

1066. Tahliliy chatishtirishda  $F_1$  duragaylarni qaysi genotipli organizm bilan chatishtirish lozim?

- A) retsessiv gomozigotali
- B) dominant gomozigotali
- C) geterozigotali

D) fenotipi o'zgarmagan  
1067. Bug'doy doni hosildorligi qaysi genlar ta'sirida yuzaga chiqadi?

- A) epistatik genlar
- B) komplementar genlar
- C) polimer genlar
- D) pleyotrop genlar

1068. Qaysi usul yordamida qandli diabet kasalligining sabablari o'rganiladi?

- A) sitogenetik
- B) geneologik
- C) egizaklar
- D) biokimyoviy

1069. Qaysi olim novvoychilik, chorvachilik uchun achitqi tayyorlash texnologiyasini yaratgan?

- A) M.Mavloniy
- B) S.Asqarova
- C) A.Xolmurodov
- D) A.Muzaffarov

1070. Madaniy o'simliklarning 11% qismi tarqalgan markazni aniqlang.

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Janubi-G'arbiy Osiyo
- C) Janubiy Osiyo markazi
- D) O'rta yer dengizi

1071. Madaniy o'simliklarning 14% qismi tarqalgan markazni aniqlang.

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Janubi-G'arbiy Osiyo
- C) Janubiy Osiyo markazi
- D) O'rta yer dengizi

1072. N.I.Vavilov kolleksiyasining qaysi o'simliklarga tegish-

li juda katta qismi O'zbekiston o'simlikshunoslik institutida saqlanmoqda?

- A) to'qay o'simliklari
- B) tog' o'simliklari
- C) cho'l o'simliklari
- D) subtropik o'simliklar

**1073.** Ozuqabop oqsillar sintezlovchi achitqi zamburug'lari qaysi oziq muhitda o'stiriladi?

- A) yog'och qipidlari, parafinda
- B) agar-agarida
- C) optimal muhitda
- D) parafin, agar-agarida

**1074.** Madaniy o'simliklarning 20% dan ortiq turlari tarqalgan markazni aniqlang.

- A) Sharqiy Osiyo markazi
- B) Janubiy Osiyo markazi
- C) O'rta yer dengizi markazi
- D) Abissiya markazi

**1075.** Madaniy o'simliklarning 50% dan ortiq turlari tarqalgan markazni aniqlang.

- A) Sharqiy Osiyo markazi
- B) Janubiy Osiyo markazi
- C) O'rta yer dengizi markazi
- D) Abissiya markazi

**1076.** AABbcc genotipli organizmda nechta gameta hosil bo'ladi?

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 2 ta
- D) 1 ta

**1077.** Nima sababdan poliploid organizmlar hosil bo'ladi?

- A) xromosomalar soni kamayishi bilan
- B) xromosomalar sonining karra ortishi bilan

C) xromosomalar tuzilishining o'zgarishi bilan

D) DNK zanjiridagi nukleotidlar o'rnining almashinuvi sababli

**1078.** Monoduragay chatishtirishning to'liq dominantlik holatidagi irsiylanishida  $F_2$  duragay nechta fenotipik guruh hosil qiladi?

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 1 ta
- D) 2 ta

**1079.** Belgilarning birikkan holda nasidan naslga o'tish hodisasi kim tomonidan aniqlangan?

- A) G.Mendel
- B) T.Morgan
- C) N.I.Vavilov
- D) I.V.Michurin

**1080.** Shoxsiz sigir bilan (AA) shoxli (aa) buqani chatishtirish natijasida  $F_2$  da necha foiz buzoqchalarning shoxli bo'lishi kuzatiladi?

- A) 25%
- B) 50%
- C) 75%
- D) 15%

**1081.** To'lqinsimon sochli gomozigota holatidagi ota-ona farzandlarining nechta foizi silliq sochli bo'lishi kuzatiladi?

- A) 100%
- B) 25%
- C) 50%
- D) 0%

**1082.** Qora rangli qo'chqor (aa) kulrang (AA) gomozigota qo'y bilan chatishtirilganda  $F_1$  da qanday fenotipli organizmlar hosil bo'ladi?

- A) hammasi qora

- B) 25% qora, 75% kulrang
- C) 75% qora, 25% kulrang
- D) hammasi kulrang

**1083.** Birinchi avlod duragayining hayotiy xususiyatlari birmuncha yuqori bo'lishi va kuchli rivojlanishi nima deyiladi?

- A) geterozis
- B) mutatsiya
- C) depressiya
- D) modifikatsiya

**1084.** Qora rangli geterozigota (Aa) quyonlar o'zaro chatishtirilganda olingan duragaylarning necha foizi qora rangli gomozigota bo'lishini toping.

- A) 100%
- B) 75%
- C) 25%
- D) 50%

**1085.** Geterozigota hurpaygan yungli (Aa) quyon hurpaygan yungli gomozigotali (AA) quyon bilan chatishtirilganda olingan naslning fenotip va genotipini aniqlang.

- A) 1AA; 1Aa, barchasi hurpaygan
- B) 1Aa; 1aa, hammasi hurpaygan
- C) 1Aa; 1aa, hammasi silliq
- D) 1AA; 2Aa; 1aa, 3 ta hurpaygan, 1 ta silliq

**1086.** Qora rangli (AA) mol qizil rangli (aa) buqa bilan chatishtirilganda  $F_2$  da necha foiz duragaylar qora rangli bo'lishini toping.

- A) 0%
- B) 100%
- C) 75%
- D) 25%

**1087.** Ikkita organizm chatishtirilganda naslda fenotipi har xil bo'lgan teng miqdordagi individ hosil bo'lgan, ya'ni 1:1:1:1:1:1:1. Bunday irsiyatni o'rganishning duragaylash usuli qanday ataladi?

- A) diduragay chatishtirish
- B) poliduragay chatishtirish
- C) monoduragay chatishtirish
- D) tahliliy chatishtirish

**1088.** Genotipi AaBbCcDd bo'lgan organizm necha xil gameta hosil qiladi?

- A) 8 xil
- B) 10 xil
- C) 32 xil
- D) 16 xil

**1089.** Shershevskiy-Terner sindromi kasalligiga duchor bo'lgan ayollarda jinsiy xromosomalar to'plami qanday?

- A) X
- B) XXX
- C) XXY
- D) XY

**1090.** Quyidagilarning qaysi birida 13:3 nisbat namoyon bo'ladi?

- A) monoduragay chatishtirishda
- B) diduragay chatishtirishda
- C) genlarning komplementar ta'sirida
- D) genlarning epistatik ta'sirida

**1091.** Zamburug'larning antibiotiklarga chidamliligini nima ta'minlaydi?

- A) plazmidlar
- B) klonlar
- C) endonukleozalar
- D) transpozonlar

**1092.** Transmissibl plazmid qachon o'z mustaqilligini yo'qotadi?

A) asosiy xromosomaga birikmaganda

B) asosiy xromosomaga birikishdan oldin

C) asosiy xromosomaga birikandan so'ng

D) hujayradan hujayraga ko'chib o'tganda

**1093.** Keltirilgan genotipga ega bo'lgan organizmlarning qaysi birlarini o'zaro chatishtirish natijasida 1:1:1:1:1:1:1 nisbat olinadi?

A) AaBbCC x AABbCc

B) AaBbcc x aaVbCc

C) AabbCc x aaBbCc

D) aabbcc x AaBbCs

**1094.** Bug'doyning doni qizil va oq rangda bo'lgan navlarini chatishtirib  $F_2$  da qizil, och qizil, pushti, och pushti, oq rangli donga ega o'simliklar olinadi. Bu qanday jarayonga bog'liq?

A) genlarning polimer ta'siriga

B) genlarning epistaz ta'siriga

C) genlarning komplementar ta'siriga

D) genlarning pleyotrop ta'siriga

**1095.** Sichqonlarning qanday genotipga ega bo'lganlari o'lib ketadi?

A) AA                      B) Aa

C) aa                      D) aA

**1096.** So'tasi 20 sm va 8 sm uzunlikda bo'lgan ikkita

makkajo'xori navi chatishtirildi. Agar har bir dominant gen so'taning 5 sm, retsessiv gen 2 sm uzunligini belgilasa, uzunligi 17 sm bo'lgan so'taning genotipini aniqlang.

1)  $B_1b_1B_2B_2$ ; 2)  $B_1b_1B_2b_2$ ;

3)  $B_1B_1B_2b_2$ ; 4)  $b_1b_1B_2B_2$ ; 5)

$B_1B_1b_2b_2$ ; 6)  $B_1B_1B_2b_2$ .

A) 2, 4, 5                      B) 1, 3, 5

C) 2, 3, 6                      D) 1, 6, 3

**1097.** So'tasining uzunligi 20 sm bo'lgan makkajo'xori so'tasi uzunligi 8 sm bo'lgan makkajo'xori ustidan dominantlik qiladi. Agar yuqoridagi so'talar chatishtirilsa,  $F_1$  dagi so'talar uzunligi qancha bo'ladi?

A) 14 sm                      B) 21 sm

C) 10 sm                      D) 30 sm

**1098.** Quyida berilgan qaysi hayvonlarning urg'ochilari geterogametali (XY), erkaklari esa gomogametali (XX) bo'ladi?

A) zorka, sichqon

B) baqa, ko'rshapalak

C) qo'ng'iz, qorsak

D) ipak qurti, timsoh

**1099.** Monosomik holat deb organizmning genotipida ... aytiladi.

A) bitta xromosomaning yo'qolishiga

B) bitta xromosomaning ortib ketishiga

C) bitta xromosomaning chalkashuviga

D) genlarning birikkan holda irsiylanishiga

**1100.** Genning bir necha belgilar irsiylanishi va rivojlanishini ta'min etuvchi xususiyati qanday nomlanadi?

- A) komplementar
- B) epistaz
- C) polimeriya
- D) pleyotropiya

**1101.** Qaysi holatda otadagi irsiy kasallik o'g'il farzandlariga o'tmaydi?

- A) autosom dominantlikda
- B) autosom retsessivlikda
- C) Y-xromosoma orqali
- D) X-xromosoma orqali

**1102.** Kasallik retsessiv bo'lib, X-xromosomada joylashgan. Onasi tashuvchi, otasi sog'lom bo'lganda bolalarining necha foizida kasallik uchraydi?

- A) 25%
- B) 50%
- C) 75%
- D) 100%

**1103.** Sheroziy mo'yna beruvchi qo'ylarni ko'paytirishda 25% qo'zichoq nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun qanday genotipli organizmlar o'zaro chatishtiriladi?

- A) Aa x Aa
- B) Aa x aa
- C) AA x AA
- D) AA x Aa

**1104.** O'g'il va qiz bolalarda uchraydigan gen kasalliklarini aniqlang.

1) fenilketonuriya; 2) Daun sindromi; 3) polidaktiliya; 4) sindaktiliya; 5) Shershevskiy-

Terner sindromi; 6) Klaynfelter sindromi; 7) mikrotsefaliya.

- A) 1, 4, 6, 7
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 3, 4, 6
- D) 1, 3, 4, 7

**1105.** Odam bo'yining uzunligini  $A_1A_1A_2A_2A_3A_3$  va  $a_1a_1a_2a_2a_3a_3$  bilan ifodalash mumkin. Agar odamda barcha genlar dominant bo'lsa, bo'y 180 sm, retsessiv bo'lsa, 150 sm bo'ladi. 2 ta gen bo'yicha geterozigota, 1 ta gen bo'yicha dominant gomozigota bo'lgan odamlarda bo'yning uzunligi qancha keladi?

- A) 170 sm
- B) 150 sm
- C) 160 sm
- D) 165 sm

**1106.** Quyidagi qaysi kasallikda odamning nerv sistemasi qattiq jarohatlanadi, aqliy zaiflik rivojlanadi?

- A) Daun sindromi
- B) Klaynfelter sindromi
- C) Shershevskiy-Terner sindromi
- D) fenilketonuriya

**1107.** Genotip nisbati 1:2:2:4:1:2:1:2:1 holatida bo'lishi qachon kuzatiladi?

- A) chala dominantlikda
- B) monoduragay chatishtirishda
- C) komplementarlikda
- D) gemofiliya kasalligida

**1108.** Neytral yog'larni belgilang.

- A) oddiy lipidlar

B) lipoproteinlar

C) fosfolipidlar

D) xolesterol

**1109.** Keltirilganlarning qaysi birlarida DNK va RNK uchraydi?

1) mag'iz; 2) mitoxondriya; 3) ribosoma; 4) xloroplast; 5) endoplazmatik to'r; 6) bakteriya; 7) virus; 8) lizosoma; 9) bakteriofag.

A) 1, 2, 4, 6, 7, 9

B) 1, 3, 4, 5, 7, 9

C) 1, 2, 3, 4, 5, 6

D) 2, 3, 4, 5, 8, 9

**1110.** Qaysi jarayon kashf etilgandan keyin Mendelning gametalar sofligi gipotezasi ilmiy jihatdan to'g'ri ekanligi isbotlandi?

A) retsessiv va dominant genlar

B) mitoz va meyoza bo'linish

C) genlarning kimyoviy tarkibi

D) birikkan holda nasldan naslga o'tish

**1111.** Aabb x AAbb chatishtirish natijasida qanday genotipli duragaylar yuzaga keladi?

A) AaBb, AABB, Aabb, aabb

B) Aabb, aabb, AaBB

C) AAbb, Aabb

D) AaBB, Aabb, aabb

**1112.** Jinsning genetik belgilanishi bo'yicha erkaklari gomogametali bo'lgan hayvonlar qaysi?

1) qushlar; 2) drozofila; 3) krot; 4) sudralib yuruvchilar; 5)

bug'ular; 6) kapalaklar; 7) ipak qurti; 8) odam.

A) 1, 3, 4, 8    B) 2, 3, 4, 5

C) 1, 4, 6, 7    D) 3, 5, 6, 7

**1113.** Tabiiy tanlanish uchun xilma-xil material yetkazib beradigan jarayonni aniqlang.

A) irsiy o'zgaruvchanlik

B) modifikatsion o'zgaruvchanlik

C) sun'iy tanlash

D) tabiiy tanlanish

**1114.** Miqdor belgilarining rivojlanishi qaysi genlar faoliyatiga bog'liq?

A) komplementar

B) noyob genlar

C) qaynoq nuqtalar

D) polimer genlar

**1115.** Gen mutatsiyasini fizik omillar ta'siri natijasida olish mumkinligini isbotlagan olim ...

A) G.Mellier    B) G.Mendel

C) I.Michurin    D) T.Morgan

**1116.** Ikkita yumaloq shakli oshqovoqlar o'zaro chatishtirilishi natijasida F<sub>2</sub> avlodda garchishimon va uzunchoq shakli oshqovoqlarning hosil bo'lishi quyidagilardan qaysi biriga misol?

A) genlarning komplementar ta'siriga

B) genlarning pleyotrop ta'siriga

C) genlarning epistatik ta'siriga

D) genlarning birikkan holda irsiylanishiga

**1117.** Birinchi bo'lib mutatsiya nazariyasini ishlab chiqqan olim ...

- A) G.Mendel
- B) K.Korrens
- C) T.Morgan
- D) G.de Friz

**1118.** Trigeterozigotali organizm necha xil gameta paydo qiladi?

- A) 32 xil
- B) 4 xil
- C) 8 xil
- D) 16 xil

**1119.** Daun sindromli o'g'il bolaning somatik hujayralarida nechta jinsiy xromosoma bo'ladi?

- A) 2 ta
- B) 5 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

**1120.** Qo'ylar junining jingalaklik geni (A) silliq gen (a) ustidan, oq rangi (V) esa qora rang (v) ustidan dominantlik qiladi. Quyida berilgan chatishtirishlarning qaysi birida 1:1 nisbatda jingalak qora va silliq qora qo'ylar tug'iladi?

- A) Aavv x aaVv
- B) Aavv x aaVV
- C) Aavv x aavv
- D) AaVv x aavv

**1121.** Quyionlar junining hurpaygan bo'lishini ta'minlovchi K geni silliq bo'lishini ta'minlovchi k geni ustidan, junining qora bo'lishini ta'minlovchi S geni oq bo'lishini ta'minlovchi s geni ustidan to'liq dominantlik qiladi. Quyida berilgan chatishtirishlarning qaysi birida

hurpaygan oq va silliq oq quyion bolasi tug'iladi?

- A) Kkss x kkSs
- B) KkSS x kkss
- C) kkss x Kkss
- D) KKSs x KkSS

**1122.** Glyukozaning qondagi miqdorini belgilang.

- A) 0,1 – 0,12%
- B) 80 – 120%
- C) 0,3 – 0,4%
- D) 0,5 – 0,16%

**1123.** Pomidor mevasining qizil rangi (A) pushti rangi (a) ustidan, dumaloq shakli (V) noksimon shaklidan (v) dominantlik qiladi. Quyidagi genotipga ega o'simliklar chatishtirilganda qaysi birida 3 ta qizil dumaloq, 3 ta qizil noksimon, 1 ta pushti dumaloq, 1 ta pushti noksimon pomidor mevalari hosil bo'ladi?

- A) AaVv x aavv
- B) AaVv x Aavv
- C) AAvv x aaVV
- D) AAVV x aavv

**1124.** Pomidor mevasining qizil rangi (A) sariq rangi (a) ustidan, yumaloq shakli (V) noksimon shaklidan (v) dominantlik qiladi. Quyidagi genotipga ega o'simliklar chatishtirilganda qaysi birida 9 ta qizil yumaloq, 3 ta qizil noksimon, 3 ta sariq yumaloq, 1 ta sariq noksimon pomidor mevalari hosil bo'ladi?

- A) AaVv x aavv



B) AaVv x AaVV

C) AaVV x aaVv

D) AaVv x AaVv

**1125.** Tajribada sariq burishgan va sariq silliq no'xatlar chatishtirilib sariq silliq va yashil silliq no'xatlar olindi. Javoblarning qaysi birida ota-ona genotiplari to'g'ri ko'rsatilgan?

A) AAVv x aavv

B) AA $\bar{v}$ v x AAVv

C) aaVV x AaVv

D) Aavv x AaVV

**1126.** KkDd genotipli organizmlar qanday gametalar hosil qilishini aniqlang.

A) Kd, kd, KK, KD

B) Kk, Dd, KD, Kd

C) kD, Kd, kk, KK

D) KD, Kd, kD, kd

**1127.** Tajribada pushti gulli namozshomgullar chatishtirilib 1:2:1 nisbatda qizil, pushti va oq rangli gullar olingan bo'lsa, ota-ona genotiplarini toping.

A) RR x rr      B) Rr x rr

C) Rr x Rr      D) RR x Rr

**1128.** Namozshomgulning qizil va pushti gultojbargli formalari oq gultojbargli formalari bilan chatishtirilganda  $F_1$  da birinchi chatishtirishda pushti, ikkinchi chatishtirishda 50% pushti, 50% oq gultojbargli shakllar yuzaga keldi. Quyidagilardan har ikkala tajribadagi ota-ona formalarning genotipini toping.

1) AA x AA; 2) Aa x Aa; 3) AA x aa; 4) aa x aa; 5) Aa x aa; 6) AA x Aa.

A) 1, 2      B) 2, 3

C) 4, 5      D) 3, 5

**1129.** Ikki va undan ortiq allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri natijasida organizmda yangi, ota-onada yo'q belgilar rivojlanishining ta'min etilishi ... deb ataladi.

A) genlarning komplementar ta'siri

B) genlarning epistatik ta'siri

C) genlarning polimer ta'siri

D) pleyotropiya

**1130.** G'o'zada malla rangli tola oq tolaga nisbatan qisman dominantlik qilgani uchun  $F_1$  bo'g'inda novvotrang tola avlod yuzaga keladi. Agar  $F_1$  duragaylar oq tolali avlod bilan chatishtirilsa,  $F_2$  da hosil bo'lgan avlodlarning fenotip va genotipi qanday ko'rinishda bo'ladi?

A) Aa, aa, Aa, aa (2 ta malla, 2 ta oq)

B) Aa, Aa, Aa, Aa (barchasi novvotrang)

C) Aa, Aa, AA, AA (2 ta malla, 2 ta novvotrang)

D) AA, Aa, Aa, aa (1 ta malla, 2 ta novvotrang, 1 ta oq)

**1131.** Transpozonlar nima?

A) ko'chib o'tishini ta'minlaydigan ferment

B) yot genni hujayraga kiritib undan sun'iy sharoitda olingan yangi xususiyatli o'simlik

C) DNK bo'lagining xromosomadan ajralib chiqishi

D) genomdan o'zini qirqib genomning boshqa joyiga ko'chib o'tadigan genetik strukturalar

**1132.** Mendel qonunlari to'g'ri berilgan javobni toping.

1) dominantlik; 2) birikkan holda irsiylanish; 3) ajralish; 4) irsiy o'zgaruvchanlikdagi gomologik qatorlar qonuni; 5) belgilarning mustaqil taqsimlanishi qonuni.

A) 1, 2, 3                      B) 1, 4, 5

C) 1, 3, 5                      D) 2, 4, 5

**1133.** Ipak qurti urug'ining qoramtir rangi (A) oq rangi (a) ustidan dominantlik qiladi. Geterozigotali urg'ochi kapalakning oq rangli erkak kapalak bilan chatishishidan qanday genotipli organizmlar yuzaga keladi?

A) Aa, Aa, aa, aa

B) Aa, Aa, Aa, Aa

C) AA, Aa, Aa, Aa

D) AA, Aa, Aa, aa

**1134.** AaVv x AAVv genotipga ega organizmlar o'zaro chatishtirilganda F<sub>1</sub> da qanday genotipli duragaylar paydo bo'ladi?

A) AaVv, AaVv, aaVv, aavv

B) AAVv, AAav, AaVv, Aavv

C) AAVV, Aavv, AaVv, aavv

D) AaVv, AaVv, Aavv, AaVV

**1135.** Genlarning o'zaro komplementar ta'sirida oshqovoq mevasining uzunchoq shakl-

li bo'lishi quyidagi qaysi genotip natijasi?

A) aabb

B) Aabb

C) AABb

D) aaBB

**1136.** Virusning hujayraga kirishi qanday amalga oshadi?

A) hujayra membranasidagi kanalchalar orqali

B) pinotsitoz orqali

C) hujayradagi sitoplazmatik ipchalar orqali

D) fagotsitoz orqali

**1137.** Hujayraning nasl apparati faoliyatini buzadigan omillar qaysi?

1) radiatsiya; 2) kimyoviy moddalar; 3) uglevodlar; 4) spirtli ichimliklar; 5) mikroblar; 6) viruslar; 7) yog'lar; 8) narkotik moddalar; 9) issiqlik.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 8

B) 2, 3, 5, 7, 8, 9

C) 3, 4, 6, 7, 8, 9

D) 1, 3, 4, 5, 7, 8

**1138.** Qovoq mevasining oq rangi W, sariq rangi Y, yashil rangi y gen bilan ifodalanadi. W gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi. Quyidagi qaysi genotipli organizmlarni chatishtirish natijasida 50% sariq, 50% yashil mevali o'simliklar hosil bo'ladi?

A) wwYy x wwyy

B) WWYy x Wwyy

C) WWYy x wwyy

D) WwYY x Wwyy

**1139.** Agar AaVvSsDd genotipga ega duragay bilan aavvssdd forma chatishtirilsa,  $F_1$  da necha xil genotipli duragay hosil bo'lishi kuzatiladi?

- A) 16 xil            B) 24 xil  
C) 64 xil            D) 8 xil

**1140.** Ikki va undan ortiq allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri natijasida organizmda yangi, ota-onada yo'q belgilar rivojlanishining ta'min etilishi genlarning ... ta'siri deb ataladi.

- A) komplementar  
B) epistatik  
C) polimer  
D) koferment

**1141.** BbDD x Bbdd genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilsa, qanday genotipli duragaylar hosil bo'lishi kuzatiladi?

- A) BbDd, Bbdd, bbDd, bbdd  
B) BbDD, BbDd, Bbdd, bbDd  
C) BBDD, BbDd, BbDd, bbDd  
D) BbDd, bbDd, BbDd, BbDd

**1142.** Diduragay chatishtirishda  $F_2$  da genotip va fenotip jihatdan har xil bo'lgan individlar soni nechta bo'ladi?

- A) 2 – 3 ta            B) 3 – 24 ta  
C) 9 – 4 ta  
D) 16 – 27 ta

**1143.** Triduragay chatishtirishda  $F_2$  da genotiplarning mumkin bo'ladigan kombinatsiyalari soni nechta?

- A) 256 ta            B) 156 ta

C) 225 ta            D) 64 ta

**1144.** Bug'doyda  $A_1A_2$  genlar donning qizil,  $a_1a_2$  genlar esa doning oq rangini belgilaydi. Qizil va oq donli o'simliklar chatishtirilganda  $F_1$  dagi o'simliklarning doni pushti rang bo'ladi.  $F_2$  dagi o'simliklarning doni qizil, och qizil, pushti, och pushti va oq rangli bo'ladi. Och qizil donli o'simliklarning genotipini aniqlang.

- 1)  $A_1a_1a_2a_2$ ; 2)  $a_1a_1A_2a_2$ ; 3)  $A_1A_1a_2A_2$ ; 4)  $a_1A_1A_2A_2$ .  
A) 1, 2            B) 4, 3  
C) 1, 4            D) 2, 5

**1145.** Tirik organizmlar hujayrasining o'rtacha necha foizini organik birikmalar tashkil qiladi?

- A) 80 – 90%  
B) 30 – 40%  
C) 25 – 40%  
D) 20 – 30%

**1146.** Genotipi aabbcc x AabbCc bo'lgan ota-ona organizmlarni o'zaro chatishtirish natijasida  $F_1$  da hosil bo'lgan duragaylar genotipi berilgan qatorni toping.

- A) AaBbCc, AabbCc, aabbCC, aabbCc  
B) AabbCC, AabbCc, aabbCC, aabbCc  
C) AabbCc, aabbcc, aabbCc, Aabbcc  
D) aaBbCc, aabbCc, AabbCC, AabbCc

**1147.** Quyidagi chatishtirishlarning qaysi birida fenotip bo'yicha xilma-xillik 27:9:9:9:3:3:3:1 nisbatda bo'ladi?

- A) AABbCC x aabbcc
- B) AaBb x aabb
- C) AaBbCC x AaBBCC
- D) AaBbCc x AaBbCc

**1148.** Genotipi aaBbCc xaabbcc bo'lgan organizmlar o'zaro chatishtirilsa, qanday genotipli organizmlar vujudga keladi?

- A) aaBbCC, aaBbCc, aabbCC, aabbCc
- B) aabbCC, aabbCc, aabbCC, aabbCc
- C) aaBbcc, aaBBcc, aaBbCc, aabbCC
- D) aaBbCc, aaBbcc, aabbCc, aabbcc

**1149.** Makkajo'xorining so'tasi uzunligi 20 sm va 8 sm uzunlikda bo'lgan ikkita navi chatishtirildi. Agar har bir dominant gen 5 sm, retsessiv gen 2 sm uzunlikni namoyon etsa, u holda  $F_1$  da so'taning uzunligi necha sm bo'ladi?

- A) 20 sm      B) 18 sm
- C) 16 sm      D) 14 sm

**1150.** Namozshomgulning qizil va oq gultojbargli navlari chatishtirilganda 4000 ta o'simlik olindi.  $F_2$  da necha foiz va nechta pushti gultojbargli o'simlik mavjud?

- A) 25%, 1000
- B) 50%, 2000

C) 75%, 2800

D) 81,5%, 400

**1151.** Bug'doyda  $A_1A_2$  genlar bahorgi,  $a_1a_2$  genlar esa kuzgi xususiyatini ifodalaydi.  $A_1A_1A_2A_2$  genotipga ega shakllarda bahorgi xususiyati,  $a_1a_1a_2a_2$  genotipli shakllarda kuzgi belgi kuchli namoyon bo'ladi.  $A_1a_1a_2a_2$  x  $a_1a_1A_2a_2$  organizmlarni chatishtirishda olingan shakllarning genotipini aniqlang.

- A)  $A_1a_1A_2a_2$ ;  $A_1a_1a_2a_2$
- B)  $A_1a_1a_2a_2$ ;  $a_1a_1a_2a_2$
- C)  $A_1a_1A_2a_2$ ;  $A_1a_1a_2a_2$
- D)  $A_1a_1A_2A_2$ ;  $A_1a_1A_2a_2$

**1152.** Fenotip jihatdan 9:7; 9:3:4; 9:6:1; 9:3:3:1 nisbatlar quyidagi chatishtirishlarning qaysi birida kuzatiladi?

- A) AABB x AaBb
- B) AaBb x Aabb
- C) AaBB x AaBb
- D) AaBb x AaBb

**1153.** Organik moddalardan birlamchi uglevodlarning hosil bo'lishida ishtirok etadigan hujayra organoidini belgilang.

- A) ribosoma
- B) mitoxondriya
- C) plastida
- D) yadro

**1154.** Irsiy o'zgaruvchanlikdagi gomologik qatorlar qonuni-ni kim aniqlagan?

- A) N.I.Vavilov
- B) G.de Friz

C) E.Gekkel D) Miller  
1155. Qaysi olim turlararo duragaylarning bepushtligini bar-taraf etish usulini kashf qilgan?

- A) I.P.Pavlov
- B) Nilson Ele
- C) G.D.Karpechenko
- D) N.I.Vavilov

1156. Plazmidning antibiotik parchalovchi genlari bir plaz-middan ikkinchisiga nimaga birikkan holatda ko'chib o'tadi?

- A) kallus to'qima
- B) endonukleozalar
- C) restriktazalar
- D) transpozonlar

1157. O'simlik tanasida shish hosil qiluvchi plazmid geno-mining bo'lagini aniqlang.

- A) t-DNK
- B) t-RNK
- C) pBR 322
- D) i-RNK

1158. Qaysi olim g'o'za kol-leksiyasini yaratishda katta xiz-mat qildi?

- A) S.Mirahmedov
- B) O.Jalilov
- C) N.Nazirov
- D) J.Musayev

1159. Quyidagilardan qaysi biri R-shtammning S-shtamm-ga transformatsiya bo'lishida qatnashadi?

- A) i-RNK
- B) oqsil
- C) DNK
- D) DNK va RNK

1160. Makkajo'xorida ir-siy belgilarni tadqiq etish jara-yonida bir joyda muntazam ra-vishda joylashmay, balki o'z joyini o'zgartirib turadigan bir guruh genlar majmuasini kashf etgan olim kim?

- A) J.Bishop
- B) A.Buxoriy
- C) G.Georgiyev
- D) B.Mak-Klinton

1161. G'oz va o'rdakni bi-rinchi bo'lib xonakilashtirgan mamlakatni belgilang.

- A) Xitoy B) Misr
- C) Hindiston
- D) Gretsiya

1162. Jigarda rak xastaligini chaqiruvchi virus qaysi?

- A) NBB
- B) poliedr
- C) rizofera
- D) NCB, NBB

1163. Bakteriya va tuban eukariotlar hujayralarida aso-siy xromosomadan tashqari qo'shimcha xromosomachalar mavjud. Bu qo'shimcha mayda xromosomalar nima deb atala-di?

- A) klonlar
- B) transpozonlar
- C) restriktazalar
- D) plazmidlar

1164. Sun'iy sharoitda lim-fotsit hujayrasi bilan cheksiz va tez bo'linuvchi rak hujayrasi-ni bir-biriga qo'shish natijasida olingan hujayra nima deyiladi?

- A) kallus to'qima
  - B) gibridoma
  - C) vektor konstruksiya
  - D) genlarni klonlash
- 1165.** Misrliklar xonakilashtirgan hayvonlarni aniqlang.

1) mushuk; 2) bir o'rkachli tuya; 3) echki; 4) qo'y; 5) g'oz; 6) o'rdak.

- A) 1, 3, 4
- B) 2, 5, 6
- C) 3, 4, 5
- D) 1, 3, 5

**1166.** G'o'zaning «Yulduz» navi qaysi olimlar tomonidan kashf qilingan?

- A) N.Nazirov, O.Jalilov
- B) S.Mirahmedov, M.Mirzaev
- C) S.Mirahmedov, A.Abdulloyev
- D) D.Abdukarimov, M.Bushev

**1167.** Yuksak hayvonlar klonlarini yaratish biotexnologiyasi nechanchi yilda kim tomonidan ishlab chiqildi?

- A) 1965-yilda S.Kanash
- B) 1928-yilda Griffit
- C) 1970-yilda Z.Ledenberg
- D) 1977-yili J.Gerdon

**1168.** Qaysi usuldan foydalanib gibridoma hujayralar olish biotexnologiyasi kashf etildi?

- A) gen injeneriyasi
- B) xromosoma injeneriyasi
- C) hujayra injeneriyasi
- D) DNK tuzilishini o'rganish

**1169.** Nima asosida monoklonal antitanalar olish biotexnologiyasi kashf etildi?

- A) restriktazalar

- B) genlarni klonlash
- C) restriktaza va ligaza fermentlari

D) gibridoma texnologiyasi

**1170.** 1975-yili qaysi olimlarning xizmatlari tufayli sun'iy sharoitda antitana sintez qiluvchi hujayraning cheksiz ko'payishiga erishildi?

- A) J.Gerdon, Lui Paster
- B) Griffit, O.Everi
- C) Boyer, Koen
- D) Keler, Mihshteyn

**1171.** Sabzavot ekinlari qaysi markazdan kelib chiqqan?

- A) Hindiston
- B) O'rta yer dengizi
- C) Janubiy Osiyo
- D) Habashiston

**1172.** Kofe qaysi markazdan kelib chiqqan?

- A) Janubiy Amerika
- B) Shimoliy Amerika
- C) O'rta yer dengizi
- D) Absissiya

**1173.** Akademiklar Nabijon Nazirov va Oston Jalilov tomonidan g'o'zaning qaysi navlari yaratildi?

- A) Toshkent – 1, Toshkent – 2, Toshkent – 3
- B) Samarqand – 3
- C) Omad, Yulduz
- D) AN – 402, Samarqand – 3, Yulduz

**1174.** Qaysi ozuqa muhitida vismut-sulfat ta'sirida salmonella bakteriya avlodi rivojlantiradi va ko'payadi, dizenteriya

kasalligini qo'zg'atuvchi bakteriyalarning esa o'sishi va rivojlanishi susayadi?

- A) boyitilgan muhit
- B) oddiy ozuqa muhiti
- C) sintetik oziq muhit
- D) selektiv muhit

**1175.** Achitqilarning antibiotik va zaharli toksinlarga chidamliligini ta'minlovchi xromosomalarni toping.

- A) restriktazalar
- B) plazmidlar
- C) transpozonlar
- D) gibridomalar

**1176.** Transformatsiya (I) va transduksiya (II) jarayonlari qaysi olimlar tomonidan kashf etilgan?

- 1) N.Jinder va Z.Ledenberg;
- 2) J.Bishop va A.Buxoriy;
- 3) Boyer va Koen;
- 4) Griffit.

- A) I-4; II-1
- B) I-3; II-1
- C) I-2; II-1
- D) I-4; II-2

**1177.** DNK molekulasi ni mayda bo'laklarga bo'luvchi fermentlar qanday nomlanadi?

- A) kesuvchi transpozonlar yoki transduksiyalar
- B) kesuvchi endonukleazalar yoki restriktazalar
- C) endonukleaza yoki transpozonlar
- D) transpozonlar yoki plazmidlar

**1178.** Tabiatda uchramaydigan gibrid hujayrani kashf qilgan olimlarni toping.

- A) Keler va Milshteyn
- B) J.Gerdon va Keler
- C) Boyer va Koen
- D) Koen va O.Everi

**1179.** Mamlakatimizda odatdagiga nisbatan yirik va tez o'suvchi transgen quyon qanday olindi?

- A) ikkita hujayrani qo'shish asosida
- B) gibridoma asosida
- C) zigotaga poliedr virus kiritish asosida
- D) zigotaga o'stiruvchi gormon kiritib

**1180.** Quyidagilardan qaysi birini asos hujayralarni A vitaminli muhitda o'stirish natijasi-da olish mumkin?

- A) irsiyati o'zgargan hujayralarni
- B) muskul to'qimalarini
- C) suyak va tog'ay to'qimalarini
- D) nerv to'qimalarini

**1181.** Qaysi to'qimalar uchun «yangi» organlar yaratish texnologiyasi juda qo'l keladi?

- A) o'pka, jigar, tog'ay
- B) teri, pay, tog'ay
- C) yurak, jigar, buyrak, nerv
- D) nerv, ichak, buyrak

**1182.** 1997-yili kim qo'ying klonini yaratgan?

- A) shotlandiyalik olim Roslin
- B) angliyalik olim Gyordon
- C) amerikalik olim Tomson
- D) shved olimi S.Arrenius

**1183.** Akademik J.H.Hamidov genetik injeneriya sohasida qanday ilmiy ish olib bordi?

A) g'o'zaning viltga chidamli navini kashf qildi

B) g'o'za va bug'doyning gerbitsitga chidamli navini kashf qildi

C) quyon zigotasiga o'stiruvchi gormon kiritib transgen quyon kashf qildi

D) ko'sak qurtiga chidamli g'o'za navini kashf qildi

**1184.** G'o'za va bug'doy navlariga gerbitsidga chidamlilik xossasini beruvchi gen kiritib transgen bug'doy va g'o'za formalarni kashf qilgan olimlarni aniqlang.

